

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ANDIJON MUHANDISLIK-IQTISODIYOT
INSTITUTI**

Q. Yo‘ldoshev, Q. Muftaydinov, V. Abdurahmonov

**IQTISODIY TA‘LIMOTLAR
TARIXI**

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus
ta‘lim vazirligi tomonidan
bakalavriyat yo‘nalishi talabalari uchun
darslik sifatida tavsiya etilgan*

Toshkent
«IQTISOD-MOLIYA»
2006

Ushbu darslik «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fani bo'yicha chiqqan o'quv adabiyotlaridan o'zining tarkibiy tuzilmasi va mazmuni jihatidan ajralib turadi. U milliy g'oyamiz va istiqlol mafkurasini uning tarixiy, milliy manbalaridan biri bo'lgan Sharq, xususan, o'zbek milliy iqtisodiy qadriyatlarimiz vositasida yoshlarimiz ongiga singdirishga qaratilgan. Darslikda «Avesto» iqtisodiy g'oyalari, islom iqtisodiy qadriyatlari, Uyg'onish davri O'rta Osiyo, Amir Temur va temuriylar davri iqtisodiy g'oyalari, XIX asr oxiri- XX asr boshlari o'zbek iqtisodiy ta'limotlarini yoritishga asosiy urg'u berilgan.

Kitob iqtisodiy oliy o'quv yurtlari va fakultetlari talabalari, aspirant va tadqiqotchilar, milliy iqtisodiy ta'limotlarimizni o'rganishga qiziquvchi kitobxonlar uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir: iqtisod fanlari doktori, professor **Abdulaziz Sotvoldiyev**

Taqrizchilar: **A.Abdullayev** - Andijon muhandislik iqtisodiyot instituti professori, iqtisod fanlari doktori

Sh. Abdullaev Andijon Davlat Tillar pedagogika instituti, «Iqtisodiyot nazariyasi» kafedrası dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi

Q. Yo'ldoshev, Q. Muftaydinov, V. Abdurahmonov

Iqtisodiy ta'limotlar tarixi: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik/ Q. Yo'ldoshev, Q. Muftaydinov, V. Abdurahmonov; Mas'ul muharrir: A. Sotvoldiyev; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, **Andijon muhandislik-iqtisodiyot instituti**. T.. «IQTISOD—MOLIYA», 2006 y. 188 bet.

ББК 65.02 я73

KIRISH

Mustaqil rivojlanishimizning hozirgi bosqichida milliy g'oya va istiqloq mafkurasini shakllantirish, xalqimizga, xususan, yoshlarimiz ongiga uni singdirish ustoz-olimlar oldida turgan dolzarb vazifa qilib qo'yilmoqda. Zotan, istiqloq g'oyasi va mafkurasi, Prezidentimiz uqtirayotganidek, xalqimizni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtiradi, har bir fuqaroni Vatan taqdiri, baxt-saodati uchun mas'ullikka undab, yoshlarimizni buyuk ajdodlarimiz va milliy qadriyatlarimiz ruhida komil inson bo'lib yetishishtirishga yo'naltirilgan.

«Shu bilan birga, - deb ta'kidlaydi I. Karimov, - men milliy istiqloq g'oyasi bugungi tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan tahlikali dunyoda o'zligimizni anglash, bizning kimligimizni, qanday ajdodlarning merosiga, necha ming yillik tarix, betakror madaniyat va qadriyatlarga ega ekanligimizni his etib olishga, bu boyligni asrab-avaylab, demokratik qadriyatlar, butun jahon taraqqiyoti yutuqlari bilan oziqlantirilib, yangi o'sib kelayotgan avlodga xizmat qilmog'i zarur, deb bilaman!»

Davlatimiz rahbari qo'yan ana shunday mas'uliyatli vazifani bajarishda ijtimoiy fanlar sohasidagi o'quv darsliklari va qo'llanmalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Tabiiyki, bunday vazifa «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fani darsliklari va boshqa o'quv adabiyotlari oldiga ham qo'yilmoqda.

Prezidentimiz Respublika Oliy Kengashining IX sessiyasida «Ta'lim haqidagi qonun» va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» qabul qilinishi munosabati bilan so'zlagan nutqida shunday degan edi: «Eski qolipda mustabid davrda yozilgan darsliklardan foydalanib, eski mafkuradan xalos bo'lmadan bolalarimizni yangicha fikrlashga o'rgatolmaymiz, axir. Buni barchamiz tushunishimiz, anglashimiz darkor».

Demak, milliy qadriyatlarimizni, buyuk ajdodlar avlodi bo'lgan millat ekanligimizni, o'zligimizni anglatadigan, milliy g'urur va buyuk tariximiz bilan haqli ravishda faxrlanish tuyg'usini uyg'otadigan darslik va qo'llanmalar yaratilishi hayotiy zarurat bo'lib qoldi. Boshqa ijtimoiy fanlarda bo'layotganidek, «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fanida ham ana shunday

¹ Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushunchalar va tamoyillar - T., "O'zbekiston", 2000, 7- bet.

² Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyoti poydevori. T., "O'zbekiston" 1998, 8 - bet.

milliy darsliklar yaratish vaqti allaqachon kelgan edi. Ana shu ijtimoiy-siyosiy zaruratdan kelib chiqib, mualliflar ushbu asarni yaratishga jazm qildilar.

Ushbu «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» darsligi Rossiyada shu fan bo'yicha chop etilgan, o'zimizda nashr etilgan ba'zi darsliklardan ham tarkiban, ham mazmunan tubdan farq qiladi. Kitobning o'ziga xos jihatlari shundaki, birinchidan, u mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan va taklif etilgan dastur asosida muqobil darslik sifatida yozildi; ikkinchidan, Sharq iqtisodiy ta'limotlariga asosiy o'rin berildi; uchinchidan, ilgarigi darsliklarda uchramagan mavzular- «Avesto»ning iqtisodiy g'oyalari, Islom iqtisodiy qadriyatlari, Jadidlarning iqtisodiy ta'limotlari, Uyg'onish davri O'rta Osiyo va temuriylar davri o'zbek milliy iqtisodiy qadriyatlari munosib o'rin oldi; to'rtinchidan, «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fani predmeti va uni o'rganish uslubiyati birinchi marta maxsus mavzu qilib muqaddima sifatida berildi. Boshqacha aytganda, taklif qilinayotgan ushbu asar matnining katta qismi milliy g'oya va mafkuramiz ruhiga mos tushadi va uning talablarini aks ettiradi. Oliy o'quv yurtlarida tayyorlanayotgan iqtisodchi mutaxassis kadrlarni milliy g'oya va mafkuramiz ruhida tarbiyalanishiga o'zining ma'lum hissasini qo'shadi, deb o'ylaymiz.

Ushbu kitobning islom iqtisodiy qadriyatlari bobini yozishda iqtisod ilmining bilimdonlaridan biri bo'lgan professor **Abdumajid Abdullayev** bergan materiallardan ham foydalanildi. «Klassik siyosiy iqtisod va XIX asr oxiri- XX asr boshlari o'zbek milliy iqtisodiy tafakkuri» boblarini yozishda tadqiqotchi Rustamjon Rahimov ham ishtirok etdi. Shuningdek, ushbu fan bo'yicha o'quv adabiyotlarini yozgan texnika fanlari doktori, professor A. Razzoqovning ilmiy ishlaridan ham foydalanildi.

Albatta, ushbu kitob ma'lum kamchilik-nuqsonlardan holi emas. Shuning uchun kitobda yo'l qo'yilgan va aziz hamkasblarimiz e'tiboriga noil bo'lgan nazariy va uslubiy kamchiliklar haqidagi fikr-mulohazalar tadqiqotlarimizning bundan keyin ham davom etishi va takomillashuviga yordam qiladi, degan umiddamiz. Agar ushbu darslik talaba yoshlarimiz, barcha o'quvchilarimiz iqtisodiy tafakkurini boyitishga, milliy o'zligimizni anglash, milliy g'urur va iftixor tuyg'usini uyg'otishda ozmi-ko'pmi xizmat qilsa mualliflar o'zlarining mehnatlari zoye ketmaganidan mamnun bo'ladilar.

I bob «IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI» FANI PREDMETI VA UNI O'RGANISH USLUBLARI

1. «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fanining iqtisodiy fanlar tizimidagi o'rni va predmeti

Kishilik jamiyati shakllangan davrdan to bugunga qadar odamlar o'z turmush tarzining moddiy asosi bo'lmish xalq boyligini ko'paytirish muammosini hal etishga urinib kelmoqdalar. O'tmishning eng buyuk shohlari, sarkardalari, tadbirkorlari va allomalari o'z zamonlarining iqtisodiy muammolarini hal etishga sa'y-harakat qilishgan. Ularning ta'limotlarida aksini topgan iqtisodiy voqelik muayyan davrgagina daxldor emas, balki hozirgi davrlarga ham qisman taalluqlidir. Zotan, o'tmishni o'rganish, avvalo, hozirgi kun, kelajak uchun katta ahamiyat kasb etadi. Alalxusus, iqtisodiy ta'limotlar tarixini tadqiq qilishning tarbiyaviy jihatlari ham bor.

«Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» iqtisodiyot fanining faktologiya va metodologiya asoslarini ta'minlovchi fan sifatida ahamiyatli. Zero, bu fan iqtisodiyot fanining ajralmas va tarkibiy qismidir.

Hozirgi davrda iqtisodiyot har bir inson hayotiga jo'shqinlik bilan kirib bormoqda va odamlar iqtisodiyot to'g'risida imkoni boricha ko'proq bilishga intilmoqdalar. Shunday ekan, iqtisodiyot fanini o'rganishni nimadan boshlamoq kerak, degan savol tug'ulishi tabiiy.

Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanlar tizimida katta o'rin tutadi. U «Iqtisodiy nazariya»ni to'ldirish bilan birga, ma'lum mustaqil vazifa ham bajaradi. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi iqtisodiy ta'limda, iqtisodchilar tayyorlashda, ularning malakasini shakllanishida ham muhim o'rin tutadi.

Bundan kelib chiqadiki, iqtisodiy bilimlarning shakllanishi va rivojlanishi tahlili butun ijtimoiy taraqqiyot jarayoni, quldorlik tuzumidan boshlab barcha tarixiy davrlarni o'z ichiga oladi.

«Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fan sifatida kishilik jamiyati taraqqiyotining asosini tashkil etuvchi iqtisodiy tizimlarning shakllanish tarixini aks

ettiradi, hozirgi zamon iqtisodiy konsepsiyalarining mazmun-mohiyatini ifodalab beradi.

«Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fani predmeti insoniyat taraqqiyotini turli bosqichlarida iqtisodiy bilimlar, g'oyalar, qarashlar, ilmiy konsepsiyalarning vujudga kelishi, ularning kurashi, almashuvi, iqtisodiy tafakkurdan o'rin topib borishi, bugungi iqtisodiy qadriyatlar qanday bosqichlardan o'tib, sayqallanganini bildiradi.

2. «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fanini o'rganishning zaruriyati, ahamiyati va vazifalari.

Iqtisodiy bilimlar bilan jamiyat iqtisodiyoti orasida bevosita aloqa mavjud. Ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati juda katta.

Iqtisodiy bilimlar iqtisodiyotda yuz beradigan jarayonlarni aks ettiradi, ijtimoiy taraqqiyotni tezlashtirish yoki sekinlashtirish yo'li bilan ularga ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, ko'plab konsepsiyalar (masalan, neoklassik yoki Keyns konsepsiyasi) davlat iqtisodiy dasturlari uchun asos bo'lgan.

Iqtisodiy taraqqiyot jarayonida iqtisodiy bilimlar ham o'sishda va o'zgarishda bo'ladi. Shu bilan birga, iqtisodiy bilimlar tarixi hozirgi zamon bilan uzviy bog'liq. Bu hal qilinayotgan masalalarning muhimligi va ahamiyatini belgilanib, «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fanining muhim belgilaridan birini bildiradi.

O'tgan davrdagi iqtisodiy g'oyalar tahlili yetarli darajada bo'lmagani sababli, ularni tanqidiy va ijodiy o'rganish lozim bo'ladi.

Shaxsiy va ijtimoiy farovonlik masalasi tarixiy, iqtisodiy, falsafiy, ijtimoiy, statistik va boshqa tadqiqotlarda asosiy o'rin egallagani uchun ular fundamental, kompleks ijtimoiy-iqtisodiy va falsafiy masala hisoblanadi. Farovonlik masalalari bo'yicha A. Smit, L. Valras, K. Menger, V. Pareto, J. Gobson, P. Samuelson, J. Gelbreyt, U. Rostoy, E. Xansen, G. Myrdal, G. Jentis, J. Sismondi, N. G. Chemishevskiy va boshqalarning konsepsiyalari mavjud. Ko'pgina iqtisodchilar iqtisodiy faoliyat va davlat faoliyati uchun shaxs va jamiyat farovonligi asosiy maqsaddir, deb ta'kidlaydilar. Ular farovonlik va uning jamiyatdagi yutuqlarga erishish yo'llarini «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fanini o'rganish zarurati bilan bog'laydilar.

«Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fanining o'ziga xos o'rganish xususiyatlari mavjudligidan uning o'z oldiga qo'yadigan ilmiy muammolari ham o'ziga xosdir. U tarixiy iqtisodiy fan bo'lib, ularning dialektikasini tavsiflaydi.

«Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» kursi quyidagi masalalarga e'tiborni qaratadi:

birinchidan, «Iqtisodiyot nazariyasi»dan olingan tafakkurni mustahkamlab, ularni yanada chuqurlashtirish, iqtisodiyot taraqqiyot o'rtaga qo'yayotgan muammolarga yechim topishni osonlashtirish;

ikkinchidan, «Iqtisodiyot nazariyasi» fanidagi kategoriyalar va qonunlarning mazmun-mohiyatini tushunish va amal qilish mexanizmini o'rganib olish;

nchinchidan, iqtisodiy qarashlardagi turlicha mushohadalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali ilmiy haqiqatga intilish;

to'rtinchidan, turli davrlarda yaratilgan, biroq bugungi kunda o'z ahamiyatini yo'qotgan nazariyalarni tanqidiy baholab, ularning tub mohiyatini ochib berish;

beshinchidan, turli davrdagi iqtisodiy ta'limotlarni o'rganib, bugungi ijtimoiy –iqtisodiy muammolar yechimiga yaroqli ilmiy g'oyalarni ilgari surish.

Yuqoridagi mulohazalarga suyanib, ushbu fanning vazifalarini quyidagilarda ko'rish mumkin:

iqtisodiyot tarixida amal qilgan, qo'llanilgan qonunlarning kelib chiqishini tushuntirib berish, ularning genezisini o'rganish;

- qadimgi Rim, Sharq va G'arb iqtisodiy g'oyalarni tushuntirib, ularning taqqoslab hamda o'ziga xos jihatlarini ochib berish;

iqtisodiy kategoriyalarning vujudga kelishini, mazmunan boyib borishi, u yoki bu iqtisodiy davrlardagi qo'llanishi xususiyatlarini, ijtimoiy shakllarini asoslash;

- «Iqtisodiyot nazariyasi» va boshqa iqtisodiy fanlarni chuqurroq o'rganishga yordam berish;

- u yoki bu davr ta'limotlarining milliy g'oyamiz va mafkuramizga qay darajada muvofiq kelishini aniqlash va baho berish.

3. «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fanining o'rganish uslublari

«Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fani predmeti ustida mulohaza yuritar ekanmiz, u naqadar uzoq tarixga, qanchadan-qancha ilmiy qarashlar, g'oyalar, ta'limotlar va konsepsiyalarning paydo bo'lishi, ma'lum tarixiy davrda qo'llanilganligi, yangi qarashlarga duch kelgani o'zining yashovchanligini isbotlashga harakat qilganligiga mantiqan guvohlik beramiz. Darhaqiqat, «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fani juda ham murakkab munosabatlarni turli tarixiy davrlarda tadqiq etgan, ularning eng muhimlarini,

o‘z davri uchun yaroqlilarini ajratib olgan, himoya qilib kelgan. Shunday ekan uning predmetini chuqur o‘rganish, tabiiyki, umummilliy, o‘ziga xos tadqiqot va tahlil uslublarini qo‘llashni taqozo etadi.

«Iqtisodiyot nazariyasi» darsligining mualliflari Sh. Shodmonov, R. Alimov, T. Jo‘rayevlar fan predmetini o‘rganish uslubiyati haqida shunday yozadilar: «Uslubiyat — bu ilmiy bilishning tamoyillari tizimi, yo‘llari, qonun-qoidalari va aniq hodisalardir. Bu obyektiv maqbullikni bilish dialektikasi, mantiq va nazariyasini o‘z ichiga oluvchi bir butun ta‘limotdir. Uslubiyat umummilliy tavsifga ega, lekin har bir fan o‘zining predmetidan kelib chiqib, o‘zining ilmiy bilish usullariga ega bo‘ladi. Shuning uchun uslubiyat umummilliy va ayni vaqtda xususiy bo‘ladi¹».

Shuni aytish kerakki, «Iqtisodiy ta‘limotlar tarixi», eng avvalo, «Iqtisodiyot nazariyasi» bilan chambarchas bog‘liq fandır. Zero, uning predmeti iqtisodiyot nazariyasida qo‘llanilgan iqtisodiy qonunlar va iqtisodiy kategoriyalarning mohiyatini, ularning kim va qachon ochib bergani, qanday tarixiy sharoitda vujudga kelganligini, qanday munozaralar, ilmiy bahslar orqali fanga kirib kelganligini tavsiflaydi. Bundan xulosa shuki, «Iqtisodiyot nazariyasi»ni o‘rganishga jalb etilgan uslublar «Iqtisodiy ta‘limotlar tarixi» fani uchun ham mosdir.

«Iqtisodiy ta‘limotlar tarixi» fanini o‘rganishda keng qo‘llaniladigan uslublardan biri-mantiqiylik va tarixiylik birligi usulidir. Iqtisodiy ta‘limotlar, konsepsiyalar, g‘oyalar ma‘lum tarixiy sharoitlarda yuzaga keladi. Biroq ularning o‘sha tarixiy iqtisodiyot davr ruhini ilmiy aks ettirish mantiqiy yondashuvni taqozo etadi. Bu yerda tarixiylik mantiqiy yondashuvni inkor etmaydi, bir-biriga qarshi turmaydi. Masalan, qiymat kategoriyasi haqida turli tarixiy davrlarda turlicha talqinlar bayon qilingan edi. Biroq, ularning zamirida qiymatning tovar ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabat ekanligi to‘g‘risidagi tavsifi mantiqan maqbul g‘oyadir, boshqa fikrlar esa shuning atrofida talqin qilinadi.

«Iqtisodiy ta‘limotlar tarixi»ni o‘rganishda «materialistik emprizm» usulidan keng foydalaniladi. Emprizm-fikrlar, tajriba, iqtisodiy tahlilning boshlang‘ich, iqtisodiy taraqqiyot qonunlarining amal qilish bazasidir. Ko‘pgina iqtisodiy g‘oyalarni o‘rganishda o‘sha tarixiy davr faktlarini to‘plash, ularni umumlashtirish asosida xulosa chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni chog‘da, arxeologik qazilmalar tufayli olingan ma‘lumotlar, eksponatlar ham u yoki bu iqtisodiy g‘oyalarni, qarashlarni bilib olishga xizmat qiladi. Demak, olingan aniq axborot materiallari u yoki bu iqtisodiy ta‘limotning tarixiy jihatlarini bilib olishga yordam beradi.

¹ Iqtisodiyot nazariyasi, darslik. T «Moliya», 2002. 29 – bet.

«Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fanini o'rganishda eksperiment-tajriba usuli ham qo'l keladi. Zero u yoki bu iqtisodiy ta'limotning qanchalik hayotiy, amaliyot uchun, samarali xo'jalik faoliyatini tashkil etish uchun yaroqli-ligini bilib olishda eksperiment usulga asoslanish mumkin. Masalan, Prezidentimizning O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish konsepsiyasi mamlakatimiz misolida 90-yillar boshlaridanoq xususiylashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish tarzida o'rganiladi. Endilikda esa O'zbekiston tajribasi ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan andoza sifatida e'tirof etilmoqda.

Ushbu fanni tadqiq etish va uni o'rganishda ilmiy abstraksiya usulining ahamiyati ham muhimdir. Gap shundaki, iqtisodiy munosabatlar, g'oyalar, qarashlar, qonun va kategoriyalar shu qadar ko'p, rang-barang, mazmun va shakl jihatidan turlicha darajadadirki, ularni birdaniga, bir vaqtda bilib olish mumkin emas. Bunday sharoitda ana shu murakkab ichki sabab-oqibatli, bog'lanib ketgan iqtisodiy g'oyalar ichidan biz uchun hozirgi damdagi ilmiy ehtiyojimizni qondirish uchun eng muhimi va keraklisini ajratib olish ilmiy bilishning dolzarb masalasiga aylanadi. Ilmiy abstraksiya usuli aynan o'rganilayotgan voqealikdan tashqi ta'sirni hisobga olmay, predmetning asosiy mohiyatini ifodalaydigan tomonni ajratib olishga xizmat qiladi. Fanni o'rganuvchi shaxs asosiy yetakchi g'oyani-ta'limotni ajratib olib, uning yordamida boshqa ikkinchi, uchinchi h. k. qarashlar mohiyatini bilib oladi. Pirovard oqibatda barcha iqtisodiy ta'limotlar, g'oyalar, qarashlar bir butun majmua, tizim tarzida anglab olinadi, tafakkurga joylashtiriladi.

Yuqorida e'tirof etilgan ilmiy bilish usullari yordamida «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» predmeti aniqlashtiriladi, uning tarkibiy tuzilmasi ishlab chiqiladi. Ushbu darslikni yozishda ham umummilliy, ham xususiy bilish usullariga yondashilib, uning tarkibi tuziladi. Biz «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fanini o'rganishni aynan «Avesto» iqtisodiy g'oyalaridan boshlashni lozim topar ekanmiz, bunda tarixiylik va mantiqiylik birligi, materialistik empirizm, ilmiy abstraksiya usullari talablaridan kelib chiqdik. Boshqa mavzularning dialektik bog'liqlik masalasida ham yuqoridagi mulohazaga asoslandik.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fanining iqtisodiy fanlar tizimidagi o'rnini tushuntirib bering.
2. «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fanining predmeti to'g'risidagi ta'riflarini ayting.
3. «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fanini o'rganish zarurligi va uning ahamiyati nimadan iborat?
4. «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fanining asosiy vazifalari nima?
5. «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fanini o'rganish uslublari haqida tushuncha bering.

II bob «AVESTO» NING IQTISODIY G‘OYALARI

1. O‘zbekiston – ilk iqtisodiy ta’limotlar Vatani

Odatda, eramizgacha yaratilgan va bizgacha yetib kelgan iqtisodiy g‘oyalar, qarashlar, fikrlar, mulohazalar «qadimgi iqtisodiy ta’limotlar» deb ataladi. «Iqtisodiy ta’limotlar tarixi»ga oid ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlarda, qadimgi iqtisodiy g‘oyalar, avvalo, Misr, Gretsiya, Rim, Hindiston va Xitoy kabi makonlarda yaratilgan, keyingi davrlarda esa bunday ta’limotlar G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida rivojlangan, deb ta’riflanadi. Bunday dunyoqarash XXI asr boshlarigacha saqlanib keldi, to‘g‘rirog‘i, bunday fikr «Avesto» asarining Prezidentimiz I. Karimov tashabbusi va YUNESKO homiyligida 2700 yilligi xalqaro darajada tantana qilinguncha, «Avesto» kitobining «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati tomonidan (2002- yil) akademik nashri chop etilib, uni iqtisodiy jihatlarini maxsus tadqiq qilinguncha davom etdi, deyish mumkin.

Shu narsa ham ayonki, «Avesto» haqida butun dunyo miqyosida mingdan ortiq turli shakllarda ilmiy ishlar e’lon qilingan. Biroq, ular asosan rus va Yevropa xalqlari tillarida nashr etilgan bo‘lib, ularda falsafiy, ma’rifiy, diniy, etnografik, tibbiyot, tabiat va ekologiya masalalariga e’tibor qaratilgan edi.

«Avesto» asarining bebaho qiymati va ahamiyati haqida Prezidentimiz o‘zining ushbu kitob yaratilganligining 2700 yillik tantanalarida so‘zlagan nutqida shunday degan edi: *«U bundan 30 asr muqaddam mana shu mo‘tabar zaminda yashagan ajdodlarimizning aql-zakovati va qalb nuri bilan yaratilgan, ikki ming teriga tilla suvi bilan bitilgan noyob tarixiy yodgorlikdir.»*

Ushbu nodir kitob biz yashab turgan tuproqda buyuk davlat, buyuk madaniyat, buyuk ma’naviyat bo‘lganidan guvohlik beruvchi bebaho tarixiy hujjat bo‘lib, ming yillar, asrlar davomida ajdodlarimiz uchun ma’naviy-ruhiy tayanch, cheksiz kuch-quvvat manbasi bo‘lib kelgan. Ayni chog‘da, «Avesto» nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun G‘arb olamida ham ilmu fan va falsafiy tafakkur rivojiga bebaho, salmoqli hissa qo‘shgan asardir!» Ushbu asar bugungi kunda mamlakatimizda milliy g‘oya va istiqloq mafkurasini shakllantirishning muhim ilmiy-ma’rifiy manbasi sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Asarni «Iqtisodiy ta’limotlar tarixi» fani nuqtayi nazaridan tadqiq etish ham muhimdir. Asarning o‘rganish asosida shunday

¹ Karimov I. Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal, «O‘zbekiston ovozi», 2001, 6-noyabr

xulosaga keldikki, birinchidan, unda eng qadimgi dunyo iqtisodiy ta'limotlari O'zbekistonning zaminida ilk bor vujudga kelganligiga to'la ishonch hosil qilinadi, ikkinchidan, unda ilgari surilgan g'oyalar, garchi ularning tarixi 3000 yildan ham avvalroqqa borib taqalsa-da, bugungi iqtisodiy islohotlarimiz g'oyalari bilan, o'tkazilayotgan iqtisodiy siyosati-miz bilan ramziy hamohang ekanligiga iymonimiz komil bo'ldi.

Darhaqiqat, «Avesto»da mamlakatimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar bilan, umumiy iqtisodiy qadriyatlarimiz bilan hamohang bo'lgan bir qator iqtisodiy qarashlar bayon etilgan. Asarda uch ezgulik g'oyasi ilgari surilgan bo'lib, ularning birlamchisi halol va unumli mehnat qilish, yaratuvchilik amali eng oliysidir. Kitobda ijtimoiy mehnat taqsimoti g'oyasi ilgari surilib, u qadimgi dunyoda ijtimoiy mehnat taqsimotining real va samarali shakli «jamo bo'lib ishlash» ekanligi uqtiriladi. Prezidentimizning ta'kidlashicha, «jamo bo'lib ishlash» g'oyasi «Avesto» ning eng qimmatli qadriyatlaridan biridir.

Kitobda yoshlarning kasb-hunar egallash, oila qurish va uning iqtisodi g'oyalari ham pishiq-puxta ishlangan iqtisodiy ta'limotlardan biri ekanligini alohida qayd etish lozim.

«Avesto»dagi mulkdor bo'lish, mulkdorlik mas'uliyati va manfaati g'oyasi ham, aytish mumkinki, fundamental ishlangan iqtisodiy qarashlardandir. Asarda ehtiyotlar masalasi, ularning qondirilish vositalari haqidagi qarashlar ham g'oyat qimmatlidir.

Bugungi eng dolzarb ilmiy-uslubiy masalalardan biri «Avesto»dagi ana shu va boshqa iqtisodiy fikrlarni ma'lum tizimga solish, ularni «Iqtisodiyot nazariyasi», «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi», «Mehnat iqtisodi» va boshqa iqtisodiyot fanlari predmetlariga kiritish, yoshlarimizni «Avesto»dagi iqtisodiy g'oyalar bilan tarbiyalashdir.

2. Ezgulik va iqtisodiyot birligi g'oyasi

«Avesto» kitobining «*Birinchi qo'shiq*» idayoq *zardushtiylik dinining bosh mantig'i, falsafasi bayon etiladi, ya'ni odamzod hayoti yaxshilik va yomonlik bilan bog'langanligi, uning qaysi birini tanlab, e'tiqod qilib yashashi uning har ikki dunyosini belgilab beruvchi ma'naviy bir omil ekanligi haqida yoziladi. Kitob ana shu ikki narsaning mohiyatini bayon etishdan boshlanadi.*

«Ey, hushyorlar!

Quloqlaringiz bilan puxta eshitingiz, eng ezgu kalomlarni va yorug' niyat bilan — xoh er, xoh ayol — har biringiz nazar tashlangiz, to buyuk hodisa

ro'yi bermasdan va odamlarimiz so'nggi manzilga yetmasdan ikki yo'ldan birini o'zingizga ixtiyor etingiz-da, bu kalomlarni o'zgalarga ham yetkazingiz!

Ibtidoda bu ikki tug'ushgan-hamzodlar andisha, kalom va amalda biri-ezgulik, biri-yomonlik, o'zaro suhbat qurdilar.

Bu ikkidan biri-ya'ni ezgulikni undan ogohtar, yomonlikni esa noogohlar tanladilar!¹»

Ezgulikni, yaxshilikni tanlagan odamlar bunyodkorlik, dehqonchilik bilan, chorva hayvonlarni boqish bilan, ijodiylik bilan, borliqni yanada yashnatish, gullatish bilan shug'ullanadilar; bunday odamlar o'zlarining har ikki dunyosini ezgulik bilan boyitadilar, har ikki dunyo saodatini topadilar.

Asarda dunyoni yaratuvchi buyuk Zotga erishmoq uchun, uning hurmatini topmoq uchun haqiqat, tinchlik va farovon hayotga intilmoq zarurligi uqtiriladi. Buning uchun dehqonchilik qilmoq, yerni e'zozlamoq, unga ishlov bermoq, uni zararsizlantirmoq, chorva hayvonlarini parvarishlamoq, ularni ko'paytirmoq lozim.

«Kimda kim bug'doy ekasa, -deyiladi asarda, u Ashahni (haqiqatni) ekadi. U Mazda dinini yana ko'kartiradi, u Mazda dinini yuzlab hamd-u sano, nazr-u niyoz va o'n minglab qurbonliklar bilan qudratli qiladi.

Qachonki egatlarda urug' yetilsa, devlar o'rinlaridan qo'padilar.

Qachonki bug'doy gurkirab ko'karsa, devlar dahshatdan titray boshlaydilar.

Qachonki bug'doy un bersa, devlar nola chekadilar

Qachonki bug'doy xirmonga uyulsa, devlar nobud bo'ladilar.

Qay bir bug'doy bosh chiqarsa, devlar u xonadondan uzoqlashadilar

Qay bir xonadonda bug'doy ombori bo'lsa, go'yo qizdirilgan temir devlar bo'ynini chirmab tashlaydi²».

Bu lavhada devlar deyilganda vayron qilish, yomonlik, xonavayron qilish, borliqni toptash, yo'qotish, badnom qilish timsoli sifatidagi dahshatli kuch tushuniladi.

Kimki yaxshilikka intilar ekan uning qalbida ezgulik urug'i unadi, unday inson devlarga (yomonlikka) qarshi kurashadi, o'zidagi bor kuch-qudrat, iroda bilan, eng avvalo, o'zidagi, qalbidagi yovuz kuchni quvib chiqaradi. Shunda bunday odamdan-bandadan Xudo rozi bo'ladi (bu yerda Axura Mazda xursand bo'lishi nazarda tutiladi).

¹ Avesto. T., 2001, 10 – bet.

² Avesto. T., 2001, 115 – bet.

Asardagi Sipiymon Zardusht obrazi buyuk inson, yaratuvchilik timsoli, yaxshilik, ezgu ishlar uchun kurashuvchi shaxs sifatida gavdalantirilgan. Odamlar Axura Mazdadan «Zaminni hammadan ko'ra ko'proq baxtiyor qilgan to'rtinchi shaxs kim?» deb so'rashadi. Shunda Axura Mazda shunday javob qiladi:

«Ey, Sipiymon Zardusht!

U hammadan ko'p bug'doy, giyoh, mevali daraxtlar ekan Zotdir! U quruq yerlarga suv chiqargan va suvli yerlarni shudgor qilgan Zotdir!».

Demak, dunyodagi eng ulug' zot-inson: dehqonchilik, sohibkorlik, bog'dorchilik, chorvachilik bilan shug'ullangan zotdir; bular yangi yerlar o'zlashtiradigan, ekinzorlar va bog'lar barpo etadigan, yerning unumdorligini muttasil oshirib borayotgan kishilardir. Boshqacha aytganda, odamlarning eng ulug'lari iqtisodiyot bilan shug'ullanuvchi insonlardir.

«Avesto» yerni, tabiatni, borliqni ulug'lovchi asar sifatida ham qadrlangan, undan odamlar iqtisodiyot saboqlarini olganlar. Unda yerning buyuk ne'mat ekanligi, unumdorlik salohiyati qayta-qayta uqtiriladi. Biroq, yana shu haqiqat ta'kidlanadiki, agar yerga ishlov berilmasa, u o'g'itlanmasa, suv bilan ta'minlanmasa, unga qarov bo'lmasa, yaratuvchilik qobiliyati faqat potentsialligicha (imkoniyat tarzida) qolaveradi. Ammo, yerning bebaho va abadiyligi shundaki, u har doim o'z potentsiallik salohiyatini, o'zining bebaho xususiyatini pinxon saqlab qola oladi.

Boshqacha aytganda, yer shunday ishlab chiqarish vositasiki, shunday tabiiy resurski, uni iste'mol qilish jarayonida eskirmaydi, yo'q bo'lib ketmaydi, balki unga to'g'ri munosabat bo'lganda o'zining takror ishlab chiqarish qobiliyatini saqlab qoladi. Bugina emas. Yer o'z tabiiy unumdorligini iqtisodiy unumdorlik orqali oshirib bora oladi. Buni ilg'or agrotexnika va dehqonchilik madaniyatiga asoslangan mamlakatlar tajribasi, xususan, yangi texnologiya qo'llash orqali o'z shuhratini oshirib borayotgan Vatanimiz dehqonchiligi tajribasi ham tasdiqlab turibdi.

Yer suvga, tadbirkorga yetishgach, o'z imkoniyatini ocha oladi. Shu ma'noda kitobdagi quyidagi fikrlarni keltirish mumkin:

«Uzoq zamon ekilmagan va omoch tegmagan zamin baxtsizdir. U omochni orzu qiludi. Bunday zamin balog'at pallasiga kirgan sohibjamol qizdir. Bu qiz farzand ko'rish va yaxshi yostiqdoshga intiqdir»²

Qadriyatlarimizdan ma'lumki, biz, o'zbeklarda yer va nonga alohida ehtirom mavjud. Bunday e'zoz bizga buyuk ajdodlarimizdan, xususan,

¹ O'sha asar, 114-bet.

² O'sha asar, 114- bet.

bizning ona zaminimizda yaratilgan «Avesto» dek buyuk kitobdan o'tgan bo'lishi tabiiydir. Kitobni o'qir ekanmiz, unda yerni xuddi qizni sevgandek sevish, unga yaxshi, serhosil urug'lar sepish, uni mo'l-ko'l hosil beradigan onaga aylantirmoq ilohiy qonun ekanligini qayta-qayta ilg'aymiz. Bunday munosabatning ilohiyligi shundaki, yer qadrini bilmagan dehqon, jamoa, davlat xor bo'lishi aniqdir. Asardagi quyidagi satrlarni o'qiganimizda bunga to'la ishonch hosil qilamiz.

«Ey, Sipiytmon Zardusht!

Kimda-kim zaminni chap va o'ng qo'l bilan, o'ng qo'l va chap qo'l bilan shudgor qilsa, zamin unga farovonlik baxsh etadi. U go'zal va pokiza qizga o'xshaydi. Bu qiz er xonadoniga kirib borib, o'z to'shagida halol yostiqdoshga farzandlar tug'ib beradi. Zamin ham mo'l-ko'l mevalarni in'om etadi¹».

Yer nomidan unga ishlov bergan zotga shunday xitob qilinadi: «... Men bu yerda hosilga kiraman. Har turlik xo'rak va mo'l-ko'l bug'doy yetishtiraman²». Yerni shudgor qilmagan, unga jilo bermagan kishilarga nisbatan shunday xitob qilinadi: «... Sen begonalar eshigi ostonasidan non istovchilar bilan birga bo'lursan. Ko'zlaring yo'l ko'radi. Ular seni eshigi ostonasidan haydab yuboradilar³».

Shulardan xulosa qilib aytiladiki, Axura Mazda qavmini faqat bug'doy to'yg'izadi. Shu bois Axura Mazda odamlarga Zardusht timsolida shunday xitob qiladi: «Bug'doy ekmoq va bug'doy ekmoq kerak» (ta'kid bizniki-muall.)

Darhaqiqat, odamlar, jamiyat, mamlakat taqdiri va istiqbolida nonning o'rni va ahamiyati beqiyos. Shuning uchun zardushtiylik ta'limotida bu masala alohida va muhim o'rin tutadi. Zotan, non mustaqilligi mamlakat, Vatan mustaqilligi bilan bir darajadagi ahamiyatli iqtisodiy-ijtimoiy masala ekanligi bejiz emas. «Avesto»ning non masalasidagi g'oyasining naqadar yashovchanligi va chuqur mazmunga ega ekanligi O'zbekistonimizning mustaqillikka erishishuvi don (bug'doy) mustaqilligi bilan bir darajaga qo'yilganligida yaqqol ifodalanmoqda. Prezident I. Karimov «Avesto»ning 2700 yilligiga bag'ishlab barpo etilgan yodgorlik majmuasining ochilish marosimida so'zlagan nutqida ana o'sha ezgulik bilan sug'orilgan g'oyalarning yashovchanligiga e'tibor qaratgan edi:

««Avesto» bilan tanishar ekanmiz, yana bir karra shunga iqror bo'lamiz-

¹ O'sha asar, 114 – 115 bet

² O'sha asar, 115 – bet

³ Avesto, 115-bet

ki, bu mangu kitobda ifoda etilgan buyuk g'oyalar, falsafiy hikmatlar o'zining hayotiy mazmuni bilan bizni bugun ham hayratda qoldiradi. Bu haqda gapirganda, men, avvalo, «Avesto»ning tub mazmun-mohiyatini belgilab beradigan «*Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal*» degan tamoyilda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo'lgan saboqlar borligini alohida ta'kidlab o'tmoqchiman»¹ (ta'kid bizniki-muall.)

Shundan kelib chiqib aytilish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi haqiqiy (iqtisodiy) mustaqilligini ta'minlashning g'oyat muhim omili bo'lgan g'alla mustaqilligi iqtisodiy siyosatimiz markazida turganligi bejiz emas. Bugungi kunda mamlakatimizning 1.3 million gektar yer maydonida g'alla yetishtirilmogda. Oqibatda, mamlakatimizning don mustaqilligi juda tez sur'atlarda ta'minlandi.

Yerga bo'lgan e'tibor, uni qadrlash, har bir qarich yerdan unumli foydalanish borasida o'tkazilayotgan agrar siyosat natijasida g'alla hosildorligi muttasil ortib borayotir. Bunga Andijon viloyati erishayotgan yutuqlar misol bo'la oladi. 2002-yilda viloyat dehqonlari har gektar yerdan o'rtacha 76 sentnerdan hosil yig'ib oldilar. Samarqand, Farg'ona, Namangan, Toshkent viloyatlarida ham g'alladan yuqori hosil olishga harakat qilinmogda.

Agrar sohadagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, tarmoqning samaradorligini oshirib borish, qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini bozor talablariga muvofiqlashtirish, kasod holatidan iqtisodiy sog'lomlashtirishga qaratilgan «Sanatsiya to'g'risida»gi qonun mamlakatimizda yerga bo'lgan munosabat umummilliy ahamiyatiga molik vazifa ekanligini tasdiqlaydi.

Demak, «Avesto»dagi iqtisodiy g'oyalar qandaydir mavhum, quruq fikrlar yig'indisi bo'lmay, balki qudratli moddiy kuchga egadir. Uning iqtisodiy g'oyalari asrlar osha o'z zamini—O'zbekistonda reallikka aylanmogda, respublika prezidenti va hukumatining iqtisodiy siyosatida mujassamlashmogda.

3. «Avesto»dagi mulkiy munosabatlar g'oyasi.

«Avesto» haqida gapirilar ekan, bu kitob odamlar hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan durdona asar ekanligini ko'rsatib o'tish o'rinlidir. Asarda iqtisodiy munosabatlar haqida ham ajoyib fikrlar, xususan, bugungi bozor iqtisodiyotiga o'tish davriga mos keluvchi g'oyalar ham o'z ifodasini

¹ Karimov I. *Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal*, «O'zbekiston ovozi», 2001, 6—noyabr

topganligi, uning Prezidentimiz aytdanlaridek, «Mangu kitob» ekanligiga ishonchingiz komil bo'ladi. Undagi mulkiy munosabatlar haqidagi bildirilgan fikrlar hayratlanarlidir. Asarda mulkdor bo'lish yaxshi fazilat ekanligi alohida ko'rsatilgan. Bu fikrni quyidagi g'oyalari tasdiqlaydi: «*Kimning uyi bo'lsa, u uysiz bexonumon odamdan yaxshiroqdir. Kimning dunyosi bo'lsa, u hech vaqosi yo'q gadodan afzaldir!*» (ta'kid bizniki- muall.).

Gap shundaki, mulkdor odam to'q bo'ladi, u dushmanlariga qarshi kurashganda bardosh bera oladi, yovuz kuchlarga qarshi tura oladi, ularni yenga oladi. Hatto bunday odam «o'z hukmdori amriga mutabiq, yomonlikka qarshi bosh ko'taradi va uni zabun aylaydi»² Masalaning mohiyati shuki, mulkdor odamlar iqtisodiy jihatdan shunchaki baquvvat bo'lmay, ayni chog'da, ular iqtisodiy erkindir, ular o'z faoliyatini o'zi mustaqil belgilaydi. Boshqalarga mute bo'lmaydi. Mulkdor odamning qudrati shundaki, uning xarakterida mulkiy manfaat va mulkiy mas'uliyat o'zaro uyg'unlashadi.

«Avesto»ning bu iqtisodiy g'oyasi, keyinchalik, buyuk ajdodlarimiz tomonidan rivojlantirildi, boyitildi. Jumladan, Abu Nasr Forobiy uqtiradiki, «*Mulk orttirishda unchalik xavf yo'q, ammo uni ehtiyot qilib saqlamoq kerak. Agar boshqa bironlar hisobiga mulk orttirganlar jazolanmasalar, u holda shahar aholisidan insof va shuhrat yo'qoladi. Mulkni ehtiyot qilib saqlab, o'z ehtiyoji uchun ishlatasa, bu yomon odat hisoblanmaydi*³». Forobiy davom etib yozadiki, «odamlarning mulksiz bo'lib qashshoq yashaganidan ko'ra, mulkdor bo'lib boyroq bo'lib yashagani afzalroqdir». Ko'rinib turibdiki, Forobiy qarashlari «Avesto» g'oyalari bilan g'oyat hamohangdir. Bu «Avesto» keyinchalik ilm-fan va tafakkurga qanchalik ta'sir ko'rsatganini tasdiqlaydi.

«Avesto»ning mulkiy munosabatlar borasidagi g'oyalari O'zbekistonda o'tkaziladigan iqtisodiy islohotlar maqsadlari bilan hamohang ekanligini ta'kidlashni istar edik. Zero bozor iqtisodiyotiga o'tish — to'q va farovon yashash vositasi sifatida fuqarolarning mulkdor bo'lishlarini taqozo etadi. Prezidentimiz I. Karimov asarlarida, xususan, uning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarining ushbu masalaga bag'ishlangan «Bozor munosabatlarning qaror topishi va mulkdorlar sinfining shakllanishi» nomli qismida shunday satrlar mavjud:

¹ «Avesto», 121 — bet

² O'sha asar, 49 — bet

³ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T., 1991,

«... *Aholi orasida haqiqiy mulkdorlar o'rtasidagi qatlarning ko'pchilikni tashkil etishi mamalakatda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni orqaga qaytarish imkoniyatlarini bartaraf etishning kafolati hisoblanadi. Shu sababli biz iqtisodiy o'zgarishlar jarayonini respublikada o'rtasidagi mulkdorlarning chinakam sinfini shakllantirishdek dolzarb vazifani hal qilish bilan bog'lamoqdamiz. Odam o'zini chinakamiga mulkdor deb his etmas ekan, o'z huquqlari uchun, pirovard natijalar va ishlab chiqarish samaradorligi uchun mulkdor sifatida kurashmaydi. Jamiyatda barqarorlikni saqlab qolish va himoya qilishga intilmaydi*»

Mulkdorlikning naqadar ulkan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy ahamiyatga molik masala ekanligi haqidagi bu fikrlarga biror narsa qo'shish qiyin. Faqat shuni qayd etmoqchimizki, mulkdor odam hech narsaga befarq, loqayd qaramaydi, o'z mulkini, Vatanini himoya qiladi, adolat uchun kurashadi, hayotga ochiq ko'z bilan qaraydi. «Avesto» tili bilan aytganda, mulkdor odam adolatsiz hukmdorga, adolatsiz taqsimot mexanizmiga, yomonlikka qarshi bosh ko'taradi. Mulkdor bo'lish g'oyasining g'oyat chuqur falsafiy-ma'naviy mazmuni ana shunday.

4. Kredit munosabatlari g'oyasi

Asardagi iqtisodiy munosabatlarning yana bir dolzarb masalasi kreditga oid fikrlardir. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanida u yoki bu iqtisodiy munosabatning, iqtisodiy kategorianing keng va tor ma'nodagi talqinlari e'tirof etiladi. Keng ma'noda iqtisodiy kategorianing kishilik jamiyatining barcha iqtisodiy davrlarga daxldorligi tushunilsa, tor ma'noda, uning ma'lum tarixiy-iqtisodiy davr sharoitiga bog'liqligi tushuniladi. Kredit yoki qarz berish kategoriyasi ham ana shunday mazmunga ega bo'lgan iqtisodiy munosabatlardir. Biroq, o'zining chuqur mazmunining real iqtisodiy hayotda ro'yobga chiqishi, iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtirib yuborishi, iqtisodiyotga yuksak o'sish sur'atlari baxsh etishi jihatidan kredit tom ma'noda bozor iqtisodiyoti davr munosabatidir. Bugun iqtisodiy taraqqiyotning kredit tufayli amalga oshishi isbot qilingan. Chunki, umumjahon iqtisodiyoti ravnaqi ham, milliy iqtisodiyotlar rivoji ham kredit munosabatlarsiz amalga oshmasligi hech kimga sir emas.

Ayni chog'da, kredit juda qadim tarixga ega bo'lgan iqtisodiy kategoriya ekanligi «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi»da, xususan, o'ttiz asrga teng deb

¹ Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. 1997. 196–197–betlar

e'tirof etilayotgan «Avesto» asarida ham ko'rsatib o'tilgan. Buyuk ajdodlarimiz kreditdan (qarz berish) foydalanib xo'jalik yuritganliklari bu mangu asarda o'z ifodasini topgan. «Avesto» asari ustida olib borgan tadqiqotlarimiz ana shunday fikrga kelishimizga asos bo'ldi. Asarni tahlil qilar ekanmiz, qadim zamonlarda ajdodlarimiz o'rtasiga iqtisodiy faoliyat qarz berish va qarz olish bilan bog'liq munosabatlar bo'lganligi shubha qolmaydi.

«Avesto»da qarz berish va qarz olish odamlar o'rtasidagi hayotiy munosabat ekani uqitirilib, olingan qarzga xiyonat qilmaslik aytiladi. Asarda aytiladiki «*hech kim o'z qo'shnisidan olgan omonatidan tonib, yolg'on so'zlamasin!*».

Kitobda odamlarning bir-birlari oldidagi majburiyatlari, shartnoma, ahdnomalari muqaddas hisoblanib «qasam» vositasida mustahkamlangan. Qasamlar bir-biridan mas'uliyatliroq, mustahkamroq bo'lib, ularning har birining buzilishi o'ziga xos qiymatga (bahoga) ega, ya'ni qasamni buzganlik holatida aybdor ma'lum miqdorda tovon (jarima) bilan jazolanishi belgilab qo'yilgan. Quyida ana shu qasamlarni aynan keltiramiz:

«*Axura Mazda javob beradi:*

-*Mening qasamlarim oltita:*

birinchi-so'z qasami;

ikkinchi-qo'l qasami;

uchinchi- qo'y qasami;

to'rtinchi- sigir qasami;

beshinchi- odam qasami;

oltinchi- ekin qasami, eng yaxshi, eng obod, eng serhosil zamindagi ekin²»

Savol tug'iladi: nima uchun qarz majburiyatlarining (qarz olishda berilayotgan iqtisodiy kafolatlarning) turi bunchalik ko'p, ya'ni oltita? Gap shundaki, qadimgi zamonlarda olingan qarzlarni (kreditni) yozma ravishda bayon qilish, uni hozirgidek notarius idoralari tomonidan tasdiqlatib, unga huquqiy tus berish odat sanalmagan. Dastlab, qarz olgan tomon bilan so'z qasami orqali ahdlashilgan bo'lsa kerak. Chunki, zardushtiylik dinida odamlarning qo'l berib ahdlashuvi ham muqaddas hisoblangan, binobarin qarz olgan tomon o'z majburiyati oldida, Axura Mazda oldida gunohga botishdan qo'rqgan.

Keyinchalik qo'l qasami, ya'ni qo'l berishib, ahdlashuv urfga kirgan bo'lsa ajabmas. So'z va qo'l qasamlarini tomonlar ahdlashuvining buzish holatlari vujudga kelgach, kredit kafolati muayyan asosga ko'chirilgan

¹ Avesto, 121-bet

² O'sha asar, 117 – bet

bo'lishi ehtimoldan holi emas. Qarz kafolatining, majburiyatining moddiy-lashuvi, tabiiyki odamlarda mas'uliyatni oshirgan, zero «mol achchig'i jon achchig'i» degan xalq maqoli bejiz paydo bo'lmagan.

Bunda qo'y qasamining bahosi bitta qo'y qiymatiga teng bo'lgan; qo'l qasami tomonlarning qo'l qisishi bilan shartlashilganligini bildirgan. Ko'rinib turibdiki, qasamlar tarkibida eng katta qasam-ekin qasamidir. Bu shunchaki moddiy qasam emas, balki «eng yaxshi, eng serhosil zamindagi ekin» qasamidir. Bunday qasam shartnoma ma'nosini bildiradi, tomonlarning o'zlariga olgan majburiyatlarini aks ettiradi. O'z ahdini buzgan tomon «eng serhosil zamindagi ekin» qiymati darajasida tovon to'lagan. Ekin qasamini buzgan aybdorning to'qqiz yuz qamchin asnahix-ashantra bilan, to'qqiz yuz qamchin saravush-charana bilan savalash orqali jazolanishi qat'iy belgilab qo'yilgan.

Bu yerda shuni alohida ta'kidlash lozimki, qasamlarning eng zo'ri, mas'uliyati, iqtisodiy jazosi kuchlirog'i «ekin qasamidir». Albatta, bunda Axura Mazda tarafidan ilgari surilgan ilohiy ma'no bor. Bu- dehqonchilik mahsuloti, dehqonchilik mehnati barcha mehnat turlari ichida mo'tabarroq, ulug'roq, ilohiyroq ekanligi.

Ma'lumki, shartnoma ma'lum iqtisodiy vazifalarni, majburiyatlarni o'z zimmasiga olishni bildiradi. Zardushtiylik dinida inson lafzi, uning bir-biriga bergan ahdi (qasami) Yaratganning oldidagi qandaydir farz amalidek kuchga ega bo'lgan. Asarda ijara munosabatlari to'g'risida gap borganda xuddi yuqoridagidek mas'uliyat yuklatilgan. Masalan, «Muxtasar» asarida yozilishicha, ijara munosabatlari qarz majburiyati-kredit berish ma'nosini bildiradi, ya'ni «*ijara oluvchiga ijara haqini o'sha zahotiyog bermoq vojib emas...*» degan ilohiy qoida bitilgan. Albatta, bunday iqtisodiy munosabat-ijara to'lovini ma'lum muddatga kechiktirilishi kredit oluvchining iqtisodiy-ijtimoiy ahvolini yengillashtirgan. Yana shu narsa muhimki, islomiy qoidaga muvofiq mulk ijaraga olingan bo'lsa-yu, undan foydalanilmasa ham yoki undan ijara haqi darajasida samara olinolmagan bo'lsa ham ijara haqini to'lash, mulkni but-butun qaytarish majburiyati yuklangan¹

Zardushtiylik dinida olingan qarz majburiyatini bajarmaslik shunchaki iqtisodiy jazoga loyiq ish emas, balki shartnomani buzganlik juda ham katta gunoh hisoblangan, bunday odam Axura Mazda nazaridan qolgan. Ayni chog'da, bunday ilohiy majburiyat qarz olgan tomonga kuch-quvvat ham bergan, shartnomani buzmaslikka undagan, majbur etgan.

Shartnoma-qasam ma'lum qarzdorlik munosabatini bildirib, omonat

¹ Muxtasar. T., 1994, 189-bet

yuzasidan olingan majburiyatni o'zida ifodalaydi, omonatga xiyonat, qaytarilishini o'ylamaslik, uni o'ziniki qilib, o'zlashtirib olish «o'g'rlangan bilan barobardir» deyiladi, ya'ni beburdlik qilish o'g'irlik bilan teng darajaga qo'yiladi. O'g'irlik qilish esa zardushtiylikda katta jinoyat, gunoh hisoblangan.

«Avesto» kitobini umuminsoniy qadriyatlar haqidagi qasida deyish mumkin. Unda odamlar o'rtasidagi mehr-oqibat, birodarlik, do'stlik, o'zaro yordam va madad berish g'oyalari, bilim olish, o'tmish donishmandlari, allomalari bilimlarini egallash kabi komil inson bo'lishga xos umumbashariy qoidalar, ularga asoslanib yashash lozimligi uqtiriladi. Masalan, asarning 4-fargardi, ikkinchi qismida odamlar hech qachon bir-birlaridan hech narsani darig' tutmasliklari, qizg'anmasliklari lozim. Xususan, moddiy madad berish, din ilmini, kasb-hunar egallashni birodariga beminnat o'rgatishi zarur, degan ko'rsatma berilgan.

Biroq, odamlar o'z ilohiy va dunyoviy vazifalarini bajarishlari uchun tabiat ne'matlaridan, o'zlari ishlab chiqargan narsalardan iste'mol qilishlari, dam olishlari, rohatlanmoqlari ham zarur. Zero, dam olish, rohatlanish, ma'naviy oziq olish tirikchilik bilan, iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun kuch-quvvat beriladi. Bularning zaminida «shiddat bilan bilim olish» yotadi¹

5. Yaratuvchilik (ishlab chiqarish) — eng ezgu amal

«Avesto» muallifi bo'lgan buyuk olim Zardusht ruhoniylarga, ilm-ma'rifatli kishilarga ko'rsatma beradiki, odamlarga moddiy ne'matlar yaratish asoslarini (muqaddas ishlarni) o'rgatsinlar. Zero moddiy olam va butun jonli mavjudot yemak-ichmak bilan tirikdir. Kitobda: «*Hech kim xo'raksiz Ashah qonunlariga amal qilish qudratiga ega emas. Omoch qudratiga ega emas. Farzandlar dunyoga keltirish qudratiga ega emas.*

Moddiy olamda xalq qilingan har bir mavjudot yemak bilan tirikdir, yemaksiz o'likdir².» Yemak uchun iste'mol qiymatlarini, moddiy ne'matlarni ishlab chiqarmoq darkor. Asarda ta'kidlanadiki, moddiy ne'matlarning yaratilish manbayi yerdir. Yerni ishlash, uning unumdorligini oshirish, tiriklikni abadiylashtirish esa g'oyat ulug' ibodatdir. Bu ish Alloh oldidagi vazifadir. Ana shu vazifadan kelib chiqib, xitob qilinadi: «*Kimda-kim zaminni shudgor qilib, uni mehribonlik va parhezkorlik*

¹ Avesto, 121-bet

² O'sha asar, 115 – bet

bilan bir Ashavanga (Ashavan-to 'g'rilik, rostgo 'ylik, haqiqat, qonun, tartib ma'nosini beradi) topshirsa, Sipandormaz uni zamin qa'riga, hasrat va parishonlik olamiga, tubanlik va sho'rbaxtlik sarzaminiga, devlar makonido'zax tubiga uloqtirib tashlamaydi¹».

«Avesto»da yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash, yaxshilikka, ezgulikka erishish yo'llari, odamlarning baxtli-saodatli yashashi vositalari haqidagi umumbashariy g'oyalar ilgari surilgan. Asarning «Vandidod» nomli ikkinchi qismida «qahraton sovuq» yomonlik, borliqni yo'qotuvchi kuch sifatida ifodalanib, bu kuch kezi kelganda barcha jonli mavjudotni badnom etishi ta'kidlanadi. Bunday ofatni oldini olish Axura Mazda tomonidan buyuk ilohiy siymolardan biri bo'lgan Jamga yuklatiladi.

«Ey Jam, -deb xitob qilinadi, har birining to'rt tomoni aspriys² uzunligida bo'lgan var³, inshoot bino qil. Qo'ylar, tuyalar, odamlar, itlar, parrandalar va kuydirguvchi qizil olov urug'larini u yerga olib bor. So'ngra, -sen, Ey, Jam! Odamlarning yashamog'i uchun har birining to'rt tomoni aspriys uzunligida bo'lgan var bino qil. Sigirlar va qo'ylar uchun har birining to'rt tomoni aspriys uzunligida bo'lgan var bino qil».

«... U yerda hamisha yam-yashil va hurram, hamisha yegulik qut-barakali yaylovlar yaratgin... U yerda keng va baland uylar qur⁴».

Keltirilgan satrlardan bilish mumkinki, «Avesto» insoniyat hayotining abadiy ekanligi, biroq bu abadiy hayot doimo bo'lavermasligi, unga tajovuz qilib turuvchi har xil yovuz kuchlar ham bo'lishi, ularga qarshi mustahkam zamin-ne'matlar yaratish, uylar, inshootlar qurish, badaliga insonlar, chorva hayvonlarini asrash va shu bilan hayotning davomiyligini saqlab qolish mumkinligi tushuntiriladi.

Qurilgan varlarga (inshootlarga) «Xushbo'y o'simliklarning urug'larini olib borish, yer yuzidagi eng yemishli, eng yoqimli va xushbo'y taomlarning urug'larini olib borish», hayvonlar va odamlarning yo'q bo'lib ketmasligi uchun «ularni juft-juft qilish» lozimligi ham uqtiriladi. Qizig'i shundaki, insoniyat, hayvonot va tabiat olamini sog'lom va musaffoligi hayotning abadiyligi garovi ekanligi haqidagi g'oya asarning markaziy o'rnida turadi. Aytildiki, odamlar va hayvonlarga faqat «yoqimli va xushbo'y taomlar» berilishi darkor.

¹ Avesto, 115-bet

² Aspriys – uzunlik o'lchovi

³ Var – odamlar va hayvonlarni sovuqdan saqlanuvchi yerosti inshooti

⁴ Avesto, 111-bet

Axura Mazda Janga ko'rsatma berib «zinhor u yerga (varlarga) bukrilar, pushtenzlar, g'o'llar, duyasana, dayvak, kasvish, vizborish, so'yloq tishli, pes, umuman, Ahraman o'z dog'ini qoldirgan biror kimsani kirita ko'rma¹» deydi.

Bizningcha, bundan shunday xulosa yasashimiz mumkin: insoniyat hayoti o'z-o'zicha, stixiyali tarzda kechmasligi darkor, unga aralashmoq, ya'ni hayotning musaffoligi uchun kurashmoq zarur. Jamiyatning barqaror rivojlanib bormog'i uchun odamlar ongli ravishda o'z bilimlari, kuchlari, tajribalarini safarbar qilishlari kerak. Buning uchun ilm-fan yutuqlarini ijtimoiy-iqtisodiy turmush musaffoligi va ravnaqi yo'lida tatbiq etish lozim.

«Avesto»ning insoniyat hayotini musaffolashtirish borasidagi g'oyalari naqadar hayotbaxsh ekanligini bugungi sivilizatsiyalashgan dunyo anglab yetmoqda. Hayotni saqlab qolish uchun odamlarga musaffo, toza, tabiiy muhit bilan birga ekologik sof mahsulotlar ishlab chiqarish va iste'mol qilish zaruriyati butun dunyo miq'yosida muammo sifatida kun tartibiga qo'yilayotgani bejiz emas. Zero, insoniyat hayotining davomiyligi ekologik sof mahsulot ishlab-chiqarishni yer kurasining barcha mamlakatlarida amalda yo'lga qo'yish lozim. Chunki, bugungi dunyoda xalqaro iqtisodiy va boshqa munosabatlar shu qadar rivojlanib, mamlakatlar iqtisodiyoti integratsiyalashib bormoqdaki, dunyoning biror bir mamlakatidagi hayotni zaharlovchi ne'matlar boshqalarga yetib kelmasligiga kafolat deyarli yo'q.

Demak, «Avesto»da bilim olish, dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallash inson faoliyatining barcha jihatlarini uchun g'oyat muhim ekanligi uqtiriladi.

«Avesto»ning «ilmni shiddat bilan o'rganish» haqidagi g'oyasi keyinchalik, keng targ'ib qilindi. Buning oqibatida, bizning Movarounnahrda, Markaziy Osiyoda ilm-fanning rivojiga ulkan hissa qo'shgan, jahon fani beshigini tebratgan ulug' olimlar Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Ulug'bek, Navoiydek fan darg'alari, Al-Buxoriy, At-Termiziy, Moturudiy, Zamah-shariy kabi islom olimlari yetishib chiqishiga sabab bo'lgan bo'lsa ajab emas.

«Avesto»da ilm olishga da'vat qilinishning ma'nosi shuki, ilm-ma'rifatli kishining mehnat unumi yuqori bo'ladi, jamiyatda farovonlik bo'lishiga eng ko'p hissa qo'shilgan bo'ladi. Demak, ilm olish iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirishga, yaratuvchanlik salohiyatini ko'tarishga xizmat qilar ekan.

¹ Avesto. 111-bet

6. Mehnat va mehnat taqsimoti g'oyasi

«Avesto»ni tom ma'noda mehnat va yaratuvchilik madhi haqidagi, uni odamlar va jamiyat hayotidagi beqiyos o'rni haqidagi tengi yo'q asar deyish mumkin. Unda yozilishicha, tinch va osoyishta mehnat, yaratuvchilik faoliyati, tabiatga, uning ne'matlariga mehrlil bo'lish, tejamkorlik inson tanasidagi barcha illatlarini, nopokliklarni quvadi, unga haqiqiy rohat-baxshlik va osoyishtalik baxsh etadi, unga shodlik, quvonch, olib keladi jamiyatda, har bir xonadonda, shaxsiy hayotda tinchlik, adolat, barqarorlik faqat mehnat tufayli qaror topadi.

«Avesto»dagi bunday ezgu g'oyalari hozirgi davr uchun ham begona emas. Zero, zardushtiylik dini inson ruhini yaratuvchanlikka—mehnatga tayyorlashga qaratilganligi uchun, ya'ni inson ruhi va mohiyati aynan mehnat monandligini asoslash bilan ming yillar davomida odamlar qalbini zabt etib keldi, hozir ham u ana shunday ezgu g'oyalarni targ'ib etib kelayotir.

Kitobda mehnat qilmaydigan, dangasa odamga nisbatan shunday xitob qilinadi:

Mehnat qilmaydigan odam! Sen haqiqatdan ham tilanchilar qatorida, yot eshiklarga ta'zim qilib, abadul abad bosh egib turajaksan. Haqiqatdan ham sening yoningdan turli xil ziroatlarni olib o'tadilar, bu noz-ne'matlarning barchasi mehnat qilayotgan, to'q va farovon yashayotgan xonadonga nasib qiladi. Abadul abad shunday bo'lajak!'

«Avesto» asarining mehnat taqsimoti nuqtayi nazaridan o'rganish shuni tasdiqlaydiki, ajdodlarimiz bundan 3000 yillar ilgariyoq ibtidoiy, ya'ni tabiiy mehnat taqsimoti darajasidan chiqib ketishgan, ular ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida iqtisodiyotni tashkil etish va olib borishga o'tishgan.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. «Avesto» kitobida ta'kidlangan «uch ezgulik g'oyasi» nimadan iborat?
2. Nima uchun dehqon «zaminini eng baxtiyor qilgan shaxs» deb ulug'lanadi?
3. «Avesto»dagi yerga bog'liq munosabatlar g'oyasining mustaqil yurtimizda o'tkazilayotgan agrar islohotlar bilan bog'liq jihatini siz qanday ta'riflaysiz?
4. Mulkdor bo'lish buyuk fazilat, ulug' ne'mat sanalishi g'oyasini

¹ O'zbek pedagogikasi antologiyasi, 1 – jild. T., 1995. 36 – bet

O'zbekistonda mulkdorlar sinfini shakllantirish zarurligi haqidagi I. Karimov ta'limoti bilan bog'liqligini nimada ko'rasiz?

5. Qarz olish va qarz berish borasidagi qarz olganlik kafolati haqidagi «qasamlar» g'oyasini siz qanday tushunasiz?

6. «Avesto»dagi mehnat taqsimoti to'g'risidagi g'oyalar mazmunini ochib bering.

7. «Avesto»da tabiat qanday e'zozlanadi?

TAYANCH IBORALAR:

«Avesto»- bundan 2700-3000 yillar ilgari yaratilgan ilk yozma madaniy yodgorlik asari. U avval 2500 ta mol terisiga tilla suvi bilan yozilgan bo'lib, unda o'sha davrning buyuk dini-zardushtiylik ta'limoti asoslab berilgan. «Avesto»da ezgulik, yaxshilik, yaratuvchilik inson farovonligi va muqaddasligi madh etiladi. Asar bizning o'zbek zaminida yaratilganligi ajdodlarimiz naqadar buyuk ma'naviy va iqtisodiy qudratga ega bo'lganini tasdiqlaydi. Kitobning 2700 yilligi 2001-yilda O'zbekistonda xalqaro miqyosda keng nishonlandi, shu munosabat bilan kitobning akademik nashri chiqarildi.

Axura Mazda — yagona xudo, u koinotni, yerni, quyoshni, butun borliqni yaratgan. U o'zining makoni qilib quyosh ostini olgan va u abadiylik timsoli. Axura Mazda «haqiqat otasi», «olam haqiqati». U odamlarni faqat yaxshilikka, yaratuvchilikka, ezgu amallarga undaydi. Bu ishlarga rahnamolik qilish uchun yerga o'z payg'ambari Zardushtni yuboradi. Zardusht Axura Mazda topshiriqlarini bajarishga da'vat etuvchi va kurashuvchi shaxs.

Axroman- Axura Mazdaga, uning ezgu harakatlariga qarshi kurashuvchi kuch, u yovuzlik, buzg'unlik, vayronalik, sovuqlik timsoli. U yovuzlik xudosi, u odamzodga qor va izg'irin sovuq yuboradi, kasalliklar tarqatadi, hayotni bulg'aydi. Ana shu yovuzliklarga qarshi kurashuvchi kuch sifatida Axura Mazda tomonidan donishmand Zardusht yuboriladi.

Sipiytmon Zardusht - ezgu fikr, ezgu kalom (so'z) va ezgu-amalni ulug'lovchi, tarqatuvchi, ularga da'vat etuvchi shaxs. Zardusht-payg'ambar timsoll Zardusht -buyuk, donishmand shaxs, buyuk voiz, odamlarni ezgulik yo'liga chorlovchi va boshlovchi daho, kashshof. Zardusht insoniyat tarixida birinchi bo'lib yakka xudolik g'oyasini olg'a surdi va shu yo'lda kurashdi. U Zardushtiylik dini ijodkori, murabbiysi va homiysidir.

Yer va uning xususiyatlari- «Avesto»da yer g'oyat ulug' ne'mat, Alloh in'omi, borliq va yaratuvchilik manbasi, yashash va abadiylik ramzidir. Kitobda amal topmagan, ishlov berilmagan, tashlab qo'yilgan yer go'yo «balog'atga yetgan qizdir, u farzand ko'rish va yaxshi yostiqdoshga intiqdir». Kimda kim yerga urug' sepsa uni mo'l-ko'l hosil beradigan onaga aylantiradi, u farovonlik va to'liq baxt keltiradi. Bunday qilmaganlar esa ochlik, gadolik, tilanchilikka giriftor bo'lishadi.

Mehnat taqsimoti- odamlarning biron-bir kasb-hunar egallashi, iqtisodiy faoliyatning biron-bir turini egallash. «Avesto»da kimlar qanday hunarlarni egallashi, nima ishlar bilan shug'ullanishlari joizligi odamlarning jinsi, yoshi, kuch-quvvati, imkoniyatiga qarab belgilanishi ko'rsatib berilgan. Qanday bo'lmasin o'z oilasini boqa oladigan, farovon yashashini ta'minlaydigan kasb-hunarni egallashga da'vat etadi.

«Dunyoli bo'lish afzalligi». «Dunyo- bu uy-joy, mulk, chorva hayvonlari, ularni saqlovchi inshootlar, odamlar va hayvonlarning oziq-ovqatlari, yaylovlar, yer va suv. Demak, dunyoli bo'lish, ana shularga ega bo'lish, mulkdor bo'lish demak. «Avesto»da mulkdor bo'lish afzal deyiladi, zero mulksiz odam «gadodir». Mulkdorlik afzalligi shuki, u to'q, baquvvat, farovon, tinch, hayoti barqaror, iqtisodiy erkin, Vatanni, yurtini himoyalovchi, o'z mas'uliyati o'zida, manfaati o'z qo'lida, istiqbolini kafolatlovchi shaxsdir. Mulkdorlik xislatlari va afzalliklari prezidentimizning iqtisodiy asarlari va chiqishlarida ham mukammal bayon qilinadi.

«Qasam» (shartnoma, majburiyat)- zardushtiylik dinida qarz oluvchi tomonidan qarz olganlik uchun kafolat timsoli. U oltitadir. Ularning har biri o'z mazmuniga, makoni va vaqtiga ega. Qasam ilohiy ma'noga ega, uni bajarmaslik gunohi azimdir.

III bob QADIMGI DUNYO IQTISODIY TA'LIMOTLARI

1. Qadimgi Misrdagi birinchi iqtisodiy g'oyalar

Iqtisodiy fan manbalarini jahon sivilizatsiyasining beshigi Qadimgi Sharqdan izlamoq mantiqan to'g'ridir.

Iqtisodiy g'oyalar insoniyat yaralishi bilan ibtidoangan. Ammo, hozirgi davrda qo'lyozmalarda aks ettirilgan g'oyalargina tahlilga tortiladi. Shu bois, «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi»ni quldorlik jamiyati tuzumiga bog'lashadi.

Dastlab quldorlik jamiyati Sharqda, sinfiy ajralish boshlangan joylarda, Mesopotamiya (Tigr va Yefrat daryolari oralig'i)da va Misrda eramizdan avvalgi IV ming yillikda yuzaga keldi. Bunga asosiy sabab shuki, bu yerda texnologik inqilob ro'y berdi, metall qurollar ishlatila boshlangan, qishloq xo'jaligida intensiv, ko'p hollarda, sug'orma dehqonchilikka o'tildi. Bundan turg'un qo'shimcha mahsulot olish imkoni tug'iladi. Bu esa jamiyatda mehnat taqsimotini rivojlantirishga, ko'pgina hunarmandchilik sohalarning ajralib chiqishiga va sinfiy tabaqalanishga turtki bo'ldi.

Bu davrda mahsulot olishning asosiy usuli jamoaga birlashgan dehqonlarni ekspluatatsiya qilish yo'li bilan renta-soliq olish bo'lsa, qullarni beayov ishlatish bilan ham katta boylik orttirilgan. Sharqda davlatning iqtisodiyotga aralashuvi darajasiga qarab ayrim «erkin» aholining ahvoli qullarnikidan unchalik farq qilmagan. Lekin ayrim olimlarning fikricha, Sharqda quldorlik klassik shaklda rivoj topmagan, patriarxal, ya'ni uy xo'jaligidan ustun bo'lgan.

Sharq, jumladan, O'rta Osiyo mamlakatlaridagi xo'jalik faoliyatida nisbatan erkin odamlar ishtirok etishgan. Masalan, dehqonchilik, hunarmandchilik, qurilish sohasida qullar mehnatidan foydalanilmagan. Antik dunyo (G'arbiy Yevropa) dagi ayrim hududlarda xalqaro savdo bilan bog'liq ravishda tovar pul munosabatlari ham anchagina rivojlangan. Shu tarzda qulchilikka asoslangan xususiy mulkchilik paydo bo'ldi. O'z mahsulotini sotishga mo'ljallab, ishlab chiqargan qulchilik xo'jaliklari ekspluatatsiyani kuchaytirishni talab etgan. Natijada klassik yoki antik qulchilik yuzaga keldi.

Qadimgi Sharqning iqtisodiy ta'limoti, asosan, davlatni boshqarish to'g'risidagi ilm, qonunlarga oid edi. Jamiyatning iqtisodiy hayotida amalda butunlay natural xo'jalik faoliyat ko'rsatar edi. Qadimgi Sharq yodgorliklarida davlatni boshqarish san'ati bo'yicha qoida va qonunlar to'plami hamda iqtisodiy g'oyalar saqlanib qolgan. Bizgacha bo'lgan birinchi

yodgorlik «Geraklepolik shohning o‘z o‘g‘liga, nasihatlari» esdaliklari (Qadimgi Misr, eramizdan avval) juda ham qadimgi manbalardan hisoblanadi. Muallifning ta’kidlashicha, «nasihatlarda» e’tiborni boshqaruv apparati faoliyatini samarali yuritish zaruriyati va fir’avnlr (Qadimgi Misr podshohlarining nomi yoki unvoni) va aholi o‘rtasida bo‘ladigan munosabatlar ko‘rsatilgan. Bu davrda sinfiy ajralish to‘la shakllanmagan bo‘lib, boshqaruv ishiga ishbilarmonlarni taklif etish (yuqori tabaqali yoki oddiy aholidan) mumkin bo‘lgan.

Vasiyatnomada muallif asosiy e’tiborni podshoh bilan xalq o‘rtasida turuvchi boshqaruv apparatiga qanday muomala qilish kerakligi haqida yoziladi. Unda shunday deyiladiki, *«boshqaruv apparati yagona otryad kabi ish olib borishi kerak, buning uchun esa podshoh o‘z amaldorlari haqida doimo g‘amxo‘rlik qilishi va moddiy rag‘batlantirib borishi kerak, shundagina ular sening qonuning bilan yashaydi»*.

Saqlanib qolgan yodgorliklarda va yozma qonunlarda iqtisodiy-siyosiy g‘oyalar mavjud bo‘lgan. Unda mustaqil ishlab chiqaruvchining huquqlarini himoya qilish, tartibga solish hamda ishlab chiqaruvchilar qatlamini yemirilishini to‘xtatishga qarshi muhim fikrlar berilgan edi. Ayniqsa, eramizdan avvalgi XVIII asrda Bobilda podshohlik qilgan Hammurapining qonunlar to‘plami (kodeksi) mashhurdir. Bu to‘plam 1901-1902-yillarda Suza shahri qoldiqlarini arxeologik qazish paytida topilgan. Toshga o‘yib yozilgan muhim va qadimiy, tarixiy hujjatni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, mavjud davlat sinfiy va ijtimoiy jihatdan ancha mukammal ko‘rilganligi bilan ajralib turadi. Bu qonunlarning asosiy mazmuni «kuchli kuchsizni» shiori ostida kuchlilar tomonidan kuchsizlarni butunlay kamsitishni himoya qilgan, qarz evaziga qul qilish faqat uch yilgagina ruxsat etilgan edi. Lekin bu chegaralash bo‘lsa-da, xususiy mulkchilik ham qonun bilan rasmiylashtirilgan edi. Xususiy mulkchilik huquqiy bitimlarda himoya qilinar, agar ijarachi zaruriy ishlarni ma’lum bir sabablarga ko‘ra bajara olmasa turli xil imtiyozlar berilardi. Xususiy mulkchilikka qarshi turishga iqtisodiy javobgarlik joriy etilgan.

Hammurapi kodeksining yaratilishi Qadimgi Vavilon jamiyatining birlashishi uchun muhim omil bo‘ladi. Hammurapi kodeksi iqtisodiy hayotni huquqiy normalar ko‘magida boshqarishga qilingan birinchi harakat edi.

2. Qadimgi Hindiston iqtisodiy ta'limotlari

Qadimgi Hindistonning «Manu qonunlari»da (eramizdan avvalgi IV-III asrlar) ijtimoiy mehnat taqsimotining hukmronligi va bo'ysunish institutlarining mavjudligi aytiladi.

Qadimgi dunyo olimlari tomonidan siyosiy-iqtisodiy mavzuda yozilgan birinchi asarlardan biri «Artxashastra»dir. U hind iqtisod ilmining birinchi namunasi. Bu asar Shoh Chandraguptaning (eramizdan avvalgi IV-III asrlar oralig'ida) bosh maslahatchisi Kautilye tomonidan yozilgan. Hindcha «artxa» so'zi foyda, moddiy manfaat, «shastra» esa ilm, ilmiy asar ma'nosini anglatib, asar moddiy manfaat to'g'risidagi ilm ma'nosini bildiradi.

Bu asarda, birinchi navbatda, shu davlatda yashayotgan xalqlar va guruhlar haqida ma'lumot beriladi. Unda hind xalqi 4 ta kastaga (tabaqaga): braxmanlar, kasriylar, vayshiylar va shudralarga bo'linadi. Kautilye yozadiki: «jahonning rivojlanishi kastalarning o'z qonunlari asosida yashashiga bog'liqdir. Podshoh hech qachon kastalarni aralashib ketishiga yo'l qo'ymasligi kerak». Bu asarda yozilishicha, braxmanlar va kasriylar barcha imtiyozlarga ega bo'lib, boshqarish ishlari bilan shug'ullanganlar, vayshiylar va shudralar yerda ishlashgan, hunarmandchilik va savdo bilan shug'ullanganlar. Bu asarda qullar, ularni sotib olish haqidagi ma'lumotlar berilishi bilan birga, qullarni ham xususiy mulki bo'lishi va uning daxlsizligini qonun yo'li bilan ta'minlanishi taqiqlanadi.

Bu asarda yer boylik manbasi bo'lib, undan to'g'ri foydalanmoqlik, kimda kim yerga ishlov bermasa, madaniylashgan yerlarni tortib olish, ishlov talab qilinadigan va madaniylashgan ekin maydonlaridan foydalanib dehqonchilik qilganlarga yordam ko'rsatish va imtiyozlar berish uqtirilgan.

Asarda savdo haqida ham so'z yuritilib, unga xo'jalik yuritishning asosiy bo'g'ini sifatida qaraladi. Xazinaning ortishiga asosiy yo'l savdo deb qaraladi. Savdoni nazorat qiluvchining oldiga qator talablar qo'yiladi, avvalo, u tovarlar qayerdan, qancha kelishi haqidagi ma'lumotga ega bo'lishi, baholarini aniq bilish va tovarni sotishdan qancha foyda olishini bilishi shart deyiladi. Savdo foydasi haqida gapirilib, agar bu foyda podshohga katta zarar asosida keltirilsa kerak emas, hech foyda keltirmasa ham birlamchi iste'mol tovarlarini to'planib qolishiga yo'l qo'yilmasligi kerak deb yoziladi. Masalan, tarozilar har 4 oyda, albatta, tekshirilib turilishi kerak deyiladi. Xazinaga olinadigan soliqlar haqida quyidagicha yoziladi: O'lchov (metrga o'xshash) bilan sotiladigan tovarlardan tushadigan daromadning 1/16, tarzida sotiladigan tovarlarning daromadidan 1/11 olinadi, deb yoziladi.

Mahsulotning bozor bahosi bilan uning tabiiy qiymati o'rtasidagi farq haqida: tovarga bo'lgan ehtiyoj ortganda uning bahosi qiymatidan oshib ketishi mumkin, deyilgan. Savdo bilan shug'ullanuvchilarga alohida urg'u berilgan bo'lib, foyda masalasi ko'tarilgan, foydaning miqdori tovar bahosiga qo'shilib, hisoblanishi aytiladi. Umuman, «Artxashastra» da biz savdo, baholar haqidagi ma'lumotlarni o'rganish bilan Hindistonning o'sha davrdagi xo'jalik holatini boshqarilish tizimini tushunib olishimiz mumkin.

3. Qadimgi Xitoy iqtisodiy ta'limotlari

Qadimgi Xitoydagi ilmiy iqtisodiy qarashlarning avj olgan davri eramizdan avvalgi VI-III asrlarga to'g'ri keladi. Bu mamlakatdagi dastlabki quldorlik davlatlari eramizdan avvalgi II ming yillikda paydo bo'lgan. Iqtisodiy ta'limotlar tarixida Xitoyda Konfutsiy ta'limoti juda katta rol o'ynadi. Bu ta'limotning asoschisi Konfutsiy (ilmiy asarlarda shunday yoziladi) yoki Kun-Szi (eramizdan avvalgi 551-479-yillar)dir. Uning asosiy ilmiy qarashlari «Lun-yuy» («Suhbat va muhokama») to'plami bo'lib, u shogirdlari tomonidan to'plangan. Uning davrida yirik zodagonlar ta'siri ancha kamayib, jamiyatda parokandalik hukm surmoqda edi. Uni bu holatdan chiqish va kelajakni poklash uchun o'tmishni yaxshiroq o'rganishga chaqirdi; ana shu davrda obro'si pasaygan zodagonlarning manfaatini himoya qildi. Konfutsiy mamlakatning kelajagi uchun, o'tmishini ko'proq bilishni o'zining ijtimoiy oliy maqsadi deb bildi. U urug'chilik, aslzodalik pozitsiyasini himoya qildi. Ijtimoiy-iqtisodiy holatni yaxshilash uchun u ma'naviy poklanish dasturini ilgari surdi. Chunki o'sha davrda Xitoyda temirni qayta ishlash kuchayib, tovar-pul munosabatlari rivojlanishi natijasida savdo va savdogarlarning jamiyatda ta'siri ortdi. Hukmron sinf ichida sinfiy bo'linish vujudga keldiki, yirik avloddan-avlodga o'tuvchi aristokratiya bilan yosh yangi aristokratiya o'rtasida adovat kuchaydi. Aynan shu davrda bu qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga intiluvchi mafkura (ideologiya) sifatida konfutsiychilik maydonga keldiki, bu ta'limot quldorlik tuzumini himoya qilib «tabiiy huquq» g'oyasini ilgari surdi. Bu ta'limotga ko'ra, Xudo olamni yaratuvchidir. Ammo xudo ijtimoiy hayotga aralashmaydi, chunki jamiyat tabiiy qonunlar asosida rivojlanadi. Uni bilib olish esa Xudo bergan aqlga bog'liq, u esa fuqarolik qonunlari bilan himoyalanaadi. Bu ta'limot asrlar davomida Xitoyda o'rganilib kelinmoqda.

Konfutsiychilikda yoshlarning qariyalarga hurmati, ularga qarshi chiqmaslik g'oyasi asos qilib olingan. Davlat bu «katta oila», podsho esa «xalqlar otasi»dir, boyliklar nisbatan tekis taqsimlanishi kerak, soliqlarni me'yorida saqlash, yer ishlarini yaxshi bajarish, hammaning o'z vazifasini bajonidil ado etishi zarur, deyiladi. Ayni chog'da, Konfutsiy quldorlikni himoya qilish bilan birga yirik quldorlarni ham himoya qiladi. Bu bilan ijtimoiy «tenglikka» erishishga harakat qiladi. Konfutsiy mulkning ikki shaklda bo'lishini e'tirof etadi:

1. «*buyuk jamoa mulki*»-kollektiv mulkchilik, ya'ni dehqonlar jamoasining mulki;

2. «*xususiy mulkchilik*» -quldorlarning mulki.

Uning ta'limotida ba'zi qarama-qarshiliklarni ham ko'rish mumkin. Masalan, ichki qarama-qarshiliklarda xususiy mulkni himoya qiladi. U insonlarni tabaqalanishini tabiat va xudo tomonidan hukm qlingan haqiqatdir deb yozadi. Eng muhim iqtisodiy xulosasi shuki, boylikning manbayi mehnatdir. Shu bilan birga, quldorlarning davlat boyligini kuchaytirish uchun qullarni ko'proq ishlatib, kamroq yegizishga chaqiradi.

Konfutsiy ta'limotining davomchilaridan biri Men-Szi (eramizdan avvalgi 372-289-yil) edi. Men-Szi jamiyatni boshqaruvchi va boshqariluvchilarga bo'lib, xalq boshqaruvchilari uchun ishlamoq' i kerak, deydi. U jamiyatni klassik taqsimlanishi, tarafdori edi, aqliy va jismoniy mehnat o'rtasidagi qarama-qarshilikni himoya qiladi. Qadimgi Xitoyda Konfutsiy ta'limotining ikkinchi eng yirik davomchisi Syun-Szi (eramizdan avvalgi 313-238-yil) bo'lgan. U davlatning iqtisodiy jihatdan kuchayishi tarafdori bo'lgan. Insonlarni boylikka bo'lgan ishtiyoqini oqlaydi, lekin bu harakatlar qonun doirasidan chetga chiqmasligini ko'rsatadi. Odamlarni birdaniga hamma hunarlar bilan shug'ullanishga qilgan harakatlarini qoralaydi. Inson bir vaqtning o'zida ko'plab kasb egasi bo'la olmaydi, degan fikr ilgari suradi. Natijada, u birinchilardan bo'lib mehnat taqsimoti ta'limotini ilgari suradi (bu juda muhim g'oya edi). Uning ta'limotiga ko'ra, odamlar boylar va kambag'al toifalarga bo'linishi tabiiy holdir. Ularning turlicha kiyim-boshda yurishlarini ta'kidlaydi. Uning fikricha, davlatning iqtisodiy siyosati uchta tamoyilga asoslanishi kerak:

1. Harajatlarni iqtisod qilish, ya'ni tejab-tergab sarflash;

2. Xalq to'qligini to'la ta'minlash;

3. Ortiqcha mahsulotlarni saqlash zarurligi.

Uning fikricha, davlatda taqsimot mavjud tabaqalanishga mos kelmog'i

darkor. Yetarlicha ta'minot tamoyili jamiyatdagi o'rninga bog'liq holda belgilangan. Ekspluatatsiya qo'llab-quvvatlanadi, jamiyatda hammaning o'z o'rni bo'lishi kerak, deyilgan, ya'ni hukmdorga tobelik, otaga o'g'ilni boshqarish ma'lum qonun asosida emas, balki oddiy odat bo'yicha bo'lishi, og'ir soliq va majburiyatlar bo'lmasligi ta'kidlanadi.

Eramizdan avvalgi VI-III asrlarda Konfutsiychilik mafkurasiga qarshi muholif **legistlar** («qonuniy») oqimi paydo bo'ladi, ular boshqarishni aniq qonunlar asosida olib borish tarafdori edilar. Bu oqim namoyandalari Szi-Chan, Li-Kuy o'z ta'limotida markaziy davlat kuchli va yagona mamlakatga birlashishini qo'llab-quvvatlashga undaydilar.

Legistlar maktabining vakili Xitoy tarixida mashhur bo'lgan Sham-Yan (er. av. 390-338-yil) o'zining «Shan viloyati hukmdori» kitobini yozdi. Unda qishloq xo'jaligi konsepsiyasida dehqonchilikni, donchilikni (g'alla) rivojlantirishga alohida e'tibor berilgan. G'alla masalasini hal etishni bosh masala deb bilgan. Davlat oldiga amaldorlarni boqish va bosqinchilik urushlarini yuritish uchun juda katta oziq-ovqat zaxiralarini jamg'arish vazifasi yuklatildi. Shan-Yanning ko'rsatishicha, ikkita manba yordami bilan davlat gullab - rivojlanadi: don va urush (atrofdagi yerlarni bosib olish). Dehqonlar ro'yxatini o'tkazish, qonun yo'li bilan yig'ilgan don miqdoriga bog'liq yagona soliq tizimini kiritish taklif etiladi. Qonun yo'li bilan turli «ishyoqmaslar»ni «yerga qaytarish», ya'ni dehqonchilik bilan shug'ullanishga, ya'ni mehnat qilishga majbur etiladi.

Chegarada va bozorda tezlik bilan to'lovlarni oshirish kerakligi, natijada savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchilar daromadlari kamayishi hisobiga ular ham tez kunlar ichida dehqonga aylanadi, deb taklif qiladi.

Qadimgi Xitoy iqtisodiy ta'limotlarida «Guan-Szi» (er. av. IV asr) traktati juda katta o'rin tutadi. Unda o'sha davr uchun xo'jalikni davlat tomonidan boshqarishning butun bir tizimi talqin qilinadi. Bu asarni mualliflar jamoasi tayyorlagan bo'lib, oldingi ta'limotlardan farqi shundaki, unda tovar-pul munosabatlarini yaxshi o'rganish asosida xo'jalikni boshqarishni unumli yo'lga o'tishiga da'vat etilgan edi. Xalq xo'jaligini barqaror saqlash uchun tovarlar baholarini ushlab turish g'oyasi ilgari suriladi. Davlat non va pul metalini tartibga solish yo'lini qo'lida saqlasa, mamlakat rivoji nisbatan tekis boradi, deyilgan. Bu asarda ham agrar soha, ayniqsa, dehqonchilikka alohida urg'u berilgan. Agar legistlar hunurmandchilik, ayniqsa, savdoni befoyda soha deb hisoblagan bo'lsalar, bu asarda esa o'sha sohalarga ham ijobiy baho berilgan.

Asarda iqtisodiyotni bozor stixiyasidan himoyalash masalasi ham o'rta

tashlanib, buning uchun baho mexanizmidan foydalanish kerakligi aytilib, bunday yoziladi: «Bozor-shunday narsaki, unga qarab jamiyatda tartib yoki tartibsizlik hukm surishini bilib olish mumkin».

«Yerni boshqarish» uchun davlat yerning tabiiy xususiyatlarini yaxshi bilishi kerak. Yer maydonlari nisbatan tekis taqsimlanishi zarur. Dehqonlarni ish qizigan davrda boshqa yumushlarga jalb etmaslik, soliq tizimi sharoitiga qarab (yer unumiga bog‘liq ravishda) bo‘lishi taklif etilgan. Bu yerda gap Yer kadastrini tuzish to‘g‘risida boradi, ya‘ni bu ishda hisob-kitob bo‘lishi qayd etiladi. Asarda yer va suvlarni davlat ixtiyoriga o‘tkazish va ularni daromad topish yo‘lida foydalanish baholarni tartibga solish yo‘li va boshqa ko‘pgina iqtisodiy g‘oyalar ilgari suriladi. Bu g‘oyalar amalda ham qo‘llaniladi va yaxshi samara beradi.

Qadimgi Xitoy ijtimoiy hayotida Daotsizm (aynan-yo‘l) g‘oyalari alohida o‘rinni egallaydi, uning asoschisi Lyu-Szidir. U taqiqllovchi qonunlarga amal qilmaslikni taklif etdi; qonunlar ko‘pligi tufayli «xalq kambag‘allashmoqda» degan edi. Daotsizm g‘oyalari konfutsiylikka qarama-qarshi bo‘lib, insoniyat avvalgi majburiyatlardan voz kechishi, oddiy tabiiy hayotga qaytishi kerak, degan fikrni ilgari suradi. Bu g‘oyaga ko‘ra, inson ibtidoiy davrga qaytishi, yangi mehnat qurollaridan foydalanmasligi kerak. Ko‘rinib turibdiki, unda konservatizm unsuri bor, ammo bu g‘oyada ma‘lum ijobiylik ham bor edi. Zero o‘sha davrlarda sivilizatsiya yutuqlari ekspluatatsiya manfaatlariga ham xizmat qilayotgan edi.

4. Qadimgi Gretsiya iqtisodiy ta‘limotlari

Qadimgi Gretsiyaning iqtisodiy ta‘limotlarini o‘rganar ekanmiz, biz quldorlik tuzumini barpo bo‘lishi, rivojlanishi va parokandalikka uchrashi evolyutsiyasini yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Antik dunyo mamlakatlarida quldorlik klassik shaklda rivoj topgan bo‘lib, iqtisodiy g‘oyalar ham o‘sha davrda vujudga kelgan edi. Qadimgi Gretsiya (Yunoniston)da ijtimoiy-iqtisodiy hayotning hamma jabhalarida quldorlik bevosita ishlab chiqaruvchilarni ekspluatatsiya qilishning asosiy shakllariga aylangan edi. Ishlab chiqarish quldorlik munosabatlariga asoslanib olib borilar, qul asosiy ishlab chiqaruvchi kuch hisoblanar edi. Bizgacha yetib kelgan yozma iqtisodiy-adabiy manbalarni o‘rganilishi shuni ko‘rsatdiki, ko‘pgina iqtisodiy g‘oyalar, asosan, yirik aristokratiyaga xizmat qilishga, kuchli davlat barpo etishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Qadimgi Gretsiyada dastlabki iqtisodiy g‘oyalar Gomerning (er. av. X-

VIII asr) ilk iqtisodiy g'oyalar kurtagi bo'lgan «Iliada» va «Odisseya» poemalarida bayon etilgan. Unda, asosan, natural xo'jalik konsepsiyasi ilgari surilgan. Yunon shoiri Gesmad (er. av. VIII-VII asr)ning «Mehnat va qonunlar» asarida boylikning kuchi, hokimiyati aks ettirilgan. U dehqonchilikni ulug'laydi, bu sohada qullar mehnati ishlatilishi ham ma'qul topiladi. U davrlarda oddiy xalq orasida mehnat ancha qadrlangan edi.

Eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda polinoy (shahar) tizimi shakllandi. Qulchilik keng tus oladi, urug'chilik mulki xususiy mulkchilik tomonidan siqib chiqariladi, savdo, sudxo'rlik tez rivojlanadi. Ana shu bosqichda Solop (er. av. 640-559-yil) va Pisistrat (er. av. 560-527-yil) islohotlari pul xo'jaligining afzalligini ko'rsatib berdi. Ular islohotda qulchilikning keng tarqalinishini chegaralash, qulni qarzga berishni tugatish masalalarini bayon qildilar. Bu davrda fuqarolar va fuqaro bo'lmagan aholini bir-biriga qarama-qarshi qo'yadigan qonunlar qabul qilindi. Bu ishlar qullarni hunarmandchilik va savdo sohalarida ekspluatatsiya qilish, savdo va pul xo'jaligini rivojlantirish hisobiga amalga oshirildi.

Qadimgi iqtisodiy ta'limotlarda grek olimlari Ksenofont, Platon va Aristotellarning o'rni va roli, ayniqsa, ahamiyatlidir.

Ksenofont (er. av. 430-335-yil) yirik quldorlik sinfi vakili, Afinaning badavlat aslzodalaridan hisoblanadi. U Afinada tug'ilgan bo'lsa ham demokratik Afina quldorligi tarafdori emas, balki Sparta tuzumi, ya'ni qattiqqo'l quldorlik tuzumi tarafdori edi. Uning birinchi iqtisodiy asari «Ekonomiya» (ekonomikos-uy qurilishi) bo'lib, mazmuni (oykonomiya, «oykos»- uy xo'jalik va «nomos»-qonun, qoida) tom ma'noda uy xo'jaligi to'g'risida qoidani bildiradi. Keyinchalik, bu asar quldorlik xo'jaligini boshqarish uchun qo'llanma bo'ldi. Unda xo'jalikni unumli yuritish g'oyasi ilgari surildi, uy xo'jaligi masalasi fan sifatida o'rganildi.

Ksenofont uy xo'jaligini unumli yuritish deganda, asosan, pul jang'arishni tushunadi. U «*Shunday yashash kerakki, doimo ortiqcha mahsuloting bo'lsin*» deydi. Xo'jalik foydaligini esa u turli narsalarni sotish va sotib olish bilan bog'laydi, jumladan, nonni, quldorlik plantatsiyalarini va boshqalarni sotib foyda ko'rishni quvvatlatadi. Ksenofontning qarashlarida quldorlik tuzumida ayirboshlash munosabatlarining natural shakli evolyutsiyasi o'z aksini topdi.

Ksenofont dehqonchilik va hunarmandchilik haqida gapirib, *dehqonchilikni «eng asosiy hunar»* deb baholaydi. «Ozod insonlar dehqonchilikda boshqarish bilan shug'ullansin, oddiy mehnatni esa qul bajarishi kerak», - deydi. U «Dehqonchilik insonlarni yaqinlashtiradi,

birodarlashtiradi» deyish bilan birga, hunarmandchilikning boshqa turlariga noto'g'ri yondashadi. Uningcha, boshqa hunarlar vaqtini ko'p olib, insonlarni bir- biridan uzoqlashtiradi.

Ksenofont qullar haqida, quldorlar aristokratiyasi vakili sifatida, qullarga «gapiruvchi qurol» sifatida qaraydi. Shu bilan birga, qullarni ishlatishda ikki omil birligini ta'minlashga da'vat etdi: **birinchisi**- «qattiq jazolash» bo'lsa, **ikkinchisi**-«yaxshi muomala qilish». Mana shu usullardan mehnatning unumdorligini orttirishga uchun ham foydalanishga chaqiradi.

Ksenofont mehnat taqsimoti haqida shunday yozadi: «Mehnatni boshqarishda boshqaruvchidan juda katta e'tibor talab qilinadi, chunki u kim yaxshi ishlayapti, kim dangasa, buni bilishi va yaxshi ishlaganlarni rag'batlantirishi kerak». Shu bilan u birinchilardan bo'lib jismoniy va aqliy mehnat o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni tushunishga harakat qildi. Mehnat taqsimoti munosabati masalasida u o'z zamondoshlaridan yana bir pog'ona yuqoriga ko'tarilib, kichik shaharlarga nisbatan yirik shaharlarda mehnat taqsimoti mukammalroq bo'ladi, deb aytadi. «Chunki,-deydi u, -katta shaharda hunarni mukammal bilmay, uning bir qismini bajarish bilan ham yashash mumkin». Mehnat taqsimoti insonlarni turli mehnatlarga ixtisoslashishga olib keladi.

Ksenofont iqtisod fanida birinchilardan bo'lib moddiy ne'matlar ikki tomonlama iste'mol qilinishi, ya'ni iste'mol qiymati va almashuv qiymati sifatida tushunishga harakat qiladi. Tovarning ikki tomoni bormi, deya birinchi savol qo'ygan ham u edi. Haqiqatda u birinchi bo'lib bu savolga javob berdi. U narsalarni insonlar uchun zarur va zararli guruhga bo'ldi. Bu fikrni moddiylashtirib u shunday yozadi: yer, hayvonlar va pul, bulardan kimki foydalana olmasa, uning uchun bular qiymatga ega emas. Qiymat shunday narsaki, undan albatta insonlarga foyda kelishi kerak. Ksenofont narsalarda iste'mol qiymati tushunchasini yoritishga harakat qilib, yana oldinga bir qadam bosdi, almashuv qiymatining mohiyatini yoritishga harakat qildi. U aytadi: «Agar senda musiqa asbobi bo'lsa-yu, lekin sen uni chala olmasang, qiymatga ega emas; agar sen uni sotib yuborsang u qiymatga ega». Bu bilan biz Ksenofontda birinchi bo'lib iqtisod fanida tovarni ikki tomoni, ya'ni uni iste'mol qiymati va qiymati borligi g'oyasini ko'ramiz.

Ksenofontning pul haqidagi ta'limoti ham umumiy iqtisodiy qarashlari singari ziddiyatli, qarama-qarshiliklardan iboratdir. U umuman pulni tan olgisi kelmaydi, lekin shu vaqtning o'zidayoq oltin va kumushni zeb-ziynat hamda boylik orttirish manbayi deb qaraydi. Uningcha, pul

vazifasini faqat kumush bajara oladi. U pulning hamma vazifalarini ikki xil deb tan oldi: pul, bu muomala vositasi va xazina. Sudxo'rlikni qattiq qoralagan. Ssuda kapitali sifatida puldan foydalanishni tavsiya etadi.

Ksenofont iqtisodiy ta'limotini o'rganar ekanmiz, shu narsaga e'tibor berish kerakki, u natural xo'jalik tarafdori bo'lsa ham tovar-pul munosabatlarini o'rganishga va quldorlar sinfiga xizmat qildirishga urindi.

Platon (er. av. 427-347-yil) ham Afina shahrida tug'ilgan yirik aristokratiya vakili edi. U buyuk Suqrotning shogirdi edi. Unda biz tugallangan iqtisodiy ta'limotni topa olmasak ham davlat tuzilishi to'g'risidagi juda qiziqarli ta'limotga egamiz. U davlatning (yoki jamiyatning) ikki sxemasini taklif qiladi va ularni o'zida aks ettirgan ikki asar yaratdi. Bular «Davlat» va «Qonunlar» deb ataladi.

Uning sxemasida, birinchisi davlat qurilishining ideal loyihasi (ideal davlat) bo'lsa, ikkinchisi esa u yashab turgan davrdagi davlat aks ettirilgan edi.

U ideal davlat haqida yozib, bu davlat mehnat taqsimoti asosida tuziladi, ya'ni insonlar qobiliyatiga qarab, biri boshqaruvchi, biri bog'lovchi, ish yurituvchi va yana biri esa dehqon va hunarmandlarga bo'linadi deydi. Mana shunga asosan Platon davlatning ozod aholisini uch guruhga bo'ladi:

1. Faylasuflar.
2. Jangchilar.
3. Hunarmandlar, dehqonlar, savdogarlar.

Faylasuflar davlatni boshqaradilar, jangchilar esa davlatni himoya qiladilar, uchinchi guruhdagilar xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanadilar. Birinchi va ikkinchi guruh vakillari xususiy mulkka ega bo'lmasliklari kerak. Ularning iste'moli davlat tomonidan to'la ta'minlanadi. Uchinchi guruh vakillari esa xususiy mulkka ega bo'ladilar. U qullarni hech qaysi guruhga kiritmaydi, ularga qurol sifatida qaraydi. Bu ideal davlat to'g'risida ta'limotga, asosan, yirik aristokratik quldorlikni himoya qilib yozilgan asar edi.

Platon ikkinchi davlat to'g'risida quyidagicha yozadi. Bu davlatda asosiy e'tibor dehqonchilikka berilsa ham qolgan hunarlarga ham e'tibor beriladi. Bu davlatda qonun yo'li bilan insonlarni mol-mulkiga qarab 4 guruhga bo'linadi; agar kimda-kim boyib ketsa yoki kambag'allahsa bir toifadan boshqasiga o'tadi. Lekin bu yerda Platon yana bir qadam oldinga o'tib, qonunlar insonlarni o'ta boyib ketishiga ham, juda kambag'allashib ketishiga yo'l qo'ymasligi kerak deb ma'lum mezon belgilaydi. Kambag'allikning quyi nuqtasi aniqlanib, insonlarni himoyalashga chaqiradi. Boyib ketishning ham oldi olinib, eng yuqori mezon o'lchanib uni 4 ga

ko'paytirib shundan ortib ketmasligi kerak deyiladi. Bularni kim buzsa, qonun yo'li bilan davlat jazolashi kerak. Bu ikkala davlat sxemasida ham Platon mehnat taqsimotini asos qilib oladi. Bu- o'sha davr uchun buyuk fikr edi. Platon savdo va pul haqida, turli hunarlar to'g'risida mulohaza yuritib, asosiy o'ringa dehqonchilikni qo'yadi.

5. Qadimgi Rim iqtisodiy qarashlari

Qadimgi quldorlik davrining iqtisodiy ta'limotlari tizimida Qadimgi Rimning iqtisodiy ta'limoti ham muhim o'rin tutadi. Rim imperiyasining taraqqiyoti va parokandalikka uchrashi, quldorlik ekspluatatsiyasining inqirozi bilan bevosita bog'liq.

Qadimgi Rimning iqtisodiy ta'limotlarida agrar masala asosiy o'rinni egallagan uchun ham uning eng yirik nomayandalari Katon, Varron va Kolumellar qarashlarida ham agrar muammolar bosh masalalardir.

Katon Mark Porsiy (234-149) Rimning yirik siyosiy arbobi va yozuvchisi edi. U «Dehqonchilik» nomli asar yozib, unda o'z davrining iqtisodiy va qishloq xo'jaligi holatini aks ettirgan edi. U ham barcha xo'jalik hunarlaridan dehqonchilikni eng yuqoriga qo'yadi.

U ideal dehqonchilik tarafdori bo'lib, qullar mehnatidan juda ham unumli foydalanishga chaqiradi. Uningcha, buning uchun ish yurituvchi har bir qulni bekor turmasligini ta'minlashi kerak va kerak bo'lsa, harakatchan, chaqqonlarni mukofatlashi mumkin. U ish yurituvchi ustidan ham yer egasining to'la nazorati kerakligini ta'kidlaydi. Bu asarda Katon birinchilardan bo'lib ijara munosabatlarini ilgari surgan.

U ijaraga yer olinganda ijarachi tomonidan hosilning yarimgacha olinishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, u yerni qay vaqtda va qanday shartnomalar asosida ijaraga berish haqida maslahatlar beradi. Umuman, bu asar Italiyada er. av. II asrda qanday holatda dehqonchilik yuritilganligi haqida birinchi yozma ma'lumotlarni beradi.

Varron Mark Tereniy- (116-27) Rimning ko'zga ko'ringan olimi va yozuvchisi edi. U o'zining «Qishloq xo'jaligi haqida» nomli asarida Katonga nisbatan iqtisodiy ta'limotda yana bir qadam oldinga bosdi, u qishloq xo'jaligini yanada intensivlashtirish hamda ko'proq daromad olish maqsadida tovar-pul munosabatlaridan ham foydalanishni tavsiya etadi. U qishloq xo'jaligidan ko'proq foyda olish uchun ishlab chiqarishni ilmiy asosda tashkil qilishga chaqiradi. Buning uchun: qishloqdan tovarni chekka o'lkalarga olib borib sotib, chetdan bu yerda yo'q mahsulotlarni olib

kirish kerak, shuningdek, ko'proq daromad olish uchun dehqonlar bozor bahosini o'zgarishini, albatta, hisobga olishlari zarur, deb ta'kidlaydi.

U dehqonchilik bilan birga daromadli soha deb, chorvachilikni ham, tavsiya qiladi. Qullarga u «gapiradigan qurollar» deb qaraydi. U Katondan farq qilib, qullarni ishlatuvchi, boshqaruvchining o'zi qul bo'lmasligi, aqlli va ma'lum bilimga ega odam bo'lishi kerakligini aytadi. Yana u qulni ham, boshqaruvchini ham moddiy rag'batlantirishni taklif etadi. Agar Katon qullarni qattiq ekspluatatsiya qilish tarafdori bo'lgan bo'lsa, Varron xo'jalikni intensivlashtirish tarafdori sifatida maydonga keldi. Bu esa qullarning Italiyadagi quldorlik tuzumiga qarshi yirik harakatlarining ta'siri edi.

Kolumella Lushiy Moderat - Rimning ko'zga ko'ringan agronom olimi edi. U o'zining «Qishloq xo'jaligi haqida» asarida krizisga uchragan Rim quldorlik davlatining xo'jalik holatini aks ettirishga urinadi. U qishloq ho'jaligida unumdorlikni pasayib borishini tabiiy deb ta'kidlashlarini tanqid qilib, uning bosh sababi dehqonchilikda xo'jalik yuritishni bilmaslikda, deb ta'kidlaydi. Uningcha, yerlar «jazolash» uchun «yomon qullarga» berib qo'yilgan degan fikrni ilgari surgan. Yirik quldorlik xo'jaliklari o'rniga uncha katta bo'lmagan unumli xo'jalik yuritish tarafdori edi. U qullarning mehnat unumdorligini orttirishga chaqiradi. U mahsulotlardan shaxsiy iste'mol uchun foydalanishdan ko'ra sotish uchun ishlab chiqarishga chaqiradi.

U o'zidan oldingi olimlardan farq qilib, qullardan foydalanishda mehnat taqsimoti va rag'batlantirishdan foydalanishni ham targ'ib qildi.

Uning ta'limotida Katon va Varronlardan yana bir farq qiluvchi mulohaza bo'lib, bu ham bo'lsa, yer egalari bilan ozod bo'lgan insonlar o'rtasidagi ishlab chiqarish munosabatlarini tahlil qilishga qaratilgan harakatdir. Kolumellaning iqtisodiy qarashlarida Italiyada eramizning birinchi asrlarida quldorlik tuzumining inqirozi yaqqol ko'rinmas edi. Bulardan keyin Rim olimlari qarashlarida erkin insonlar mehnatini ko'proq targ'ib qilinishi va quldorlik tuzumini himoya qilishni juda qiyinlashib borishini ko'rishimiz mumkin.

Qadimgi dunyoning iqtisodiy ta'limoti tarixi bilan tanishib, quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

- bu davr olimlari qarashlarida quldorlik tuzumi himoyachilarining qiyofalari mavjud;

- bu ta'limotdan tovar-pul munosabatlarini kishilik jamiyatida juda qadimdan qo'llanilganligini bilib olamiz;

- bu davr olimlarining ilmiy iqtisodiy, o'ziga xos fikrlari hozirgi zamon iqtisodiy ta'limot va fanining asosi bo'lganligi ko'rinib turibdi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Nima uchun ilk iqtisodiy ta'limotlar aynan Sharqda paydo bo'lgan?
2. «Hammurabi qonunlari»ning asosiy qoidalari.
3. «Artxashastra» asaridagi iqtisodiy tushunchalar
4. Qadimgi Hindistonda savdoning o'rni va ahamiyati qanday bo'lgan?
5. Qadimgi Xitoyda mulkchilikning necha xil shakli ko'rsatilgan?
6. Qadimgi Xitoydagi Konfutsiy iqtisodiy ta'limotida davlatning iqtisodiy siyosati nechta tamoyilga asoslangan?
7. Qadimgi Gretsiya ta'limotida qanday g'oyalari ustuvorlik qilar edi?
8. Ksenofont iqtisodiy qarashlari-nimalardan iborat?
9. Platon iqtisodiy g'oyalari mazmunini ayting.
10. Qadimgi Rim iqtisodiy ta'limotlari qanday?

TAYANCH IBORALAR:

«Geraklepolik shohning o'z o'g'liga nasihatlari» - Qadimgi Sharqda davlatni qanday boshqarish bo'yicha qonun va qoidalar bayon qilingan, qadimiy yozma yodgorlik (er. avv. XXII asr). Unda davlatni boshqarish san'ati, boshqaruv apparati faoliyati va uni samarali tashkil etish, aholining davlat bilan bo'ladigan munosabatlari, boshqaruv ishiga qanday odamlarni jalb etish masalalari yoritilgan. Bu asarda ishlab chiqaruvchilarning huquqlari, ular faoliyatini tartibga solish, davlat boshqaruvi xodimlarining xalq bilan qanday muomalada bo'lishi, bu apparat xodimlarini rag'batlantirish kabi qoidalar o'z ifodasini topgan.

Artxashastra- bu Hindistonda yaratilgan iqtisodiyot ilmining ilk asaridir. Asarning nomi ham iqtisodiyot tushunchasi bilan bog'liq, ya'ni «artxa»- foyda, moddiy manfaat, «shastra» esa ilm, ilmiy asar ma'nosini anglatadi. Asarda-butun aholi 4 ta kastaga (tabaqaga) bo'linadi: braxmanlar, kshatriylar, vayshiyalar va shudralar. Unda yozilishicha, iqtisodiyotning rivoji kastalarning o'z qonunlari asosida yashashlari va ishlashlariga bog'liq; podshohning vazifasi kastalarning aralashib ketishlariga yo'l qo'ymaslikdir. Unda qullar sotilishi va sotib olish mumkinligi ko'rsatilib, ular ham xususiy mulk egasi bo'lishi mumkin, deyiladi; savdo haqida, savdoning xo'jalik yuritishning asosiy shakli ekanligi, davlatni boyishiga savdoning rivoj topishi ta'sir etishi, savdo foydasi haqidagi fikrlar bayon etiladi.

Konfutsiy ta'limoti- bu ta'limot Xitoyda (er. av. I ming yillik) da vujudga kelgan. Ta'limot asoschisi Konfutsiy yoki Kun-szidir. Bu ta'limot «Lun-

yuy» nomli to'plamda («Suhbat va muhokama») bayon etiladi. Asarda ulug'zodalik, aslzodalik, zadogonlik pozitsiyasi himoya qilinadi: bu ta'limot quldorlik tuzumini himoya qilib, «tabiiy huquq» qoidasini ilgari suradi. «Tabiiy huquq» ta'limotining mazmuni shuki, butun olamni Xudo yaratadi, biroq u ijtimoiy hayotga aralashmaydi, odamlar hayoti tabiiy qonunlar bilan rivojlanadi, tabiiy qonunlarni aql bilan idrok etib olinadi va fuqarolik hayoti ana shu qonunlar asosida himoya qilinadi. Asar markazida podshohni, qariyalarni, amaldorlarni cheksiz hurmat qilish, ularga itoat etish, boyliklarni tekis taqsimlash, barchaning o'z vazifalarini sidqidildan bajarishi, qishloq xo'jalik ishlarini yaxshi bajarish, soliqlarni to'lab borish kabi qoidalar ilgari surilgan. Ushbu ta'limot bo'yicha jamiyatdagi mulklar ikki turga bo'linadi: «buyuk jamoa mulki»-dehqonlar jamoasi mulki va xususiy mulk, quldorlar mulki. Bu ta'limot Xitoyda uzoq yillar amal qildi va hozir ham uning asoratlari saqlangan.

Legistlar- konfutsiychilik ta'limotiga muholifat sifatida chiqqan iqtisodiy ta'limot. Legistlarning yirik vakili Sham Yan bo'lib (er. av. IV asr), uning ta'limoti «Sham viloyati hukmdori» kitobida bayon etilgan. Asarda qishloq xo'jaligiga, xususan, g'allachilikka ustuvorlik berilib, g'alla masalasi bosh masala deyiladi. Kitobda davlatning rivojlanishi ikki manbaga suyanadi: don ishlab chiqarish va urushlar olib borish (yangi yerlar bosib olish), unda don miqdoriga bog'liq holda soliq tizimi taklif etilgan; ishyoqmas, qonunni buzuvchi kishilarni «yerga qaytarish», dehqonchilik bilan shug'ullanishga majbur etish tavsiya etilgan.

Daotsizm- konfutsiychilik ta'limotiga qarama-qarshi bo'lgan reaksiyroq iqtisodiy ta'limot. Unga ko'ra, insoniyat ibtidoiy davrga qaytishi, yangi mehnat qurollaridan foydalanmasligi, oddiy hayot kechirishi, qonunlarni ko'paytirmaslik lozim. Aslida bu ta'limot Xitoyda konfutsiychilikdan qaytish edi.

Ksenofond (er. av. 430-335-yil). Qadimgi yunon olimi. U qullikni qo'llab-quvvatlagan, dehqonchilikni barcha san'atlar onasi, boquvchisi deb baholagan. Uning iqtisodiy g'oyalari «Ekonomiya» asarida bayon etilgan. U uy xo'jaligi masalasini fan sifatida o'rganishi kerak deb, uy xo'jaligini unumli yuritishga da'vat etgan. Mehnat taqsimoti masalasida boshqaruvchiga katta o'rin ajratgan. U iqtisodchilar ichida tovar haqida birinchi fikr yuritganlardan bo'lib, tovarning ikki jihati borligini bildirgan. Ularni odamlarga zarur va zararli bo'laklarga ajratgan. U pulni tan olmaydi, oltin va kumushni zeb-ziynat deb baholaydi.

Platon- (er. av. 427-347-yil)- yirik yunon olimi. U «Davlat va qonunlar»

asari bilan mashhur. U jamiyatni uch guruhga bo'lgan, qullarni ishlab chiqarish quroli deb hisoblaydi, natural xo'jalik yuritishni afzal deb biladi. U «ideal davlat» g'oyasini ilgari surgan, unga ko'ra odamlar o'z qobiliyatlariga ko'ra turli mehnat faoliyatlarini tanlaydilar. Jamiyatni faylasuflar boshqaradi, jangchilar himoya qiladi, hunarmand, dehqon va savdogarlar xo'jalik bilan shug'ullanishlari lozimligini uqtirgan.

Katon – (er. av. 234-149-yil) -Qadimgi Rim olimi. U «Dehqonchilik to'g'risida» nomli asari bilan mashhur bo'lgan. Bu asarda qishloq xo'jaligiga ko'proq e'tibor berishga da'vat etadi, ko'proq sotish va kamroq sotib olish tarafdori edi. U qullarni oqilona ishlatish, yaxshi ishlagan qullarni sharoitini yaxshilash, unumsiz ishlaganlarini esa qattiq jazolashni tavsiya etgan. U yer ijarasi haqidagi g'oyani ilgari surgan dastlabki olimlardan edi.

IV bob. ISLOM DINI IQTISODIY QADRIYATLARI

Mamlakatimiz erishgan ulug' ne'mat-mustaqillik tufayli xalqimiz o'zining muqaddas dini bo'lmish islom ma'naviyatiga erishdi, unga eminerkin e'tiqod qilish, uni o'rganish va undagi buyuk insonparvar ilohiy g'oyalarni qalblarga joylab, ma'naviy poklanish imkoniyatiga sazovor bo'ldi. Bugungi kunda bu ulug' dinimiz milliy mafkuramizning ma'naviy-diniy ildizi sifatida inson ongi va ruhiyatini poklash, ezgu so'z, ezgu amal, ezgu fikrga intilish, ilm va hunar egallash orqali halol yashash va ishlash, o'z muqaddas Vatani ravnaqi uchun fidoiy bo'lish visitasiga aylandi.

Vatanimiz taraqqiyotining hozirgi g'oyat murakkab bosqichida otobobolarimiz dinning mohiyatini, uning muqaddas kitoblaridagi, Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sallallohu alayhivassalam hadislaridagi g'oyalarni, xususan, iqtisodiy fikrlarni yoshlarimiz ongiga yetkazish juda dolzarb vazifalardandir. Prezidentimiz I. Karimov uqtirib kelayotganidek, dinimiz xalqimiz ma'naviyatining yuksalishiga doimo munosib hissa qo'shib kelgan va bundan buyon ham ana shunday manba bo'lib, milliy mafkuramizni shakllantirish va singdirib borishda muhim ahamiyat kasb etadi. *«Biz, -deb yozadi Islom Karimov o'zining mashhur asarlaridan birida, - musulmonchilikning ulug' madaniy qadriyatlari huquqini qayta tikladik. Binobarin, qalbimiz bu bebaho xazinani chuqurroq idrok qila borgani sayin, xalqning hayoti ma'naviy jihatdan boyroq va axloqiy jihatdan pokizaroq bo'la beradi».*

Iqtisodiy taraqqiyotning turli bosqichlari va usullarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, islom dini moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishda va ularni iste'mol qilishda, odamlarning iymon-e'tiqodiga katta ta'sir etib kelgan. *«Ko'hna tariximizning qaysi davrini eslamaylik, uni har doim odamlarni o'z-o'zini idora etishga, yaxshi xislatlarni ko'paytirib, yomonlaridan xalos bo'lishga chorlagan. Har bir alohida insonga, oila, jamoa, mintaqa, bir so'z bilan aytganda, umumxalqqa rahnamo bo'lgan. Uni og'ir sinovlarga bardosh berishga, yorug' kunlarga intilib yashashga da'vat qilgan, ishontirgan. Bunday da'vat, o'z navbatida, odamlarga kuch-quvvat bag'ishlagan, irodasini mustahkam qilgan, bir-biriga mehru oqibatini oshirgan'».*

Diniy ta'limot tarkibida iqtisodiy tafakkurning o'rni katta. Bu tafakkur islomning muqaddas kitoblarida targ'ib qilinib kelindi.

I. Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida, T., 1995, 151 – bet

1. «Qur'oni karim»ning iqtisodiy qadriyatları

Islomning asosiy manbai-«Qur'oni karim»dir. Uning har bir oyati bandalarni poklikka, iymonga chorlaydi. Uning 293 ta oyati bevosita iqtisodiy tafakkurga bag'ishlangan. Boshqa juda ko'p oyatlarda ham qisman iqtisodiyotga oid fikrlar berilgan. «Qur'oni karim» insonlarni halol mehnat qilishga, tejamli bo'lishga, mehru shafqatga, halollikka undaydi.

Mehnat-hayot va oxirat kafolati. Hayot shunday ne'matki, u insonga faqat bir marta beriladi. Demak, uni shunday o'tkazish kerakki, u odamlarga bu dunyoda baxt-saodat keltirsin, oxiratda hisob-kitobni oson qilsin. Buning uchun odam hayot vaqtida umrini bema'ni o'tkazmay, yaxshi amallarga sarflashi kerak.

Halol mehnat qilish bu dunyo va u dunyoda baxt-saodatni kafolatlaydigan amaldir. Zero, «Qur'oni Karim»ning bir qancha oyatlarida mehnat har tomonlama ulug'langan, u zarur ibodat ekanligi ta'kidlangan.

Parvardigori olam odamzodni yaratish bilan unga nafsni berib qo'ydi. Odamlar yashash uchun iste'mol qilishlari, oziq-ovqat yeyishlari, kiyim-kechak kiyishlari, ma'lum turar-joy sharoitlariga ega bo'lishlari kerak. Odamlar uchun kerak bo'lgan bu iste'mol buyumlari tabiatda tayyor holda mavjud bo'lmaydi. Alloh taolo moddiy ne'matlarning manbalarini bunyod etdi va ularni iste'mol uchun kerak bo'lgan narsalarga aylantira olish uchun odamlarga kuch-quvvat, aql-idrok berdi. Aql-idrokni ishga solib, kasb-korni egallab, Alloh yaratgan imkoniyatlardan o'z rizqini terib yeyishni insonlar zimmasiga yukladi.

«Qur'oni Karim»ning bir qancha oyatlarida o'z mehnati bilan Parvardigor yaratib qo'ygan rizqini terib yeyish zarurligiga da'vat qilingan. «Taborak» (Mulk) surasining 15-oyatida shunday deyiladi: Ma'nosi, «*U (Alloh) sizlar uchun Yerni xokisor-bo'ysinguvchi qilib qo'ygan zotdir. Bas, u (Yer)ning har tomonida yuraveringlar va (Allohning bergan) rizq-ro'zidan yenglar. Yolg'iz uning huzuriga tirilib chiqish-qaytish bordir*».

Ulamolarimiz ushbu oyati karimaning tafsirini islomda mehnatga chorlashga dalil qilib keltiradilar. Darhaqiqat, Alloh taolo Yerni yaratib, uni insonga bo'ysundirib qo'yish bilan birga, insonlarga bu ulug' ne'matdan unumli foydalanish uchun dangasalik, ishyoqmaslik qilmasdan, kasb-korni puxta egallab, rizqni undirib yeyishga undagan. Bu yerda gap bag'oyat ulug' ne'mat-yer to'g'risida ketsa ham, uni keng ma'noda Alloh taolo barcha imkoniyatlar to'g'risida aytmoqda, deb tushunilsa o'rinliroq bo'ladi.

Mana shunday Alloh yaratgan imkoniyatlar va ulardan aql-idrok bilan

kasb-korni egallab, o'z rizqini terib yeyishlari bandalarning burchlari ekanligi to'g'risidagi da'vatni biz «Qur'oni karim»ning «Baqara» surasining 3, 22, 25, 33, 57, «Nahl» surasining 11, 12, 114, «Qasos» surasining 76, 77, «Ankabut» surasining 17, 62, «Sajda» surasining 27, «Yosin» surasining 34, 35, «Va-ssaffot»surasining 41-44, «Sod» surasining 50-51, «Zumar» surasining 21-oyatlarida ham ko'ramiz. Alloh taolo o'z kalomida bandalarini o'zi bergan ne'matlariga shukur qilib, toat-ibodat qilishga, bu ne'matlardan to'g'ri foydalanishga chaqiradi. Allohga imon keltirish, undan qo'rqish insonni yaxshi, xayrli ishlarga yo'naltiradi. U iqtisodga adolat, omonat, halollik ma'nolarini berib, ochko'zlik, harom va adolatsizliklardan chetlatadi. Demak, imonli odam dangasalik, ishyoqmaslik qilmasdan, g'ayratli bo'lishi, biror kasb-hunarni egallab, halol mehnat qilishi kerak.

Insonning mehnati, sa'y-harakati faqat dunyo ne'matlaridan ko'proq bahramand bo'lishi uchungina emas, balki oxiratdagi hisob-kitob uchun zarurdir.

Payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallam marhamat qilib aytadilarki, «*Alloh taolo o'z bandalari ichida g'ayratlisini yoqtiradi*». Hadisi shariflardan birida: «*Ey Parvardigor, men sendan, g'am-tashvishdan, xafalikdan, ojizlikdan, dangasalikdan, baxillikdan, qo'rqqoqlikdan, qarzdorlikdan va xorlikdan panohtilayman!*» deyilgan.

Insoniyat bosib o'tgan uzundan-uzoq yo'l mehnat jarayonidan iboratdir. Shu boisdan kishilar mehnatni qadrlashlari, ulug'lashlari, yoshlarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashlari kerak. Zero, Payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallam o'z hadislaridan birida: «*Odamlarning yaxshisi odamlarga manfaat keltirganlaridir*», deb bejiz aytmaganlar. «Qur'oni karim»da ham bu borada alohida ta'kidlanadi.

Islomda mulk masalasi. Iqtisodiyot nazariyasida mulk, mulkiy munosabatlar masalasi asosiy o'rin egallaydi. Zero, har qanday jamiyat iqtisodiy tizimining asosini mulkchilik tashkil etadi. Mulchilik — kishilar o'rtasida ishlab chiqarish vositalari va mehnat mahsulini o'zlashtirish yuzasidan paydo bo'lgan va tarixiy aniq bir shaklda namoyon bo'luvchi iqtisodiy munosabatdir. Mulk egasi bo'lish va bo'lmasligiga qarab kishilarning jamiyatdagi mavqiyi, ularning ijtimoiy maqomi yuzaga keladi.

Islomda mulk tushunchasi, uning mohiyati, odamlar qo'lidagi boylik — bu Allohning boyligi, odamlar-esa faqat uning yerdagi boshqaruvchilari ekanligini tan olishdan iborat.

Ijtimoiy manfaatlar o'rtasidagi kelishuv, uning asosini mulk-sarmoya

tashkil etadi. Islom shaxsiy manfaat ijtimoiy manfaatga zarar keltirsa, uni (shaxsiy manfaatni) ma'qullamaydi. Shuning uchun ham ularning kelishuvini yoqlaydi. Sarmoya ijtimoiy vazifani bajarishi, iqtisodiyot va jamiyatga foyda keltirishi uchun doimo harakatda (oborotda) bo'lishi kerak.

Xususiy va ijtimoiy mulk ma'lum ijtimoiy manfaatlarga xizmat qiladi. Xususiy mulkning har qanday shakli jamiyat tomonidan nazorat qilinishi va jamiyat manfaatlariga xizmat qilishi ham kerak. Demak, islom dinida xususiy mulk ijtimoiy vazifani bajaradi.

Ijtimoiy boylik—jamiyat ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan tabiiy boyliklardir. Bu boyliklardan jamiyatning barcha a'zolari foydalanishlari mumkin, lekin ularga tanho hukmronlik qilish va g'arazli maqsadda foydalanish qat'iyani taqiqlanadi. «Qur'oni karim»ning bir qancha oyatlarida bironing haqiga xiyonat qilish qoralanadi. «**Baqara**» surasining 188-oyatida «Moldunyolaringizni oralaringizda nohaq — harom yo'llar bilan yemangiz, ya'ni bir-biringizning haqqingizni yemang. Va (gunoh qilayotganingizni) bilib turib, odamlarning mollaridan bir qismini harom yo'l bilan yeyish uchun mollaringizni pora qilib hokimlarga uzatmang», deyilgan. Bu oyati karimada Alloh musulmonlarga bir-birining molini botil — harom yo'l bilan yemoqdan qaytarmoqda.

Shariat qonunlari to'g'risidagi «**Muxtasar**» nomli kitobda musulmonchilikda mulkiy munosabatlar qanday bo'lishi kerakligi batafsil bayon etilgan.

Oilaning mulkiy munosabatlari. Jamiyatning mustahkamligi har jihatdan oilaning mustaxkam bo'lishiga bog'liqdir.

Shuning uchun islom dinida oiladagi mulkiy munosabatlarga katta e'tibor beriladi.

«Qur'oni karim»ning «**Niso**» surasida yangi islomiy jamiyat qurishga bo'lgan intilish o'z aksini topgan. Jumladan, yetimlarning haqlariga rioya qilish, kichik yoshdagi bolalar, zaif kishilar va ayollar huquqlarini himoya qilish masalalariga alohida e'tibor berilgan. Shuningdek, bu surada ayollardan jabr va zulmni ko'tarib, ularga haqiqiy insoniy munosabatda bo'lish yo'lga qo'yilgan. Surada mahr masalasi keng bayon qilingan.

Islom dinidan ilgari turmushga chiqariladigan xotin-qizlarning mahrini ularning otasi, aka-ukasi yoki boshqa qarindoshi kuyov tomon bilan savdolashib, olishar va o'zlari tasarruf qilishardi. Islom dini bu noma'qul oldi-berdini harom qildi. Mahrni kelinga berilishi farz bo'lgan haqqa aylantirdi. Mahr kelinning shaxsiy mulkiga aylandi.

Oila ichidagi mulkiy munosabatlarda nafaqa ham katta o'rin tutadi.

Islom shariati qonunlarida urning xotiniga, farzandlariga, ota-ona, bobo-momolariga, yaqin qarindoshlariga beradigan nafaqalari, ularning miqdori va shartlari aniq bayon etilgan.

Oila ichidagi mulkiy munosabatlarda merosning o'rnini katta. **Meros** deb voris qoldiruvchilarga tegishli bo'lgan mulkiy va shaxsiy huquq hamda majburiyatlar yig'indisiga aytiladi. Meros vafot qilgan odamning mol-mulkini haqdor oila a'zolari o'rtasida taqsimlanishini o'zida ifodalaydi. Merosning to'g'ri taqsimlanishi oila a'zolari o'rtasidagi totuvlikni ta'minlasa, noto'g'ri taqsimlanishi urish-janjallarni keltirib chiqarishi mumkin.

«**Qur'oni karim**»da, **Hadisi sharif** va shariatning **fiqh** kitoblarida meros haqida yetarli ma'lumotlar berilgan. «**Niso**» surasida meros oila a'zolari o'rtasida qanday taqsimlanishi aniq ko'rsatilgan. Payg'ambarimiz o'zining bir qancha hadislarida «Qur'oni karim» ta'limotidagi merosga oid fikrlarni keng sharhlab berganlar. Islomiy fiqh kitoblarida meros to'g'risida ancha chuqur ma'lumotlar berilgan. «**Muxtasar**»da ta'kidlanishicha, agar vafot etuvchi tirikligida mol-mulkni vorislariga vasiyat qilib qoldirmagan bo'lsa, qolgan mol-mulkidan avval vafot qiluvchining qarzi to'lanishi, qolgan mol-mulkini esa merosxo'rlariga «Qur'oni karim»da belgilangan tartibda taqsimlanishi ko'rsatilgan.

Rahbarlikda halol bo'lish masalasi. Iqtisodiyot tizimida rahbarlik (boshqaruv) katta o'rin tutadi. Boshqaruvning to'g'ri tashkil etilishi iqtisodiyotni sog'lomlashtirish, uning samaradorligini oshirish, taraqqiyotini tezlashtirishini ta'minlaydi. Buning uchun iqtisodiyotni boshqarishda iste'dodli, bilimdon kadrlarga tayanish kerak. Ular halol-pok, mas'uliyatli, insofli, vijdonli, o'z manfaatini xalq manfaatidan, jamiyat manfaatidan yuqori qo'ymaydigan shaxs bo'lishlari kerak.

Islomda davlatning xo'jalik turmushini tartibga solishdagi rolga katta ahamiyat beriladi. Unda davlat tabiiy boyliklarning taqsimotchisi sifatida ham, iqtisodiy kamchiliklardan va tabiiy boyliklarga monopoliyalardan asrovchi sifatida ham, ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi sifatida ham, ularning egasi sifatida ham maydonga chiqadi.

«Qur'oni Karim»da rahbarlarning mas'uliyati va halol-pok bo'lishlari to'g'risida ko'p gapirilgan. «Qur'on»da ko'rsatilgan ana shu yo'ldan odamlarni boshlab borish uchun rahbarlar iymon-e'tiqodli, halol-pok bo'lishlari kerak. Bu borada bobomiz Sohibqiron Amir Temurning barcha ishlarida «Qur'on»ga suyangani rahbarlar uchun ibratlidir.

2. «Hadislar»dagi iqtisodiy qadriyatlar

«Iqtisodiy ta'limotlar tarixi»ni o'rganishda islom iqtisodiy qadriyatlarining eng yirik manbalaridan biri «**Qur'oni karim**» bo'lsa, keyingisi **Hadisi sharifdir**. Ushbu manbalar o'zining hayotiyligi bilan faqatgina Uyg'onish davri O'rta Osiyodagi, Amir Temur va temuriylar davri, XX asr boshlaridagi o'zbek iqtisodiy ta'limotlaridagina emas, balki O'zbekistonni bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagi iqtisodiy ta'limotlarni yaratishda ham e'tiborga olinayotgani Hadisdagi iqtisodiy qadriyatlar katta hayotiy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Bozordagi munosabatlar haqida. Bozorda har xil iste'mol ne'matlari sotiladi. Biroq, aynan bir xil iste'mol buyumlari ham almashishi mumkin. Payg'ambarimiz qimmatbaho metallar savdosi misolida buni tushuntiradi.

Bu yerda shunga e'tibor berish kerakki, oltinni oltinga sotish mumkin, lekin qanday ko'rinishda, og'irlikda, bunda biror tomon afzallikka egami? Kumushni oltinga, oltinni kumushga sotish mumkinmi?

«Oltinni oltinga (ular tanga yoki biror buyum shaklida bo'ladimi yoxud quyma bo'ladimi, bundan qat'iy nazar) bir-biriga teng og'irlikda sotingizlar, birini ikkinchisidan afzal qilmangizlar. Kumushni kumushga ham aynan shu tarifa sotingizlar! Savdolashib turgan yeringizdan jilmay turib, bir-biringizni molingizni qo'lga olingizlar!»

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, sotuvchi ham o'z molining aybini yashirmasligi, harid qiluvchi ham pul berishda g'irromlik qilmasligi lozim, faqat shundagina savdoda baraka bo'ladi, agar har ikkala tomon ham bir-birini aldasa, g'irromlik qilsa, bu savdo halol savdo emas. Savdo halollikni yoqtiradi va shuning uchun sotuvchi ham, oluvchi ham rost gapirishi shart.

Savdo-sotiqdagi halollikda dastlab sotuvchining o'z moliga adolatli, insofli, har ikkala tomonga ham manzur bo'larli darajada narx qo'yishi bilan boshlanadi. Chunki sotuvchi mol egasi bo'lgani uchun dastlabki narxni haridorga birinchi bo'lib taklif etishga haqlidir.

Hadisdagi rivoyatlarda: «*Kimki biror oziq-ovqat mahsulotini ko'tara sotib olgan bo'lsa, uni uloviga ortmay (ya'ni sotib olingan yeridan bo'lak joyga olib bormay) turib qayta sotib yubormasligi kerak, chunki tijorat odobi shuni taqozo qilur*» (54-bob), deyiladi. Amalda tijoratning bunday odobiga qattiq amal qilingan, odobsizlik qilganlarni esa kaltaklaganlar.

Halol savdo qilish hosiyati. Savdo-sotiq ishlarida amal qilinadigan

¹ Hadis, 1 – jild. T., 1997

shartlardan yana biri savdogar boshqa savdogarning savdosini buzmasligidir. Bir savdogar boshqa savdogarning savdosiga: birinchidan, toki o'zi ruxsat bermaguncha va ikkinchidan esa u odam savdoni tark etmaguncha aralashmasligi va uchinchidan esa, biror molni sotib olish uchun uning savdosini aynitmasligi lozim. Payg'ambarimiz: «*Birortangiz birodaringiz savdosini ustiga savdo qilmangiz.*» (56-bob) deganlar. Bu gapdan boshqalar molini olib qolib qimmatroq narxda sotish, aldash maqsadida narxni ataylab oshirish, savdogar savdosi ustiga savdo qilishga yo'l qo'ymaslik kabi mazmunlar yotadi.

Savdo-sotiq ishida sudxo'rlik qoralanadi, 22-bobda: «Sudxo'r bo'lgan kimsalar qiyomat kuni jin chalgan majnun kabi turadilar», deyilib, sudxo'rlar uchun u dunyoda ham jazo borligi aytiladi. 23-bobda sudxo'r xususida gap ketib, «Ey mo'minlar, Allohdan qo'rqingiz va agar chindan ham mo'min bo'lsangiz, sudxo'rlikni tark qilingiz! Agar (farmonimizni) bajarmasangiz, u holda Alloh va uning Rasuli tomonidan (sizlarga) urush e'lon qilinur. Agar tavba qilsangiz, sarmoyangiz o'zingizga — zolim ham, mazlum ham bo'lmas. Agar (qarzdor) nochor bo'lsa, boyiguncha kutingiz. Agar bilsangizlar, (bergan qarzingizni) sadaqa qilib yuborishingiz o'zingiz uchun yaxshidir. Va (barchangiz) Allohga qaytariladigan kundan qo'rqingiz! So'ngra, har bir jonga qilgan amaliga yarasha to'la jazo berilur va hech kimga zulm qilinmas», deyiladi.

G'irromlik qilish ham sudxo'rlikning bir ko'rinishi sifatida qoralanadi.

Bo'nak (avans) — hadisiy qoida. Hadisda bo'nak berib mol olish haqida hammasi bo'lib 8 ta bobdan iborat bo'lgan kichik kitob ham berilgan bo'lib, unda bo'nak (avans) berib mol olishda kafolat berish, molning bir qismini ma'lum muddatda uzish sharti bilan mol olish kabi holatlarni adolatli hal etish usullari ko'rsatib berilgan.

Kitobning 2-bobida Payg'ambarimizning Madinaga kelishi xususida gap ketganda, odamlar bo'nak (avans) berib, qolgan haqini bir-ikki yil ichida o'z sharti bilan samar (don-dun, meva-cheva va sabzavot) berish odati mavjud bo'lgani yoziladi. Payg'ambarimiz odamlarga yanada qulayroq bo'lishi va masalani adolatliroq hal etish maqsadida: «Kimki bo'nak (avans) berib, qolgan haqini ersa ma'lum muddatda uzish sharti bilan xurmo (va undan bo'lak narsalar) oladigan bo'lsa, o'lchanadiganini o'lchab, tortiladiganini tortib olsin», deb o'z maslahatini beradi. Shuningdek, ushbu kitob Payg'ambarimiz davrlarida odamlar bo'nak (avans) berib, qolgan haqini ma'lum muddatda uzish sharti bilan mahsulotlarini o'lchab, tarozida tortib olingani, nasiyaga taom sotib olishda

qolgan haqning kafolati uchun temir sovutlar garovga qoldirilgani kabi rivoyatlar bor. Bularndan shunday xulosaga kelish mumkinki, hozirgi paytda ham kishilar o'rtasida ma'lum muddatni kelishib olib, bir-birlariga yer yoki pul qarz berib, uning evaziga yoki bir qismiga qishloq xo'jalik mahsulotlari, hayvon yoki boshqa tovar olish odati juda qadimdan mavjud bo'lgan va u kundalik hayot taqozo etgan talablari asosida tobora takomillashib bormoqa.

Hadislarda juf'a kitobi ham berilgan bo'lib, undagi uchta bobda juf'aning mohiyati va ahamiyati ko'rsatib berilgan. Unda taqsimlangan, hali chegarasi aniq belgilanmagan umumiy mulkda juf'a huquqi borligi, lekin ular taqsimlanib, chegaralari aniq belgilanib, uning egasi aniq bo'lsa, bu huquqning barham topishi xususidagi fikr talqin etilgan.

Juf'a iqtisodiy va huquqiy asnodda yerlari tutash bo'lgan qo'shnilarning bir-birlarining uy va yerlarini hamda biror mulkka sherik yoxud biror mulkda ulushi (nasibasi) bor kishilarning bir-birlarining ulush nasibalarini birinchi bo'lib sotib olish huquqlarini bildiradi. Bu yerda birinchi bo'lib ulushni kim sotib olish huquqiga ega ekanligiga e'tiborni qaratish lozim va bunday fikrga kitobning 2 va 3-boblarida berilgan rivoyatlarda yanada aniqlik yuritilib, qo'shnining ijozatisiz o'z uyi va yerini, sherigining ruxsatisiz o'z ulushi (nasibasi)ni sotolmasligi, sotganda ham agar ikkita qo'shnining qay birining eshigi o'zingga yaqinroq bo'lsa, faqat unga boshqalarga qaraganda arzonroq narxda sotish lozimligi ko'rsatilgan. Bunda Payg'ambaramizning: «qo'shni qo'shniga uy-joylarining tutashligi birlan boshqalardan ko'ra haqliroqdur», degan maslahatlari hech qanday jamoaga tegishli bo'lmagan, taqsimlanmagan umumiy mulkka nisbatan juf'a huquqiga asos qilib olinganligini ta'kidlab o'tish lozim.

3. «Muxtasar» asarining iqtisodiy g'oyalari

«Muxtasar» musulmon olamining eng mashhur asarlaridan biri bo'lib, u Ali ibn Abu Bakr Marg'iloniy qalamiga mansubdir. Bu kitob dastlab «Hidoya» deb atalar edi, unga juda ko'plab sharhlar yozilgan. Shulardan biri Ubaydullox ibn Mas'ud tomonidan yozilgan sharh bo'lib, u «Muxtasarul viqoya» deb nomlangan. U bizning o'lkamizda keng tarqalgan bo'lib, o'tgan asr oxirida Sankt-Peterburgda, asrimiz boshida Toshkentda va boshqa joylarda turkiy tilda bosilib chiqqan. Ushbu asar Shahobiddin ibn Abdulaziz tomonidan turkiy tilga tarjima qilingan va u hozir «Muxtasar» (Ixcham) nomi bilan bosmadan chiqarildi.

Bu asarning ahamiyati, avvalo, shundaki, unda islom qoidalariga muvofiq qonun-qoidalar, shu jumladan, iqtisodiy munosabatlar ham ixcham shaklda bayon qilingan. Ushbu kitob Sharq iqtisodiy ta'limotini bilib olishimiz, o'rganishimiz, undan hozirgi zamon iqtisodiy munosabatlarini o'rganish va iqtisodiy tafakkurimizni islom iqtisodiy qarashlari bilan boyitib borishimiz uchun g'oyat qimmatli dasturilamaldir. Shu bilan birga, uning ko'p qoidalari mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar bilan, yo'lga qo'yilayotgan iqtisodiy ta'lim sohasidagi ishlarimiz bilan hamohangdir.

Asarning eng qimmatbaho tomonlaridan biri, bizning nazarimizda, unda ijara munosabatlari g'oyat keng, mukammal bayon qilinganidadir. Kitobda ijaraning xo'jalik faoliyatini tashkil etish, iqtisodiy faoliyatni yo'lga qo'yib olish, foydalanilmay yoki vaqtincha foydalanilmay yotgan mol-mulkni har ikki tomon uchun ham o'zaro manfaatli shaklda harakatga keltirish, ijarani har ikki tomonning rozi-rizoligi asosida shartnoma bilan tasdiqlatib olish kabi bir qancha qoidalar o'z ifodasini topgan.

Quyida kitobdagi ijaraning mohiyati, asosiy tamoyillari, shartlari, qoidalariga oid ayrim jihatlarni o'quvchimizga havola qilamiz:

Birinchidan, ijaraga berganda yoki ijaraga olganda mulkdan keladigan foydaning qanday miqdori berilishini va qanday muddatda ijara muddati tugashini ko'rsatib qo'yish lozimligi uqtiriladi. Muxtasar asarida yoziladiki, «*Ijaraga oluvchi narsa bilan foydalanishning muddatini aytib bildirmoq joiz, garchi uzoq muddatga bo'lsa-da...*¹»

Ikkinchidan, ijaraning mazmuni shuki, ijara haqi o'sha zahoti berilmaydi, bu esa ijara oluvchi ahvolini, tabiiyki, yengillashtiradi. Bu haqda «*Ijara oluvchiga ijara haqini o'shal zahotiyuq bermoq vojib emas...*» degan islomiy qoida yozilgan.

Uchinchidan, mulk ijaraga olingan bo'lsa-yu, undan foydalanilmasa ham ijara haqini to'lash shart ekanligi uqtiriladi. Bu haqda quyidagi qoidani o'qiyamiz:

«*Ijaraga olingan bo'lsa-yu, garchi uyda u turmasa ham ijara haqini to'lash joizdir*». Bu islomiy qoida ijara munosabatlarida bizning sharoitimizda buzilib turilishi hech kimga sir emas. Masalan, yerni ijaraga oladilar-da, undan ijara haqini to'laydigan darajada hosil olmaydilar. Yil oxirida hosil bo'lmaganligi ro'kach etilib, ijara haqini to'lash borasida turli bahonalar qilinadi, hatto ijara haqini to'lashdan bo'yin tovlashgacha boriladi. Bu

¹ Muxtasar, T., 1994. 189-bet

gapni ijaraga olingan boshqa ishlab chiqarish vositalari yuzasidan ham aytish mumkin.

To'rtinchidan, kitobda ijaraga olinayotgan mol-mulknı qanday maqsadda olinayotganini aniq ko'rsatib olinishiga e'tibor qaratilgan. Bu haqda quyidagi qoidani o'qiyimiz: «*Yernı uy qurish, daraxt ekish uchun va'da tayin qilib ijaraga olish durust. Muddati o'tgach, ijaraga oluvchi yernı uylardan, yog'ochlardan bo'shatib topshirub yoki yer egasi yerlarning, yog'ochlarning yer ustidan oling'och sug'urilgan turaturg'on yog'ochlarining haqlarnı berib, (ijaraga oluvchi garchi qoldirishga rizo bo'lmasada) o'ziga olib qolur, agarda binolarnı ko'chirib, yog'ochlarnı sug'o'rgan taqdirida yernı buzib zarar keltirarlik bo'lsa, ammo yernı buzmaslik uchun uylar, binolar xo'jasi-la savdolashib ul rizo bo'lg'on bahsga olib qolar*». Ushbu qoidalar zamonaviy iqtisodiy munosabatlar talqinida: «**Yer ijarasi to'g'risidagi qonun**»imizda o'z ifodasini topgan. Shundan ko'rinadiki, Sharq, iqtisodiy g'oyalari voqelik, hayotiylik, adolatlilik, demokratik asoslarga qurilgan ekan.

Beshinchidan, ijara haqini to'lash qoidalari bayon qilingan. Aytiladiki, «*Ijara haqini to'lash ijara sharti aytilgan vaqtdan boshlanur*». Demak, ijara shartlariga qat'iy rioya qilish vojib amallardandir.

Oltinchidan, asarda ijarani buzish va ijaraga olingan omonatni (yaxshi) saqlash haqida alohida ko'rsatmalar mavjud. Ijaraning buzilishi qator sabablar bilan borliq. Masalan, «Ijaraga olingan narsada avvalgi aybi bo'lganligi sababli ijara aybi buzulur, agarda bu avvalgi aybi narsa bila foydalanurga zarar bermagudek bo'lsa...» (194-bet.) Omonatni saqlash, unga zarar yetkazmaslik qoidalari kitobning alohida bobida bayon etiladi. Unda omonat oluvchi (ijaraga narsa oluvchi) omonat qo'yuvchining (ijaraga narsa beruvchining) barcha shartlari va qoidalarga so'zsiz rioya etishi qayd etilgan.

NAZORAT SAVOLLARI

1. «Qur'oni karim»da inson ehtiyoji va uni qondirish vositalari haqida.
2. «Qur'oni Karim»da mehnatning har ikki olamdagi ahamiyati talqini.
3. «Mehnat ham ibodatdir» degan kalomning tavsifi.
4. «Qur'oni karim»da mulk va mulkiy munosabatlar tavsifi.
5. Xususiy mulkning ijtimoiy vazifasi «Qur'oni karim»da qanday izohlanadi?
6. «Qur'oni karim»da mahr masalasi. Mahr nima?

7 Ma'naviy-ruhiy poklanshi iymon-baraka omilidir, degan qarash mazmuni.

8. «Qur'oni karim»da ijtimoiy himoya masalalari.

9. Zakot, uning mohiyati, zarurligi va ahamiyati.

10. «Qur'oni karim»da rahbarlikda halollik haqida.

11. Hadislarda bozor munosabatlaridagi halolliklarga qanday e'tibor berilgan?

12. Hadisda avans (bo'nak) qanday tushuntirilgan?

13. Hadisda mulkiy munosabatlar tasnifi.

14. Ijara munosabatlari «Muxtasar»da qanday o'rin tutadi?

15. «Muxtasar» islom iqtisodiy g'oyalari haqidagi asar ekanini izohlang.

16. «Muxtasar» asaridagi ijara munosabatlari va ularning hozirgi davr bilan hamohangligi.

17. «Muxtasar» asarida ijara tamoyillari, shartlari va qoidalari.

TAYANCH IBORALAR:

Mehnat ibodatdir. «Qur'oni karim»da mehnat ulug'lanadi. Alloh bandalarining rizqi-ro'zini beruvchi ulug' zotdir. Mavjudotlar ichida faqat odamlargina shu qadar ko'p va mo'l yashash ne'matlari ato etgan. Biroq, Alloh bandalari uchun yashash ne'matlarining manbalarini beradi, uni bevosita iste'mol ne'matlariga aylantirib farovon yashash odamlarning o'zlariga, ularning aql ishlatib, mehnat bilan tirikchilik o'tkazishga bog'liq.

Ilm olish va o'rgatish. «Qur'on» da o'qish, o'rganish va ilm olishga ulug' ibodat sifatida ta'lim beriladi, ilm olish farz qilinadi. Ayni chog'da, ilm o'rganib, uni boshqalarga bermaslik, o'rgatmaslik ham gunohdir, deyiladi.

Islomda mulk tushunchasi. «Qur'on»ning «Taborak» ya'ni «Mulk» degan surasining o'ziyoq bu masalaga islomda qanchalik ahamiyat berilganini ifoda etadi.

Oiladagi mulkiy munosabatlar- Islom dinida oilaning moddiy asoslari-mulkiy munosabatlarga katta o'rin berilgan. Agar «Qur'on Karim» suralari diqqat bilan mutolaa qilinsa, ularda erning xotinga, xotinning erga, otananing bolalarga va ularning ota-onalariga beradigan nafaqalari, yordamlari, ular o'rtasida mulkning taqsimoti masalalari bayon etilganligini ko'ramiz. Ayniqsa, ayollarga beriladigan mulk (mahram) masalasi shariat qonunlari markazida turadi.

Poklik va iqtisodiy ravnaq. «Qur'on Karim»da qayd qilinadiki, islom dini poklikka, halollikka asoslanadi. Poklik va halollik bor joyda baraka, iqtisodiy mo'l-ko'llik, iqtisodiy rivoj topish bor. Ayni chog'da, mol-mulkni Alloh beradi, ya'ni mulk (boylik) berib bandalar sinaladi. Mulknini to'g'ri, tejamli, isrof qilmay iste'mol qilgan, uning shukronasini qilgan odamlarga bundan-da ziyodroq boylik berilishi aytiladi.

Islomda rahbarlik masalasi. Islom ta'limotida davlatni, iqtisodiyotni, odamlarni boshqarish ya'ni «menejment» masalasiga ham alohida ahamiyat berilgan.

Ijara masalasi. Islom ta'limotida mulknini oqilona tasarruf etish, uni egasi samarali foydalana olmagan sharoitda ularni o'zi va egasi uchun ham foydali tarzda ishlata oluvchilariga ijaraga berib turish qoidalari bayon etilgan. Bu shundan dalolat beradiki, mulk ijarasi masalasi bugun bozor iqtisodiyoti unsuri bo'lmay u azaliy islomiy qadriyat ekan. Demak, bozor iqtisodiyoti sharoitida ijara munosabatlarini iqtisodiyot subyektlariga o'rgatishda islom qoidalari amal qilishimiz nihoyatda dolzarb masaladir.

Bo'nak. Payg'ambarimiz Sallolohu alayhuvassalamning muborak hadislarida bayon qilingan iqtisodiy qoidalardan biri. Bo'nak (avans) mol olishda kafolat berib, mol qiymatining bir qismini ma'lum muddatda uzish sharti bilan olish kabi holatlarni adolatli yo'lga qo'yish tartibidir. Nasiyaga biror narsa olishda bo'nak berish, qolgan haqini keyinroq to'lash yoki nasiyaga olingan mol uchun bir narsani kafolatlashga (garovga qo'yish) tavsiya etilgan. Bunday munosabatlar odamlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarda adolat o'rnatish maqsadini nazarda tutish bilan birga odamlarning iqtisodiy ahvollarini yengillashtirishga ham yordam bergan.

V bob. UYG‘ONISH DAVRI O‘RTA OSIYONING IQTISODIY G‘OYALARI

Islom iqtisodiy g‘oyalari O‘rta Osiyo allomalarining iqtisodiy tafakkuri rivoji manbasi bo‘lib qoldiki, bu Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Nizomulmulk, Amir Temur, Ulug‘bek, Navoiy, Bobur va boshqa ko‘plab mutafakkirlar ijodida o‘z ifodasini topdi.

1. Abu Nasr Forobiyning iqtisodiy g‘oyalari

Abu Nasr Forobiy va Abu Ali ibn Sino iqtisodiy merosi markazida inson va uning ehtiyojlarini qondirish masalasi turadi. Zero, yuqorida aytilganidek, inson bu dunyoning oliy ne‘mati va uning ehtiyojlarini qondirish har qanday jamiyatning yashash va rivojlanish shartidir. Albatta, inson ehtiyojlari turli-tuman va doimiy o‘sib boruvchidir. Odamlar ehtiyojlarini iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma‘naviy guruhlariga ajratish mumkin. Ammo inson ehtiyojlari ichida ustuvor o‘rinda iqtisodiy-ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish turadi.

Abu Nasr Forobiy buyuk ajdodlarimizdan biridir. U ilm-fan tarixiga Sharqning buyuk faylasufi, Sharq Arastusi, Sharq Aflotuni kabi mashhur nomlar bilan muhrlangan. Uning iqtisodiy va boshqa ijtimoiy qarashlari Arastu va Aflotun asarlarini tushuntirishga qaratilgan bir qancha asarlarida bayon etilgan, jumladan, uning iqtisodiy dunyoqarashi «**Fozil odamlar shahri**» asarida ham o‘z ifodasini topgan.

Mutafakkir Aflotun qarashlari haqida gapirar ekan, «mulkka ega bo‘lish yomon odat emasligini, qashshoqlikda (mulksiz) yashagandan ko‘ra, badavlat yashamoq afzaldir», degan fikrni aytadi. Faqat «*mulkni befoyda jamg‘arishdan saqlanish zarur*», degan fikrni ilgari suradi. Fikrini davom ettirib yozadiki: «Odamlarga, avlodga zarar keltirmaydigan mol-mulk orttirish foydali ishdir; bunda qonunlar yordamida ruh va badanni e‘zozlanishiga sazovor qiladigan tarbiya muhim ahamiyatga ega. Faqat boshqalar uchun zarar keltiradigan boylik to‘plash, mol-mulkka ega bo‘lish yomon odatdir¹».

Olim Aflotun falsafasini sharxlar ekan, odamlarni mulkiy qonunlar asosida tarbiyalash masalasiga alohida e‘tibor beradi. «Agar shahar aholisi ma‘rifatsiz, tajribasiz odamlar va bolalardan iborat bo‘lsa, u holda ular

¹ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T., 1991, 38 – bet

qonun o'ratgan tartib va boshqaruv usulini qabul qilmaydilar». (O'sha joyda, 39-bet.) Qayd etiladiki, qonunlar asosida, ya'ni huquqiy tarbiya ijtimoiy-iqtisodiy hayotda g'oyat muhim ahamiyatga ega. Huquqiy tarbiya faqat o'zini emas balki boshqalarni ham o'ylab yashash va ishlashga xizmat qiladi, mulkni, manbalarni to'g'ri tasarruf etish, undan yaxshi natijalar olishga da'vat etadi. Shuning uchun ham mamlakatimizning Ta'lim to'g'risidagi Dasturi va Qonunida huquqiy va mulkiy tarbiyaga katta o'rin ajratildi. Forobiy uqtiradiki, «Mulk orttirishda unchalik xavf yo'q, ammo uni ehtiyot qilib saqlash kerak. Agar boshqa birovlar hisobiga mulk orttirganlar jazolanmasalar, u holda shahar aholisidan insof va shuhrat yo'qoladi. Mulkni ehtiyot qilib saqlab, o'z ehtiyoji uchun ishlatsa, bu yomon ish -hisoblanmaydi...¹»

Bu ko'rsatmalarning ahamiyati bugungi kunda juda ham katta. Zero, odamlar, mustaqillik va demokratiya tufayli mulkdor bo'lmoqdalar. Biroq mulkdor bo'lish boshqa-yu, mulkni ehtiyot qilib, o'zi va jamiyati uchun samarali foydalanish undan ham muhim.

Ishlab chiqarish va iste'mol uchun harajat qilish muayyan zaruratdir. Ishlab chiqarish va hayotning samarasi ko'pincha ana shu harajatlar miqdori, tartibi va mezonlariga ham bog'liqdir. Olim hisoblaydiki, yashash uchun ega bo'lingan mablag'larni, mahsulotlar va mulkni to'g'ri taqsimlanmasa, me'yori bilan harajat qilinmasa, bunday ishda «nomaqbulchilik ro'y beradi». «Bu — boshqarilishi eng qiyin bo'lgan ishdir, kimda-kim o'z ixtiyorida bo'lgan mulkni foyda chiqarish uchun muomalaga qo'ymasa, uni faqat o'zi uchungina jamg'arsa, juda katta zarar keltiradi²»

Forobiy qarashlarida taqsimot masalasi juda keng va o'ziga xos usulda talqin etiladi. U jamiyat va odamlar yo'lidagi mulk va noz-ne'matlarni to'g'ri taqsimlash davlat qurilishida asosiy masaladir, degan fikrni bildiradi. Demak, jamiyat hayotida eng muhim muammolardan biri mulkni, mahsulotlarni kerakli maqsadlarga to'g'ri, samarali taqsimlanishidir. Taqsimot ishi maqsadga muvofiq yo'lga qo'yilmas ekan, ko'pchilik odamlar bachkanalashib ketadi, odamlar faqir ahvolga tushib qoladi.

Taqsimot mavjud mulk, mahsulot, boyliklar hisobini to'g'ri yo'lga qo'yishdan boshlanadi. Xuddi ana shu fikr Forobiy tomonidan oldingi o'ringa chiqariladi. «Avvalo, — deydi olim, — yer va joylarning miqdori, keyin ularning egalari va tutgan o'rinlari, so'ngra nihoyatda zarur narsalar

¹ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T., 1991, 47 – bet

Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T. 1991, 42 – bet

bo'lgan oziq-ovqatlar, ekiladigan yerlar, saroy va shaxsiy uylarning miqdori hisobga olinishi zarur¹». Forobiy Aflotunning quyidagi fikrlarini alohida ajratib keltiradi: «Taqsimotning ishi juda qiyin, lekin juda zarar ishdir». Buyuk daholarning taqsimot va mulkni tasarruf etish masalalariga bu qadar chuqur qarashlari bejiz emas.

Albatta, taqsimot mavjud narsalar taqsimotidir, u ishlab chiqarishga nisbatan vaqt jihatidan keyingi o'rinda turadi, ishlab chiqarish munosabatlaridagi ikkinchi bo'g'indir. Biroq shuni unutmash kerakki, taqsimot ishlab chiqarishning boshqa tomoni, aslida uning davomi va takrorlanishidir. Buning ma'nosi shuki, to'g'ri va adolatli taqsimot tizimi yaratilgan sharoitdagina ishlab chiqarish natijalari shunchalik yaxshi bo'ladi. Bu yerda gap faqat makroiqtisodiy darajadagi taqsimot ustidagina borayotgani yo'q, bu xulosa mikroiqtisodiyotning barcha bo'g'inlari uchun ham bab-baravar ahamiyatga ega. Forobiyning iqtisodiy qarashlarida jamiyat hayotining eng muhim masalalari ko'tarilgan.

Sharq falsafasida ehtiyojlar masalasi deganda odamlar ehtiyojlari va ularning qondirish vositalarini qidirish emas, balki har bir odamning shaxs sifatidagi zaruriy ehtiyojlarni tadqiq qilish va ularni qondirish muammolari muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shu ehtiyojlar tizimida odamning shunday fiziologik ehtiyojlari mavjudki, ular faqat harakat qilish, mehnat va yaratuvchanlik (ishlab chiqarish) bilan qondiriladi. Demak, inson ehtiyojlarining eng muhimi mehnat qilish (yaratuvchanlik) ehtiyojidir, barcha ehtiyojlarni qondirishga ham xuddi ana shu mehnatga bo'lgan ehtiyojni qondirish orqali erishiladi. Sharq iqtisodiy tafakkuri markazida inson va uning ehtiyojlari, ularni qondirish masalasining turishi bejiz emas.

Ijtimoiy-iqtisodiy tafakkurning ana shu eng dolzarb masalasi Sharqning buyuk farzandi, faylasuf Abu Nasr Forobiy asarlarida asosiy o'rin olganligi fikrimizning dalilidir. Sharq Arastusi nomi bilan mashhur bo'lgan alloma Arastu falsafasi tahliliga bag'ishlangan asarida iqtisodiyot fanining muhim kategoriyasi bo'lgan ehtiyojlar masalasiga alohida e'tibor berib, ehtiyojlarni qondirish inson harakatining markazida turajagini ko'rsatdi. U inson ehtiyojlarini qondirishda mehnat va mehnat qurollarining o'rni beqiyos ekanligini uq'tirib o'tadi.

¹ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T. 1991, 37 – bet

2. Abu Ali ibn Sinoning iqtisodiy g'oyalari

Abu Ali ibn Sino shu narsani chuqur tushunib yetadiki, odamlar o'zaro hamkorlikda bo'lishlari kerak, ya'ni ular iqtisodiy munosabatlarga kirishishlari lozim. Chunki har bir odam alohida holda ishlaganda, u qanchalik kuchli va salohiyatli bo'lmasin, hatto o'z ehtiyojlarini ham qondira oladigan mahsulotni yaratishga qurbi yetmaydi. Shuning uchun odamlar o'zaro iqtisodiy kelishuvga kelishga, ya'ni mehnat taqsimoti asosida faoliyat qilishga intiladilar. Buning iqtisodiy nazariya nuqtayi nazaridan ma'nosi shuki, ishlab chiqarish munosabatlari haqiqatdir, tabiiy zaruratdir, muayyan holatdir.

Ibn Sino odam jamiyatdan tashqarida yashay olmasligini, u jamoat muhitidagina ijtimoiy bog'liq bo'la olishini qayd etgan. Ular o'zaro iqtisodiy hamkorlik orqali o'z hayotlarini ko'radilar, o'zlarining hayotiy ehtiyojlarini qondiradilar. Biroq, odamlarning o'zaro munosabatlari adolat doirasida bo'lmog'i darkor, adolatni esa fanni (haqiqatni) sevadigan davlat o'rnatishi mumkin, holos.

Ibn Sino fikricha, davlat har bir odamning jamiyatdagi o'rnini (ish joyini) aniq belgilab, qanday faoliyat yuritishini tashkil qilib berishi kerak, ayniqsa, davlatda tekinox'rlar, boshqalar hisobiga kun ko'ruvchilar bo'lishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Davlat bunday takomilga faqat fanni rivojlantirish orqali erishadi.

Ibn Sino savdo munosabatlarining jamiyat taraqqiyotida katta ro'l o'ynashini ham uqtirgan. U savdo aloqalari shaharlar (mamlakatlar, xalqlar) o'rtasida yo'lga qo'yilishi lozimligini ta'kidlaydi, chunki shundagina ijtimoiy taraqqiyot yuz beradi, odamlar o'rtasida tushunish vujudga keladi. Yuqoridagi qoidalarga xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ibn Sino ilmiy ijodida iqtisodiy munosabatlar masalasi ham, uning muammolari va ularni takomillashtirishga oid tadqiqotlar ham salmoqli o'rin tutadi.

Abu Ali ibn Sino **«Tibbiyot dostoni»**da yozadiki, agar hayvonlar tabiat ne'matlariga qanoat qilib yashasalar, odamlarga bu ne'matlar ozlik qiladi, ular oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joyga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishlari lozim. Uning ta'kidlashicha, agar hayvonlar tayyor tabiat ne'matlarini o'zlashtirib olsalar, odamlar o'z mehnatlari bilan o'zlariga ovqat, kiyim-bosh, uy-joy yaratadilar, ular ana shu maqsadda dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik bilan shug'ullanadilar. Shuning uchun alloma odamlarni ijtimoiy foydali mehnatga chorlaydi.

3. Abu Rayhon Beruniyning iqtisodiy ixtirosi

Pul paydo bo'lgan davrdan, ayniqsa, tanga shaklda turli metallardan pul zarb etish boshlangan davrlardan boshlab iqtisodiy tafakkur daholarining fikru zikri turli mineral xomashyolar hajmi va og'irligida mujassamlashgan qimmatbaho metallar — oltin, kumush, mis va boshqalar hissasini aniqlash uslubi va asbobini yaratish muammosi bo'lib kelgan. Ayniqsa, bu masala X—XI asrlarda — xalqaro savdo tez rivojlanib, zargarlik buyumlari yasash kuchayavergach, fan va amaliyotning eng dolzarb muammosiga aylandi. X asrda Movarounnahr va Xurosonda juda katta miqdorda to'la qiymatga ega bo'lmagan tangalar zarb etish avjga chiqqach, ahvol yana ham og'irlashdi. Masalan, muomalada bo'lgan «**Ismoiliy**» dirhamlari yoniga qimmatga ega bo'lmagan metallardan zarb qilingan Buxoro dirhami — «**gitrifiy**» kabilar yoki past sifatli kumushdan yasalgan «**muhammadiy**» tangalar muomalaga chiqarildi. Bunday hol turli xil qallobliklarning, aldashlarning kuchayishiga qulay sharoit yaratdi. Bu oltin dinorlar ham muomalada qatnashmay qolishiga olib keldiki, natijada oltin tangalar oddiy tovarlar kabi tortib beriladigan vaziyat vujudga keldi.

Ma'lumki, Abu Rayxon Beruniy mineralogiya va metallshunoslik bo'yicha o'z davrining eng yetuk olimi edi. Shuning uchun ham u iqtisodiy taraqqiyotga putur yetkazayotgan bunday ahvolga qarab tura olmas edi. U juda katta tadqiqotlar, izlanishlar, amaliy tajribalar o'tkazib, minerallar tarkibidagi qimmatbaho metallar hissasini topish uslubini yaratdi. Bu usulni amalda qo'llash uchun maxsus o'lchov asbobi yaratish ham kerak edi. Shunday asbob Beruniy tomonidan yaratildi, bu esa pul munosabatlari tarixida, uning rivojlanishida bebaho ahamiyatga ega bo'ldi. Beruniy o'zi yasagan asbobning tuzilishini, uning qanday mexanizmlardan va qanday qilib yasaganini «**Mineralogiya**» nomli asarida bayon qilgan. Bu asbob yordamida turli metallardan yasalgan tangalar tarkibidagi qimmatbaho metallarning haqiqiy miqdorini o'lchash mumkin bo'ldi. Bunday asbobning yaratilishi pullar o'rtasidagi haqiqiy nisbatlarni aniqlash, ularni o'zaro almashtirishning adolatli asoslariga ega bo'lish imkoniyatini berdi. Shuningdek, bu usul yordamida pul yasashdagi mavjud qallobliklarni bartaraf qilish va ana shunday noxushliklarning oldini olish mumkin bo'lib qoldi. Buyuk bobokalonimizning bundan 1000 yildan ziyodroq avval ishlab chiqqan usullari hozirgacha ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan¹

¹ Beruniy, Sbornik statey k 1000 letiyu so dnya rojdeniya. T., «FAN», 1973, 121-130 bet.

4. Yusuf Xos Hojibning iqtisodiy g'oyalari

«Qutadg'u bilig» — Qutga, ya'ni baxt-saodatga eltuvchi bilim, degan ma'noni beradi. Uni mutafakkir shoir 1069-yilda yozib tamomlagan. Muallif bunday ulkan tarbiyaviy, ma'naviy, iqtisodiy tafakkur manbayi bo'lgan asarni yozish uchun uzoq tayyorgarlik ko'radi. U ko'plab o'lkalarga sayohat qiladi, ko'plab madaniy-adabiy manbalarni o'rganadi, tadqiq etadi. U deyarli barcha turkiy xalqlar yashaydigan o'lkalarda (Xitoy, Turkiston, Eron va Turon) bo'ladi.

Asar o'sha davrning podshohi Tavg'ochxon huzuriga keltiriladi. Xon bu asar bilan tanishib chiqqach, uning badiiy, ilmiy, tarixiy, ma'naviy ahamiyatini haqqoniy taqdirlab, shoirga **Xos Hojib** unvoni beriladi. Ushbu asar XV asr o'rtalarida Hirot shahrida qayta ko'chiriladi. Ma'lumki, bu davr Xirotda Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy kabi so'z mulkining daholari ijod etar edilar. Shunday bir muhitda kitobga berilgan e'tibor asarning haqiqatda ham juda yuqori qiymatidan dalolat berar edi.

«Qugadg'u bilig» biz uchun g'oyat muhim iqtisodiy g'oyalar ilgari surilgan asar sifatida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Asardagi iqtisodiy munosabatlarning turli jihatlari to'g'risidagi iqtisodiy fikrlar, ayniqsa, qimmatlidir. Asarda mehnatga to'g'ri haq to'lash, boshqalar mehnatini to'g'ri taqdirlash, qadriga yetish, moddiy manfaatdorlik, kasb-hunar egallash, kuchli ijtimoiy himoya masalalariga katta o'rin berilgan. Asarda muallif taqsimot munosabatlariga, ularning rag'batlantiruvchi ahamiyatiga e'tiborni qaratadi, zero, rag'batlantirish kuchiga ega bo'lgan taqsimot munosabati ishlab chiqarishni kuchaytiradi, jamiyat va xalq boyligini orttiradi. Yusuf Xos Hojib yozadi: «Xizmat ahli o'z mehnati natijasidan umidvor turadi. Umidini topmagan xodim ko'ngli sinadi».

«Ammo xizmat qiluvchilarni hammasi ham bir xil emas. Ular turli-tuman toifalarga bo'linadi. Xodimlarning naf keltiruvchilari bor, shuningdek, nafi yo'g'i ham ancha. Naf keltiruvchi kishiga xizmatiga loyiq ravishda tortiqlar berish kerak. Xizmatiga loyiq taqdir ko'rgan xodimning boshi ko'kka yetadi. Inson degani, axir, hayvon tengi emas. Ana shuni bilib, unga amal qilinsa, barcha ish ko'ngildagidek bo'ladi...¹»

Ko'rinib turibdiki, alloma tekis taqsimotni, barchani bab-barobar ta'minlash tizimini tanqid qilmoqda. Har bir xodim o'z mehnatiga, harakatiga, ish unumiga, keltirgan nafiga qarab taqdirlansa, hamma ish ko'ngildagidek bo'ladi. Shu bilan birga, har bir sohibkor, ish beruvchi

¹ «Qutadg'u bilig». T., 1991, 63-bet.

unga yollangan xodimning mehnatini to'g'ri qadrlashga chaqiriladi. Bu, bir tomondan, ishning samarali bo'lishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan, **«Boshqalar mehnatining qadriga yetish insoniylikning eng yirik alomatidir»** (o'sha joyda). Buyuk olim ushbu asarda davlat bilan (yurt boshlig'i) mehnatkash xodim o'rtasidagi bir sirni ochadi. Bunga ko'ra, davlatning buyuk bo'lishi, uning boyishi, el boshlig'ining esa dovrug'i olamga yoyilishi uchun xalq boyishi, ishlaydigan odamlar mehnatiga muvofiq rag'batlantirilishi lozim. «Yurt boshlig'i (davlat) odamlarni o'z mehnati natijalaridan manfaatdorligini ta'minlasa, yurt uchun fidoyi bo'ladilar, o'z jonini ham ayamaydilar», deb ta'kidlaydi Yusuf Xos Hojib. U davlat rahbarini xalqini to'q va farovon qilishga undaydi¹ Ulug' bobokaloni-mizning yuqoridagi iqtisodiy o'g'itlari mamlakatimiz Prezidenti I. Karimovning iqtisodiy qarashlari, bozor iqtisodiyotini qurish konsepsiyasi hamda uning iqtisodiy siyosati, u boshliq hukumatimiz olib borayotgan yaratuvchanlik faoliyatida e'tiborga olinmoqda, ularga asoslanilmoqda. Fikrimizning isboti sifatida I. Karimovning «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» nomli kitobidagi quyidagi satrlarni keltiramiz: «Bunda islohotlar inson manfaatlariga mos kelgan, uning talab va ehtiyojlarini qondirishga yordam bergan, turmush darajasini oshirishga qaratilgan taqdirdagina ahamiyatli bo'lishini hamisha yodda tutmog'imiz lozim²». Ha, inson hayotining darajasi o'zi qilayotgan mehnatga, uning sifatiga va miqdoriga bog'liq emas ekan («xizmatiga yarasha» — Yusuf Xos Hojib), hech qanday iqtisodiy islohot ko'zlangan natijani bermaydi.

Ma'lumki, insonlar o'zlarining har bir harakatidan manfaat axtaradi, zero, manfaat katta harakatlantiruvchi kuchdir. Ushbu haqiqatni Yusuf Xos Hojib quyidagi fikr bilan tasdiqlaydi: «Aslida butun qimirlagan jon naf va ezgulikni o'ylab harakatlanadi. Shu nafi bo'lmaganida edi ovchi ham uydan chiqmas edi³». Bu fikr, keyinchalik, «Siyosiy iqtisod» darsliklarida boshqalar tilidan, «har qanday harakat zaminida manfaat yotadi» degan ibora bilan ifodalab kelindi.

Mulk va mulkiy munosabatlar haqida. Iqtisodiy munosabatlar markazida mulk va unga nisbatan vujudga keladigan odamlarning qarashlari turadi. Mulkiy munosabatlar ishlab chiqarish munosabatlarining moddiy asosidir. Iqtisodiyot nazariyasining ana shu adolatli xulosasi mamlakatimizda olib borilayotgan, tobora chuqurlashtirilib borayotgan iqtisodiy islohotlarga

O'sha asar. 64-bet.

1. Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida, 19-bet.
Qutadg'u bilig. T., 1991. 64-bet.

ham singdirilmoqda. Prezidentimizning «O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘a-sida...» nomli asarida odamlarni mulkdor qilish, o‘rta mulkdorlar sinfini vujudga keltirish kechiktirilmas vazifa ekanligi uqtirildi. Bunday xulosalar ulug‘ shoirimiz Yusuf Xos Hojibning quyidagi iqtisodiy g‘oyasiga asoslanilgan bo‘lsa ajab emas: «Moli bo‘lsa kishi bilim o‘rganadi, barcha ezgulikka qo‘l cho‘zadi. Bu mol bilan kishi tilak tilasa (mehnat qilsa muallif), mol-dunyosi bir yo‘lak, ya‘ni vosita bo‘lib, yuqoriga ko‘tariladi¹». «... kishining moli bo‘lmasa, barcha ezguliklarga ham uning qo‘li qisqalik qiladi²». Ana shu iqtisodiy fikrlar necha asrlardan oshib, bizgacha yetib kelgan va ma‘naviy mulkimizga aylangan. «Qutadg‘u bilig» asarining iqtisodiy g‘oyalar qamrovi juda keng va nufuzlidir. Unda boshqaruv ilmiga oid, elni, yurtni idora qilishga oid fikrlar ham ifodalangan.

Yusuf Xos Hojib har bir insonni hunar o‘rganishga, hunarli bo‘lishga chaqiradi. U «turli-tuman hunarlarni o‘rganmaslik tubanlik belgisidir»-degan fikrni ilgari suradi. Bu fikr, keyinchalik, Sharq xalqlarining umummilliy qoidasiga aylanib ketdi. Ma‘lumki, bu g‘oya ulug‘ donishmand Bahouddin Naqshband tomonidan «Dast ba kuru dil ba yor», ya‘ni «qo‘lingiz ishda bo‘lsin, qalbingiz Allohda bo‘lsin» iborasi bilan rivojlan-tirildi.

«Qutadg‘u bilig» asarida alloma dehqonlar, savdogarlar, chorvadorlar, turli-tuman hunar sohiblari xususida alohida-alohida boblar zikr etilgan. Masalan, dehqonlarga bag‘ishlangan bobda quyidagi misralar bor:

«Qimirlagan jonga naf berar ular,
Yeyishu ichishga jon bergan shular
Nafas olgan butun tirik jonivor
Dehqondan bo‘lmog‘i kerak minnatdor».

Asarda noz-ne‘mat yaratuvchilarning yana bir toifasi-chorvadorlar haqida ham juda iliq fiklar bayon qilingan. Bu kasb egalariga ham yaxshi mehnat va rag‘batlantirish sharoitlari yaratib berilishi kerakligi uqtiriladi.

Ko‘rinib turibdiki, Yusuf Xos Hojib juda ko‘p iqtisodiy fikrlarni ilgari surgan.

5. Nizom-ul-mulkning iqtisodiy qarashlari

Sharq tarixiy iqtisodiy ta‘limotlari tizimida Abu Ali ibn Ali Tusiy-Nizom-ul-mulkning butun dunyoga mashhur «Siyosatnoma» (yoki «Siyar

¹ O‘sha asar, 85-bet

² O‘sha asar, 85-86-bet

ul-Mulk») asarida ilgari surgan iqtisodiy g'oyalari o'ziga xos o'ringa va o'ziga xos ahamiyatga ega. Nizom-ul-mulk uzoq yillar davomida saljuqiylar shohlar Alparlon (1063-1072- yillar) va Malikshoh (1078-1092- yillar) saroyida vazirlik lavozimlarida xizmat qilgan. U o'z zamonasining g'oyat bilimdon, tadbirkor, o'z lavozimiga juda ham mos tushgan, sidqidildan xizmat qiluvchi vaziri sifatida dong taratdi. Shuning uchun ham u Nizom-ul-mulk, ya'ni mulkning nizomi, tartibi nomi bilan mashhur bo'lib ketadi. U davlatning deyarli barcha ishlarini o'zi olib boradi va yuksak tashkilotchilik mahoratini ko'rsatadi. O'z navbatida, u mamlakatda fan va madaniyatni rivojlantirishga harakat qiladi, o'z davrining ilm-fan kishilarini saroyda ishlashga taklif etib, ularda g'amxo'rlik ko'rsatadi. Nizom-ul-mulk davrida Sharqning mashhur olimi va faylasufi Umar Hayyom saroyda ilm-fan bilan shug'ullanadi, unga observatoriya qurib beriladi.

Malikshohning o'zi ham ilm-fanga, davlatni boshqarish san'atiga qiziqqan sultonlardan bo'lganligi «Siyosatnoma» asarida qayta-qayta ta'kidlanadi. Malikshoh saroyda faoliyat ko'rsatayotgan fozil-u olimlarga murojaat qilib davlatni boshqarish qoidalari, tartibi, usullari haqida bir kitob yozilishini, asarda o'tgan shohlar tarixi va hayotiy tajribalari umumlashtirilishini topshiradi. Shoh fikricha, bu kitob davlatni boshqarish ishining dasturamali bo'lishini ham uqtiradi. Tabiiyki, ushbu ijodiy ishda yetuk olimlar qatnashadilar. Ular ichida Nizom-ul-mulk ham qatnashib «Siyosatnoma» risolasini taqdim etadi.

«Siyosatnoma»da iqtisodiy masalalarga – xazina, uni boyitish va sarflanishi, oziq-ovqat va boshqa davlat barqarorligi uchun zarur zaxiralar tashkil etish, xizmatchilarga maosh belgilash, adolatli taqsimot, soliq va xiroj, zakot, moliya va xo'jalik masalalariga doir bir qancha ko'rsatmalar o'z ifodasini topadi.

«Siyosatnoma» haqida bir qancha tadqiqotlar e'lon qilindi, u ingliz, fransuz, nemis tillarida nashr etildi.

Asarda ilgari surilgan iqtisodiy g'oyalar hozirgi davri ijtimoiy-iqtisodiy voqealari, o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar, bozor iqtisodiyoti munosabatlarini qaror toptirish vazifalari bilan hamohangdir. Shu bilan birga, undagi iqtisodiy g'oyalar xalqimizda, yoshlarimizda «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi»mizni o'rganish va shu asosda iqtisodiy tafakkur hosil qilish vazifasiga xizmat qilishligi bilan ham ahamiyatlidir.

Kitobning dastlabki sahifasidanoq muallif davlatni idora qilish va mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan iqtisodiy tadbirlar haqida fikr yuritadi. Buning uchun

«chetdan koriz qazib, suv keltirish, qishlog‘-u dalalar obodonligi uchun katta ariqlar qazish, qal‘alar qurish, shaharlar barpo etish, zebo binolar-u keng ko‘chalar, rabotlar qurdirish lozim» deb yozadi¹

Asarda aholidan xiroj olishning yo‘l-yo‘riqlari bayon etilgan. Soliqlar odamlarga malol kelmaydigan bo‘lishi, ularga azob-uqubat yetkazmasligi, soliq to‘lash imkoniyati yo‘qlarni majbur qilinmaslik kabi qoidalar taklif etiladi. Kitobda yoziladiki, «Xirojni ham u (soliq yig‘uvchi-muall.) shunday yo‘l bilan talab qilsinki, odamlarga ziyon yetmasin. Soliq o‘z vaqtidan oldin olinsa, raiyatga ranj-u azob yetadi, ular majburlikdan mol-davlatlarni yarim bahoda sotib, uy-joylarini tashlab, ovora va sarsonlikda g‘ariblikka muhtalo bo‘ladilar²». Boshqacha aytganda, soliq solish va undirish ishini odamiylashtirish (gumanizm ruhi) lozimligi uqtiriladi. Davlatning mana bunday soliq siyosati podshohga, oqibatda el-yurtga naqadar foydali ekanligi bir necha hikoyatlar (tarixiy voqealıklar) misolida ishonarli qilib tushuntiriladi.

Asar muallifi bozorlardagi oldi-sotdi ishlarini tartibga solish haqida ham tavsiya beradi. Zero, bozorda tartib o‘rnatilsa mamlakatda osoyishtalik qaror topadi. Buning uchun «har bir shaharda tarozi va narxlarni tartibga soladigan, oldi-sotdi ishlarini biladigan eng olim va dono kishilardan muxtasib qo‘yishi kerak. Va atrofdan olib kelib sotiladigan har bir molni bozorda sotish uchun va haridorlarni aldamaslik uchun ular ustidan nazorat bo‘lishi shart. Tarozi toshlarini to‘g‘ri tutib amri ma‘ruf va nahyi munkar qilishlari lozim³».

Asarda xizmatchilarga maosh berish tartibi haqida ham tavsiya berilgan. Masalan, davlat mol-mulkini muhofaza qiluvchi ashroflik lavozimidagi xizmatchilar «o‘z martabasi va bilimlariga ko‘ra maosh olishlari zarur. Ularning oylik harajat va maoshlarini raiyat hisobidan emas, balki xazinadan berilishi kerak. Shunda xalq boshiga ranj-u azob tushmaydi...⁴» deb ta‘kidlanadi. Bu yerda biz ikkita tamoyilni ko‘ramiz: **birinchisi**, ish haqi xizmatchilarning o‘z lavozimi va bilim-tajribasiga qarab tabaqalash-tirilishi zarurligi bo‘lsa, **ikkinchisi**, ularning ish haqi va oilaviy moddiy hayoti odamlarga malol kelmasligi. Bu hol davlat xizmatchilariga nisbatan xalq noroziligiga sabab bo‘lmasligiga va ularning halol-u pok xizmat vazifalarini bajarilishiga sabab bo‘ladi. Bu fikr ham bugungi kunda naqadar ahamiyatli ekani tushunarlidir.

¹ Siyosatnoma, Toshkent «Adolat» nashriyoti, 1997, 17-bet

² O‘sha asar, 28- bet

O‘sha asar, 50- bet

³ O‘sha asar, 68–69- bet!

Kitobda davlat soliq xizmati xodimlarining aholidan soliq yig'ishdagi o'zboshimchaligi yomon oqibatlarga olib kelishi mumkinligi aytiladi. Shuning uchun ular faoliyatini davlat tomonidan qonuniy yo'llar bilan nazorat qilib turishlik haqida ko'rsatma bayon qilingan. Agar soliq xizmatchisi davlat belgilaganidan ko'p soliq olsa, «Xalq bundan kam-bag'allashadi», odamlarga ko'p azob yetadi, ko'p mollar talon-taroj etiladi¹». Bu yerda o'zboshimchalik bilan, davlat buyrug'isiz ham soliq yig'uvchilar faoliyatini cheklash zarurligi haqida gap boradi.

Nizom ul-mulk o'z tajribasidan va tarixiy tajribalar dan kelib chiqib shunday nasihat qiladi: «Har bir narsa o'z vaqti va o'z joyida harj bo'lishi kerak²». Shundagina «odamlar rohatda yashaydi, biror kishi mol-mulki jihatidan azob chekmaydi» Demak, yuqorida keltirilgan fikrdan xulosa shuki, xazinaga (davlat yoki oila budjetiga) kelgan daromadni obdon o'ylab, kerakli maqsadlarga, eng zaruriy ehtiyojlarga sarf etilmog'i darkor. Shundagina farovon va tinch yashash imkoniyati vujudga keladi.

Kitobning so'nggi, 50- faslida g'oyat ajoyib, ibratli iqtisodiy g'oya ilgari surilgan. Muallif yozadiki «... Behuda harj ham, isrof va ifratga ham yo'l bermaslik kerak, odamlar iqtisodni tejamsizlik deb bilmasin.

Sahovat ham kishiga mos bo'lsin, xazinadan nafaqa oladiganlarga haq berilsin: ko'p oladiganga ko'p, kam oladiganga kam. Shunda har bir odam o'z qadrini tushunadi³»

Muallif «iqtisod» degan kategoriyaga amaldorlarning ish-xo'jalik yuritish tartiblarini (xo'jalik faoliyatini tashkil etish), daromadlar, boylik, mol-mulkni saqlash, zarur zaxiralarni shakllantirish, xazinani boshqarish, to'g'ri sarf-harajatlar qilish kabi tushunchalarni kiritadiki, bu uning iqtisodiy dunyoqarashi qanchalik keng qamrovli ekanidan dalolat beradi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Abu Nasr Forobiyning mulk va mulkdor bo'lishning xosiyati haqidagi g'oyalari.
2. Taqsimot munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyati haqida Abu Nasr Forobiy qarashlari.
3. Abu Nasr Forobiy ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar, xususan, ijtimoiy ehtiyoji xususida.

¹ O'sha asar, 79 – bet

² O'sha asar, 228 – bet

³ O'sha asar, 234 – bet

4. Abu Ali ibn Sino ijtimoiy mehnat taqsimoti haqida qanday g'oyani ilgari surgan?
5. Abu Ali ibn Sinoning davlat iqtisodiyotni boshqarish haqidagi fikrlari qanday edi?
6. Abu Ali ibn Sino mehnatning odamlar hayotidagi ahamiyati haqida.
7. Abu Rayxon Beruniy nima sababdan pullarning (metall tangalar) tarkibini o'rgandi va bu olamshumul ixtironing pul muomalasi barqarorligi uchun ahamiyati nimada ?
8. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari tarixan yuqori baholan-ganligining sababi nimada?
9. Yusuf Xos Hojibning mehnatni to'g'ri rag'batlantirishning ahamiyati haqidagi g'oyasining tarixiy ahamiyatini tushuntiring.
10. Nizom-ul-mulkning «Siyosatnoma» asari haqida qanday fikrdasiz?
11. Nizom-ul-mulk davlatni idora qilish va mamlakatda iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun qanday tadbirlarni tavsiya etgan?
12. Nizom-ul-mulkning bozorlarni tartibga solish borasidagi fikrlari?

TAYANCH IBORALAR:

Ehtiyojlar- odamlarning yashashi, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy faoliyat bilan shug'ullanishlari, mol-mulkka ega bo'lish, umuman hayotni davom ettirish va rivojlantirish uchun zarur bo'ladigan ne'matlardir. Ehtiyoj-larning obyektiv ravishda ortib borishi hayot qonunidir.

Abu Nasr Forobiy mulkiy munosabatlar haqida. Mulk odamlarning badavlat va farovon yashashining iqtisodiy asosidir. Shundan kelib chiqib Forobiy mulkdor bo'lishni yaxshi odat hisoblaydi. Zero, mulksizlik qashshoqlikka mahkum etadi. Faqat mulk orttirishda me'yori bo'lmog'i, ya'ni befoyda jamg'armaslik, boshqa odamlarga zarar yetkazadigan darajada mulk to'plamaslik zarur. Bu borada tartib o'rnatilmog'i uchun huquqiy tarbiya berilishi lozim, ya'ni mulki to'g'ri, samarali tasarruf etishga odamlarni tarbiyalash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Taqsimot-moddiy va ma'naviy ne'matlarni ehtiyojlar asnosida taqsimlanishidagi munosabat Forobiy taqsimot masalasini juda qiyin, ammo juda ham zarur ish, deb hisoblaydi. Zero, taqsimot ishi to'g'ri bo'lmas ekan, odamlar bachkanalashib ketadi, faqir ahvolga tushib qoladilar. Taqsimot ishining boshi mavjud mulk va ne'matlarning miqdorini aniq hisobini olishdir. Jamiyatda adolatli qonunlar asosida yaratilgan

taqsimot tizimi bo'lgandagina ishlab chiqarish yaxshi natijalar beradi.

Abu Ali ibn Sino ehtiyojlar va ularni qondirish haqida. Ehtiyojlarni qondirishning muhim ijtimoiy jihati-bu odamlar o'rtasida hamkorlik va aloqalar o'rnatishdir. Chunki har bir odam qanchalik qobiliyatli bo'lmasin hatto o'z ehtiyojini ham qondirishga yetarli ne'matlar yarata olmaydi. Demak, ijtimoiy ehtiyojlarni mehnat taqsimoti asosida ishni tashkil etish orqali qondirilishi mumkin. Bunda davlatning o'rni g'oyat muhimdir. U adolatli qonunlar orqali odamlarni ijtimoiy hayot va mehnatda o'z o'rinlarini topib olishlarini ta'minlaydi.

Pul muomalasini tartibga solish. Tarixan tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi tufayli pulga (oltin va kumush pullarga) talabning ortib ketishi qalbaki pullarning (tarkibida qiymati past metallarning ko'payib ketishi) muomalaga chiqarilishiga olib kelgan. Bunday holat iqtisodiyotni izdan chiqarishga, odamlar turmush ahvolini yomonlashtirishga olib keladi. Ana shu vaziyatni bartaraf qilish vositasi pullar tarkibidagi qimmatbaho metallar salmog'ini aniq belgilab berish lozim. Buyuk olim Beruniy besh yil davomida ana shunday apparat yaratdi va pul muomalasidagi inqirozni bartaraf etdi.

«Qutadg'u bilig»- Buyuk allomamiz Yusuf Xos Hojibning ulkan tarbiyaviy ma'naviy, badiiy va iqtisodiy tafakkur manbasi bo'lgan asari. Asarda mehnatga to'g'ri va adolatli haq to'lash, odamlar mehnatini taqdirlash, mehnatkashning qadriga yetish, moddiy manfaatdorlik, kasb-hunar egallash masalalari o'z ifodasini topgan. Unda yoziladiki, inson hayvon tengi emas, ana shuni bilib unga amal qilinsagina barcha ish ko'ngildagidek bitadi va ishdan samara chiqadi. Demak, tekis taqsimot yaroqsizdir, faqat mehnatning miqdori va sifatiga qarab taqsimot tashkil etish jamiyatda tartib bo'lishiga olib keladi. Kitobda davlatning (davlat boshlig'ining) bu boradagi vazifalari aniqlashtirilib berilgan.

Xiroj- iqtisodiyot subyektlaridan, odamlar daromadidan davlat hisobiga olinadigan majburiy to'lov, tushum. Xiroj hamma zamonlarda ham davlatning iqtisodiy tayanchi va qudrati bo'lib kelgan Nizom-ul-mulk ning «Siyosatnoma» asarida xirojning (soliq) me'yorlari belgilab beriladi. Soliqlar shunday bo'lishi kerakki, ular odamlarga malol kelmasligi, azob-uqubat yetkazmasligi, soliq to'lash qobiliyatidan kelib chiqishi, nochorlar soliqqa tortilmasligi lozim. Unda yoziladiki, soliqlar adolatsiz bo'lganda, odamlar o'z uy-joylarini ham sotib, Vatanlarini tashlab sarsonlik va g'ariblikka mubtalo bo'ladilar. Faqat adolatli soliqlargina iqtisodiy ravnaqqa olib keladi.

Bozorni tartibga solish Nizom-ul-mulk vazir sifatida ham bozorlarda barqarorlik bo'lishini ta'minlashni zarur deb bilgan. Buning uchun u bozorlardagi tosh-tarozining to'g'riligi, narx-navolarning adolatli bo'lishini nazorat qilib turadigan maxsus mas'ul kishilar tayinlagan. Ular bozorlarda tosh-tarozlarni «to'g'ri tutib amri ma'ruf va naxyi munkar qiladilar»

Sarf-harajatlar me'yori. Nizom-ul-mulk ta'lim beradiki, olingan daromadlarning hammasi ham sarflanmasligi darkor «har bir narsa o'z vaqti va o'z joyida harj bo'lishi kerak». Faqat shundagina «odamlar rohatda yashaydi, biror kishi mol-mulki jihatidan azob chekmaydi».

Osoyishta va tinch hayot omili. Olim fikriga ko'ra, mamlakatda osoyishta, tinch va farovon hayot hukm surmog'i uchun podshohdan tortib barcha rahbarlar, amaldorlargacha insofli, odil, yomon va noto'g'ri ishlardan qo'l siltaydigan bo'lishlari kerak.

Nafaqa ham mehnatga yarasha bo'lsin. Nizom-ul-mulk aytadiki, xazinadan nafaqa oladiganlar: «ko'p oladigan ko'p, kam oladigan kam olsun. Shunda har bir odam o'z qadrini tushunadi». Boshqacha aytganda, davlat tomonidan ijtimoiy himoyalash ham notekislik (tabaqalashtirilgan) tamoyilga asoslanishi kerak, ya'ni nafaqa miqdori mehnatlari miqdoriga qarab belgilansin. Olim «Iqtisod» tushunchasini ziqnalik, qizg'anchilik, baxillik deb tushunmasliklari, aksincha, xazinani to'g'ri boshqarish, to'g'ri sarf-harajat qilish, mol-mulkni, boylikni, daromadni to'g'ri tasarruf etish, zarur zaxiralar barpo etish deb tushunishlari kerak deb bildi.

VI bob. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI IQTISODIY TA'LIMOTLARI

1. Amir Temurning iqtisodiy tafakkuri

Sohibqiron, buyuk sarkarda Amir Temurning iqtisodiy g'oyalari «Temur tuzuklari» asarida bayon etilgan. Unda Sohibqironning mamlakatni boshqarish, uni rivojlantirib borish qoidalari, tamoyillari, yo'l-yo'riqlari o'z ifodasini topgan. Bu asarda iqtisodiyotni tashkil etish, barqarorlashtirish, tartibga solib, yuksaltirib borishga oid qimmatli iqtisodiy tavsiyalar jamlangan.

Sohibqironning iqtisodiy g'oyalari va siyosati zamirida inson, uning manfaati, farovon va tinch hayot kechirishi tashvishlari yotadi. U odamlarga kasb-hunar berish, ish bilan ta'minlash, tadbirkorlik faoliyati bilan va tijorat ishlari bilan mashg'ul bo'luvchilarga yetarli sarmoya berish, yetarli uy-joylar qurib berish haqida qayg'uradi. «Temur tuzuklari»da quyidagilarni o'qiyamiz:

«Kasb-hunar va ma'rifat ahllariga saltanat korxonalaridan ulush berilsin», «bilagida kuchi bor faqir-miskinlar esa o'z ahvoli va kasbi koriga qarab yo'l tutsinlar», «sarmoyasi qo'lidan ketib qolgan savdogarga o'z sarmoyasini qaytadan tiklab olishi uchun xazinadan yetarli miqdorda oltin berilsin», «kuchi yetmaydigan dehqonlarga ekin-tikin uchun urug'lik va asbob-uskunalar tayyorlab berilsin», «fuqarolardan uy-joyi buzilib, tuzatishga qurbi yetmaganlarga kerakli narsalarni yetkazib berib, ularga yordam berilsin¹». Sohibqironning yuqoridagi iqtisodiy qoidalari yangi, bozor iqtisodiyotini qurish, yangicha iqtisodiy tarbiyani yo'lga qo'yish ishlarida biz uchun muhim yo'llanma, tarixiy yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi.

Amir Temur iqtisodiy qarashlari tizimida soliq masalasi markaziy o'rin tutadi. Chunki soliq tizimi orqali iqtisodiyot tashkil etilgan, boshqarilgan, mamlakat iqtisodiy va harbiy hayoti tartibga solingan. Sohibqiron o'z soliq siyosatida ham xalqning manfaati ustuvorligidan kelib chiqadi. U agar aholi soliq tizimi orqali kambag'allashib ketsa, davlat ham, oqibatda, kambag'allashib boradi, aholining boy-badavlat yashamog'i uchun adolatli soliq tizimi zarur, deb hisoblaydi.

Amir Temur ta'kidlaydiki, aholidan olinadigan soliqlar ularning ishlab topgan daromadlariga qarab belgilanishi, ularning qaysi birlari el-yurt

¹ Temur tuzuklari, T., 1993, 67 – bet

obodonchiligi yo'lida o'z mol-mulki va sarmoyasini ayamay sarflasa, ularga davlat soliq to'lashda imtiyoz berishi kerak¹ Shu bilan birga, u soliqlar odamlarni mehnatga, yaratuvchilikka, tadbirkorlikka, sohibkorlikka rag'batlantirishi zarurligini uqtiradi. «Amr qildimki, —deyiladi asarda, — aholidan mol-xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlanish kerak. Negaki, aholini xonavayron qilish davlat xazinasining kambag'allashuviga olib keladi²»

Amir Temur aholining o'zi yurgizayotgan iqtisodiy siyosatdan, xususan, moliyaviy munosabatlardan, pul muomalasi va soliq tizimidan xabardor bo'lishini, ya'ni, iqtisodiy savodxon bo'lishini talab qilardi. U aholi iqtisodiy savodxon bo'lsa, mamlakat iqtisodiy jihatdan ravnaq topadi, deb hisoblaydi.

Sohibqiron soliqlar xususida yana quyidagilarni yozadi: «Agar aholi ro'yxatga olingan yerlardan beriladigan soliqni naqd aqcha (pul) bilan to'lashga rozi bo'lsa...³» ularga imtiyoz berilishi kerak. Bu yerda gap soliqni naqd pul bilan to'lovchilar naqd pulsiz (mahsulot yo'li bilan) to'lovchilar oldida yengilliklar olishi ustida boradi.

Ma'lumki, hozirgi islohotlar ikkinchi bosqichining ustuvor vazifalaridan biri milliy valyutamizning qadr-qimmatini oshirish, uni mustahkamlash, mamlakatning ichki va tashqarisida erkin almasha olishga erishishdir. Bunga iqtisodiyotni rivojlantirish, bo'sh pul resurslarini aholi ixtiyorida, muomaladan tashqarida qolmasligi choralari ko'rish, pulning real muomalada yurishi orqali erishiladi. Ana shu umumiy qoidalar Amir Temur iqtisodiy siyosatida o'z ifodasini topgan. U naqd pul bilan davlat soliqlarini to'laganlarga ma'lum imtiyozlar bergan. Bu bilan aholining bo'sh pullarini muomalaga kiritish, xazinani to'ldirish (bizning hozirgi ifodamiz bo'yicha davlat budjeti daromadlarini ko'paytiramiz), iqtisodiyotimizda pul taqchilligini keltirib chiqarmaslik, pul emissiyasini keraksiz amalga oshirmaslik, ya'ni pulning qadrsizlanmasligining g'oyat puxta o'ylangan iqtisodiy vositasini topgan. Shuningdek, u soliq islohotiga katta e'tibor bergan, ishlab chiqaruvchilarga soliq to'lashda imtiyozlar bergan.

Amir Temur o'tkazgan iqtisodiy islohotlar tizimida dehqonlardan olinadigan tushumlarni tabaqalashtirish tamoyili ham alohida o'rin tutadi.

¹ O'sha asar, 95 -- betlar

² O'sha asar 98 — betlar

³ O'sha joyda. 98 — betlar

U tushumlar miqdori yer va iqtisodiy sharoitlarga qarab belgilanishini talab qilgan. Masalan, yangi yer o'zlashtirilib, dehqonchilik qilayotgan kishilardan 1-2 yil soliq olmaslik, keyingi yillarda esa u sarflagan sarmoyasi qoplanishini e'tiborga olib, soliq solish, yerning tabiiy unumdorligiga qarab hosilning 1/4, 1/3, 1/2 kabi nisbatlarda tayinlanishi kabi tabaqalashtiruvchi soliqlar joriy etdi. Ayni vaqtda, yangi yerlar o'zlashtirish, suv chiqarish va melioratsiya ishlari yukini davlat zimmasiga olish kabilar muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy nazariya fanida (ilgari «Siyosiy iqtisod») agrar munosabatlar, ularning mavzusi bo'lgan yer rentasi ta'limoti mavzusi alohida o'rin tutadi. Bu ta'limot markazida yer rentasi, uning mutlaq (abstrakt), differensiallashgan (tabaqali), monopol shakllari masalalari yotadi. Biroq bu ta'limot asoschilari deb U. Petti, A. Smit, D. Rikardo va boshqalarning nomlari tan olinardi. Aslida differensial renta ta'limotining asoschisi, karvonboshisi sohibqiron Amir Temur ekanligini isbotlashga hojat yo'q. To'g'ri, Amir Temur renta g'oyasi to'g'risida maxsus asar yozgan emas. Biroq uning soliqlarni yer sharoitlari va boshqa mavjud bo'lgan sharoitlarga qarab belgilash tizimi ilmiy asoslanganligiga hech qanday shubha yo'q.

2. Mirzo Ulug'bekning iqtisodiy islohotlari

Mirzo Ulug'bek o'zining podshohlik, olimlik, mutafakkirlik faoliyatida ulug' bobosi Amir Temur vasiyatlariga, uning ko'rsatmalariga to'la asoslandi. Natijada uning 40 yillik hukmronligi davrida mamlakatda barqarorlik, tinchlik, hamjihatlik, iqtisodiy ravnaq katta ijodkorlik hukm surdi. Mirzo Ulug'bek o'z faoliyatida iqtisod ilmiga, iqtisodiyotni rivojlantirish va barqarorlikni ta'minlashga katta e'tibor berdi. U shunday iqtisodiy o'zgarishlar (islohotlar) qildiki, bular oqibatida iqtisodiy inqirozlarning oldini oldi, davlat qudratini yuksak darajaga ko'tardi.

Uning soliqlarni tartibga solish va pul muomalasini barqarorlashtirish, pulning qadsizlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun ko'rgan chora-tadbirlari tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Masalan, u xirojning miqdorini tabaqalashtirish yo'lini tutdi, ya'ni xirojni yerning shart-sharoiti, unumdorligi, bozorlarga yaqin-uzoqligi kabi omillarga qarab belgiladi. Iqtisod ilmining hozirgi tushunchasi bilan aytganda, yer rentasi ta'limotini asoslashga harakat qildi. U soliqlarni pul shaklida to'lashni afzal deb bildi va shunday soliq shaklini ijtimoiy adolatga xizmat qiladi, deb bildi.

Mirzo Ulug'bek iqtisodiy dunyoqarashida pul islohoti alohida o'rin

tutadi. U shu maqsadda pul zarb qiluvchi korxonaga qurdiradi. Pul birliklarining nomini ana shu korxonaga joylashgan shahar — Buxoro xalq atamasi bilan atashni lozim topdi (masalan, donaki adliya, nildonaki adliya, dudonaki adliya kabi). Pul birligining vazni pul qiymatiga qarab 2, 3—8, 6 gramm og'irlikda belgilangan. Bunday iqtisodiy tadbir mamlakatda tovar-pul munosabatlarining rivojlanishiga, xalqaro savdo ravnaqiga, milliy mulkning barqaror bo'lishiga xizmat qiladi.

3. Alisher Navoiyning iqtisodiy dahosi

O'zbek xalqining ma'naviy merosida, uning madaniyati xalqaro miqyos kasb etishida mutafakkir shoir Alisher Navoiyning o'rni, uning xizmatlari beqiyosdir. Hozirga qadar xalqimiz, xususan, yoshlarimiz uni she'riyat mulkining sultoni deb tanib keldilar. Biroq Alisher Navoiyning ilmiy merosi shu qadar boy va keng qirraligi, unda iqtisodiyot masalalariga doir ko'pgina qimmatli g'oyalar ham o'z ifodasini topgan. Buyuk mutafakkirimizning iqtisodiy qarashlari uning bir umrlik kitobi bo'lgan «Mahbub ul-qulub» («Qalb sevgilisi») asarida bayon qilingan.

U asarda taqsimot munosabatlariga, ularning adolatli tashkil etilishiga e'tiborni qaratdi, xususan, xizmatga yarasha taqdirlash (haq to'lash) masalasi uning diqqat markazida turdi. U yasovul misolida shunday deydi: «Agar u xizmatiga yarasha haq olishi xayolida bo'lsa, u ota merosi va ona suti kabi haloldir¹».

Bu yerda Alisher Navoiy ikkita iqtisodiy g'oyani ilgari suradi: **birinchidan**, mehnatning miqdori va sifatiga muvofiq taqdirlanish fikri bo'lsa, **ikkinchidan**, mehnatiga yarasha haq olish «ona sutidek halol» ekanligi haqidagi fikr uqtirilgan. «Mahbub ul-qulub» asarida Alisher Navoiy jamiyatning boyishida savdo-sotiq, tijorat ishlari muhim rol o'ynashi haqidagi iqtisodiy g'oyani markantilistlardan bir asr ilgariyoq asoslab bergan. «Savdogar, — deb yozadi buyuk allomamiz, — yolg'iz foydani niyat qilmasligi, savdo qilib foyda topaman, deb ortiqcha kema so'rmasligi, mol va pul ko'paytiraman, deb jonsarak bo'lmasligi kerak». «Savdogar boj-xiroj berish o'rniga o'z molini yashirib, o'z obro'sini to'kmasa yoki topgan-tutganini merosxo'rlari sotib-sovurishi uchun to'plab qo'ymasa yoki biror yomon hodisani ko'zlash uchun sarflamasa, jamg'armasa yaxshi bo'ladi²».

¹Mahbub ul-qulub», 1., 1983, 21 — bet
²O'sha asar 33 — bet

Asarda bayon etilgan yuqoridagi iqtisodiy fikrlardan quyidagi iqtisodiy xulosalarga kelish mumkin: **birinchidan**, savdo, bozor, tijorat, muomala jarayoni (oldi-sotdi) iqtisodiyotni rivojlantirishda yetakchi ahamiyat kasb etadi. Zero, ular tovarlar takchilligini tugatishga xizmat qiladi. **Ikkinchidan**, savdo davlat budjeti daromadining manbayi, mamlakat iqtisodiy qudratining tayanchlaridan biridir, zero, savdogarlar davlat xazinasiga boj-xiroj to'lab turish bilan moliyaviy munosabatlarda muhim rol o'ynaydilar. **Uchinchidan**, allomamiz savdogarlarni insofga, diyonatga chaqiradi, ulardan faqat o'z foydasini ko'zlab ish tutmaslikni talab qiladi.

Ma'lumki, mazkur davrda (hatto eng taraqqiy etgan mamlakatlarda ham) asosiy ishlab chiqaruvchi kuch dehqonlar bo'lgan, jamiyatning iqtisodiy ahvoli, kelajak taraqqiyoti, odamlar farovonligi ham ularga bog'liq bo'lgan. Alisher Navoiy o'z daxosi bilan dehqonlarning moddiy ne'matlar yaratuvchi asosiy kuch ekanini, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taqdiri ularga bog'liq ekanini ko'ra bildi. U yozdiki, «Olamning obodonligi dehqondan, mehnat tut shodon, ular shodon». «Dehqon qanday ekin ekishga qilsa harakat — elga ham oziq-ovqat yetkazar, ham barakat¹»

Keltirilgan fikrlardan, Alisher Navoiy moddiy ne'mat yaratuvchi boshqa kishilar guruhini (hunarmandlar, mayda tovar ishlab chiqaruvchilar), ularning iqtisodiy ahamiyatini kamsitgan, degan fikr kelib chiqmaydi. Alisher Navoiyning mashhur «Farhod va Shirin» dostonida hunarning, hunarmandchilikning katta iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asarida qiymat kategoriyasi ham ma'lum ma'noda o'z ifodasini topgan. Albatta, mazkur asarda bu murakkab iqtisodiy tushuncha (qiymatning ta'rifi berilgan) to'la holda ilmiy asoslab berilmagan. Alisher Navoiyning qiymat haqidagi fikri chinni idish misolida (o'sha davrlarda chinni idish tayyorlash g'oyat og'ir, ko'p mehnat talab qiluvchi hunar bo'lgan) shunday ta'riflanadi: «Chinni idishning — uni tayyorlashdagi qiyinchiligiga yarashligi bilandir; uni asrashda ham qiymatga ahamiyat beriladi. Qiymati oz narsaning — hurmati oz²». Bu yerda biz uchun ahamiyatli bir xulosa shuki, xali G'arb adabiyotlarida qiymat tushunchasi uchramagan bir davrda Alisher Navoiy qiymatning miqdoriy jihatini tushunib yetdi va uni o'z asarida ta'rifladi.

Alisher Navoiy iqtisodiyotning muhim jihati bo'lgan mulk masalasiga e'tiborni qaratadi. U mulkni to'g'ri tasarruf etish, resurslar, iqtisodiy

¹ O'sha asar, 36- bet

² O'sha asar, 7 — 8- bet

shart-sharoitlardan unumli foydalanish, isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik kerak, deydi. Ana shunda odamlar to‘q va farovon yashashlari mumkinligi haqidagi iqtisodiy qarashni ilgari suradi. «Isrof qilish saxiylik emas, o‘rinsiz sovrishni aqlli odamlar saxiylik demas. Halol molni kuydirganni devona, deydilar, yorug‘ joyda sham yoqqanni aqldan begona, deydilar¹», — deb yozadi.

4. Zahiriddin Muhammad Boburning iqtisodiy g‘oyalari

Bobur o‘z qisqa hayoti davomida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma‘rifiy hayotning juda ko‘p muammolariga yechim topishga harakat qildi. Uning ilmiy dunyoqarashi mashhur «**Boburnoma**» asarida bayon etildi. Bu asar o‘zining har jihatdan mukammalligi, turli sohalarga oid tadqiqotlarning mahsuli ekanligi, juda ko‘p fanlarga oid bebaho materiallarga boyligi bilan ilmiy jamoatchilikning hayrat va tahsiniga sazovor bo‘ldi, shu bilan birga, tariximizni bilish, o‘zligimizni anglash uchun bebaho manba sifatida ham ahamiyatlidir. Unda adabiyotshunoslik, manbашunoslik, jug‘rofiya, tilshunoslikka oid hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotga oid g‘oyalar va qarashlar mujassamlashgan. Bu asarni mutolaa qilar ekanmiz, undan mamlakatimizning bugungi hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni tahlil qilish, ulardan xulosalar qilish va qilayotgan ishlarimizda foydalanish uchun fikrlar topamiz. Ayniqsa, iqtisodiyotga oid, uning umumiy asoslariga (ishlab chiqarish, uning insoniyat hayotidagi ahamiyati) oid, savdo va tijoratga borlik ilmiy qarashlar bizni to‘lqinlantiradi.

«Boburnoma» uzoq yillar «Buyuk ipak yo‘li» bo‘ylab qilingan sayohat va kuzatishlar tasviri berilgan asardir. Bu yo‘ldan qancha-qancha savdogarlar, tojirlar (tijoratchilar, do‘kondorlar) o‘z mollarini dunyoning turli mintaqalari va mamlakatlariga yetkazib berganlar. Ular o‘z ishlari bilan savdo — iqtisodiy faoliyatnigina emas, ayni chog‘da, xalqlar o‘rtasida do‘stlik, tinchlik va o‘zaro manfaatdorlik rishtalarini ham bog‘laganlar. Ma‘lumotlarga qaraganda, hatto urushlar, o‘zaro kelishmovchiliklar hukm surayotgan davrlarda ham savdogar-tijoratchilarning mol-mulkini talash, bosqinchilik qilish, ziyon yetkazish qattiq qoralangan. Agar moziyga nazar solinsa, o‘sha davrlarda davlatlar, xonlar, podshohlar urush-janjallari, asosan, qulay savdo yo‘llari, bozorlari, dunyo bozorlariga chiqish maqsadlarida olib borilgan. Buyuk Amir Temur va uning munosib vorisi bo‘lgan

¹ O‘sha asar, 69—bet.

Bobur ham mamlakatlar, xalqlar o'rtasida halol savdo-sotiq hamkorlik, tinchlik, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot uchun kurashganlar.

«Boburnoma»da asar muallifining o'zi tug'ilib o'sgan yurt, Vatani, uning tabiiy, iqtisodiy, ma'naviy resurslari, ajoyib mehnatkash, yaratuvchi xalqi to'g'risida to'liqlanib yozgan satrlarini hayajonsiz o'qish qiyin. Mana uning jonajon Andijoni haqidagi fikri: «... Farg'ona viloyatining poytaxtidur. Oshligi vofur, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo'lar. Qovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq, rasm emas...¹»; Qobul haqida: «Hindiston bila Xurosonga vosita bu viloyatdur. Biser yaxshi savodxondir. Savdogarlar Xitoyga va Rumga borsalar, ushmuncha — o'q savdo qilg'aylar... Quyi Hindistondir, o'n-o'n besh-yigirma ming uyliq, karvon Qobulga kelur... Xuroson va Iroq, Rum va Chin matoi Qobulda topilur... Nayshakarni kelturub, ekturub edim. Chilg'o'zani Nijrovdin keltururlar²». Yoki Samarqand to'g'risida shunday yozadi: «Samarqand shahri ajab orasta shahardur, bu shaharda bir xususiyat borkim, o'zga kam shaharda andoq bo'lg'ay. Har xirfagarning bir boshqa bozori bor, bir-birlariga maxlut emastur, tovar rasmedur. Xo'p nonvoliqlari va oshpazliklari bordur. Olamda yaxshi qog'oz Samarqanddan chiqar. Juvozi qog'ozlar suyi tomom Konigildin keladur...³»

Yuqoridagi fikrlarning ahamiyatli tomoni shundaki, birinchidan, ularda iqtisodiy fikrlar, qarashlar ifodalangan bo'lsa, ikkinchidan, ularda Boburning yaratuvchilik, ishlab chiqarishga qiziqishlari bayon etilgandir. Moddiy ne'matlarning uzoq-uzoqlarga yetib borishi va mashhur bo'lib ketishi o'sha davr iqtisodiy va ijtimoiy siyosatining natijasi bo'lsa, boshqa tomondan, ular savdogarlarning olijanob xizmatlari tufaylidir. «Boburnoma»da bir yurt mollarining boshqa yurtlarga olib borilishi, almashuvi, aholi ehtiyojlarining qondirilishi va ularning ahamiyati maroq bilan hikoya qilinadi.

Bobur savdo-sotiqning xalqlar o'rtasidagi bebaho ahamiyatini juda chuqur tushunar edi. Shuning uchun ham u savdo karvonlarini yo'llarda talash, bosqinchilik qilish, mol-mulkiga ziyon yetkazish kabi salbiy illatlarga shaxsan o'zi ham qat'iy qarshi chiqadi. Bunga misol qilib quyidagi so'zlarni keltirish mumkin: «Kalotga yetganda, qalin Hinduston savdogarikim, Kabotga savdo qilgali kelgan ekandurlar, qocha olmadilar, cherik eli alar ustiga — o'q yetib bordi. Aksar birin bo'ldilarkim shundoq yog'iylik mahalida

¹ Zahridin Muhammad Bobur. Boburnoma, T., 1989, 5—6—betlar

² O'sha asar, 117—118—betlar.

O'sha asar, 46—bet.

yog'iy viloyatiga kelatug'onlarni talamoq kerak, men rozi bo'lmadim, savdogarlarning ne gunohi bor...¹ ».

O'zgalar mulkiga hiyonat qilmaslik, ularning mulkini muqaddas bilish, el-yurt farovonligi yo'lida tinib-tinchimay ishlayotgan odamlarni qadrlash, ularni himoya qilish kabi umumbashariy qadriyatlar Boburga bobosi Amir Temurdan meros bo'lib kelgan. Otasining ana shunday olijanob xislatini eslab quyidagilarni yozgan edi: «Adolatla shu martabada edikim, Xitoy karvoni kelaturg'onda, Andijonning sharqiy tarafidagi tog'larning tubida ming uylik karvonni qor bostikim, ikki kishi kuturdi. Xabar topib muxassillar yiborib, karvonning jami' jihatini zabt qildi. Har chandonkim, vorisi hozir yo'q edi, bovujudi ehtiyot saqlab, bir-ikki yildan so'ngra Samarqand va Xurosondan vorislarini tilab kelturib, mollarini solim topshirdi² ».

Bobur iqtisodiy dunyoqarashini o'rganish, uning iqtisodiyotga oid qarashlarini tadqiq etish navbatdagi dolzarb vazifalardan biridir. Biz yuqorida keltirgan fikrlar ushbu ezgu ishdagi dastlabki harakat mahsulidir.

«Qur'oni karim» va islom shariati qoidalari asosida soliq haqida ta'limot— Islomdagi farzlardan biri — zakotdir. U soliq ma'nosida qo'llaniladi. Zakot pul va savdo yig'imi turlarida to'langan. Bobur g'oyat adolatli, insonparvar inson bo'lganligidan uning soliq haqidagi qarashlari ham umuminsoniyat qadriyatlarini aks ettirgan. U soliqni hisoblash uchun soliq mavzusining «hisobi»ni hisoblash, ya'ni mol-mulkning soliq solishga layoqatli miqdorini aniqlash zarur, deb bilgan. Soliq hosilga, ya'ni olinayotgan daromadga qarab belgilangan.

Bobur iqtisodiy ta'limotida «xiroj», ya'ni yer solig'i masalasi alohida o'rin tutadi. U yer solig'ini ikki toifaga bo'ladi, ya'ni «muqassam va muvazzar». **Birinchisi**, olingan hosilning miqdoriga borliq bo'lgan, ya'ni hosilning 1/3 dan 1/2 gacha miqdorda belgilangan; **ikkinchisi**, ekilayotgan yer maydoniga bog'liq qilib qo'yilgan. Sug'oriladigan yerlarga belgilanadigan soliq miqdori ham alohida hisoblangan. Suv solig'i hosilning 1/10 ning yarmi miqdorida tayinlangan. Shu bilan birga, chorva hayvonlariga ham ularning turlari va soniga qarab tabaqalashtirilgan tarzda soliq belgilangan. Masalan, 40 ta qo'ydan bittasi, 120 ta qo'ydan ikkitasi, 201 ta qo'ydan uchtasi, qo'ylar soni 400 tadan ortgan taqdirda har 100 tasidan bittadan qo'y zakot (soliq) sifatida to'lashi farz qilingan.

Feodalizm davri iqtisodiyotida savdoning ahamiyati, uning iqtiso-

¹ O'sha asar, 187 – bet

² O'sha asar, 10 – bet

diyotdagi salmog'i yuqori ekanligi ma'lum. Bobur savdogarlarning mamlakat hayotidagi o'rnini yaxshi tushunganligi tufayli ular daromadidan ham soliq to'lashning alohida (o'ziga xos) tartibini taklif etgan. Masalan, savdogarlarning savdo yig'imining har 20 misqoli — oltindan bir misqoli savdo yig'imi tarzida olingan. Ahamiyatli tomoni shundaki, birinchidan, soliq hissasi savdodagi olinadigan daromad hissasiga nisbatan kamayib borilishi ko'rsatilgan, bu esa savdogarlarni rag'batlantiruvchi vositaga aylangan; ikkinchidan, agar savdogarlar Islom mamlakatlaridan kelgan bo'lsa, daromadning 1/20 qismi miqdorida soliq belgilangan. Yana shu qoida biriktirilib qo'yilganki, musulmon savdogarlardan olingan soliq, ularning o'z mamlakatlaridagi soliq miqdori darajasida bo'lishi ko'zda tutilgan.

Bobur ishlab chiqqan soliq siyosati uzoq yillar musulmon mamlakatlarda qo'llanilgan. Bu esa Bobur iqtisodiy tafakkur olami juda uzoqni ko'zlovchi ilmiy asoslarga suyanganidan dalolat beradi. Bunday salohiyat uning vorislari, hamyurtlari qalbida unga nisbatan yanada chuqur hurmat va faxrlanish hissini tuydiradi.

5. Ibn Xaldunning iqtisodiy qarashlari

Ibn Xaldun Sharqning buyuk faylasufi, tarixchisi, siyosatshunos olim, davlat arbobi va yirik iqtisodchi sifatida o'z davrida katta obro' va shonshuhrat qozongan tarixiy shaxsdir. U 1332- yilda Shimoliy Afrikaning Tunis shahrida tavallud topdi. Uning ajdodlari bir necha asr davomida obro'li davlat lavozimlarida faoliyat ko'rsatganlar. Uning otasi esa siyosiy hayotdan ketib, fanning turli sohalarida tadqiqotlar olib borgan, o'zini fanga bag'ishlagan kishi edi. Tabiiyki, bunday muhitda farzandning tarbiyasiga qulay shart-sharoit yaratilgan, otasi rahbarligida islom huquqi, til va adabiyot, siyosat va iqtisod fanlarini chuqur egalladi. Ayni chog'da, Ibn Xaldun o'z davrining yetuk davlat arbobi darajasiga ko'tarildi, bir qancha davlatlarning siyosiy hayotida faol qatnashdi. Uning hayotdagi muhim voqealardan biri umrining oxirlarida buyuk sohibqiron Amir Temur bilan uchrashgani, uning izzat-ehtiromini qozongan, Temurning iqtisod va boshqa masalalar bo'yicha maslahatchisi bo'lib xizmat qilganligidir.

Ibn Xaldun bir qancha yirik asarlar yozdi. U ko'proq falsafa va siyosatshunoslikka oid kitoblar bitdi. Uning iqtisodiy qarashlari ham jahon ilm ahli tomonidan e'tirof etildi. Uning iqtisodiy qarashlari «Kirish» deb atalgan asarida bayon qilingan.

Mehnat va mehnat taqsimoti haqida

Ibn Xaldun tarixni odamlarning o'zlari yaratadi, ularning harakati va manfaatlarini ro'yobga chiqarish jarayonida tarix yuzaga keladi degan fikrdan kelib chiqib, odamlarning mehnat faoliyatlari va bu jarayonda ularning bir-birlariga hamkorligi, ko'maklashuvi masalasiga katta e'tibor berdi. Uning fikriga ko'ra, odamlarning ishlab chiqarish faoliyati jamiyatning yashash va rivojlanish shartidir, bu esa ularning moddiy ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Biroq ehtiyojlarni alohida ajralgan holda qondirish hech kimning qo'lidan kelmaydi, uning ehtiyojini faqat boshqalar bilan birgalikda ishlash, mehnat turlarini qobiliyatlariga qarab bo'lishib olib, ishlash asosidagina qondirish mumkin. Demak, odamlarning hayotiy ehtiyojlari birgalikdagi harakatlari bilangina qondiriladi.

Ibn Xaldun tabiiy-jo'g'rofiy muhit odamlar hayotiga, ularning yashash tarziga, iqtisodiy faoliyatiga kuchli ta'sir ko'rsatishini aytib, biroq u kishilik jamiyati taraqqiyotini ta'minlovchi bosh omil bo'la olmasligini uqtirgan. Bunday bosh omil odamlarning mehnat taqsimoti asosida uyushtirilgan iqtisodiy faoliyat bo'lishi mumkin. Biroq, odamlar bir-birlari bilan yashash sharoitlarini, vositalarini yaratish maqsadidagina bog'lanadilar, o'zaro yordamlashadilar.

U industrial, ya'ni mehnatni tashkil etishning shahar shaklini yuqori baholaydi, uni ishlab chiqarishni rivojlantirishning oliy bosqichi deb ataydi. Chunki shahar ishlab chiqarish sharoitida moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratish usullari takomillashadi, inson esa ijtimoiy ravnaq topishning yuqoriroq pog'onasiga ko'tariladi, shahar hayot tarzi hunarmandchilik rivojlanishiga hamda uning keng tarqalishiga asos bo'ladi. Shularga asoslanib, olim qayd etadiki, mehnat qurollarining ishlab chiqarilishi va ijtimoiy mehnat taqsimoti, tabiiy ravishda mahsulot almashinuvini kengaytiradi. Almashuv jarayonida esa iste'mol rivojlanadi, odamlar ongi, tafakkuri o'sadi va daromadlar asosida yashash tarzi shakllanadi.

Qo'shimcha mahsulot va mehnat taqsimoti ta'limotining asoschisi

Ibn Xaldun xalqlar va davlatlarning haqiqiy boyligi pulda emas, balki mehnatda va mehnat mahsulotlarida ekanini payqadi. Uning fikricha, jamiyatning farovonligi va uning rivojlanishi mamlakat aholisining ko'payishi, ish kuchlarining shaharlarda to'planuvi, ya'ni «mehnat miqdorining o'sishi»ga bog'liqdir. Biroq, jamiyat faqat zaruriy mahsulot

ishlab chiqarish bilan chegaralansa, u qashshoqlik va qoloqlikdan chiqa olmaydi. Jamiyatning rivojlanishi, aholi turmush darajasining ortishi faqat «ortiqcha mahsulot», qo'shimcha mahsulot ishlab chiqara olganidagina ta'minlanadi. Demak, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti asosini qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish tashkil etadi. Gap shundaki, qo'shimcha mahsulot, uning mohiyati, ahamiyati, taraqqiyotning birdan-bir moddiy asosi ekanligi to'g'risidagi tushunchaga u G'arb iqtisodchilaridan kamida 350-400 yil ilgariroq kelgan edi.

Odamlarning mehnat taqsimoti asosida ishlashi ularning mehnat unumdorligini oshiradi. Ya'ni zaruriy ehtiyojlarni qoplab qo'shimcha mahsulot yaratish imkoniyatini tug'diradi. Olim yozadiki, jamoaga, guruhga birlashgan odamlarning bir-biriga ta'siri, o'rgatishi, yordami, natijasida ularning o'zlari iste'mol qiladigan mahsulotdan ko'proq mahsulot ishlab chiqariladi ya'ni, qo'shimcha mahsulot yaratiladi. Gap shundaki, odam yakka holda hatto o'zini boqishga ham yetmaydigan mahsulot yaratishi mumkin, agar ular ko'pchilik bo'lib, birgalashib ishlasalar, ya'ni mehnat taqsimoti asosida faoliyat yuritsalar, o'z ehtiyojlaridan ko'proq ne'matlar yaratadilar.

Mutafakkir uqtiradiki, shaharning yoki viloyatning bir qism aholisi mehnat taqsimoti asosida ishlab, zaruriy mahsulot yaratsalar, aholining boshqa qismi ortiqcha mehnat bilan qo'shimcha mahsulot yaratadi. Bu mahsulot yordamida boshqa ehtiyojlarni qondirish mumkin bo'ladi. Ehtiyojlarni qondirish mahsulotlarni qiymati bo'yicha almashtirish orqali ta'minlanadi. Demak, qo'shimcha mehnat va qo'shimcha mahsulot almashuvini bozorlarni vujudga keltiradi, ehtiyojlar tarkibini kengaytiradi, ularga erishish esa intilishni kuchaytiradi.

Ibn Xaldun yana shuni asoslab berdiki, qo'shimcha mahsulot jamiyat a'zolarining mehnat taqsimoti asosida birlashgan mehnatining natijasidir, bu mahsulot odamlarning qanchalik to'planib ishlashlariga, ularning mehnat taqsimoti asosida birlashib harakat qilishlariga bevosita bog'liqdir. Xulosa shuki, jamiyatdagi mehnat taqsimoti sharoitida har bir odam qo'shimcha mahsulotning ko'payishidan bevosita manfaatdordir, chunki u ularning har birining va hammasining farovonligiga xizmat qiladi. Jamiyatning qashshoqlik va qoloqlikdan chiqishi ham ishlovchilar soniga va ularning mehnat taqsimoti asosida bir ish kuchi sifatida birgalashib ishlashiga bog'liqdir. Iqtisodiyot ana shunday asoslarda tashkil etilsa, iste'mol qilinadigan ne'matlar ko'payadi va ularning narxлари past bo'ladi.

Ibn Xaldun shaharlarning jamiyat taraqqiyotida va qo'shimcha mahsulot

ishlab chiqarishda bosh omil ekanligiga e'tiborni tortadi. Uning fikricha, shaharlar qancha katta bo'lsa, ular qancha ko'p bo'lsa, ularda odamlar, ish kuchi qanchalik to'plansa, taraqqiyot va jamiyat taraqqiyoti shunchalik yuqori bo'ladi. U shaharlar paydo bo'lgach, odamlar ham ochlik, qash-shoqlikdan, qoloqlikdan qutiladilar deb hisoblaydi.

Xo'sh, odamlarni to'planib ishlashga, shaharlar barpo etishga, mehnat taqsimoti asosida faoliyatlarini muvofiqlashtirishga nima majbur etdi? Bu savolga uning o'zi quyidagicha javob beradi: «Bunga odamlarning osoyishta, xotirjam va badavlat yashashga bo'lgan intilishlari sababdir». Demak, jamiyatning harakatlantiruvchi kuchi mehnat taqsimoti asosida to'planib, mehnat qilishlaridir. Butun tarix haqiqati, sanoat shaharlari tarixi Ibn Xaldun g'oyalarining naqadar asosli ekanligini isbotlab turibdi.

Ibn Xaldunning fan olamidagi buyuk xizmatlaridan biri insoniyat jamiyatning rivojlanish konsepsiyasini yaratganidadir. Bu ta'limotga ko'ra jamiyat quyi fazadan yuqori fazaga tomon progressiv ravishda rivojlanib boradi. Bu rivojlanish kuchi jamiyatning o'zidadir, ya'ni odamlarning shaharlarda to'planib kooperatsiyaga uyushib, mehnat taqsimoti asosida uyushgan faoliyat yuritishlaridir. Bu g'oyaning ahamiyati shundaki, ungacha jamiyat taraqqiyoti qandaydir tashqi kuch ta'sirida bo'ladi degan qarash hukmron edi. Albatta, «Tashqi kuch» g'oyasi jamiyatni taraqqiyotga rag'batlantirmas edi. Ana shunday sharoitda Ibn Xaldun ta'limoti harakatlantiruvchi ahamiyatga ega bo'ldi.

Ibn Xaldunning qiymat nazariyasi

Ma'lumki, qiymat nazariyasi iqtisodiyot fanida eng murakkab, qiyin tushuniladigan, tahlili qiyin kechadigan iqtisodiy munosabatlardan biridir. Qiymat kategoriyasini tushunish va u haqida ilmiy fikrlarni ilgari surish o'sha tarixiy sharoit nuqtayi nazaridan qaraganda har kimning ham qo'lidan keladigan ish emasligi aniq. Shunday bo'lsa-da, biz Ibn Xaldun ilmiy dunyoqarashida qiymat kategoriyasini tushunishga, uni tushuntirishga dastlabki harakatni ko'ramiz.

Ibn Xaldunning buyuk xizmatlaridan biri shuki, u mehnatning qiymat yaratuvchanlik rolini ko'rsatib berdi, tovarlar almashinuvi asosida ularga sarflangan ijtimoiy mehnat yotishini asosladi, ya'ni u qiymat substansiyasini tushunishga intildi. Qiymat substansiyasining asosini ijtimoiy mehnat tashkil etishi haqidagi fikr o'z davri uchun g'oyat qimmatli edi. Chunki bu masalada Sharq olimi Arastudan ilgarilab ketgan edi. Arastu esa qiymat deganda almashtirishi mumkin bo'lgan har qanday narsani tushungan edi.

Ibn Xaldun ikki narsaning o‘zaro bir-biri bilan almashinuvida nima, qanday iqtisodiy asos yotishini tushunishga harakat qiladi. Uning qarashiga ko‘ra, qiymat ijtimoiy mehnatning namoyon bo‘lishi yoki ifodalanishidir, uningsiz qishloq xo‘jaligi ham hunarmandchilik ham amal qilmaydi.

Sharq mutafakkiri Ibn Xaldun qiymat to‘g‘risidagi o‘z qarashlarini G‘arb iqtisodchilaridan 300-400 yil avval ilgari surgan edi. Biroq, keyinchalik Sharqdagi iqtisod ilmiga e‘tiborsizlik, olim qarashlarining jahon miqyosida tarqalishi va uning qiymat nazariyasi bo‘yicha asoschi bo‘lib tanilishiga ta‘sir etdi.

Mulkchilik va mulkdorlik haqida

Ibn Xaldun iqtisodiy ta‘limotida mulkchilik munosabati va odamlarning mulkdor bo‘lish masalasi alohida mavzudir. Uning fikricha, inson shunda kamolotga erishadiki, agar uning timsolida ishlab chiqaruvchilik faoliyati bilan mulkdor bo‘lishlik mushtaraklik kasb etsa.

«Mulkdor bo‘lish insonning eng muqaddas huquqi, deydi u, insoniyat jamiyatining vujudga kelishi ham odamlarning mulkdor bo‘lishiga intilishlaridandir». Demak, mulkdor bo‘lish, xususiy mulkka egalik qilish insonning qonuniy, obyektiv va huquqiy zaruratidir. Shuning uchun davlat munosabatlari nafaqat boshqarishga, balki ularni boshqarishni tartibga solib turishga majburdir.

Agar Ibn Xaldunning mulkdorlik, xususiy mulkchilik haqidagi qarashlariga bugungi sivilizatsiya nuqtayi nazaridan qarab tahlil etilsa, iqtisodiy erkinlik inson uchun yot narsa emas, uni mulkdorlik huquqidan mahrum etuvchi siyosiy kuchlargina bu umuminsoniy haqiqatni inkor etganlar va hatto uni paymol etishgani ayon bo‘ladi. Inson huquqlari Deklaratsiyasida, barcha demokratik davlatlar konstitutsiyalarida qayd etilgan odamlarning xususiy mulkdorlik huquqi haqidagi qoidalar Ibn Xaldun ta‘limoti asosida qonunlashtirilgan deyishimiz mumkin. Shu nuqtayi nazardan O‘zbekiston Konstitutsiyasida, Prezidentimiz I. Karimovning asarlarida odamlarni mulkdor qilmay turib iqtisodiy va siyosiy islohotlar o‘z maqsadiga erisha olmasligi to‘g‘risidagi xulosalar ulug‘ bobokalonimiz, Sharq iqtisodi ilmining dahosi Ibn Xaldun qarashlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Jamiyat bilan uning a‘zosi o‘rtasidagi iqtisodiy munosabat falsafasi

Ibn Xaldunning falsafiy va iqtisodiy qarashlarida jamiyat bilan uning a‘zosi bo‘lgan inson munosabati masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Uning ta'limotiga ko'ra, jamiyatning holati uning boyishi, ravnaqi, istiqboli, uning a'zolarining iqtisodiy harakatlariga yashash vositalarini yaratishga bo'lgan intilishga bog'liqdir. Agar odamlar yashash vositalarini topishga intilmasalar, harakat qilmasalar, g'amxo'rlik qilishmasa, bozorlarda tovarlar sotilmaydi, ular bo'm-bo'sh bo'lib, xuvillab qoladi.

Bunday sharoitda odamlar har tomonga o'zga yurtlarga tarqalib, mamlakat aholisi kamayib ketadi, oqibatda davlat harob iqtisodiy tanazzulga giriftor bo'ladi. Demak, u davlat hokimiyati va xususiy mulkchilikni, jamiyat bilan uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni jamiyat normal hayotining asoslari degan tushunchani asoslaydi. Ular genetik jihatdan dialektik bog'liq munosabatlardir.

Pul va boylik xususida

Ibn Xaldun feodal olimi bo'lganligi uchun pulni boylik deb tushundi, jamiyatning asl boyligi puldir, jamiyatda pul qancha ko'p bo'lsa, u shuncha boydir degan falsafaga asoslandi. Bunday fikrlarni olim ongiga singishi bejiz emas, albatta. Zero, u moddiy buyumlardan oltin va kumushgina qiymatni yoki mahsulotdagi butun mehnatni mujassamlashtiradi. Uning bunday cheklangan ilmiy qarashi yana shundan kelib chiqadiki, u hali tovar qiymati odamlar o'rtasidagi bozor subyektlari o'rtasidagi ishlab chiqarish munosabati ekanini tushunib yetmagan edi. Shuning uchun ham qiymat va pul mohiyati haqida cheklangan qarashlar bilan kifoyalandi.

Ibn Xaldun foyda kategoriyasi haqida fikr yuritib, uning manbayi qo'shimcha mahsulot ekanini tushunish darajasiga ko'tarilmadi. U savdogar oladigan foydani tovarlarni o'z qiymatidan arzon olib, qiymat bahosida sotishdan keladi, foyda boylar tomonidan odamlar mehnatini to'g'ri taqdirlanmaslikdan kelib chiqadi deb tushundi.

Garchi Ibn Xaldunning iqtisodiy qarashlarida ayrim nuqsonlar bo'lsa ham ular bizning «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» to'g'risidagi bilimlarimizni yanada chuqurlashtirishga, iqtisodiy tafakkurimizni shakllantirishimizga yordam beradi. Eng muhimi, qator iqtisodiy kategoriyalar mohiyati to'g'risidagi ilmiy asoslangan qarashlarni iqtisodiyot tarixida birinchi bo'lib ilgari surganligi, Sharq iqtisodiy tafakkuri G'arb iqtisodiy qarashlaridan tarixan ancha asrlar ilgari shakllanganligi bilan bizning ma'naviy g'ururimizni ko'taradi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. «Temur tuzuklari» asarining ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati.
2. Amir Temurning aholining nochor qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish siyosati.
3. Amir Temur iqtisodiy qarashlarining hozirgi vaqtda O'zbekistonda o'tkazilayotgan islohotlar bilan hamohangligini qanday izohlaysiz?
4. Amir Temurning soliq tizimi va uning ijtimoiy adolat siyosatidagi o'mi.
5. Nima uchun Sohibqiron soliq va to'lovlarni naqd pul bilan to'lashda imtiyozlar joriy qilgan?
6. Mirzo Ulug'bek pul islohotlarini nima uchun o'tkazdi va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati nimada edi?
7. Alisher Navoiyning iqtisodiy dahosini qanday izohlaysiz?
8. Alisher Navoiyning savdo va tijorat ishlariga qanday baho berasiz?
9. Alisher Navoiy qanday soliq siyosati tizimini taklif etdi?
10. Alisher Navoiy o'z mulki va boyliklarini qanday tasarruf etdi?
11. «Boburnoma» asaridagi iqtisodiy g'oyalar nimalardan iborat?
12. Boburning «Zakat to'g'risidagi kitobi»da qanday iqtisodiy qarashlar ilgari surilgan?
13. Bobur savdo-sotiqning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotdagi roliga qanday baho berdi?
14. Ibn Xaldun qo'shimcha mahsulot va mehnat taqsimoti haqida
15. Ibn Xaldunning qiymat nazariyasini qanday tushundingiz?
16. Ibn Xaldunning mulkiy munosabatlar xususidagi qarashlari qanday?

TAYANCH IBORALAR

Amir Temurning soliq tizimi. Soliqlar quyidagi tamoyillarga asoslanilgan:

- 1) xalq manfaatining ustuvor bo'lishi; 2) aholi boy-badavlat yashamog'i uchun adolatli bo'lishi; 3) daromadlarga bog'liq bo'lishi, tabaqalashtirilishi, o'z daromadidan obodonchilik, yer o'zlashtirish, nochorlarga yordam berganlik holatlaridan imtiyoz berish yoki ozod etish; 4) yaratuvchilikka, tashabbuskorlik va tadbirkorlikka rag'batlantirishi; 5) naqd pul bilan soliq to'langanda imtiyoz berish; 6) aholining davlat soliq siyosatidan to'la xabardor bo'lishi; 7) davlat iqtisodiy siyosati bo'yicha aholining savodxon bo'lishi.

Milliy valyuta. Mirzo Ulug'bek mamlakatda iqtisodiy va siyosiy barqarorlik bo'lishining muhim omili pul muomalasini tartibga solish deb bildi. Buning uchun mamlakat o'z milliy valyutasiga ega bo'lishi va uni o'z hududida zarb etishi zarur. Bu bir tomondan, mustaqil moliya siyosati yuritishga, ikkinchi tomondan-moliyaviy mablag'larni tejashga imkoniyat yaratadi.

Xizmatga yarasha taqdirlash. Alisher Navoiy olim va davlat arbobi sifatida taqsimot masalalariga jiddiy e'tibor qaratgan. U har kimga xizmatiga yarasha haq berish lozim. Mana shunda u «ona sutidek halol bo'ladi» deb bildi. Demak, mehnatiga yarasha taqdirlash, rag'batlantirish Alisher Navoiy nazarida nafaqat adolatli ish, shu bilan birga, odamlarning iqtisodiy tarbiyasi masalasi hamdir. Zero, har bir xodim faqat o'z qilgan mehnati evaziga yashash ko'nikmalariga o'rgansin.

Savdogar faqat o'z foydasini ko'zlamasin. Buyuk tariximizning ma'lum davrlarida savdo ishlari iqtisodiy rivojlanish uchun muhim omil bo'lgan, savdogarlar faoliyati xazinani boyitishda yetakchi ahamiyat kasb etgan. Mana shu nuqtayi nazardan Alisher Navoiy aytadiki, savdogar yolg'iz foydani niyat qilmasin. Faqat foyda deb ishlamasin, soliqlardan daromadni yashirmasin, behuda mol-dunyo jamg'armasin. Bu g'oya bugungi savdogarlarimiz uchun ham bag'oyat ahamiyatlidir.

«Har bir ishdan foyda ko'rsang bajar». Alisher Navoiy odamlarni kasb-hunarli, tejamkor va tadbirkor bo'lishga da'vat etish bilan birga qilinadigan har bir ishdan manfaat, foyda bo'lishini ko'zlab harakat qilish lozimligini uqtiradi. U biror ishga kirishganda mashaqqatini oldindan ko'ra bilish, «qiyinchilikdan erinmaslik chorasini ko'rish»ga chaqiradi. U isrofgarchilik, o'rinsiz saxiylik, halol molni sovurish eng yomon xislatlar, deydi, hatto bunday bo'lishni «devonalik» deb baholaydi.

Alisher Navoiy yirik tadbirkor va boshqaruvchi. U yirik davlat arbobi, buyuk shoir bo'lish bilan birga yirik tadbirkor va menejer ham bo'lgan. Uning qaramog'ida yirik qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, madrasalar, saroylar va boshqa mol-mulk bo'lib, ularni ma'lum adolatli boshqarish tizimini yaratgan edi. Alisher Navoiyning bu xislatlari Oybekning «Navoiy» romanida mahorat bilan tasvirlangan.

Xiroj. Zahiriddin Muhammad Bobur «Xiroj» masalasida o'z ta'limotiga ega bo'lgan. U yerdan olinadigan soliqni (xiroj) ikki toifaga bo'lgan: «muqassam va muvazzar». Birinchisida xiroj hosilning miqdoriga qarab, ikkinchi –ekilayotgan yer maydoniga qarab belgilangan. Suv solig'i ham bo'lib, u hosilning 1/10 qismi darajasida bo'lgan. Chorva hayvonlari soni qancha ko'p bo'lsa, xiroj miqdori nisbatan kamaytirilib borilgan.

Savdogarlardan olinadigan soliqlar islom mamlakatlaridan bo'lsa daromadning 1/20 miqdorda bo'lgan, O'rta osiyolik savdogarlardan hatto soliq olinmagan ham.

Qo'shimcha mahsulot. Ibn Xaldun ta'limotida qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish g'oyasi ilgari surilgan. Uning fikriga ko'ra, jamiyat zaruriy mahsulot ishlab chiqarish bilan cheklansa, u qashshoqlik va qoloqlikdan chiqa olmaydi. Jamiyatning rivojlanishi va aholi turmushining ortishi «mehnat miqdorining oshishiga», ya'ni qo'shimcha mahsulot yaratilishiga bog'liq. Qo'shimcha mahsulot yaratilishiga odamlarning mehnat taqsimoti asosida ishlashlari asos bo'ladi. Chunki, bunda odamlar bir-birlaridan o'rganadi, mehnat unumdorligi ortadi. Ehtiyojlarni qondirish mahsulotlarning qiymati bo'yicha almashuvi orqali amalga oshadi. Qo'shimcha mehnat va qo'shimcha mahsulot almashuvi bozorni vujudga keltiradi. Odamlarning to'planib (shahar, sanoat mehnati) ishlashlari (mehnat kooperatsiyasi) qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishda bosh omildir.

Qiymat nazariyasi. «Qiymat» kategoriyasi iqtisodiyot nazariyasining qiyin masalalaridandir. Ibn Xaldun ana shu kategoriya mazmunini ochish, idrok qilish darajasiga ko'tarilgan birinchi olim, deyish mumkin. U tovarlar almashuvi asosida ijtimoiy zaruriy mehnat yotadi, mehnat qiymatning substansiyasini (mazmunini) tashkil etadi degan g'oyat muhim nazariyaga birinchi bo'lib asos soldi.

Mulkdor bo'lishlik-insonning muqaddas huquqi. Ibn Xaldun ta'limotida mulkdor bo'lishning qonuniy, umuminsoniy huquqi ekanligi asoslab berilgan. Mulkdor bo'lishlik, xususiy mulk egasi bo'lishlik kimlarningdir muruvvati emas, balki insonning qonuniy, obyektiv, huquqiy zaruratidir. Davlat ana shu huquqni ro'yobga chiqarishga va boshqarishga xizmat qilishi kerak.

Farovon yashash odamlarning o'zlariga bog'liq. Ibn Xaldun ta'lim bergan ediki, jamiyatning holati, uning boyishi, ravnaqi, istiqboli, eng avvalo, jamiyat a'zolarining intilishlariga, harakatlariga bog'liq. Demak, butun mamlakat har bir fuqaro ham o'z farovonligini o'zi ta'minlashga mutasaddi va mas'uldir.

Pul-boylik. Ibn Xaldun pulni boylik deb tushundi. Uning fikricha, pul qancha ko'p bo'lsa, jamiyat va odamlar shuncha boy bo'lishadi. Zero, pul (oltin va kumush) o'zida mahsulotlardagi mehnatni mujassamlashtirgan. Bu dunyoqarash mohiyatan cheklangan bo'lsa ham, o'z davrida ancha ilg'or qarash bo'ldi. Bu ta'limotning yana bir jihati shuki, «pul-boylik» degan tushunchaga merkantilizm tarafdorlari Ibn Xaldundan 300-350 yillar keyin keldilar.

VII bob MERKANTILIZM VA FIZIOKRATLAR IQTISODIY TA'LIMOTLARI

1. Merkantilizm siyosiy iqtisoddagi birinchi ilmiy maktab

XVII asrning oxirigacha ko'pgina mamlakatlardagi iqtisodiy qarashlarda muhim o'rinni egallagan va keng tarqalgan merkantilizm (italyancha «merkante»-savdogar) iqtisod ilmidagi birinchi ilmiy maktab sanaladi. Merkantilizm, avvalo, davlatning iqtisodiy siyosatini aks ettirdi. Uning tarafdorlari savdo kapitaliga e'tiborni qaratganlar, dastlabki masalalarini hal qilganlar. Merkantilizmning muhim belgilaridan biri boylikni oltin va kumushga tenglashtirishdir. Merkantilistlarning fikricha, oltin va kumush o'z tabiatiga ko'ra ham puldir.

Merkantilistlar boylikning asosini tashqi savdoda deb hisoblaydilar. Bu fikrni merkantilistlar qarashlarining tamal-toshi deyish mumkin.

Ular milliy boylik va foydani ham savdoda deb qarashadi, shu sababli faol tashqi savdo balansi g'oyasini ko'tarib chiqadilar. Tashqi savdo balansi pul boyliklarini jamg'arish davlatning aktiv faoliyati bilan bog'lanadiki, uning natijasida iqtisodiy siyosat va ma'muriy tadbirlar orqali mamlakatga oltin va kumush ko'plab to'planishi mumkin. Bu vazifalarni bajarish uchun merkantilistlar faol tashqi savdoga e'tibor beradigan, iqtisodiy siyosat yurgazishni hukumatga tavsiya beradilar va butun bir tadbirlar tizimini ilgari suradilar.

Merkantilizm o'z taraqqiyotida ikki bosqichni bosib o'tdi. Birinchisi-dastlabki (ilk) merkantilizm (XVI asr) bo'lib, monetar tizimi bilan bog'lanadi. Ikkinchisi- rivojlangan merkantilizm bosqichi bo'lib manifaktura tizimi bilan bog'lanadi (XVII asr).

Monetar tizim uchun pul balansi konsepsiyasi xarakterlidir. Uning yirik vakili Uilyam Stafford (Angliya) sanaladi. Bu konsepsiyaga ko'ra, mamlakatda pul boyliklarining to'planishi masalasi tashqi savdo va pul muomalasini qat'iy bo'ysundirishga qaratilgan ma'muriy tadbirlar orqali hal qilinadi. Monetaristlar oltinni qimmatbaho narsa, boylikning mutlaq shakli deb qarab, uning tashqaridan kelib to'planishi va jamg'arilish yo'llarini izladilar.

Davlatdan proteksionizm siyosati yurgizishini talab qilib, uning hududidan tashqariga pulni olib o'tish qat'iy man qilinadi, xorijiy savdogarlarining faoliyati qattiq nazorat qilinadi, xorijdan keltiriladigan mollar chegaralab qo'yiladi, yuqori boj to'lovlari belgilanadi va h. k.

Manifaktura tizimiga o'tilsa ham merkantilistlar konsepsiyasining asosiy qoidalari o'zgarishsiz qolaveradi, lekin bu pul jamg'armasini o'stirishga muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu tizim rivojlangan iqtisodiyotni namoyish qildi. Rivojlangan merkantilizmning tarafdorlari Angliyada mashhur iqtisodchi Tomas Men bo'lsa, Fransiyada Kolberizm vakillari hisoblanadi. Italiyada savdo balansi konsepsiyasini Antonio Serra rivojlantirdi.

Monetaristlar kabi manifaktura tizimi tarafdorlari ham millat boyligini oltin bilan tenglashtirib, uning asosini tashqi savdoda deb hisobladilar. Ular pulning qudratiga qat'iy ishonadilar. Ularning fikricha, oltin bu ajib narsadir. Kim unga ega bo'lsa, dunyodagi eng boy odamdir, u bilan istalgan narsani amalga oshirsa bo'ladi. Oltin hatto qablarga jannat eshigini ochishi mumkin. Bunday fikr XX asr boshlarida Turkistonda ham hukmron edi. Buni buyuk adibimiz Oybek «Qutlug' qon» romanida Mirzakarimboy timsolida shunday ta'riflagan edi: «Pul hamma narsaning otasi. Pul belga quvvat, boshga toj. Puldor odam qanoatli odam, bu qanoat bilan mag'ribdan, mashriqqacha uchasan... Pul shunday aziz narsa jiyani!».

Taraqqiy etgan merkantilizm vakillari o'z fikrlari bilan ko'p hollarda monetaristlarning xom xayollaridan ustun keldilar. Ularning nazariyasi kengroq asoslangani bilan ajralib turadi. Jamg'armaning o'zini oqlamagan ma'muriy usullari o'rniga iqtisodiy usullar ilgari suriladi. Ular oltinning mamlakatga doimiy kirib kelishini ta'minlashga xizmat qiluvchi tashqi savdoni rag'batlantirish uchun tadbirlar ishlab chiqdilar. Tashqi savdoning asosiy qoidasi chetga mol chiqarishni rag'batlantirishdir. Uni amalga oshirish uchun merkantilistlar manifaktura ishlab chiqarishni rivojlantirish, ichki savdoni yuksaltirish, eksport va importni yuksaltirish, chetdan xomashyo sotib olish, puldan oqilona foydalanish haqida g'amxo'rlik qildilar. Manifaktura ishlab chiqarishining o'sishi va jamg'arma iqtisodiy usullarining faollashuvi, garchi o'zgarib tursa ham, davlat tomonidan ma'muriy ta'sirini istisno qilmas edi. Savdo balansi konsepsiyasiga mos ravishda shaxsiy manufakturistlar va savdogarlar manfaatini ko'zlab proteksionizm iqtisodiy siyosati o'tkazildi, xomashyoni olib ketishni taqiqlash ma'qullanadi, qator narsalar, ayniqsa, keraksiz tovarlar olib kelish chegaralab qo'yildi, import uchun ortiqcha boj narxlar belgilanadi va h. k. Merkantilistlar hukumatdan milliy sanoat va savdosi eksport uchun tovar ishlab chiqarishni rivojlantirishni rag'batlantirish, katta boj to'lovlarini ma'qullash, flotni tashkil etish va mustahkamlash, tashqi savdoni kengaytirishni talab qiladilar.

¹Oybek. Qutlug'qon T., 1956, 21- bet, yana Q. Yo'ldashev. Oybek iqtisodiy tafakkuri, T, 2005

Merkantilizm ayrim mamlakatlarda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ldi. Uning rivojlanishi kapitalistik ishlab chiqarishning yetuklik darajasi bilan bog'langan ediki, bu narsa milliy merkantilistik nazariyasining amaliy natijalarini ham ko'rsatadi.

Merkantilizm Angliyada kam rivoj topdi. Uning boshlang'ich davrida «Vatandoshlarimizning ayrim shikoyatlari haqida tanqidiy mulohazalar» (1581) kitobining muallifi Uilyam Staffordning alohida o'rni bor. Merkantilizm konsepsiyasining rivojlantirib, Stafford pullarning chegaradan tashqariga qaytib ketishidan xavotirga tushdi. U davlatdan tangalarning olib chiqib ketilishi, keraksiz narsalarni olib kirilishini taqiqlash, bir qator tovarlar importini chegarasini talab qilish orqali ma'muriy yo'l bilan pul boyligini jamg'arish qayta ishlash, movut ishlab chiqarishni yoqlab yozadi.

Rivojlangan merkantilizm Angliyada Tomas Men (1571-1641) asarlarida namoyon bo'ldi. Manifaktura tizimining klassik vakili bo'lgan T. Men o'z davrining yirik kommertsanti sanalib, Ost-Indiya kompaniyasining direktorlaridan biri edi. Kompaniya manfaatlarini dushmanlar hujumidan himoya qilib T. Men 1621- yilda o'zining «Angliyaning Ost-Indiya bilan savdo haqidagi munozarasi» asarini e'lon qildi. Muallif monetaristlar konsepsiyasini savdo balansi nazariyasiga qarama-qarshi qo'ydi. 1630-yilda T. Men o'zining «Angliya tashqi kuch sifatida» asarini yozdi. Asar nomining o'ziyiq rivojlangan merkantilizmni ifoda etadi. T. Men pul muomalsining qat'iy tartibga solinishini zararli deb hisoblab, tashqi savdoning normal rivojlantirish pulni olib chiqishdagi erkinlikning ahamiyatini ta'kidladi. U quyidagi qoidani amalga oshirishni muhim deb hisobladi: «Xorijga biz ulardan sotib olganimizdan ko'ra ko'proq sotishimiz zarur»¹ Uning fikricha, faqat faol tashqi savdo yo'li bilangina «Bizda qoladigan va bizni boyitadigan»² pulni mamlakatga jalb qilish mumkin. Xorijliklar uchun pulning «sarflanishi» haqidagi qonun bekor qilishini talab qilib, T. Men pulni chetga chiqarishni taqiqlash xorijda ingliz tovarlariga bo'lgan talabni pasaytirishi mumkin, pulning ortiqchaligi mamlakatda narxning oshishiga olib keladi, deb hisobladi.

Merkantilizm nazariyasini qo'llash tufayli Angliya kapitalistik taraqqiyotda bilan jahonning boshqa mamlakatlaridan o'zib ketdi. U jahonning sanoat ustaxonasiga aylandi. Bu Angliyaning sanoat rivojlangan birinchi davlatga aylanishi uchun sharoit yaratdi.

¹ Merkantilizm. M. Sots. ek. 1935. 155 – bet

O'sha yerda, 166 – bet

Fransiyada merkantilizm g'oyalari XVI-XVII asrlarda keng tarqaldi. Uning dastlabki tarafdorlaridan biri mashhur «Siyosiy iqtisod haqida traktat» (1615) asarining muallifi Antuan Mankreten (1576-1621)dir. U savdogarlarni foydali tabaqa deb hisoblab savdoni hunarlarning asosiysi sifatida tavsifladi. A. Mankreten podsho Lyudovik XIII ga pul boyligini ko'paytirish yo'llarini tavsiya qilgan edi. Davlatning iqtisodga faol aralashuvi mamlakatning rivojlanishi, mustaxkamlanishi, boylikning to'planishida muhim omil ekanligi ko'rsatildi. A. Mankreten manufakturani rivojlantirish, hunar maktablarini ochish, mamlakatdan boylikni simirib ketayotgan xorijlik savdogarlarni fransuz bozoridan siqib chiqarib, milliy ishlab chiqarish tovarlari savdosini kengaytirishni maslahat berdi. A. Mankreten dasturi Fransiya tashqi savdo ekspansiyasini kengayishini ko'zlagan edi. Dastur qisman monetarizm g'oyalarini ifodaladi, shu bilan birga, unda savdo balansi konsepsiyasi ham yoritildi. Mankretenning yuqoridagi nomdagi asari tufayli iqtisodiyot fani «Siyosiy iqtisod» nomini oldi.

Merkantilizm nazariyasi XVII asrning ikkinchi yarimida Koordinal Rishelye (1624-1642) hukmronligi va Lyudovik XIV ning moliya vaziri Kolber (1661-1683)ning faoliyati davrida hayotga qat'iyat bilan tatbiq qilindi. Manifaktura ishlab chiqarishini yuzaga keltirish, uning o'sishini ta'minlovchi shart-sharoitlar (sanoatchilar va savdogarlar turli imtiyozlar va qarz berish, xorijlik ustalarni jalb etish va boshqalar)ni yaratishga kirishildi. Fransiyada dengiz floti ishga tushdi, mustamlaka kompaniyalar vujudga keldi, tashqi savdo faoliyati kengaydi. Merkantilistlar siyosati yordamida Kolber mamlakatni ijtimoiy iqtisodiy qoloqlikdan olib chiqdi, Angliyaga yetib olishni mo'ljallagan edi. Lekin bu harakatlar behuda edi. To'g'ri, dastlabki paytlarda merkantiliistlar g'oyasi yaxshi natijalar berdi, lekin sotsial inqilobsiz mamlakat bozor iqtisodi yo'lida feodal tartiblarni bartaraf qilishi mumkin emas edi. XVII asr oxiriga kelib fransuz merkantilizmi jiddiy inqiroziy holatga tushdi.

Merkantilizm g'oyalari Italiya, Ispaniya, Germaniya, Vengriya, Polsha, Rossiya kabi qator mamlakatlarga tarqaldi. Ularning har birida merkantilizm konsepsiyasi ta'siriga bog'liq holda milliy iqtisodiy nazariya asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, hukumat tepasida turgan dvoryanlar bilan yuzaga kelayotgan burjuaziya orasidagi munosabatga bog'liq edi.

Ispaniyada merkantilizm rivojlanishi monetarizm darajasida qoldiki, unda pul muomalasi qat'iy tartibga solindi, oltin va kumushning chetga olib chiqib ketishi qattiq nazoratga olindi. Germaniyada merkantilizmning rivojiga yuqoridagi omillardan tashqari mamlakatdagi siyosiy tarqoqlik

ham sabab bo'lgan edi, bu yerda merkantilizm feodal knyazlikka xos iqtisodiy siyosat bilan bog'langan edi. Ular faqat mamlakatdagi tarqoqlikka asoslanib, hukmronlik qilayotgan iqtisodiy chalkashliklarni yanada chuqurlashtirar edi.

Italiyada merkantilizm yanada uzoq tarixga ega. Uning dastlabki namunalarini «Tanga haqida» asari (1582) muallifi florensiyalik E. Davnsati, pul muomalasi va uning tartibga solinishi haqidagi «Tanga haqida mulohazalar» (1579) kitobi muallifi Skaruffi edilar. A. Serraning «Qisqa traktat»i (1613) esa rivojlangan merkantilizmni ifodalab, savdo balansi nazariyasini aks ettirdi. A. Serra monetarizmni tanqid qildi. U hunarmandchilikni rivojlantirish, aholini mehnatsevarligi va ijodkorligini taqdirlash, sanoatni yuksaltirish, qulay iqtisodiy siyosat yuritishni yoqlab chiqdi. Italiyaning ijtimoiy hayotida merkantilizm kutilgan amaliy natija bermadi.

Rossiyada merkantilizm o'ziga xos jihatlari bilan farqlanadi. A. L. Ordin-Nashokin, Yu. Krijanich, I. T. Pososhkov asarlarida ifodalanib, iqtisodiy siyosatning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan bo'lsa ham merkantilizm g'oyalari qonuniy rasmiylashmay, rus iqtisodiy fikrlari qatoridan o'rin topolmadi. Lekin, XVII asrda Rossiya iqtisodiyotining agrar xarakteri merkantilizmning yolg'on konsepsiyalarini o'zida aks ettirmagan masalalarni o'rta tashladi. Rus iqtisodiy fikrlari rivojlanishining keng dasturida u o'z ifodasini topdi.

Iqtisodiy nazariyalar sohasida merkantilizm jo'n g'oya edi. Boshlang'ich kapital jang'arish davriga mos birinchi siyosiy iqtisod maktabi bo'lgan merkantilizm iqtisodiyot fanida oldingi davrni aks ettirgan. Lekin klassik maktablar paydo bo'lsa ham, u o'z faoliyatini davom ettirdi. Uning mashhur vakili o'z qarashlarini «Siyosiy iqtisod tamoyillari tadqiqi», (1767) asarida ifoda etgan ingliz iqtisodchisi Jeyma Styuart (1712-1780) edi. U birinchilardan bo'lib siyosiy iqtisod asoslarini izohlashga intildi, «ishlab chiqarish sharoitini ma'lum sinf mulki sifatida ishchi kuchidan ajratish jarayoni»ni ko'rsatib berdi.

Merkantilizm uchun pul muomalasining belgilovchi rolini tan olishdan kelib chiqadigan iqtisodiy holatlar sharxi xarakterlidir. Boshlang'ich kapital jang'arish davrida tug'ilgan tarixiy sharoit mahsuloti sifatida bunday munosabat tasodifiy emas edi. Merkantilizm kapitalistik bozor iqtisodiyotiga imkon yaratib, ilg'or rol o'ynadi.

Merkantilizm tomonidan ilgari surilgan iqtisodiy jarayonlar sharxi boyluk manbai sifatida muomala sohasi bo'ldi, foydaning hosil bo'lishi esa tovarning uning qimmatini oshiradigan narxga sotish natijasi sifatida

izohlanadiki, bu narsa klassik siyosiy iqtisod namoyondalari tomonidan ma'lum darajada bartaraf qilindi.

2. Fiziokratlar iqtisodiy qarashlari

Fiziokratlar ta'limoti Fransiyada vujudga keldi, uning asoschisi Fransua Kene (1694-1764-yil) bo'ldi. Unga iqtisodchilarning katta guruhi (A. Tyurgo, V. Mirabo, V. Dyupon de Nemur, G. Letron va boshqalar) kirgan edi.

Fiziokratlar konsepsiyasining asosini «tabiiy tartib» haqidagi ta'limot tashkil qiladi. U «tabiiy tartib» yoki «tabiiy huquq» asosida mavjud bo'lgan atrof olamning obyektiv realligini tan olish ma'nosini bildiradi. Kene bunday huquqni Alloh tomonidan yuborilgan oliy haqiqat deb tushundi. Uning fikricha, hamma odamlar albatta «tabiiy tartib»ga rioya qilishlari shart, chunki unga beriladigan «tabiiy huquq», «aql chirog'i» deb tan olindi. Kene ma'rifatchilarning xulosalarini ajratib ko'rsatmagan. Uning fikriga ko'ra, inson hamma narsaga urinavermasligi, o'zining mehnati bilan hamma narsaga erishish mumkinligini tushunishi kerak. Fiziokratlar inson axloqi me'yorlarini belgilashda «tabiiy huquq» g'oyalariga tayangan edilar. «Tabiiy tartib» haqidagi ta'limotga asosan, Kene va uning ham fikrlari uni iqtisodiy va siyosiy qonunlar deb talqin qilinishiga sabab bo'ldi.

Fiziokratlar maktabi materializmni qattiq tanqid qildi. Maktab namoyandalari monetaristlarning «boylikning yagona shakli-oltin, uning asosi tashqi savdoda» degan konsepsiyasini tan oladilar. F. Kene va uning izdoshlari boylik iste'mol qiymatidan to'lanadi, deb hisobladilar. Pul muomaladagi vositachi rolini o'ynaydi, boylik asosini ular ishlab chiqarishda deb bildilar. Savdo boylik asosi bo'la olmaydi, chunki savdo uchun, ularning fikricha, o'zaro teng qiymatning almashuvi (ekvivalent almashuv) xarakterlidir. Fiziokratlarning xizmati shundaki, ular qo'shimcha mahsulotning yuzaga kelishi haqidagi tadqiqotlarni bevosita ishlab chiqarish sohasiga olib kirdilar, shu bilan kapitalistik ishlab chiqarish tahlili asoslarini yaratdilar. Ular birinchilardan bo'lib kapitalni tahlil etdilar.

Fiziokratlarda ishlab chiqarish bir tomonlama izohlandi: ishlab chiqarish sohasi sifatida qishloq xo'jaligi ko'rsatildi, holos. Shundan yer egalari mehnati yagona ishlab chiqaruvchi mehnat sanaladi. Fiziokratlarning qarashi feodalizm sharoitida o'ziga yo'l ochgan yangi kapitalistik jamiyat ifodasi edi. Jarayonni izohlash uchun fiziokratlar faqat dehqonchilikdagi mehnatni oshkora qilinadigan mehnat deb bildilar. Ularning fikricha,

sanoat xo'jalikning ishlab chiqaruvchi sohasi sanalmaydi.

Fiziokratlar nazariyasida asosiy o'rinni «Sof mahsulot» va uni ishlab chiqarish masalasi egallaydi. «Sof mahsulot» go'yoki qo'shimcha mahsulotdir. «Yer boylikning asosi» ekanligidan kelib chiqib, F. Kene «sof mahsulot» dehqonchilikda ishlab chiqariladi deb hisobladi. Bu jihatdan qaraganda sanoat «foydasiz» soha sanaladi. Sof mahsulotning yagona shakli renta hisoblangan.

Fiziokratlar «Sof mahsulot» ishlab chiqarishni qarama-qarshi fikrlar bilan izohladilar. Bir tomondan, sof mahsulot tabiat in'omi sifatida dehqonchilikka xos o'sishning tabiiy jarayonining natijasi hisoblanadi. Shu bilan birga, uning fikricha, dehqonchilik mehnatining natijasi ish haqi ustidan ortiqcha olingan narsadir. Foyda ish haqining bir ko'rinishi sifatida baholanadi.

Ishlab chiqarish haqidagi tushunchalariga ko'ra F. Kene jamiyatni uch sinfga bo'ladi: 1) mulkdorlar sinfi (dvoryanlar, dindorlar, qirol va uning mulozimlari, chinovniklar); 2) kapitalistlar va yollanma ishchilarni birlashtirgan fermerlar sinfi va 3) mamlakatning savdo va ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi fuqarolaridan tashkil topgan «unumsiz» sinf.

Fiziokratlar merkantilizmning iqtisodiy ta'limotini qat'iy rad etdilar. Iqtisodiy siyosat sohasida ular davlatning mamlakat iqtisodiy hayotiga aralashmasligi tarafdori bo'lib, kapitalistik raqobat sharoitida tadbirkorlik faoliyati erkinligini himoya qilib, har xil monopoliyalarga qarshi chiqdilar.

Fiziokratlar ta'minoti yuqori cho'qqisini F. Kenening «Iqtisodiy jadvali» (1758) qabul qilingan ijtimoiy kapitalni takror ishlab chiqarish tahliliga urinish tashkil qildi.

Takror ishlab chiqarish jarayonini ko'rib chiqib, F. Kene daromadning paydo bo'lishi, kapital va daromadning o'zaro almashishi, ishlab chiqarish sarfi bilan yakuniy sarf orasidagi munosabatlarni tahlil qildi. Qayta ishlab chiqarish jarayoni mavridi sifatida u «ishlab chiqarish mehnatining ikkita katta turi- xomashyo ishlab chiqarish va sanoat orasidagi munosabat» ni ko'rsatdi. Bularning hammasi «Iqtisodiy jadval»da o'z aksini topdi.

F. Kene «Iqtisodiy jadval»ni tuzishda ma'lum qarashlardan kelib chiqib, qator mulohazalarni bayon etgan edi, ya'ni u ilmiy abstraksiyalashga suyandi. U oddiy qayta ishlashni tahlilning boshlanishi uchun qonuniy deb hisoblab, tashqi savdo ta'sirida baho o'zgarishlarini mavhumlashtirdi. Ijtimoiy qayta ishlab chiqarishni tahlil qilar ekan, Kene tovar kapitali harakatini alohida olib qaradi, chunki qayta ishlab chiqarish masalasi, avvalo, ijtimoiy mahsulot realizatsiyasi masalasidir.

«Iqtisodiy jadval» fiziokratlarning hamma asosiy fikrlarini: jamiyatning uch sinfga (mulkdorlar, fermerlar va unumsiz) ajratilishi: sof mahsulot (qo‘shimcha qiymat)ning faqat qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarilishi, sanoat uchun faqat qiymatning tuzilishi xarakterli ekanligi, savdoda teng qimmatli narsalar almashuvi erkin raqobatning natijasi ekanligini o‘z ichiga olgan edi. Fermerlar kapitali dastlabki yillik avanslarga bo‘linadi. Kene umumiy jamoat mahsulotining qiymatiga aloqador va natural shakli orasidagi farqni ko‘rsatdi, kapital va daromad kategoriyalarini ajratdi.

«Iqtisodiy jadval» muallifi renta oladigan mulkdorlar egalik qiladigan yer-mulk mavjudligidan xo‘jalikni yer ijaraga olib, kapital jamg‘aradigan fermerlar yuritishidan kelib chiqqan edi. Fermerlar kapitali ikki qismdan iborat:

1) 10 yilgacha muddatga berilgan, har yili o‘ndan biri (1 milliard livr) yillik mahsulot qiymatiga kiruvchi 10 mlrd. livrdan iborat dastlabki avans (asosiy kapital);

2) Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish xodimlari ish haqi, hom ashyo chiqimlariga sarflanadigan 2 mlrd livrdan iborat yillik avans (aylanma kapital); kapitalning bu qismi bir yil davomida xizmat qiladi, uning qiymati esa mahsulot qiymatiga kiradi, u to‘laligicha kapital o‘rnini to‘ldirishga sarflanadi. Fermerlarning yillik mahsulot qiymati oshirilgan kapital qiymati (13 mlrd. livr) dan tashqari 2 mlrd livr miqdoridagi sof mahsulot qiymatini o‘z ichiga olib, jami 5 mlrd livrni tashkil qiladi.

O‘zining natural shakliga ko‘ra qishloq xo‘jaligi mahsuloti 1) aylanma kapital o‘rnini qoplashga zarur bo‘lgan urug‘ va oziq-ovqatdan; 2) ayirboshlash uchun olingan oziq-ovqatdan; va 3) sanoat uchun olingan xomashyodan iboratdir.

Umumiy jamoat mahsulot qiymatiga bundan tashqari «unumsiz» sinf vakillari ishlab chiqarilgan 2 mlrd livr miqdoridagi mahsulot qiymati ham kiradi. Bu natural shakldagi sanoat buyumlaridir. Shunday qilib, umumiy jamoat mahsulot qiymati hammasi bo‘lib, 7 mlrd livrni tashkil etadi.

F. Kenening iqtisodiy jadvallari mazmunan ikki jadvaldan (katta va kichik) iborat bo‘lib, katta jadval «sof mahsulot» harakatini aks ettirsa, kichik jadval ijtimoiy kapital munosabati va qayta ishlab chiqarilishi jarayonini ko‘rsatadi. Jamaot mahsuloti realizatsiyasi xo‘jalik yilining oxiriga (hosilni yig‘ib-terib olishga) mo‘ljallanadi. Bu jarayon umumlashgan holda quyidagi aktlarda ko‘rinadi.

Xususiy yer egalari (1-akt) o‘zlarining 2 mlrd livr (oldingi davri

uchun olingan renta) pullarining 1 mlrd livriga fermerlardan oziq-ovqat mahsulotlari sotib oladilar, 2 mlrd livrga esa «unumsiz»lardan sanoat mahsulotlari sotib oladilar (2-akt). «Unumsiz» sinf vakillari savdodan tushgan 1 mlrd livrga fermerlardan oziq-ovqat mahsulotlari sotib olishadi (3-akt). Fermerlar o'z navbatida 1 mlrd livrga «Unumsiz»lardan mehnat qurollarining buzilgan yerlarini tiklash uchun manifaktura mahsulotlarini sotib oladilar (4-akt). «Unumsiz»lar 1 mlrd livrga ishlab chiqarishni davom ettirish uchun xomashyo sotib oladilar (5-akt).

Realizatsiya davrida pul vositachilik rolini o'ynaydi. Pulning birinchi yarmi (1 mlrd livr) 1-aktdan so'ng muomaladan chiqib, fermerlarda qoladi. Ikkinchi mlrd livr esa realizatsiyada qatnashib, oxirida yana fermerlarga qoladi. 2 mlrd livr hajmdagi pul xususiy yer egalariга renta sifatida to'lanadi. Buni hisobga olib, F. Kene davlatda hamma soliqlar renta oluvchilar-yer egalari tomonidan to'lanishini talab qilishni ilgari surdi.

«Iqtisodiy jadval»da faqat oddiy takror ishlab chiqarishgina muhokama qilinadi, boylik to'plash muammosi chetda qoldi. Kene fermerlar qo'lida qolgan qishloq xo'jaligi mahsuloti qismi qaysi yo'l bilan realizatsiya qilinganini ko'rsatmagan. «Unumsiz»lar mehnat vositalarini tiklash zarurati e'tibordan chetda qoldi.

F. Kenening «Iqtisodiy jadval»lari qayta ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni birinchi bo'lib ko'rsatib bergan edi.

Fiziokratlarning oxirgi vakili ko'zga ko'ringan fransuz davlat arbobi, mashhur iqtisodchi Jak Tyurgo (1727-1781) dir. U 1761- yildan qirol intendanti vazifasida, 1774-1776- yillarda esa bosh moliya nazoratchisi lavozimida ishladi. Uning asosiy asari «Boylikning shakllanishi va taqsimlanishi haqida mulohazalar» bo'lib, kitob holatida 1776- yilda e'lon qilindi. Fiziokratlar konsepsiyasini bayon qilib, Tyurgo uni sistemasi tarzida rivojlantirdi.

Tyurgo iqtisodiy tengsizlikning paydo bo'lishiga e'tibor berdi. Yollanma mehnatning yuzaga kelishi, uning fikricha, ishlab chiqaruvchilarning yerdan ajralishi bilan izohlanadi. Tyurgo fermerlar va «unumsizlar» orasidan odamlarni xo'jayinlar va yollanma ishchilarga ajratib jamiyatning sinfiy tuzilishini ancha mukammal izohini ilgari surdi.

Tyurgo kapital jamg'arish masalasini izohlab berishga intildi. U birinchi marta pul va kapital orasidagi farqlarni ko'rsatib bergan. Uning qarashlarida foyda daromadning alohida turi sifatida ko'rinadi. Ish haqini ko'rib chiqar ekan, Tyurgo uning harakatini mehnat bozorida ishchilar orasidagi raqobat

bilan bog'laydi. Bu uning fikricha, kun kechirish vositalari minimumi uchun ish haqi haqida ma'lumotlarni beradi.

Bo'lg'usi bosh moliya nazoratchisi sifatida Tyurgo fiziokratlar doktrinasi hayotiga tatbiq etishni tezlatish choralari ko'rdi. U sexlarni yo'qotib, dehqonlarni yo'l majburiyatidan ozod qildi, non savdosida erkinlikni amalga oshirishga, yer rentasini yagona to'lov sifatida joriy etishga intildi. Uning bu yangiligi dvoryanlar, aslzodalar tomonidan yaxshi kutib olinmadi. Demak merkantilizm kabi fiziokratlar qarashlari ham turlicha talqinlarda o'z ifodasini topgan edi.

3. Merkantilizm va fiziokratlar iqtisodiy ta'limotlarining iqtisod ilmi rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati

Ma'lumki, XIX asrning 60-70- yillari mustamlakachilik tizimining yemirilishi va ko'plab yangi mustaqil davlatlarning vujudga kelish davri hisoblanadi. Bu davrda «nomerkantilizm» g'oyalari ilgari surilmoqda edi. Yosh, rivojlanayotgan davlatlarning ko'pchiligida iqtisodiyotda davlat sektorining kattaligi, xalq xo'jaligida reja va dasturlar mavjudligi, milliy sanoatni bojxona ta'riflari bilan himoya qilish va boshqa choralar «nomerkantilistik» hisoblanadi. Ikki tomonlama savdo shartnomalari, davlat zayomlari yo'li bilan industrializatsiyani moliyalash, baholarni tartibga solish va monopoliyalar daromadini cheklash ham shu ta'limotga to'g'ri keladi.

XX asr 90-yillarida boshlangan, ilgarigi sotsialistik rivojlanish yo'lidan borayotgan davlatlarning bozor munosabatlariga o'tish davridagi iqtisodiy siyosati ham ko'p jihatdan yuqorida keltirilgan holatlarga juda o'xshashdir. Ayniqsa, tadrijiy (evolyutsion) yo'lni tanlagan davlatlarda bu siyosat ancha kuchlidir. Shu sababli merkantilizm ta'limotini har tomonlama o'rganish ham nazariya, ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

A. Smit o'z vaqtida «Fiziorkatizm tizimi qanchalik nomukammal bo'lmasin, shu davrgacha chop etilgan iqtisodiy g'oyalar ichida haqiqatga eng yaqin edi», - deb atalgan edi. Ta'limotda merkantilizmni inkor etish, mehnat bilan yer boylikning asosi ekanligini tan olish, savdo-sotiqda bojxona cheklarini olib tashlashni taklif etish nihoyatda muhimdir. Fiziokratlar boylik tezisi to'g'risida fikr yuritib, boylik – bu jamiyat mehnati bilan har yili yaratiladigan iste'mol qiymatlaridir, deyilar. Bu g'oya ham A. Smit tomonidan qabul qilingan edi. Ishlab chiqarish va taqsimot jarayoniga xos umumiy mehnat doktrinasini, ishlab chiqarishning takroriy-

ligiga alohida urg'u berilishi katta yutuq hisoblanadi. Kapital va uning ikki qismiga ajratilishi (asosiy va aylanma) takror ishlab chiqarish, erkin sohibkorlik to'g'risidagi g'oyalalar, jamiyatning sinflarga ajratilishi iqtisodiy ta'limotlarning rivojida keyingi muhim qadamdir. Hozirgi zamon tili bilan aytganda, fiziokratlar sof bozor munosabatlarining unsurlarini, asosan, to'g'ri hal etib berdilar. Mehnat bilan birga yerning boylik asosi deb qabul qilinishida davr ta'siri kuchlidir. Chunki mamlakatdagi asosiy sinf dehqonlar bo'lib, asosiy boylik qishloq xo'jaligida yaratilayotgan edi.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun erkin bozor munosabatlariga o'tish, ayniqsa, dehqonlarni turli-tuman soliq va yiginlardan ozod qilish zarurligi, yagona soliq tizimiga o'tish kerakligi to'g'risidagi fikr nihoyatda qimmatlidir. Sobiq SSSRda yangi iqtisodiy siyosatda bu usul qo'l kelgan. Chunki, har bir sohibkor va tadbirkor shaxsiy manfaatdorlik bo'lgan taqdirdagina ishlab chiqarishni rivojlantirishga intiladi.

Takror ishlab chiqarish va realizatsiya jarayoni uzluksiz davom etishi, xalq xo'jaligi tarmoqlarining ma'lum proporsiyalarini saqlagan holda ro'y berishi mumkinligi aniqlab berildi. F. Kene misolida uch sektor o'rtasidagi munosabatlar tahlil qilindi.

Amalda, ayniqsa, hozirgi davrda esa bu sektorlar miqdori xiyla ko'p bo'lib, ular o'rtasidagi aloqalar V. Leontevning «Harajatlar chiqarish» tizimida bir qancha tarmoq uchun ishlab chiqarilgan. Ko'rinib turibdiki, bu g'oyaning kurtaklari fiziokratlarning asarlarida ko'ringan. Hozirgi davrda buni tarmoqlararo balans deb yuritiladi va makroiqtisodiy tahlilda va umuman iqtisodiyotda muhim ahamiyatga egadir. O'sha paytda bo'lajak iqtisodiy modellarning asoslari vujudga kelgan edi. Bu g'oya klassik iqtisodiy maktab ta'limoti zanjirining muhim ajralmas qismi sifatida muhim o'rin egallaydi.

Shu bilan birga hozirgi zamon iqtisodiy ta'limotlari nuqtayi nazaridan fiziokratizm g'oyalari o'z ahamiyatini tezda yo'qotdi va o'tkinchi xarakterga ega bo'ldi, chunki jahondagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o'zgarishlar nisbatan mukammal g'oyalalar ishlab chiqishi zarurligini taqazo etdi va bu amalda ro'y berdi. Ayniqsa, boylikning asosi (sof mahsulot) faqat qishloq xo'jaligi sohasi bilan chambarchas bog'liq qilib, cheklab qo'yilganligi to'g'risidagi xato g'oya namoyon bo'lib qoldi. Sanoat inqilobi natijasida ro'y bergan o'zgarishlar tufayli fiziokratizm g'oyalari unutilayozdi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Merkantilizm ta'limoti vujudga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari.
2. Merkantilizm ta'limotining mazmuni va uning bosqichlari, umumiylik va farqlari nimadan iborat?
3. Merkantilizm bo'yicha boylikning asosi nima?
4. Mamlakatda qimmatbaho materiallar miqdorini ko'paytirish uchun qanday choralar ko'rilgan?
5. Merkantilizm ta'limotining taniqli namoyandalari kimlar?
6. Merkantilizm ta'limotining tarixiy ahamiyati va taqdiri.
7. Fiziokratizm ta'limotini vujudga kelishi, mohiyati va shart-sharoitlari haqida nimalarni bilasiz?
8. F. Kenening «Iqtisodiy jadvali»dagi takror ishlab chiqarish mohiyatini tushuntirib bering.
9. Fiziokratlar ta'limoti bo'yicha boylikning asosi nima?
10. «Tabiiy tartib konsepsiyasi», «sof mahsulot», «unumli» va «unumsiz» mehnat, «qo'shimcha mahsulot» tushunchalarini tavsiflang.
11. Fiziokratizm ta'limotining taniqli namoyandalari kimlar?
12. Merkantilistlar va fiziokratlar iqtisodiy ta'limotlarining ahamiyati va tarixiy taqdiri.

TAYANCH IBORALAR:

Merkantilizmning asosiy iqtisodiy g'oyasi. Ilmiy iqtisodiy nazariyaning vujudga kelishidagi birinchi iqtisodiy ta'limot merkantilizmdir. Uning asosiy g'oyasi pulni (oltin va kumush) boylik, mulk deb bilish bo'lib, bunday boylik faqat muomalada, savdoda, oldi-sotdida, bozorda vujudga keladi deb bilishdir. Mamlakat va xalqning boyligi pul topish va pul jamg'arishda deb qarash ta'limoti ma'lum bir tarixiy davr uchun nisbatan yaroqli g'oya bo'lsa-da, bunday qarash iqtisodiy tahlilni faqat bir soha bilan cheklashga, ishlab chiqarishning jamiyat hayotidagi ahamiyatini tushunmaslikka, xaspo'shlashga xizmat qildi.

Proteksionizm. Davlatning merkantilistlar bergan takliflari asosida yuritadigan iqtisodiy siyosat. Bu siyosatga ko'ra, davlat mamlakatda tovar ishlab chiqarishni tashqi bozor uchun rag'batlantirish, chetdan tovar keltirishni cheklash yoki taqiqlashni, ular uchun yuqori boj to'lovlari joriy qilishni ifodalaydi. Tashqi siyosatning bosh tamoyili chetga tovar

chiqarish orqali mamlakatga ko'proq pul (oltin, kumush) keltirish, mamlakatni boyitishdir.

Ilk merkantilizm. Bu ta'limot asoschisi U. Stafford bo'lib, uning konsepsiyasiga ko'ra oltin shunchaki qimmatbaho narsa emas, balki boylikning mutlaq shaklidir. Ilk merkantilistlar faol savdo va pul muomalasini ma'muriy choralar bilan amalga oshirish tarafdori bo'ladilar, davlat hududidan tashqarisiga pul chiqarishni qat'iy taqiqlash, chetdan kelgan savdogarlardan o'z pullariga natural tovar olib chiqib ketishlarini nazorat qilishni talab qildilar.

Rivojlangan merkantilizm. Bu ta'limotning asoschisi T. Men bo'ldi. U bir qancha iqtisodiy asarlar muallifidir. U xorijga ko'proq tovar sotish, faol tashqi savdo siyosati yuritish, boylikni ko'paytiradigan pulni mamlakatga ko'proq jalb etish, xorijliklar uchun pulni sarflashni taqiqlash, pulni jamg'arish lozimligi haqidagi g'oyalarni taklif etdi. Rivojlangan merkantilizm turli mamlakatlarda turlicha xususiyatlar kasb etdi. Masalan, Fransiyada davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi yo'li bilan manifakturani rivojlantirish, mamlakatdan boylikni olib ketayotganlar uchun bozorni siqib qo'yish, milliy ishlab chiqarish orqali savdoni rivojlantirish takliflari bilan chiqildi.

Fiziokratlar ta'limoti. Uning yirik nazariyotchisi F. Kene bo'ldi. Bu ta'limot, asosan, Fransiyada vujudga kelib, rivoj topdi. Ular merkantilistlar ta'limotini rad etdilar va muqobil ta'limot bilan chiqdilar. Uning fikricha, savdo boylikning asosi bo'lolmaydi, zero muomalada tovarlar ekvivalentlik asosida sotiladi. Boylikning ko'payishi faqat qishloq xo'jaligida yuz beradi, zero bu yerda qiymat yaratiladi, qo'shimcha mahsulot ishlab chiqariladi. Bu ta'limotning ilmiy ahamiyatli tomoni shuki unda iqtisodiy tahlil muomaladan ishlab chiqarishga-qishloq xo'jaligiga olib o'tildi. Yer egalari mehnati unumli mehnat, boshqa sohalardagi hatto sanoatdagi mehnat ham unumsiz deb baholandi.

Sof mahsulot-fiziokratlar tomonidan fanga olib kiritilgan iqtisodiy kategoriyadir. Sof mahsulot qo'shimcha mahsulot tarzida talqin etilib, u faqat agrar sohada yaratiladi. Sof mahsulotning yagona shakli sifatida renta e'tirof etiladi. Fiziokratlar ta'limotida sof mahsulot tabiatning in'omi deb qaraladi. «Foyda» kategoriyasi ham muomalaga kiritilib, u ish haqining bir ko'rinishi, tabiiy jarayonning natijasi deb baholanadi.

«Iqtisodiy jadval» -F. Kenening asosiy asari, unda takror ishlab chiqarish jarayoni-moddiiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, almashtirish va iste'mol qilish tahlil etiladi. Ijtimoiy mahsulotning takror

ishlab chiqarilishi qishloq xo'jaligidagi uch sinf- yer egalari, ijarachi kapitalist va fermerlar timsolida qarab chiqilgan. Bu asar ishlab chiqarish jarayonini takror hosil qilishning shart-sharoitlarini tahlil etgan birinchi yirik tadqiqot mahsulidir.

VIII bob KLASSIK SIYOSIY IQTISOD

1. Klassik iqtisodiy maktab vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari

XV-XVII asr oralig'ida Yevropadagi asosiy mamlakatlar merkantilizm iqtisodiy nazariyasining ta'sirida edilar. XVII asrga kelib vaziyat bir muncha o'zgardi. Merkantilizm o'rniga yangi klassik iqtisodiy maktab vujudga keldi.

Har qanday yangi g'oya, yangi fikr, yangi ta'limotlar o'z-o'zidan, tasodifan yuzaga kelmaydi. Yangi ta'limotni vujudga kelishiga ma'lum bir sabablar, davr o'zgarishlari, o'sha davrdagi muhit, shart-sharoitlar sabab bo'ladi. Klassik iqtisodiy maktabning vujudga kelishiga sabab, merkantilizm ta'limotining sanoatlashayotgan sohibkorlar talablariga javob bermay qo'rganlari bo'ldi. Paydo bo'layotgan yangi muammolarni hal etish yangi yo'nalish tarafdorlari zimmasiga to'g'ri keldi. XVI asrning o'rtalarida boshlangan manifaktura davri XVII asrga kelib sanoatning ayrim tarmoqlarining rivojlanishiga olib keldi. Ayni vaqtda, qishloq xo'jaligida ham bozor munosabatlariga vujudga kela boshladi. Angliya dunyoda iqtisodiyoti eng rivojlangan mamlakatga aylandi. XVIII asrga kelib, bu yerda tovar ishlab chiqarish munosabatlari faqat savdoda emas, balki sanoat va qishloq xo'jaligida ham g'alaba qozondi. Bu jarayon mamlakatning sotsial iqtisodiy taraqqiyotiga yo'l ochib berdi. Ijtimoiy ishlab chiqarishning rivojlanishiga imkoniyat, tadbirkorlar tashabbusiga erkinlik berishga harakat qilgan yangi iqtisodiy tizimning afzalliklarini nazariy jihatdan asoslab beradigan iqtisodiy ta'limotlar yuzaga kela boshladi.

Demak, bu davrga kelib iqtisodiy ta'limotlarni rivojlantirish uchun, ya'ni iqtisodiyotni obyektiv tahlil qilish uchun qulay sharoit yaratildi. Mana shu sharoitda yashab, ijod qilgan U. Petti, P. Buagilber, A. Smit, D. Rikardo va klassik siyosiy iqtisod maktabning boshqa vakillari iqtisodiyotni ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq qildilar. Haqiqatan ham mazkur davr yangi klassik siyosiy iqtisod maktabining boshlanganini bildiradi. Uning «klassik» deb atalishining sabab, ko'plab nazariy va metodologik qoidalari chinakam ilmiy bo'lib, ular zamonaviy iqtisodiy nazariya asosini tashkil etadi.

Klassik siyosiy iqtisod namoyandalari birinchi marotaba mehnatning qiymat nazariyasiga asos solganlar, tovarlar qiymati uni ishlab chiqarishga sarf etilgan mehnat sarflari bilan o'lchanishini asoslab berdilar. A. Smit, D. Rikardolar tarmoq xususiyatlarini hisobga olmagan holda ishlab chiqarish va moddiy boylikni taqsimlash qonuniyatlarini o'rgandilar.

Ularning ilmiy tadqiqotlari ko'proq tovar, pul, ish haqi, foyda kabi kategoriyalarni mohiyatini ochishga qaratilgan edi. Birinchi marotaba ular ijtimoiy xo'jalik taraqqiyotida bozorning o'rmini belgilab berdilar.

Klassik iqtisodchilar boylik faqat qishloq xo'jaligidagina emas, sanoat, transport, qurilish va boshqa xizmat ko'rsatish sohalarida ham yaratilishini isbotlab berdilar.

1. U. Pettining iqtisodiy ta'limoti

Klassik iqtisodiy maktab deganda U. Pettidan boshlanadigan iqtisodiy tadqiqotlar tan olinadi. Bu ta'limot ishlab chiqarishdagi bozor munosabatlarini ichki aloqadorligini o'rganadi va tahlil etadi. U. Petti klassik maktab otasi va statistikaning kashfiyotchisi hamdir. U. Petti iqtisodiy muammolarga bag'ishlangan «Soliqlar va yig'implar to'g'risida traktat» (1662), «Donishmandlarga so'z» (1665), «Irlandiyaning siyosiy anatomiyasi» (1672), «Siyosiy arifmetika» (1683) va boshqa asarlarni yozdi. U dastlab o'z asarlarida merkantilistlarning ijobiy savdo balansi g'oyasini va sanoatni rag'batlantirish maqsadida davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvini qo'llab-quvvatladi. Ammo u asta-sekin tadqiqot obyektini o'zgartirdi va asosiy e'tiborni savdo muammosidan ishlab chiqarish muammosiga qaratdi. Uning qayd qilishicha, boylik ishlab chiqarishda yaratiladi, muomala sohasida esa u faqat taqsimlanadi.

U boylik to'g'risida fikrlarini bildirib, mamlakat boyligini ko'paytirish masalasiga ham e'tiborini qaratdi. «Mehnat- boylikning otasi, yer esa-uning onasi» degan iborani ishlatdi.

Mamlakat boyligini ko'paytirish uchun U. Petti qamoq jazosi o'rniga pul jarimasini joriy etish zarurligini, pul to'lashga «qurbi yetmagan o'g'rilarni» esa «qullikka» mahrum etishni, ishlashga majbur qilishni tavsiya etadi.

U. Pettining merkantilistlar g'oyasiga bo'lgan salbiy qarashi nafaqat boylikning mohiyatini va uni ko'paytirish yo'llarini tahlil qilishda, balki tovarlar qiymatining yaratilishi tabiatini va bozorda ularning qiymati darajasiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu boradagi tadqiqotlari keyinchalik uni qiymatining mehnat nazariyasi birinchi muallifi deb tan olinishiga sabab bo'ldi. Umuman olganda, qiymatning mehnat nazariyasi klassik iqtisodiy maktabning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi.

U. Petti qarashlaridan birida aytilishicha, tovar qiymati kumush qazib

oluvchi mehnati bilan yaratiladi va uning, «tabiiy bahosi» hisoblanadi; kumush qiymatiga tenglashtirilgan tovarlar qiymati esa ularning «haqiqiy bozor bahosi» hisoblanadi. Ikkinchi bir joyda qayd qilinishicha, tovar qiymati mehnat va yer ishtirokida yaratiladi. Ya'ni, «kemaning yoki kamzul (syurtuk)ning qiymati qandaydir yer miqdori va qandaydir mehnat miqdori qiymatiga teng, chunki har ikkalasi-kema ham, kamzul ham – yer va inson mehnati bilan yaratiladi». Bundan ko'rinib turibdiki, tovar bahosi asosida sarfli mexanizm yotadi.

U. Petti yer rentasi nazariyasini ham birinchilardan bo'lib ishlab chiqdi. Uning fikricha, renta mahsulot (natura) ko'rinishida, ish haqi va urug'likni ajratgandan keyin qoladigan mahsulot miqdoriga teng bo'lishi kerak. Demak, bu holda yer rentasi qo'shimcha mahsulotga teng. Pul holidayi renta qo'shimcha mahsulotning kumush miqdoriga teng qiymatidir, deb ta'kidlaydi olim.

U. Pettida foyda tushunchasi alohida kategoriya shaklida ifodalangan, renta barcha qo'shimcha qiymatga teng miqdor deb baholadi. Shu sababli renta to'g'risidagi nazariyada amalda qo'shimcha qiymat haqida gap boradi. Qiymatga mehnat sarflari sifatida qarab, u birin-ketin renta (qo'shimcha qiymat)ni qo'shimcha mehnat natijasi ekanligini aniqlaydi.

U rentaning kelib chiqishi to'g'risida ham muhim va qiziqarli fikrlarni beradi (umuman, renta absolyut va differensial bo'ladi).

Absolyut renta xususiy mulkchilik bo'lganda namoyon bo'ladi.

Differensial rentaning kelib chiqishini u yer uchastkalarining turlicha joylashganligi bilan tushuntiradi (birinchi sabab, ya'ni bozorga uzoq-yaqinligi, masofa, transport sarflari). U rentaning ikkinchi sababini ham aniqlab, yerning tabiiy unumdorligining turlicha ekanligini ko'rsatgan. Olimlarning fikricha, U. Petti differensial rentani A. Smitdan ham yaxshi bayon etgan.

U. Petti 1662- yilda e'lon qilingan «Soliqlar va yig'imglar to'g'risida traktat» asarida o'zining dastlabki iqtisodiy qarashlarini bayon etgan. U birinchi bo'lib iqtisodiy obyektiv qonuniyatlarni tabiat qonunlari bilan solishtirdi va ularni tabiiy qonunlar deb atadi. bu iqtisodiy nazariyani rivojlanishida juda muhim qadam bo'ldi. U. Petti iqtisodiy fan tarixida birinchi bo'lib abstrakt mehnat tushunchasiga yo'l ochdi. Olim 1682- yilda nashr etilgan o'zining «Pullar to'g'risida» asarida pul haqida muhim ilmiy-nazariy fikrlarni bayon qildi.

U. Petti o'zining «Soliqlar va yig'imglar to'g'risida traktat» asarida soliqlar haqida muhim fikrlarni bayon qildi. Jumladan, «soliqlar qanchalik ulkan

(ko'p) bo'lmasin, agar u barchaga, proporsional tarzda bo'lsa, bundan hech kim boyligini yo'qotmaydi».

U. Pettining «Siyosiy arifmetika» asarida Angliya va Fransiyani solishtiruvchi ma'lumotlar bor. Bu asar yangi fan-statistikaga asos soldi. O'sha davrda hali bu tushunchaning o'zi yo'q edi. U. Petti statistika bilan shug'ullanganligi tufayli ma'lum ma'noda «rejalashtirish» masalalari ham ko'tarilgan.

Uning asarlarida milliy boyluk va milliy daromad statistikasiga, aholi sonini va uning tuzilishini hisoblashga, mehnat resurslarining qiymatini aniqlashga katta e'tibor beriladi.

2. Pyer Buagilberning iqtisodiy g'oyalari.

Fransiya klassik iqtisodiy maktabning asoschisi va asosiy namoyandasi Pyer Buagilber hisoblanadi. U Angliya klassik iqtisodiy maktabining asoschisi Petti kabi professional iqtisodchi olim bo'lgan emas.

P. Buagilberning iqtisodiy g'oyalarining vujudga kelishiga Fransiyadagi inqirozga yuz tutayotgan ijtimoiy-iqtisodiy holat sabab bo'ldi. Fransiyadagi ijtimoiy-iqtisodiy muhit Angliyanikidan keskin farq qilar edi. Fransiyada feodal munosabatlar hali ham kuchli bo'lib, qirollar va uning atrofida gilar tomonidan qattiq himoya qilingan. O'sha davrdagi Lyudovik XIV qirolligida moliya vaziri lavozimini egallab turgan Jan Batist Kolber tomonidan olib borilgan siyosat mamlakat iqtisodiyotining umumiy rivojiga olib kelmadi. U sanoatni, moliyani taraqqiy ettirishni tarafdori edi, ammo bu ish qishloq xo'jaligining ziyoniga o'tkazildi, feodal munosabatlar to'la saqlab turildi, bu esa iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga to'siq edi. Manifakturalar paydo bo'ldi, ammo rivoj topmadi. Sex tizimi saqlangan bo'lib, rivojga to'siq edi. Yer masalasi to'la hal etilmadi, «senyorsiz yer yo'q» tamoyili saqlandi, mayda yer egaligi, dehqonlarning turli soliq va yig'implarga mahkum etilganligi, ularni bu tizimda yerni yaxshilash va ishlab chiqarishni rivojlantirishga rag'batlantirmas edi, vaholanki, aholining 3/4 qismi dehqonlar bo'lib, ular bu sohada tushkunlikda edi. Ichki bozor ham tor bo'lib, tadbirkorlikning o'sishiga yo'l bermasdi. Kapitalistlar asosiy soliq to'lovchi sinf edi, dvoryanlar va dindorlar umuman soliq to'lamagan, shahar burjuaziyasi hali nisbatan kam sonli, soliqlardan ustalik bilan bosh tortar edi.

Ana shunday sharoitlar P. Buagilberning iqtisodiy qarashlariga katta ta'sir ko'rsatdi.

1707- yili P. Buagilberning «Fransiyani qoralash» asari chop etildi. Unda Fransiyaning kambagʻallik holati koʻrsatildi, merkantilistik siyosat qoralandi. Iqtisodiy islohotlar oʻtkazish toʻgʻrisida yangi gʻoyalalar ilgari surildi. Biroq ular oʻzi ishongan va umid qilgan hukumat vazirlari tomonidan ham eʼtiborga olinmadi, qoʻllab-quvvatlanmadi.

Iqtisodiy fikrlarning rivojlanishida va Fransiyada bozor munosabatlarining shakllanishida P. Buagilberning hissasi katta boʻldi. Aynan uning asarlari merkantilistik gʻoyalarning batamom obroʻsizlanishi va fransuz klassik iqtisodiy maktabining shakllanishi uchun nazariy-metodologik asos boʻlib xizmat qildi. U, Pettiga oʻxshab, mamlakatning boyligi pul miqdoridan iborat emas, balki barcha foydali narsa va neʼmatlardan tashkil topadi, degan konsepsiyani ilgari surdi.

1691- yilda u Fransiyani ogʻir iqtisodiy ahvoldan chiqarish tizimini taklif etdi. Dastlabki fikrlari boʻyicha turli islohotlar oʻtkazilib, 1707- yilda esa uning gʻoyalari yetilib, quyidagi uch qismdan tarkib topdi:

1. Soliq tizimini oʻtkazish. Soliq tizimining dehqonlar mehnatidan manfaatdorlik tamoyiliga asoslanishi, undan tashqari soliq, barchaga tegishli boʻlishi kerak.

2. Ichki savdoni har xil cheklashlardan ozod qilish (ichki savdo erkinligi): yaʼni ichki bozorni kengaytirish, mehnat taqsimotining oʻsishini taʼminlash, tovar-pul muomalasini kuchaytirish kerak;

3. Donning erkin sotilishiga yoʻl berish, donga tabiiy baho taʼsirini cheklamaslik. Gap shundaki, mamlakatda donga sunʼiy ravishda baho belgilangan boʻlib, ishlab chiqarish harajatlari qoplanmas edi. Buagilberning fikricha, iqtisodiyot erkin raqobat sharoitida rivojlanishi va tovarlar bozorida «haqiqiy qiymat»ga ega boʻlishi kerak edi. U davlat bu sohada dehqonlarga homiylik qilishi zarur, deb hisobladi.

Birinchi fransuz klassigining fikricha, iqtisodiyotdagi asosiy soha savdo emas, balki ishlab chiqarish, eng avvalo, qishloq xoʻjaligi hisoblanadi. P. Buagilber oʻz asarlarida iqtisodiyotning «tabiiy qonunlari» toʻgʻrisida qayd qilib oʻtadi. Davlat yuqori soliqlarni joriy etish yoki proteksionizm siyosatini qoʻllash bilan ularga xalaqit bermasligini tavsiya etadi.

3. A. Smit iqtisodiy taʼlimoti.

Adam Smit iqtisodchi va faylasuf, ingliz burjua klassik siyosiy iqtisodi namoyandasidir. 1759- yilda A. Smitning «Maʼnaviy tuygʻular nazariyasi» kitobi, 1776- yilda esa uning asosiy asari — «Xalqlar boyligining kelib

chiqishi va sabablari xususidagi tadqiqot» kitobi nashr etildi. A. Smitning ushbu asari jahon ilm-u fani xazinasidan munosib o‘rin egalladi.

A. Smitning shaxsiyati va uning dunyoqarashlari butun xo‘jalik faoliyatini (ustaxonaning joylashuvi, ishchi va shogirdlar soni, ishlab chiqarish va sotish ruxsat etilgan mahsulot hajmi) qat’iy reglamentlashtirish xos bo‘lgan, tobora kuchsizlanib va yo‘qolib borayotgan feodal ishlab chiqarish bilan har qanday tashqi (hamda feodal- sex) cheklovlardan holi bo‘lgan istalgan ishlab chiqarishning erkinlikka intilishi xos bo‘lgan burjua tovar ishlab chiqarish o‘rtasidagi kurash avjiga chiqqan davrda shakllandi. U jamiyatning olg‘a siljishini kafolatlaydigan ilg‘or harakat bo‘lib, shu paytda industrial (mashinalar yordamida) ishlab chiqarish dunyoga kelayotgan edi.

Moddiy ne‘matlar fuqarolar, aholining eng oddiy, kundalik ehtiyojlarini qondirish uchun ham kifoya qilmas, nomoddiy ishlab chiqarish (ta‘lim, madaniyat, san‘at, xizmat ko‘rsatish) esa jamiyat miqyosida hali jiddiy o‘rin egallamagan edi.

A. Smit XVIII asr sanoat burjuaziyasi ilg‘or rol o‘ynagan davrda uning mafkuraviy yetakchisi bo‘ldi va uning tadqiqotlari tufayli siyosiy iqtisod iqtisodiy bilimlar tizimigina bo‘lib qolmay, iqtisod to‘g‘risidagi nisbatan tekis ishlangan iqtisodiyot faniga aylandi. A. Smit kapitalistik tovar ishlab chiqarish yo‘lida to‘g‘anoq bo‘layotgan merkantilizm nazariyasi va amaliyotini, feodal tuzum va sarqitlarini keskin tanqid qildi

A. Smit (ingliz siyosiy iqtisodning boshqa klassiklari –D. Rikardo, U. Petti singari) boylik moddiy ishlab chiqarishning barcha sohalarida barpo etilib, uning manbayi mehnatdir deb hisoblagan. U bu bilan fransuz fiziokratlarining mamlakat boyligi qishloq xo‘jaligida yaratiladi va uning manbayi- tabiatdir degan birmuncha cheklangan fikriga qarshi chiqdi. Fiziokratlarning «Tabiat-boylikning onasidir» degan shiorini biroz o‘zgartirib, uni «Tabiat- boylikning onasi, mehnat uning otasidir» degan shiorga aylantirdilar.

A. Smit shaxs xususiy manfaatini xo‘jalik faoliyatining negizi hisoblanib, erkin raqobat, xususiy mulk ustuvorligi, har qanday yakkahokimlikni cheklash, savdo erkinligi, davlatning iqtisodiyotga aralashmasligi kabilarni iqtisodiy turmush sohasidagi tabiiy hol deb qarab, klassik kapitalizmning mashhur shiorini o‘rtaga tashladi: “laissez faire – tadbirkorlikka yo‘l bering!”

A. Smitning xizmatlaridan yana biri qiymatning mehnat nazariyasini, uning qoida va toifalarini ishlab chiqqanligidadir. U mehnatni qiymatning substansiyasi deb e‘tirof etgan, pulning tovardan kelib chiqish xususidagi

fikrni qat'iy turib himoya qilgan, ayirboshlash va iste'mol qiymatlarini farqlagan, tovarda o'z aksini topgan mehnatning ikki xilliligi ta'rifini anglashga yaqin kelgan edi.

A. Smit ta'limotining markaziy g'oyasi shundan iborat ediki, iqtisodiyot davlatdan xalos qilinsa, yaxshiroq amal qiladi. Bunday sharoitda iqtisodiy xudbinlik korxonani haridorlarga kerakli mahsulotlar ishlab chiqarishga va bu ishni eng arzon narxda qilishiga majbur etadi. Ular jamiyat farovonligini o'ylab emas, balki o'z raqiblaridan o'zib ketish va eng ko'p foyda olish maqsadida shunday qiladilar. Lekin bu xudbinlik eng yaxshi, sifatli va arzonroq tovarlar va xizmatlar bilan ta'minlab, butun jamiyatga foyda keltiradi.

Iqtisodiyot davlat boshqaruvidan holis bo'lsa, butun jamiyat yutib chiqishning sabablarini tushuntirish uchun Smit «ko'rinmas qo'l» ifodasidan foydalandi.

«Har bir alohida odam o'z kapitalini uning mahsuloti eng ko'p qiymatga ega bo'ladigan tarzda ishlatishga intiladi. Odatda, u jamiyat foydasiga yordam berishni ko'zda tutmaydi, balki faqat o'z manfaatini ko'zlaydi... Ammo bunda, ko'p hollarda bo'lganidek, u ko'rinmas qo'l bilan uning mo'ljali doirasiga mutlaqo kirmaydigan maqsad tomonga yo'naltiriladi. U o'z manfaatlariga eng yaxshi xizmat qiladigan harakatlarni, albatta, afzal ko'radi.

Biz hozir talab va taklif deb ataydigan iqtisodiy dastaklarni Smit «ko'rinmas qo'l» deb atagan edi. U «qulay savdo balansi»ga erishish maqsadida iqtisodiyotni yo'naltirib turishga da'vat etgan merkantilistlar fikriga mutlaqo qo'shilmagan edi.

A. Smit burjua jamiyatining joriy tizimining uchta sinfini ajratgan holatda ta'rifladi: yollanma ishchilar, kapitalistlar va yer egalari. Bunda u yollanma ishchilarni so'nggi sinfga qarama-qarshi qo'ygan. U daromad foizlar va rentaning ishchi mehnati mahsulidan ajratmasidan o'zga narsa emasligini ham e'tirof etgan. Shu bilan birga, u daromad tadbirkorning tavakkal qilganligi va sarmoya sarflagani uchun olgan qarzi deb hisoblagan. Shuningdek, ish haqi toifalarining tahlili, differensial renta, kapitalizm sharoitida samarali mehnatning qo'shilgan qiymatini bunyod etadigan mehnat sifatidagi rolini kashf etish ham A. Smitning xizmatidir.

A. Smit siyosiy iqtisod fanida yo'l boshlovchilardan bo'lganligi tufayli qator tushunchalarga izoh berishda noaniqliklarga yo'l qo'yishi muqarrar edi va ularga keyinchalik K. Marks izoh berib o'tdi. Misol uchun, u ishchining ish haqiga mehnat uchun to'langan xaq sifatida ta'rif bergan

(biroq mehnat-yaratuvchilik faoliyati jarayonidir), rentani tabiat faoliyatining natijasi deb tasavvur qilgan, moddiy ishlab chiqarish sohasidagi mehnatnigina moddiy boylik yaratadigan mehnat deb hisoblab, bu bilan yurist, shifokor pedagog ruxoniy va boshqalar mehnatining ishlab chiqarish ko‘rinishiga ega ekanligini tan olmagan.

A. Smit tovarlar qiymati daromadlarga bo‘linadi: foyda ish haqi va yer rentasiga qo‘shiladi va ajraladi deb hisoblagan. U asosiy va oborot kapitalning zamonaviy ta‘rifiga ancha yaqin keldi, ishlab chiqarish sohasida kapital jamg‘arish omillarini aniqlashga harakat qildi, biroq kapitalistik jamg‘arishning ichki mohiyatini va tarixiy moyilligini ochib bera olmadi.

Shu bilan birga, narxlar ayirboshlash tengligining obyektiv mohiyatini topishga birinchi bo‘lib qiymatning mehnat nazariyasi asoschisi, ingliz iqtisodchisi U. Petti harakat qildi. U ushbu nisbat asosida qiyoslashtirilayotgan tovarlarga sarflangan mehnat, ish vaqtining tengligi yotganligini aniqlab, o‘z kashfiyotining mohiyatini quyidagicha izohladi: «Agar biror-bir kimsa Peru konlaridan bir unsiya kumushni uning o‘zi bir bushel non ishlab chiqara oladigan vaqt mobaynida qazib olib, Londonga yetkazib kela olsa, u holda birinchi hodisa ikkinchisining tabiiy narxini (qiymatini) tashkil qiladi...»

U. Pettining g‘oyalarini chuqurlashtira borib, A. Smit uning fikrini kengroq umumlashtirdi: «Mehnat -qiymatining yagona umumiy, shu bilan birga, yagona aniq o‘lchovi, yoki uning vositasida har qanday zamon va makonda turli tovarlarning qiymatini o‘zaro qiyoslashimiz mumkin bo‘lgan yagona o‘lchovdir».

Shunday qilib, tovar ishlab chiqarishning mohiyatiga oid eng muhim savolga qiymatning mehnat nazariyasi javob berdi. Ushbu nazariya tarkibiga o‘zaro bog‘liq uchta asosiy qoidani oladi: 1) ayirboshlash nisbatidagi tenglik qiyoslanayotgan tovarlar bir xil qiymatga ega ekanligi bilan izohlanadi; 2) qiymat ishlab chiqaruvchining tovarga qo‘shilgan ijtimoiy mehnatidan iborat (o‘zga odamlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan mehnat); 3) mehnat sarfi, demak qiymat ham ish vaqtining davomiyligi bilan o‘lchanadi.

Ushbu nazariyadan kelib chiqib xulosa qilish mumkin: ayirboshlash qiymati-qiymatni ifodalaydigan shakldir. Qiymat tufayli barcha tovarlar o‘xshash xususiyat (ularga bir xil ijtimoiy mehnat sarfi bo‘lgan) oladi va bozorda qiyoslash mumkin bo‘lgan va ayirboshlash nisbatida miqdor jihatidan teng bo‘ladilar.

Iqtisod fanini o‘rganayotgan shaxs ertami-kechmi narxlar tizimining

muayyan sharoitda iqtisodiy jarayon ishtirokchilari xatti-harakatlariga qat'iy qoidalar belgilaydigan mexanizm ekanligini, shu bilan birga, buni avtomatik tarzda, markaziy rahbariyat ishtirokisiz yoki jamoa qarorisiz amalga oshirishni anglab yetadi. Bundan tashqari narxlar tizimi muvofiq institutsional chegaralab qo'yilgan bo'lsa, u holda ushbu mexanizm xususiy manfaatlarga erishishni ijtimoiy maqsadlarga intilish bilan uyg'unlashtirish mumkin. Xususiy va ijtimoiy manfaatlar uyg'unligini birinchi bo'lib A. Smit tushunib yetdi, uqidi va uning oqibatlarini qudratini angalay oldi. U iqtisodiy taraqqiyotning ichki yurituvchi kuch-jamoat farovonligiga xususiy maqsadlarga erishishi orqali eltadigan yo'lni ko'ra bildi.

«Xalqlar boyligining kelib chiqishi va sabablari xususida»gi asarida A. Smit iqtisodiy taraqqiyotning manbalari, yo'nalishlari va rag'batlarini ko'rsatib berdi. Xususan, u kitobda iqtisodiy siyosating yo'nalishlari, uning o'tmishda iqtisodiy taraqqiyotga, shu bilan birga, turli mamlakatlarning iqtisodiyotini rivojlanishiga ta'siri to'g'risida fikr yuritadi. A. Smit o'z iqtisodiy taraqqiyot konsepsiyasiga moddiy manfaatlarini belgilanib, yo'llab turiladigan ijtimoiy shart-sharoitlarning o'ziga xos xususiyatlarini ham kiritadi. Uning konsepsiyasi aynan shu jihati bilan o'zga shu kabi iqtisodiy taraqqiyot nazariyalardan farqlandi. A. Smit shaxsiy manfaatlarining olg'a undovchi qudrati jamiyat manfaatlarini bilan faqat muayyan favqulodda institutsional sharoitdagina uyg'unligiga amal qiladi. A. Smit bozor kuchini to'la-to'kis namoyon etishni kafolatlaydigan institutsional strukturani puxtalik bilan ishlab chiqadi. U sinfiy qarama-qarshi manfaatlar, qarama-qarshi sinflarning iqtisodiy va siyosiy ustunlik, hukmronlik uchun kurash, shuningdek, mulkdorlarning shaxsiy manfaatlarini (mulkchilikning shaxsiy manfaatlarini) teng ravishda jamiyat farovonligiga ham halaqit berishini, ham ko'maklashuvi mumkinligini tushunadi; bozor mexanizmi tegishli huquqiy va institutsional doira ichiga olingandagina uyg'unlik o'rnatishi mumkin.

A. Smit hukumat (davlat) vazifalarini ularning noiqtisodiy tus berishi bilan cheklab qo'yadi. U ana shunday vazifalar sirasiga: mulkchilik huquqlarini muhofaza qilish, mamlakat mudofaasini ta'minlash va ba'zi ijtimoiy xizmat turlarini kiritadi. Ijtimoiy xizmat bilan mashg'ul bo'lgan davlat xizmatchilarining mehnatiga haq to'lanishi shart. Bunda A. Smit xasislik yoki aksincha, o'ta saxiylik bilan to'langan xaq jamiyatga xizmat qilish ishiga faqat zarar yetkazishi mumkin deb aytadi. Uning fikricha, davlat xizmatchilari mehnatiga kam xaq to'lash ushbu muhim ijtimoiy ish ijrochilarining ishga noqobilligini keltirib chiqaradi, ortiqcha pul to'lash

esa ushbu ishni amalga oshirishda dangasalik va sovuqqonlikka sabab bo'lib, bu esa yana ham kattaroq zarar keltiradi. Ishlab chiqarish infratuzilmalarini yaratish bo'yicha ijtimoiy ishlar (yo'llar, kanallar, ko'priklar, portlar qurish va ularni ta'mirlash), A. Smit fikriga ko'ra, foydalanuvchilarning tegishli badallari hisobiga va faqat favqulodda hollardagina davlat budjeti hisobiga mablag' bilan ta'minlanishi lozim.

A. Smit iqtisodiy ta'limotlarida daromadlar va taqsimot nazariyalari ham ilgari surilgan.

A. Smitning taqsimot nazariyasi ishlab chiqarish nazariyasiga nisbatan unchalik ishonarli chiqmagan. Uni, keyinchalik, D. Rikardo va J. B. Seylar to'ldiradilar. A. Smitning taqsimot modeli zaifligi uning qiymatini tushunishdagi nuqsonlar, qishloq xo'jaligiga nisbatan fiziokratik bid'atlar, xizmat ko'rsatish sohasiga munosib baho bermasligi, kapital va mehnat evaziga daromadning shakllanishi to'grisidagi xatosi (u foyda va foiz farqini ajratmadi, keyin unda ish haqi goh yashash vositalari minimumi qiymatiga kelib taqaladi, goh talab va taklif bilan tartiblanib turadi) bilan bog'liq. A. Smitning taqsimot nazariyasi ko'plab sotsialistik g'oyalar uchun «manba» bo'lib xizmat qildi.

A. Smit nazariyasiga ko'ra, daromad uch qismga: ish haqi, renta va foydaga bo'linadi. Joriy moddiy sarflar ham pirovard natijada daromadga kelib taqaladi. Masalan, ko'ylakning qiymati yuqorida ko'rsatilgan daromad turlaridan tashqari gazlamaning qiymatini ham o'z ichiga oladi. Lekin gazlama konkret ishlab chiqaruvchidan harid qilingan va uni sotishdan tushgan tushum daromadga va xomashyo (ip) to'lovlariga bo'linadi. Ipning qiymati esa o'z navbatida ish haqini, rentani va foydani o'z ichiga oladi. Pirovard natijada hammasi daromadga kelib taqaladi.

U daromadlar manbayi mezoniga muvofiq uch sinfni: ishchilar, yer egalari va kapitalistlar sinfini ajratib ko'rsatadi. Bu sinflar vakillarining daromadlari yig'indisi jamiyatning milliy daromadini tashkil etadi. Demak, milliy daromad uchta ishlab chiqarish omili (mehnat, yer va kapital) ishtirokida yaratiladi. Daromadning boshqa turlari, (ya'ni xizmat ko'rsatish sohasidan, davlat xizmatidan keladigan daromadlar) ikkilamchi, milliy daromadni qayta taqsimlash tufayli vujudga keladi, ya'ni ishchilar, yer egalari va kapitalistlar daromadidan to'lanadi.

Ishlab chiqarishni tashkil etishdagi tabiiy tartib A. Smitni to'liq qoniqtirgan bo'lsa-da, u taqsimot sohasini juda yaxshi (ideal) tashkil etilgan deb hisoblamaydi. Uning tasdiqlashicha, «renta va foyda ish haqini yeb tashlaydi va yuqori sinflar quyi sinflarga zug'um o'tkazadi». Mulkdorlar

ishchilar bilan savdolashishda ustunlikka ega, negaki ular birligida yulursiz yashay oladilar, ishchilar esa doimiy daromad olishga muhtoj. Mehnat bozorida ularni ustunlik holati natijasida mehnat haqi normasi ishchi oilasi uchun zarur bo'lgan yashash minimumi darajasiga intiladi. Mazkur qoida «ish haqi fondi» (yoki «ish haqining temir qonuni») konsepsiyasi nomini olgan. Bunda shu narsani hisobga olish zarurki, ya'ni A. Smit qayd qilib o'tgan «mehnatning tabiiy bahosi» nafaqat jismoniy yashab ketishni taqozo etadi, balki normal yashash shart-sharoitlarining bo'lishini (ular turli mamlakat va davrlarda har xil bo'ladi) ham ko'zda tutadi.

A. Smitning iqtisodiy ta'limoti siyosiy iqtisod fani rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Uning ilmiy g'oyalari, shuningdek, ingliz klassik siyosiy iqtisodi deb nom olgan klassik siyosiy iqtisodning negizini tashkil etdi.

4. D. Rikardoning iqtisodiy ta'limoti.

David Rikardo (1772-1823) klassik iqtisodiy maktab namoyandasi hisoblanadi. U tarixga katta ta'sir o'tkazgan iqtisodchilardan biri edi. Angliyada tug'ilgan, London fond birjasida zo'r muvaffaqiyat bilan faoliyat ko'rsatgan. Bu yerda to'plangan boylik unga fan bilan shug'ullanishi va Angliya parlamentining quyi palatasi ishida ishtirok etish imkonini bergan. Uning eng mashhur asari «Siyosiy iqtisod va soliq solish qoidalari» deb ataladi. U bu asarni 1847- yilda yozgan. Bu asar uni mumtoz siyosiy iqtisod g'oyalarning Adam Smitdan keyingi eng taniqli ifodalovchisi darajasiga ko'tardi.

Rikardo, ayniqsa, xalqaro iqtisodiyotdagi savdo erkinligi afzalliklarini tadqiq etish borasida dong taratdi. Erkin savdo mamlakatlar o'rtasida savdoni yo'lga qo'yishdagi tariflar va boshqa to'siqlar bartaraf etiladigan siyosatni nazarda tutadi. Bu nuqtayi nazarni isbotlash uchun Rikardo biz hozir nisbiy afzalliklar qoidalari deb ataydigan konsepsiyani ishlab chiqdi. Ushbu afzalliklarni tahlil etish orqali u shunday xulosa chiqardi: tovarlarni import qiluvchi bir mamlakat eksport qiluvchiga nisbatan kamroq harakatlar bilan ishlab chiqara olsa ham, ularni boshqa mamlakatga import qilishi mumkin.

Nisbiy afzalliklarni David Rikardo quyidagi tarzda izohlab bergan edi.

Portugaliya ham Angliya ham vino va kanop mato ishlab chiqaradi, ular bir-birlari bilan ushbu mahsulotlarni ayirboshlashdagi afzalliklarni ko'rib chiqadilar.

Faraz qilaylik:

-Vinoning X barreli qiymati kanop matoning u yarddagi qiymatiga teng (demak, shunday ayirboshlanadi ham).

-Portugaliyada 80 nafar ishchi bir yilda X barrel vino tayyorlashi mumkin. Shu miqdordagi vinoni 120 nafar ingliz ishchisi tayyorlashi mumkin.

-90 nafar portugal ishchisi bir yilda Y yard kanop mato ishlab chiqarishi mumkin. Shu vaqt ichida xuddi shuncha yard kanop matoni 100 nafar angliyalik to'qishi mumkin.

«Fahmlaganimizdek, — deya fikrini davom ettiradi Rikardo, — garchi Portugaliya vinoni ham, kanop matoni ham Angliyaga nisbatan ancha samaraliroq ishlab chiqara olsa, u vinoni ishlab chiqarishga ixtisoslashadi va kanop matoni Angliyadan import qiladi. Buning boisi shundaki, Portugaliya tumanli Albion bilan savdo qilib, o'zi 90 kishini ishlatishi orqali bir yilda ishlab chiqarishi mumkin bo'lgan miqdordagi kanop matoni bir yilda 80 kishi ishlashi evaziga olishi mumkin. Bunday ayirboshlashdan Angliya naf ko'radi. U kanop mato ishlab chiqarishga ixtisoslashib, bir yilda 120 nafar kishi emas, balki 100 kishini ishlatish evaziga vino sotib olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Parlament a'zosi sifatida Rikardo hukumatni an'anaviy proteksionizm savdo-sotiq siyosatiga o'zgarish kiritishiga majbur qilish maqsadida unga ta'sir o'tkazdi. Garchi u bu maqsadga erishguncha qadar yashamagan bo'lsa-da, uning kuch-g'ayrati o'z samarasini berdi: 1840- yilda Angliya erkin savdo siyosatini ma'qullagan birinchi sanoatlashgan mamlakat bo'ldi. Shundan keyingi 70 yil mobaynida jo'shqin iqtisodiy o'sish uni jahondagi eng boy mamlakatga aylantirdi.

Mashhur klassik siyosiy iqtisod namoyandasi David Rikardo iqtisodiy fanda ilmiy tadqiqotlar usulini ham ishlab chiqdi. D. Rikardo asarlarida siyosiy iqtisod jamiyatning iqtisodiy bazasi haqidagi bilimlar tizimi sifatida tashkil topdi.

D. Rikardoning jamiyat moddiy boyligini o'stirish uchun ishlab chiqarish va taqsimot sohalarida optimal shart-sharoitlar vujudga keltirilishi lozim, degan fikrlari hozir ham ahamiyatini yo'qotmagan.

D. Rikardo o'z iqtisodiy merosida qiymatning mehnat nazariyasini eng rivojlangan va o'z zamonasining eng to'g'ri nazariyasi sifatida shakllantirdi. D. Rikardo kapitalistik jamiyat a'zolarini bir-biriga qarama-qarshi manfaatlari asosida o'rgandi. U o'zidan avvalgi iqtisodchi olimlarga nisbatan tizimlashgan, juda ilg'or siyosiy iqtisodni yaratishga muvaffaq

bo'ldi. Uning ilmiy qarashlari ham A. Smitniki kabi muayyan sinflar manfaatiga qaratilgan bo'lib, ishlab chiqarishni rivojlantirish, millat boyligini o'stirish nuqtayi nazaridan o'rganildi. D. Rikardo ilmiy merosidan klassik siyosiy iqtisodning quyidagi tizimlangan holatini yaqqol sezish mumkin.

1. Ilmiy abstraksiya usulidan foydalanib, iqtisodiy hodisa va jarayonlarning chuqur asoslariga yetib borishlari bilan bu jarayonlarning tahlili juda katta holislik bilan olib boriladi.

2. Klassik siyosiy iqtisod ta'limoti asosida qiymatning mehnat nazariyasi yotadi. Siyosiy iqtisod binosining poydevori qiymatning mehnat nazariyasiga asoslangandir. Shuni ta'kidlash lozimki, klassik iqtisod namoyandalari kapitalizmni yagona va abadiy tuzum deb o'rgatishlari oqibatida uning qonuniyatlarini to'la yoritib olmadilar.

3. Klassik maktab ishlab chiqarishni taqsimot ma'lumotlarini sinfiy nuqtayi nazardan o'rgandi.

4. Klassik maktab namoyandalari ortiqcha ishlab chiqarish va krizislarni inkor etadilar.

5. Klassik siyosiy iqtisod savdo erkinligi uchun kurashadi.

Demak, klassik siyosiy iqtisod iqtisodiy fikrlar tarixida juda muhim o'ringa egadir. Unda o'sha davrning ilg'or, ilmiy-iqtisodiy fikrlari va ayni vaqtda, tarixan cheklanganliklar o'z ifodasini topgandir.

D. Rikardo iqtisodiy qarashlarida renta va ish haqi nazariyalari ham ilgari surilgan. D. Rikardoning renta haqidagi fikrlari A. Smitning renta haqidagi fikrlaridan farqli bo'lib, o'ziga xos holda talqin etilgan.

D. Rikardo tabiat va kapitalning qiymatni ko'paytirish xususiyatini inkor etadi. Masalan, uning nazariyasida yer rentasi (yerdan foydalanganligi uchun ijara haqi) bu tabiat natijasi emas, balki ijtimoiy omillarning qishloq xo'jaligi mahsulotlarining bahosiga bo'lgan ta'siri natijasidir. Odamlar, birinchi navbatda, eng unumdor yerlarda ishlaydilar. Ammo aholi sonining ko'payib borishi yomon yerlarda ham ishlashga majbur etadi. Chunki yaxshi yerlarda yetishtirilgan mahsulotlar o'sib borayotgan aholining ehtiyojlarini qondira olmaydi.

Faraz qilaylik, unumdorligi yaxshi muayyan yer uchastkasida ishlashga 10 soat ketadi va bozorda mahsulot bahosi 10 pul birligiga teng. Aholining o'sishi oziq-ovqat tovarlari bahosining oshishiga olib keladi. Bu esa ishlab chiqaruvchilarni yomon yerlarda ham ishlashga majbur qiladi. Bu yerlardan ko'rsatilgan miqdordagi hosilni olish uchun 10 soat emas, balki 15 soat ish vaqti ketadi. Shunga muvofiq mahsulotning bahosi ham 15 pul

birligiga oshadi. Bozor bahosi bu summadan kam bo'lmashligi kerak, aks holda yomon yer uchastkalari ishlatilmasdan qolib ketadi. Yaxshi uchastkada ishlovchi fermerlar ishlab chiqarishga 10 pul birligiga teng mehnat sarflaydilar, o'z mahsulotlarini esa 15 pul birligiga sotadilar. O'rtadagi 5 birlik farq yer egasiga tegadi. D. Rikardo nazariyasi bo'yicha, ana shu renta hisoblanadi. Uning tasdiqlashicha, keyinchalik aholini yanada o'sishi kishilarni yanada yomonroq yerlarda ishlashga majbur etadi, bu esa qishloq xo'jaligi mahsulotlari qiymatining o'sishiga va rentaning ko'payishiga olib keladi.

Shunday qilib, yer rentasi miqdori tuproq unumdorligiga va uchastkaning bozorga uzoq-yaqin joylashishiga bog'liq bo'ladi. Bu qoida keyinchalik differensial renta konsepsiyasi nomini oladi.

A. Smit ta'limotiga ko'ra ish haqi mehnat unumdorligi natijasi, renta esa- yer unumdorligi natijasidir. D. Rikardoda ish haqi mehnat sarflari natijasi, renta esa- kamyoblik va yer uchastkalarining har xilligi natijasi hisoblanadi. Renta qiymat yaratmaydi. Aksincha, renta miqdori bozor bahosi darajasiga bog'liq bo'ladi. «Renta to'langani uchun non qiymat emas, balki non qiymat bo'lgani uchun renta to'lanadi... Agar, hatto, yer egalari barcha rentalardan voz kechganlarida ham nonning bahosi hech kamaymagan bo'lar edi», -deb yozadi D. Rikardo.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Angliyada klassik iqtisodiy maktabning vujudga kelishiga asosiy sabab nima edi?
2. Klassik iqtisodiy maktabning merkantilizmdan asosiy farqi nimadan iborat?
3. U. Petti qiymat, ish haqi, pul rentasi to'g'risida qanday fikrlarni bildirgan?
4. U. Petti qiymat nazariyasini qanday talqin etdi?
5. Fransiyada klassik iqtisodiy maktab asoschisi kim edi?
6. P. Buagilber iqtisodiy ta'limotlarining vujudga kelishiga nima sabab edi?
7. Fransiya iqtisodiyotini rivojlantirish uchun qanday islohotlar taklif etildi?
8. A. Smitning «Xalqaro boylikning kelib chiqishi va sabablari xususidagi tadqiqot» asarida qanday iqtisodiy g'oyalar ilgari surilgan?

9. A. Smit mehnat taqsimoti haqida qanday fikrlarni bildirdi?
10. Laisser faire tushunchasini izohlang?
11. «Ko‘rinmas qo‘l» tamoyili nimani anglatadi?
12. Savdo erkinligi kurashchisi kim edi?
13. D. Rikardo qanday iqtisodiy g‘oyalarni ilgari surdi?
14. D Rikardoning renta va ish haqi haqidagi nazariyalarini A. Smitning renta va ish haqi haqidagi ta‘limotlaridan farqi bormi?

TAYANCH IBORALAR:

Uilyam Petti. Angliya klassik siyosiy iqtisodining asoschisi. U 1623-yilda Angliyaning janubidagi Roms shahrida hunarmand-to‘qimachi oilasida tug‘ilgan. U. Petti har tomonlama yuksak bilimli inson bo‘lgan. Kapitalistik tuzumni tabiiy va abadiy deb hisoblagan. Tovarning almashuv qiymatini tan olgan. Statistika («Siyosiy arifmetika») faniga asos solgan. Aholiga boylik yaratuvchi sifatida qaragan.

Pyer Buagilber. (1646-1714) Fransiya klassik iqtisodiy maktabining asoschisi. «Fransiyaning to‘la tavsifi», «Fransiya to‘g‘risida varaqa», «Boylıklar tabiati to‘g‘risida traktat» kabi asarlar muallifi. Agrar sohaning rivojiga e‘tibor berdi, kolberizmga qarshi kurashdi, soliq tizimini isloh qilishni taklif etdi.

Adam Smit (1723-1790). Iqtisodchi va faylasuf, ingliz burjida klassik siyosiy iqtisodi namoyandasi. Bojxona xodimining o‘g‘li. «Ma‘naviy tuyg‘ular nazariyasi», «Xalqlar boyligining kelib chiqishi va sabablari xususida tadqiqot» va boshqa asarlar muallifi. Mehnat taqsimoti (vaqtdan, malaka oshishdan, mashina qo‘llashga imkon yaratishdan) uch yutuq berishni isbotlagan. Davlatning iqtisodga aralashuvi imkoni boricha kam bo‘lishi kerak deydi.

Qiymat - tovar ishlab chiqaruvchilarning tovarida gavalangan va unda moddiylashgan ijtimoiy mehnati

Mehnat- tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun inson sarflaydigan jismoniy va aqliy kuch-g‘ayrat.

David Rikardo (1772-1823) -klassik iqtisodiy maktabning atoqli vakillaridan biridir. U birjada yirik ish yurituvchi yahudiy oilasida tug‘ilgan. Mehnat taqsimotini korxonada darajasidan mamlakatlarga ham joriy etishni taklif etgan, nisbiy ustunlik, nisbiy tizimlar ustunligi nazariyasiga asos solgan.

Mehnat taqsimoti-murakkab katta ishlab chiqarishlarni bir necha kichik ishlab chiqarishlarga bo‘lish; unda har bir ishchi bir necha aniq operatsiyani bajaradi.

Renta-tabiiy resurslar egasining mazkur ishlab chiqarish omilidan foydalanish huquqini berish evaziga oladigan daromadi.

Laissez faire-fransuzchadan aynan tarjima qilinganda «bilganini qilsin» degani. Ushbu atama davlatning iqtisodiyotiga kamroq aralashuvi siyosatiga taalluqli.

Kapital-tovarlar va ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadini ko‘zlovchi sarmoya. Kapital deganda amaliy operatsiyalar haqini to‘lash uchun ishlatiladigan pul ham tushuniladi.

Tovar-bozorda oldi-sotdi orqali ayirboshlanadigan mehnat mahsuli.

1. Marksistik iqtisodiyot nazariyasi vujudga kelishining tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari.

XIX asrning o'rtalaridan boshlab «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi»da yangi bir yo'nalish- marksizm iqtisodiy ta'limoti shakllana boshladi. Marksizm ta'limoti K. Marks va F. Engels hamkorligida yaratildi. O'sha tarixiy sharoitlarda Yevropada kapitalistik ishlab chiqarish usuli keskin rivojlana boshlagan, ishchilar sinfi jamiyatning yetakchi kuchi sifatida maydonga chiqib xususiy mulkchilikka, mavjud tuzumning iqtisodiy va siyosiy asoslariga qarshi chiqayotgan, qator mamlakatlarda sanoat o'ntarilishlari borayotgan edi. Ayni chog'da, yangi bozor munosabatlari eski feodal munosabatlaridan birmuncha ustun va ilg'or ekanligi, yangi iqtisodiy munosabatlar iqtisodiy o'sish va ijtimoiy hayotga jonlanish baxsh etayotganligi ko'rinib turar edi.

Yangi iqtisodiy tizimning ustunligi va ilg'orligi yaqqol ko'rinib turgan bo'lsa ham uning o'zi kuchli ziddiyatlardan holi emasligi sezilib turardi. Bular – ishsizlik va uning o'sib borishi, ishchilar ish vaqtining uzunligi, ayollar va bolalar mehnatidan foydalanishning kuchayib borishi, ish haqining pastligi, ishchilar ahvolidan har jihatdan og'irlashib borayotgani, jamiyatda kuchli mulkiy va ijtimoiy tabaqalashuv borayotgani, ilg'or davlatning mustamlakachilik siyosati, irqiy va milliy kamsitish va boshqalar edi. Ana shu ziddiyatlar zaminida ishchilar bilan kapitalistlar, mehnat bilan kapital o'rtasidagi jiddiy qarama-qarshilik yaqqol namoyon bo'lib bordi. Bu yangi tuzum ziddiyatlari ishchilar sinfining siyosiy harakatlariga ko'chayotgan edi. Bular Fransiyadagi Lion to'quvchilari, Angliyadagi artistlar, Sileziya to'quvchilari qo'zg'aloni va boshqa chiqishlarda o'z ifodasini topmoqda edi. Bunday sharoitda, tabiiyki, ilm-fan darg'alari bo'layotgan o'zgarishlarni tahlil qilishi, o'rganish, ulardan tegishli xulosalar chiqarishga kirishgan edilar. Hatto klassik iqtisodchilar ham o'z davrida kapitalistik bozor munosabatlarining salbiy jihatlarini ko'rsatib bergan edilar. Marksizمنى vujudga kelishi ham ana shu inqilobiy o'zgarishlar ta'sirida yuz berdi, ya'ni yangi iqtisodiy ta'limot davr taqozosi tufayli paydo bo'ldi. K. Marks va Engels bo'layotgan o'zgarishlarni tahlil qilish asosida «Kommunistik partiya manifesti» asarini yaratdilar. Ishchilar sinfining harakatlantiruvchi kuch sifatida maydonga chiqayotgani, xususiy mulkchilik va uning salbiy jihatlarini, kuchli tabaqalashuv borayotgani,

Yevropada yangi kommunistik g'oya sharpasi kezayotgani kabi g'oyalarni ilgari surdilar.

Albatta, marksizm yo'q yerdan paydo bo'lmadi, u klassik siyosiy iqtisod, utopik sotsializm maktabi asnosida shakllandi. Biroq marksizm ta'limotida, xususan, uning iqtisodiyot nazariyasida ichki ziddiyatli jihatlar, xulosa va umumlashmalarning mantiqiy nuqta emasligi, bozor iqtisodiyotining muhim asosi bo'lgan xususiy mulkka, tovar-pul munosabatlari ahamiyatiga to'g'ri tarixiy baho berilmasligi kabilarda ko'rindi.

2. Marksizm iqtisodiy ta'limoti tizimi

Marksizmning iqtisodiy ta'limoti XIX asrning 40-70- yillarida shakllandi. U K. Marks va F. Engelsning qator iqtisodiy asarlarida ishlab chiqildi. Garchi ta'limot K. Marks nomi bilan atalsa ham, uning shakllanishi va yoyilishi F. Engelsning ilmiy va siyosiy faoliyati bilan bog'liqdir. Zero marksizm iqtisodiy nazariyasining tamal toshlari uning ilk asarlari bilan qo'yilgan edi. F. Engelsning 1842- yildan boshlaboq e'lon qilingan bir qator iqtisodiy maqolalarida Angliyadagi iqtisodiy jarayonlar tahlil qilingan, mamlakatda ichki ziddiyat chuqurlashib, ishchilar sinfining ahvoli og'irlashib borayotgani haqida yozilgan edi. Uning «Angliyada ishchilar sinfining ahvoli» nomli asarida (1845-yil) Angliya kapitalizmining iqtisodiy hayoti tahlil qilindi, ro'y berayotgan bo'hronlar sanoat sohasidagi keskin o'zgarishlar natijasi, ishlab chiqaruvchi kuchlar tarkibidagi chuqur o'zgarishlar in'ikosi ekanligi qayd etildi.

1845- yildan boshlab F. Engelsning Marks bilan ilmiy hamkorligi boshlandi, ularning hammualliflikdagi birinchi asari- «Nemis ideologiyasi» bo'ldi. Unda birinchi marta ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar, ularning mohiyati, o'zaro almashish obyektivligi haqidagi g'oyalar bayon qilindi. K. Marksning «Falsafa qashshoqligi» asarida yangi iqtisodiy qonun va kategoriyalar bayon qilindi. Jumladan, iqtisodiy kategoriyalarga tavsif berildi, ular real ishlab chiqarish munosabatlarining ilmiy in'ikosi, deb ta'riflandi, unda «ishlab chiqaruvchi kuchlar xarakteriga ishlab chiqarish munosabatlarining mos kelishi iqtisodiy qonuni» ochib berildi. Marksizmning formatsiyalarning inqilobiy almashuvi haqidagi xulosalari aynan ana shu iqtisodiy qonun harakatiga ko'ra borishi asoslandi.

K. Marksning 1849- yilda nashr etilgan «Mehnat va kapital» asarida qiymat va qiymat qonuni haqida qarashlar ilgari surildi. Unda qiymatning chuqur iqtisodiy munosabat ekani, u real xo'jalik hayotida baholar

vositasida ularning qiymat atrofida qalqishi orqali harakat qilishini tushuntirib berdi. Yuqorida qayd etilgan asarlar K. Marksning kapitalistik ishlab chiqarish usulini chuqur o'rganishga jiddiy qaraganidan, u endi yirik iqtisodiy asar yozishga kirishganidan darak beradi. U 1857-58- yillarda «Kapital»ning birinchi varianti qo'lyozmalari, 1861-63- yillarda «Kapital» asarining ikkinchi qo'l yozma variantini ishlab chiqdi. Bu ishlarda u tovar ishlab chiqarish, uning tarixiy shakllari, yer rentasi va uning ko'rinishlari, qiymat, pul va uning kelib chiqishi, kapital va uning shakllari, ilmiy-texnika taraqqiyoti, fabrikalarda mashinalardan foydalanish oqibatlari, ijtimoiy kapitalning takror hosil qilinishi masalalaridagi o'zining dastlabki qarashlarini ilgari surdi.

Albatta, marksizm iqtisodiy ta'limotida bosh asar- «Kapital»ning alohida o'rni bor. U K. Marks muallifligida chiqqan bo'lsa ham, aslida, unda Engelsning katta hissasi borligini e'tirof etish lozim. Bu asar 4 ta jild, 7 ta kitobdan iboratdir. Uning birinchi jildi «Kapital ishlab chiqarish jarayoni» deb nomlanib, 1867- yilda nashr etildi. Bu jildda tovar, uning xususiyatlari, tovarda gavalangan mehnatning ikkiyoqlama xarakteri, tovar fetishizmi, pul va uning kelib chiqishi, pulning kapitalga aylanishi, qo'shimcha qiymat va uni ishlab chiqarish, qo'shimcha qiymat, uning shakllari, uning kapitalga aylanishi, ish haqi va uning ish kuchi qiymatining pul shakli ekanligi, kapitalning jamg'arilishi va uning oqibatlari bayon etilgan. Mana shu jildda qo'shimcha qiymatning mohiyati, u kapital mahsuli va uning jamg'arish manbaya ekanligi, u ishchilarga to'lamay qolgan qiymat ekanligi, yangi tuzumning asl mohiyati qo'shimcha qiymatni ekvivalentsiz o'zlashtirishdan iborat ekanligi tavsiflanadi.

«Kapital» asarining 2-jildi 1885- yilda F. Engels tomonidan nashr etiladi. Uning mavzusi kapitalning muomala sohasidagi harakatini tahlil etishdir. Unda kapitalning aylanish va doiraviy aylanishi, bu jarayonda kapitalning uch funksional shaklga kirishi, takror ishlab chiqarish jarayoni va uning shakllari, jami ijtimoiy mahsulot va uning qiymat va buyum jihatdan tuzilishi, ijtimoiy ishlab chiqarishning ikki bo'linmasi va ular o'rtasidagi realizatsiya sharoitlari tasvirlanadi.

«Kapital»ning 3-jildi ham F. Engels tomonidan nashrga tayyorlanib, 1894- yilda chop etildi. Unda kapitalning ishlab chiqarish va muomala jarayonlaridagi harakati yaxlit olib o'rganilgan. Unda qo'shimcha qiymatning kapitalistlarning turli sinflari daromadlariga aylanishi, ularning sinf sifatida ishchilarga qarshi turishi, savdo va ssuda kapitallarining harakati, yer rentasi tahlili o'rin olgan.

«Kapital» asarining 4-jildi esa 1905-1910- yillarda nashr etildi. U «Qo‘shimcha qiymat nazariyasi» deb ataladi va qo‘shimcha qiymat atrofida Marksgacha bo‘lgan iqtisodchilar qarashlari tanqidiy tahlil qilinadi.

Siyosiy iqtisod fani rivojida F. Engelsning «Anti Dyring» nomli asari alohida o‘rin tutadi. Bu asar 1878- yilda e‘lon qilindi. Unda siyosiy iqtisodning predmeti ham tor, ham keng ma‘nolarda tavsiflab boriladiki, bu fanni tushinishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu asarda marksizm ta‘limotining hamma qismlari ensiklopedik asnoda tushuntirib berildi. Engelsning «Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi» nomli asari ham iqtisodiyot nazariyasi tarixida muhim o‘rin tutdi. K. Marksning 1875- yilda yozilgan «gota programmasining tanqidi» asari uning marksizm qarashlarining umumlashmasi sifatida maydonga chiqdi. Unda proletar diktaturasi, kommunistik ishlab chiqarish usulining vujudga kelishi, uning ikki - quyi va yuqori fazalaridan iborat bo‘lishi, har ikki fazadagi taqsimot munosabatlarining qanday bo‘lishi bashorat qilingan edi.

3. V. I. Leninning iqtisodiy qarashlari

XIX asrning oxiri va XX asr boshlaridagi Rossiyadagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar V. I. Lenin (1870-1924) nomi bilan bog‘landi. U marksizmning Rossiyaga tarqalishi, Rossiyada kapitalizm rivojlanishi, sotsialistik inqilob nazariyasi va sotsializm qurilishi bilan bog‘liq nazariyalarni ishlab chiqdi, marksizm iqtisodiy ta‘limoti Rossiya muhiti nuqtayi nazaridan rivojlantirildi. U o‘zining XIX asrning 90- yillarida yozgan «Rossiyada kapitalizm taraqqiyoti», «Bozorlar xususidagi masalaga doir» asarlarida Rossiyadagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, rus jamiyatining tabaqalashuvi, Rossiyada kapitalizm taraqqiyotining o‘ziga xos jihatlari, ishchilar sinfining shakllanishi, Rossiyadagi agrar munosabatlarning o‘ziga xosligi masalalarini tadqiq etdi. U takror ishlab chiqarish nazariyasini rivojlantirib, kapitalning organik tuzilishi haqida, uning o‘sib borishi sharoitida kapitalni takror ishlab chiqarish sxemasini chizib berdi. U ana shu tahlilga asoslanib, ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarishning iste‘mol buyumlari ishlab chiqarishga nisbatan ustun o‘sish qonunini ochdi.

Lenin Rossiyada agrar masala juda muhim siyosiy-iqtisodiy muammo ekanligini inobatga olib «Agrar masala» va «Marksni tanqid qiluvchilar» (1901), «Dehqonchilikda kapitalizm rivojlanishi qonunlari haqida yangi ma‘lumotlar» kabi asarlarni yozdi. Ularda «yer unumdorligini pasayib borish qonuni» haqida qarashlarni tanqid qildi, yer rentasining vujudga

kelishining ikkita sababi borligini – yerga xususiy mulkchilik monopoliyasi va yerga xo‘jalik yuritish obyekti sifatidagi monopoliyadan kelib chiqib absolyut va differensial rentalar haqidagi qarashlarga oydinlik kiritdi. U agrar masalaga doir qarashlarida mayda dehqon xo‘jaliklari barqarorligi haqidagi konsepsiyani tanqid qilib, yerni millilashtirishning iqtisodiy-ijtimoiy afzalligini asoslab chiqdi.

Lenin o‘zining «Imperializm-kapitalizmning yuqori bosqichi» asarida kapitalizm o‘z taraqqiyotida monopolistik bosqichga o‘tib chiqqanini, bu bosqichda iqtisodiyot va ijtimoiy hayotning hamma jabhalarida monopoliyalar hukmronlik qilishi natijada erkin raqobat barham topishi, bu oqibatda jamiyatning inqirozga yuz to‘tishini bildirishi, endi u o‘zidan ko‘ra ilg‘orroq ijtimoiy tuzumga moddiy zamin tayyorlashi sotsializmning arafasiga aylanishi haqidagi g‘oyalarni ilgari surdi.

Leninning bir qancha asarlarida sotsialistik jamiyatning nazariyasi va uni barpo etishning amaliy yo‘llarini ishlab chiqildi. U Rossiyadagi sotsialistik inqilobning (1917) amalga oshirishning tashkilotchisi va rahbari, birinchi proletar hukumatining raisi darajasida faoliyat ko‘rsatdi. U sotsializmga o‘tish davri ko‘p ukladli bo‘lishi, ishlab chiqarish vositalarida umumxalq va kooperativ mulkchilik xarakteri bo‘lishi, jamiyatning bir markazdan, rejalashtirish asosida boshqarilishi, ilmiy-texnika taraqqiyoti va mehnatni tashkil etishning sotsializmga xos usullari, mehnat unumdorligini joriy etish kabi qator masalalarda o‘z qarashlarini bayon etadi.

4. Marksizm iqtisodiy ta’limotining tarixiy taqdiri.

O‘tgan asrning 90-yillari boshlarida marksizm ta’limoti, uning asosiga qurilgan sotsialistik xo‘jalik tizimi inqirozga yuz tutdi, SSSR va boshqa bir qancha mamlakatlardagi sotsializm tuzumi parchalanib ketdi. Bu mamlakatlar bozor munosabatlariga asoslangan yangi iqtisodiy tuzumga o‘ta boshladilar. Bu hol marksizm iqtisodiy ta’limotining tarixiy taqdiri haqida mulohaza qilishga undaydi. Bunday tarixiy voqealikning sodir bo‘lishi obyektiv haqiqatmidi yoki qandaydir tasodifiy bo‘ldimi degan savollar o‘rtaga tashlandi.

Aslida, marksizm ta’limotining va sotsialistik xo‘jalik tizimining inqirozi tarixiy zarurat va obyektiv haqiqat edi, deyish uchun bugun ilmiy asoslarga egamiz. Zero, ta’limotning o‘z zaminida tarixiy taraqqiyotga zid keluvchi jihatlar mavjud edi. Bular jamiyatning hukmron sinf-umumxalq mulkiga

asoslangan iqtisodiy tizimning yaratilishi, iqtisodiyotni va butun ijtimoiy siyosiy hayotni yagona kommunistik mafkura bilan boshqarilishi, xususiy mulkning har qanday ko'rinishini inkor etilishi, raqobatchilik muhitining yo'qotilishi, uning o'rniga sotsialistik musobaqa degan munosabatning joriy qilinishi, tovar ishlab chiqarish va tovar-pul munosabatlarining sotsializm uchun mutlaqo yot deb e'lon qilinishi, tadbirkorlik va ishbilarmonlikka yo'l berilmaganligi, ma'muriy-buyruqbozlik va markazlashtirilgan rejalashtirish tizimining qat'iy belgilab qo'yilishi, o'z imkoniyatiga qaramay boshqa davlatlar ham sotsialistik yo'lga kirishlari uchun ularga iqtisodiy yordam berilishi va qo'llab-quvvatlanishi, asossiz ravishda qurollanish poygasida ishtirok etilishi. «AQSH ga yetib olish va undan o'zib ketish uchun» kurashga kirishi va boshqalardir. Boshqacha aytganda, umuminsoniy taraqqiyotga zid keluvchi omillarni asos qilib olinishi jamiyat va davlatning inqiroziga olib keldi.

To'g'ri, sotsialistik taraqqiyotning dastlabki davrlarida mamlakatda biroz iqtisodiy rivojlanish bo'ldi ham. Bu o'sishga, asosan, iqtisodiy dastaklar vositasi bilan emas, balki ekstensiv (resurslarni tejamsiz iste'mol qilish) usulidan foydalanish bilan erishildi. Katta resurslarni jalb qilish evaziga og'ir sanoatning ustuvor rivojlanishiga urg'u berildi, xalq iste'moli tovarlari va aholiga maishiy xizmat ko'rsatish sohalariga kam e'tibor berildi. Bu esa aholi moddiy farovonligining o'sib borishiga to'sqinlik qildi, sovet xalqining turmush darajasi G'arbdagi davlatlardagi turmush darajasidan keskin orqada qolaverdi. Bu, o'z navbatida, xalqning tuzumga, davlatning iqtisodiy siyosatiga noroziligini uyg'otayotgan edi. Bularning hammasi sotsialistik tuzumning, sotsialistik sistemaning barbod bo'lishiga olib keldi. Bugungi kunda sobiq Ittifoq o'ramidagi mustaqil davlatlar bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyat qurish tomon rivojlanib bormoqdalar. Bozor munosabatlari yo'li bilan rivojlanish esa umuminsoniy qadriyatlariga va taraqqiyot tendensiyasiga muvofiq keladi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Marksizm iqtisodiy ta'limoti qanday tarixiy shart-sharoitlarda vujudga kelgan edi?
2. Marksizm iqtisodiy ta'limotining asosiy jihatlari nimalar edi?
3. «Kapital» asari va unda ilgari surilgan nazariy masalalar nima?
4. Lenin iqtisodiy qarashlarining asosiy jihatlari tushuntiring.

TAYANCH IBORALAR:

Marksizm iqtisodiy ta'limoti. Marksizm ta'limotidagi tayanch nazariya, u kapitalistik iqtisodiy tizimning asoslarini, uning ishlab chiqish munosabatlarini, iqtisodiy tizimning tahlili va yangi jamiyat vujudga kelishining iqtisodiy qonuniyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Marksizm mustaqil dunyoqarash sifatida o'sha davrning yetakchi siyosiy kuchi bo'lgan proletariatning mafkurasini tashkil etadi.

«**Kapital**». K. Marksning bosh iqtisodiy asari. Unda K. Marks mavjud kapitalistik jamiyat iqtisodiy organizmini tahlil etgan. Uning iqtisodiy asoslarini, takror ishlab chiqarish xususiyatlarini, iqtisodiy qonunlari va kategoriyalari mazmunini va harakat mexanizmini ochib beradi. Asarda xususiy mulkchilikka iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotni bo'g'ib turuvchi, jamiyatdagi barcha ziddiyatlarning bosh sababchisi deb qaraladi. Asar 4 ta jilddan iborat bo'lib, 1-jildda qo'shimcha qiymat ishlab chiqarish, 2-jildda kapitalning aylanishi, 3-jildda kapitalni ishlab chiqarish va muomala jarayonining birgalikda olingan harakati o'rganilgan. «Kapital»ning 4-jildi qo'shimcha qiymat haqidagi nazariyalar tanqidiga bag'ishlangan. Kitobning birinchi jildigina 1867- yilda, Marks hayotligida nashr etilgan, keyingi jildlari Marks vafotidan keyin nashr etilgan.

Qo'shimcha qiymat. K. Marks tomonidan iqtisod fanida qilingan ilmiy ixtiro deb ta'rif etiladi. Qo'shimcha qiymat, Marks ta'limotiga ko'ra ishchilar tomonidan qo'shimcha ish vaqtida yaratilgan qo'shimcha mahsulotning kapitalistlar (mulkdorlar) tomonidan tekinga o'zlashtirib olingan alohida ijtimoiy shaklidir. Qo'shimcha qiymat miqdori korxonalarda ishlayotgan yollanma ishchilar soni va ularni mehnat unumdorligiga bog'liq bo'ladi. Marks qo'shimcha qiymatning ikki xil shaklini ko'rsatdi: nisbiy qo'shimcha qiymat va absolyut (mutlaq) qo'shimcha qiymat. Lekin ularning birligi mavjud, ya'ni nisbiy qo'shimcha qiymat absolyut qo'shimcha qiymatdir, absolyut qo'shimcha qiymat nisbiy qo'shimcha qiymatdir.

«**Anti-Dyuring**». Marksizm ta'limotining asoschilaridan biri, Marksning do'sti va safdoshi F. Engelsning asosiy asari. Unda marksizm ta'limotining har uchchala tarkibiy qismlari haqida fikrlar, qarashlar bildirilgan. Bu asarda siyosiy iqtisodning tor va keng ma'nolardagi ta'riflari berilgan. F. Engels marksizm ta'limotining ishlab chiqilishi va targ'ib etilishida katta xizmat qilgan. U marksizmda birinchi bo'lib iqtisodiy qarashlarni ilgari surgan edi. Uning «Angliyada ishchilar sinfining ahvoli» nomli asari ilk iqtisodiy asardir.

«**Kapital**»—kapitalistik jamiyatning asosiy iqtisodiy kategoriyasidir. «Kapital», Marks ta’biri bilan aytilganda, qo‘shimcha qiymat yaratish uchun avanslangan, doimo harakatda, aylanishda bo‘lgan, o‘z-o‘zidan ko‘payib boruvchi, qiymat yaratish va qiymatning o‘shishiga manba bo‘lib xizmat qiladigan qiymatdir. Marks kapitalni ikki jihatdan bo‘linishini ko‘rsatgan: aylanish xarakteriga ko‘ra asosiy va aylanma kapitaldan, qo‘shimcha qiymat keltirishga qarab doimiy va o‘zgaruvchi kapitaldan iboratdir.

Takror ishlab chiqarish. Marks takror ishlab chiqarishning zarurligini, uning mohiyatini, shakllarini, xususan, takror ishlab chiqarishning kapitalistik ijtimoiy shakllarini ko‘rsatgan. Takror ishlab chiqarishning umumiy iqtisodiy ma’nosi shuki, odamlar jamiyat ehtiyojlarini qondirish, ya’ni ularni iste’moli doimiy ravishda takror va takror bo‘lib turishi tufayli, ishlab chiqarishning takrorlanishi, yangilanishi xarakteriga ega. Umumiy iqtisodiy jarayon sifatida u oddiy takror ishlab chiqarish va kengaytirilgan (qo‘shimcha mahsulot yaratiladi) shakllaridan iborat, ya’ni ijtimoiy mahsulotni bir xil miqdorda ishlab chiqaraverish va uni ko‘paytirib, yaratish jarayonidan iborat bo‘ladi. Tabiiyki, K. Marks bu jarayonni kapitalistik tuzum nuqtayi nazaridan o‘rganadi va uni oddiy kapitalistik takror ishlab chiqarish va kengaytirilgan (qo‘shimcha qiymat yaratadigan) kapitalistik takror ishlab chiqarish ko‘rinishlarida bo‘lishini ta’riflagan.

Ish haqi. Marksizm ta’limotiga ko‘ra, ish haqi yollanma ishchining ish kuchi qiymatining puldagi ifodasidir. Ishchi yaratgan zaruriy mahsulotning kapitalistik ijtimoiy shaklidir. Marks ta’biri bo‘yicha, bu tuzumda ish haqi har doim zaruriy mahsulotdan miqdoran kam bo‘ladi. Buning sababi, deb u ish kuchiga talabning uning taklifidan doimo ortiqcha bo‘lishini ko‘rsatadi. Bundan u ishchilar sinfi qashshoqlashib boradi, degan xulosa chiqargan. Biroq bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatlar taraqqiyoti ko‘rsatdiki, Marks xulosalari ilmiy va amaliy jihatdan noto‘g‘ri bo‘lib chiqdi.

X bob MARJINALIZM TA'LIMOTI

1. Marjinalizm ta'limotining mohiyati. Avstriya iqtisodiy maktabi ta'limoti.

XIX asrning 70-yillaridan «Siyosiy iqtisod» faniga «Avstriya iqtisodiy maktabi» deb atalgan yangi oqim kirib keldi. Aslida bu yangi oqim ijodkorlari K. Marks asos solgan «Proletar siyosiy iqtisodi»ga muqobil ta'limot sifatida ilgari surilgan, u marksizm iqtisodiy dunyoqarashining deyarli barcha asosiy ta'limotlariga tamomila qarama-qarshi bo'lgan qarashlar bilan chiqqan edi. Avstriya maktabiga asos solgan yangi ilmiy yo'nalish siyosiy iqtisodda «marjinalizm» deb nom oldi.

«Marjinalizm» fransuz tilidagi «marjinal» so'zidan olingan bo'lib, «eng yuqorilik», «chegaraviylik» degan ma'nolarni bildiradi. Marjinalizmning bosh iqtisodiy g'oyasi – iqtisodiy munosabatlarning tahlilini obyektiv moddiy asosga emas, aksincha, iqtisodiyot subyektlarining subyektiv psixologik (ruhiy) xarakteriga ko'chirish edi. Oqibatda, tovar va xizmatlarning qiymati ularni ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq ijtimoiy-zaruriy vaqti bilan emas, balki iste'mol qiymatlarining noyobligi, cheklanganligi bilan baholanar, pirovardda esa, ularning «eng yuqori nafiligi», «yuqori darajadagi foydaliligi» bilan izohlanar edi. Bu oqim ta'limoti zahirida, avvalo, alohida subyektiv his-tuyg'u hamda «iste'mol talabi», «narx-navo» kabi masalalar markaziy o'rinda turadi. Bu yangi oqimga Avstriya iqtisodchilari tomonidan asos solinganligi uchun unga Avstriya maktabi ta'limoti nomi berilgan edi. Bu maktabning yetuk namoyandalari K. Menger (1840-1821), F. Vizer (1851-1826), E. Bem-Baverk (1851-1814) kabi yirik iqtisodchilar edilar. Aytish kerakki, Avstriya maktabi ta'limotlariga mos ravishda ayni bir tarixiy davrda «eng yuqori nafililik», «yuqori foydalilik» nazariyalari bilan angliyalik nazariyotchi S. Jevons, Kembrij maktabi asoschisi A. Marshall, amerikalik iqtisodchi J. B. Klark siyosiy iqtisod olamiga kirib keldilar. Bu esa, tabiiyki, marjinalizm ta'limotining u yoki bu ilmiy masalalarda turlicha talqinlar, har xil izohlar bilan chiqishiga olib keldi.

Marjinalizmning mafkuraviy vazifalari doirasiga quyidagicha yondashuv xarakterli edi:

1) bozor iqtisodiga asoslangan yangi iqtisodiy munosabatlarni abstrakt-lashtirish, ularni har qanday chuqur ziddiyatlardan holi deb qarash ya'ni bozor munosabatlari keltirib chiqaruvchi ziddiyatlarni yashirish, xaspo'shlash;

2) ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonidagi obyektiv inqirozlarni inkor etish;

3) bozor munosabatlarining iqtisodiy qonunlari harakatini ruhiy subyektivlik asnosida tushuntirish;

4) iqtisodiy munosabatlar tahlilini alohida olingan xo‘jalik asnosida o‘rganib, undan umumiy xulosalar chiqarishga urinish.

Biroq, e‘tirof etish kerakki, bu ta‘limot ma‘lum tarixiy davrda kapitalistik bozor munosabatlarining rivojlanishiga nazariy asos bo‘ldi, zero u bozorni ideallashtirgan edi. Siyosiy iqtisod faniga bir qancha iqtisodiy kategoriyalar, tushunchalar, iqtisodiy tahlilning yangicha uslubiyatini (ommaviy xo‘jalik munosabatlarini emas, ayrim, alohida olingan xo‘jalik tahlili «Robinzonada usuli») olib kirdi.

Agar marjinalizm ta‘limotining metodologik nazariy zaminiga e‘tibor qilinsa, ma‘lum bo‘ladiki, birinchidan, uning tayanch g‘oyasi subyektiv –psixologik usuldir, ya‘ni iqtisodiy hodisalarga subyektiv (ayrim subyekt, shaxs, inson) tomonidan yondashuvdir; ikkinchidan, bozor iqtisodiyotida odamning iste‘mol ne‘matlariga baho berishda ratsional yondashuvdir (maqsadga muvofiq, o‘z shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqilgan yondashuv); uchinchidan, iste‘mol ne‘matlarining noyobligi, cheklanganligi hamdir.

Yuqorida aytilganidek, marjinalizm ta‘limotini vujudga kelishi va rivojlanishida Avstriya maktabi muhim o‘rin tutadi. Bu maktab o‘z tadqiqotiga asos qilib bozorning sabab-oqibatli, subyektiv iroda mexanizmini oladi. Avstriya maktabi tarafdorlari tovarning qiymat asosini uning qiymati ham, hatto iste‘mol qiymati ham belgilamaydi, balki baholar zaminida buyumning foydaliligi yoki nafililigi yotadi deyдилar. Ularning fikriga ko‘ra, buyumning naflilik darajasi uning cheklanganligiga bog‘liq bo‘ladi, u esa iqtisodiy voqea, jarayonning ratsional (maqsadga muvofiq) qatnashchilarida shakllanadi, cheklangan naflilik eng so‘nggi, oxirgi iste‘mol ne‘matining naflilik bilan ya‘ni, unga biror bir iste‘molchi- individium bergan baho bilan tavsiflanadi.

Masalan, K. Menger o‘zining cheklangan naflilik nazariyasini «Siyosiy iqtisod asoslanmasi» nomli asarida bayon etib aytadiki, qandaydir ne‘matning cheklangan foydaliligi ikki omil bilan belgilanadi:

- birinchi omil –yakka, alohida individ iste‘molining intensivligi ;
- ikkinchi omil -qandaydir ne‘matning noyobligi, cheklanganligi yoki mavjud ne‘mat zaxirasi.

Bundan ma‘lum bo‘ladiki, mavjud ne‘matning cheklangan zaxirasi sharoitida iste‘mol qilish qancha tez bo‘lsa, uning naflilik yuqorilashgani

sababli individ bu buyumni shuncha yuqori baholaydi, . Aksincha, iste'mol qilish qanchalik sekinlashsa, sust borsa, ratsional subyekt (iste'molchi) o'sha buyumga shuncha past baho belgilaydi, uning zaxira hajmi ham naflilik darajasini belgilab beradi.

Iste'mol hajmining zaxirasi qanchalik kamayib borsa, mavjud iste'mol intensivligi sharoitida ne'matning cheklangan nafiligi ortib boradi. Ayni chog'da, ne'matning miqdori qanchalik ortib borsa, cheklangan naflilikning individual bahosi ham pasayib boraveradi. Shu bilan birga, K. Menger cheklangan naflilik omillarini tahlil etar ekan, unga tovarlar narxining ta'sirini inkor etadi.

Avstriya maktabining yana bir yirik vakili Bern Baverkdir. Uning g'oyalari «kapital va foyda» asosida bayon etilgan, uning ta'limotidagi asosiy qoidalar quyidagilardir:

- cheklangan naflilik bahoni bevosita (talab orqali) emas, balki bilvosita belgilaydi, ular o'rtasida ma'lum tebranishlar chegarasini aniqlash orqali belgilanadi ;

- u yoki bu iste'mol ne'mati bozor bahosining yuqori maksimal chegarasini, uning nafiliginu iste'molchining subyektiv bahosi belgilaydi, bu chegaradan nariga o'tolmaydi, aks holda iste'molning pasayishi yuz beradi;

- buyumning eng past, minimal baho chegarasiga sotuvchining o'z tovari naflilikiga subyektiv bahosi bog'liq bo'ladi. Boshqacha aytganda, tovarning bozor bahosi iste'molchi va sotuvchining o'zaro manfaatlari to'qnashuvi asosida belgilanadi.

Xo'sh, marjinalizm ta'limotining ijobiy jihatlari, iqtisod faniga qo'shgan tarixiy hissasi nimadan iborat bo'ldi?

1) Siyosiy iqtisod fani e'tiborini konkret bozor munosabatlari muammolarini o'rganish zaruriyatiga burdi, ya'ni uni iste'mol va taklifga, baholar shakllanishining amaliy jihatiga qaratdi.

2) Buyumlarning noyobligi, chegaralanganligi muammosini o'z nazariyasi asosiga qo'shib, jamiyat va tabiatda iste'mol resurslar cheklanganligi, ularni takror ishlab chiqish muammoli masala ekanligiga e'tiborni tortdi. Bu fikr, albatta, real amaliy ahamiyat kasb etdi.

3) Iqtisodiy munosabatlar mohiyatini belgilashda subyektiv psixologik yondashuvni ilgari surib, haqiqatda ham psixologik ta'sir iqtisodiyot qatnashchilari faoliyatida katta ahamiyat kasb etishini ko'rsatib berdi. Bugun bu ta'sirning aniq mavjudligini hech kim rad eta olmaydi.

4) Marksizm iqtisodiy ta'limotiga muholif ta'limot sifatida marksizm nazariyasidagi juda ko'p chuqur ziddiyatli, noilmiy jihatlar borligini

siyosiy iqtisodda birinchi bo‘lib ochib tashladi. Undagi xatoliklarni, metodologik asoslarni ko‘rsatdi. Ana shularga asoslanib aytishimiz mumkinki, marjinalizm ta‘limoti siyosiy iqtisod fanida o‘z tarixiy o‘rniga va ahamiyatga ega ta‘limotlardan biri bo‘lib qoldi.

2. Kembrij iqtisodiy maktabi. A. Marshall ta‘limoti

XIX asrning oxiri XX asr boshlaridagi siyosiy iqtisodda yana bir yangi ilmiy yo‘nalish- neoklassik siyosiy iqtisod vujudga keldi. Bu yo‘nalishning asoschisi Kembrij universiteti professori A. Marshall (1842-1924) va uning izdoshlari bo‘ldilar. A. Marshall A. Smit va D. Rikardolarning klassik siyosiy iqtisod fanidagi yo‘nalishlarini o‘zining «Siyosiy iqtisod tamoyillari» kitobida tartibga soldi, umumlashtirdi va shu asnoda o‘zi yangi iqtisodiy maktabga asos soldi.

Kembrij maktabi, garchi umumiy tarzda Avstriya maktabiniing metodologiyasiga asoslangan bo‘lsa ham, («eng yuqori naflilik», «yuqori foydalilik», «cheklaganlik») bahoni tahlil etishda cheklangan naflilikning subyektiv baholash uslubi ustuvorligini rad etdi; shuningdek, «bahoning pirovard asosi ishlab chiqarish hujjatlaridir» degan klassik iqtisod g‘oyasidan voz kechdi. A. Marshall o‘z ta‘limotida cheklangan naflilik va ishlab chiqarish harajatlari nazariyasini yaxlit bir ta‘limotga aylantirishga harakat qilib, shunday xulosaga keladi: bahoni belgilashda na talab, na taklif belgilovchi ustuvor rol o‘ynaydi, balki ular bozor baholari shakllanishida barobar ahamiyatga ega bo‘ladi. U baho shakllanishining har uchala unsuri- talab, taklif va bahoning bir-biriga ta‘sirini o‘zaro bog‘liqlikda olib, tahlil qildi.

A. Marshall tushuntirdiki, bozor mexanizmi kuchli raqobat ta‘sirida amal qiladi, bu esa talab va taklifning bahoga bog‘liqligini kuchaytiradi. Ushbu qonuniyatni u shunday sharxlaydi: bozorda tovarlar bahosi ortsa, talab kamayadi, taklif esa ko‘payadi. Yoki pasaysa, talab ortadi, taklif esa qisqarib boradi. Demak, bozorda bahoning o‘zgarib borish jarayonida qandaydir muvozanatlik, ya‘ni muvozanat narx qaror topadi: ma‘lum tovarga yoki tovarlar guruhiga bo‘lgan talab uning taklifi bilan barobarlashadi. Bu yerda vaqt omili (uzoq yoki qisqa davr) maydonga chiqadi.

Baho shakllanishida vaqt omilini tahlil etib, xulosa qilinadiki, vaqt davomida talab va taklifdagi o‘zgarishlarning bahoga ta‘siri ham o‘zgaradi, ya‘ni goh talab, goh taklif muvozanatni buzib, bozorda boshqaruvchi vazifasini o‘taydi, qisqa muddatda talab ustuvorlik qilsa, uzoqroq davrda

taklif yetakchilik qiladi. Bundan ko'rinadiki, ma'lum muddat ichida taklif miqdori doimiylik qasb etadi, shunda talab baho tarkib topishining hal qiluvchi omiliga aylanadi. Bunday holatda baho ortadi. Natijada yuqori bozor bahosi bilan ishlab chiqarish harajatlari o'rtasida farq paydo bo'lib, ma'lum foyda olinadi. A. Marshall tadbirkorda vaqtincha vujudga kelgan qo'shimcha daromadni kvazirenta deb atadi. Biroq boshqa davr kelib taklif ortar ekan, baho pasayadi, kvazirenta yo'q bo'ladi.

Kembrij maktabining taklif ta'limotida yetakchi o'rinda cheklangan harajatlar g'oyasi yotadi. A. Marshall cheklangan harajatlar deganda ma'lum bir cheklangan, so'nggi, oxirgi tovarning ishlab chiqarish harajatlarini tushunadi. Bunda u cheklangan harajatlarini bozorga tovar chiqargan tadbirkorning cheklangan harajatlari bilan aralashtirib yuboradi. Demak, unda cheklangan harajatlar cheklangan taklif bilan bir qatorda turadi.

A. Marshall o'zining cheklangan harajatlar ta'limotida klassik siyosiy iqtisod yetakchisi A. Smitning daromadlardagi uch omil nazariyasiga suyanadi. U tadbirkorning cheklangan daromadida uch omil borligini- ish haqi, foiz va tadbirkorlik daromadini ko'rsatadi. Shunday mantiqdan kelib chiqib, u ishchini «ratsional subyekt» deb baholaydi, ishchi esa o'zining ishlab chiqarishdagi ishtirokini «plyus» yoki «minus» bilan baholaydi. Agar minus sifatida mehnat harajatlari hisoblasa, plyus tariqasida ishchining salbiy ehtirosini qoplovchi ish haqi turadi.

A. Marshall xuddi shunday tarzda pul kapitali egasining iqtisodiy holatini tavsiflaydi. Masalan, kapital egasi o'z pulini turli ne'matlarning cheklangan nafililigini nazarda tutib shaxsiy iste'moliga sarflashi yoki o'z shaxsiy halovatini qondirishni keyinroq muddatga kechiktirib, foiz olish maqsadida kapitalni ishlab chiqarishga sarflashi mumkin.

Shunday vaziyatni tahlil qilib, sahibkorning keyingi qarorini subyektiv xohishiga bog'liq ish deb, ikkinchi holni foydaliroq ish deb bilib, harakat qiladi deb tushuntiradi. Bunda tadbirkor daromadi ikki qismga ajratiladi: bir qismi sahibkorning firmani boshqargani uchun qilingan mehnatini qoplaydi, ikkinchi qismi noaniq: raqobat mavjud bo'lgan bozorga tovar ishlab chiqargani uchun tavakkalchiligini qoplaydi.

Kembrij maktabi ta'limoti XX asrning ma'lum davrigacha siyosiy iqtisodda ustuvor mavqeni egallab keldi. Alohida olingan iqtisodiy subyektning mikroiqtisodiy tahliliga asoslangan xulosalar bozor iqtisodiyotining ziddiyatlarini bartaraf qilolmasligini iqtisod ilmining keyingi davri ko'rsatib berdiki, endilikda makroiqtisodiy tahlil yordamida iqtisodiy taraqqiyotga erishish mumkinligini isbotlashga urinishlar bo'ldi.

3. Amerika iqtisodiy maktabi J. B. Klark ta'limoti.

Avstriya iqtisodiy maktabi asos solgan marjinalizm ta'limoti Amerika iqtisodiy maktabi tomonidan davom ettirildi, ma'lum ma'noda rivojlantirildi. Bu ilmiy maktabning asoschisi amerikalik professor J. B. Klark bo'ldi. U o'zining «Boylikning taqsimlanishi», «Iqtisodiy nazariyaning muhim belgilari» nomli mashhur asarlarida marjinalizm ta'limoticha o'ziga xos yondashdi. Biroq uning qarashlarida «cheklanganlik» g'oyasi makroiqtisodiy tahlil bilan boyitildi. U cheklangan kapital unumdorligi va cheklangan mehnat unumdorligi ta'limotiga sʻyanib, ishlab chiqarish va taqsimot tahlilini amalga oshirdi. Shundan kelib chiqib, siyosiy iqtisod predmetini «qisqartirib», uni faqat taqsimot munosabatini o'rganadigan fanga tenglashtirdi.

Klarkning taqsimot nazariyasi jamiyatdagi taqsimotni adolatga asoslangan, ziddiyatlardan holi bo'lgan munosabat bo'lishiga qaratilgan mulohazalar bildirdi. Buning uchun u ishlab chiqarishning har bir omiliga yaratilgan daromadga qo'shilgan hissasiga qarab taqsimlanishi kerak, degan fikrni ilgari surdi.

Klark siyosiy iqtisod fanida xo'jalik hayotining statikasi va dinamikasi haqidagi g'oya bilan chiqqanligi ham yangilik bo'ldi. U statika deganda bozor iqtisodiyotining muvozanatini o'rnatishga xizmat qiluvchi sharoitlarni inobatga olishni tushundi. Bunga asos bo'lib quyidagi omillar xizmat qiladi: texnika taraqqiyotining yo'qligi va ishlab chiqarish sohalari o'rtasida mehnat va kapitalning erkin harakat qilishi, bu sohalarda foydalanilayotgan mehnat va kapital miqdorining doimiyligi, iste'mol mollariga talabning o'zgarماسligi va erkin raqobatning hukmronlik qilishi. Taxmin qilinadiki, iqtisodiyotda bir emas, bir necha doimiy muvozanat bo'lib, ular uchun o'zgarماس mehnat va kapital harakati xarakterli bo'ladi. Yuqorida ko'rsatilganlardan birortasining yetishmasligi yoki yo'q bo'lishi iqtisodiyotda muvozanatning buzilishiga sabab bo'ladi, iqtisodiyot harakatga kelib yangi statik holatga qaytadi. Dinamika ana shu statik holatning sabablarini ko'rsatadi.

-Iqtisodiyotda uchta figura qatnashadi, - deb ta'lim beradi Klark, Bular- pul egasi (kapital), ishchi va tadbirkor. Bu yerda pul egasi foiz olish maqsadida o'z kapitalini ishlab chiqarish vositalariga aylantiradi, ishchi ish haqi olish ilinjida o'z kuchini sarflaydi, tadbirkor esa bozor muvozanati sharoitida ishlab chiqarish tashkilotchisi sifatida harakat qiladi va xuddi ishchi kabi ish haqigagina ega bo'ladi. Ishlab chiqarish statik holat

bo'lganda uning foydasi nolga teng bo'ladi, zero baho ish haqi va foizdangina tarkib topadi. Iqtisodiyotda ish dinamik harakatda bo'lganda tadbirkorda o'zgarish ro'y beradi, u yangilik yaratuvchi, texnika taraqqiyotini jadal-lashtiruvchi, ishlab chiqarish harajatlarini qisqartirib, qo'shimcha daromad oluvchi shaxsga aylanadi. Bu qo'shimcha daromadni Keyns sohibkorlik daromadi deb ataydi.

Klark, o'z navbatida, marjinalistik konsepsiyadan kelib chiqib, mehnat va kapital unumdorligining pasayib borishi qonuni asosida ishlab chiqarish omillarining cheklangan nafiligi haqidagi o'z qarashlarini bayon etadi. Masalan, u mehnat unumdorligini qanday qilib pasayib borishi qonuniga amal qilish mexanizmini tasvirlaydi. Bunda pul kapitali doimiy miqdor deb olinadi, har bir yangi qo'shimcha ishchi esa kamroq mahsulot yaratadi, ya'ni mahsuloti sifati pasaya boradi. Bu shunga olib boradiki, ertami yoki kechmi ishga yangidan kelgan ishchi cheklangan unumdorlikka ega bo'ladi, u bozor bahosidagi mahsulotga teng mahsulot ishlab chiqaradi, holos. Uning unumdorligini cheklangan unumdorlik, uning ishlab chiqargan mahsulotini cheklangan mahsulot deb ataydi.

Uning fikricha, bundan keyingi ishlab chiqarishni davom ettirish samarasizdir, tadbirkor uchun bu faoliyat foydasizdir. Chunki endi ishchiga o'zi yaratgan mahsulot qiymatidan ko'proq qiymatda ish haqi berishga to'g'ri keladi yoki ishchi foydasiga kapital va foizni qayta taqsimlash zarurati vujudga keladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha ishlab chiqarish omillari o'z hissalariga teng ravishda daromad oladilar. Demak, Klark ta'limoti bo'yicha, erkin iqtisodiyot sharoitida sohibkor hech kimni ekspluatatsiya qilmaydi, zero daromadlar adolatli taqsimlanadi.

Klark ta'limotidagi adolatlilik g'oyasining ilmiy asoslanmaganligi shundaki, eskidan ishlayotgan ishchilar qo'shimcha mahsulot ishlab chiqaradilar, biroq yangi ishchi qo'shimcha daromad yaratmaydi. Ko'rinib turibdiki, u o'z iqtisodiy g'oyasi uchun «tuproq unumdorligining pasayib borish qonuni»dan nusxa ko'chirgan. Aslida yerga nisbatan to'g'ri agrotexnik tadbirlar qo'llanilib borilsa, uning unumdorligi pasaymaydi, balki ortib boradi. Buni industrial jihatdan rivojlangan mamlakatlar, xususan, G'arbning Shimoliy mamlakatlari tajribasi ham isbotlab turibdi.

Klark ta'limotining boshqa iqtisodiy maktablar qarashlaridan farqi shundaki, agar boshqalar so'nggi naflilik nazariyasini ayrim olingan iqtisodiyot subyekti misolida talqin qilgan bo'lsalar, u bu tahlilni makroiqtisodiyot darajasiga ko'tardi, o'z ta'limotini ijtimoiy adolat nuqtayi nazaridan turib bayon etdi. Bunday yondashuv oqibatida ijtimoiy mehnat

(xalq xo'jaligida band bo'lganlarning umumiy soni), ijtimoiy kapital (ijtimoiy ishlab chiqarishga avanslangan barcha kapital hajmi) va befarqlik zonalari kabi yangi tushunchalar iqtisodiy fanga olib kirildi. Bu kategoriyalar, o'z navbatida, ijtimoiy mehnatning va ijtimoiy kapitalning cheklangan birligi kabi tushunchalarni keltirib chiqaradi.

Amerika maktabi ta'limoti ma'lum bir nazariy va amaliy kamchiliklardan holi bo'lmasa-da, u siyosiy iqtisodning keyingi davrida rivojlanishga, yangi iqtisodiy ta'limotlarning vujudga kelishga rag'batlantirdi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Avstriya maktabi va uning asoschilari nazariyalarini tushuntirib bering.
2. Marjinalizm ta'limotiga izoh bering.
3. Kembrij maktabi ta'limotidagi asosiy yangiliklar nimadan iborat edi?
4. A. Marshallning nazariyasi nimasi bilan ajralib turadi?
5. J. B. Klark iqtisodiy nazariyalarining mazmunini tushuntirib bering.

TAYANCH IBORALAR:

Marjinalizm- «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi»dagi alohida ilmiy yo'nalishga asos solgan ta'limotdir. Uning lug'aviy ma'nosi «eng yuqori», «chegara» demakdir. Bu ta'limot tovar qiymatini ijtimoiy zaruriy mehnat emas, uning cheklanganligi, noyobligi, eng yuqori nafilligi yoki «yuqori foydaliligi» belgilaydi deb qaraydi.

Subyektiv- psixologik tahlil usuli- marjinalizm tayanch nazariy g'oyasidir, ya'ni iqtisodiy jarayonlarga subyektiv (ayrim subyekt timsolida) nuqtayi nazaridan yondashuv. Iqtisodiyotda odamning iste'mol ne'matlariga baho berishda ratsional (o'z shaxsiy manfaatidan kelib chiqib) yondashuvi.

«Eng yuqori foydalilik», «yuqori nafillik»- Avstriya maktabining siyosiy iqtisodga olib kirgan yangi iboralari. Bunga ko'ra tovarlar va xizmatlarning bosh xususiyati ularda gavdalangan qiymat emas, balki ularning foydaliligidir, ehtiyojlarning qondirishdir. Tovarning nafilligi, uning chegarasini iste'molchining subyektiv bahosi belgilaydi, bu chegaradan u nariga o'tolmaydi.

Marshall nazariyasi- unda cheklangan nafillik va ishlab chiqarish harajatlari nazariyalarini yaxlit bir ta'limotga uyg'unlashtirish o'z ifodasini

topdi. Bahoni belgilanishida na talab, na taklif ustuvorlik qiladi, balki ular bab-baravar ahamiyatga ega bo'ladi. Bozor bahosining shakllanishida ularning o'zaro ta'siri rol o'ynaydi. U muvozanat narx, cheklangan harajatlar g'oyalarini ilgari surdi.

Klark ta'limoti- U siyosiy iqtisodda iqtisodiy hayotning statikasi va dinamikasi haqidagi g'oyalar bilan chiqdi. U iqtisodiyot statik bo'lganda tadbirkor daromadi nolga teng bo'ladi, dinamik bo'lganda tadbirkor qo'shimcha daromad- sohibkorlik daromadi oladi, deb tushuntiradi. U mehnat va kapital kabi omillar unumdorligining pasayib borish qonunini izohlashga urindi, cheklangan unumdorlik, cheklangan mahsulot kabi iqtisodiy atamalarni talqin etdi.

XI bob KEYNS TA'LIMOTI. YANGI KEYNSCHILIK

1. J. M. Keynsning iqtisodiy ta'limoti. Umumiy bandlik va samaradorlik haqidagi qarashlari

XX asr insoniyat sivilizatsiyasi tarixida juda ko'p tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan voqealar, katta ilmiy-texnik ixtirolar, yangi iqtisodiy ta'limotlar va siyosiy o'zgarishlar davri bo'ldi. Ana shu tarixan qisqa davrda yangi bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzum (sotsializm) vujudga kelib, jahon sistemasiga aylanib, inqirozga yuz tutgan, tamomila yangi iqtisodiy munosabatlarga keskin o'sib o'tish jarayoni kechdi, xususan, iqtisodiy nazariyalar tarixida ham buyuk yangiliklar yaratildi. Ingliz iqtisodchisi J. M. Keyns ishlab chiqqan nazariya ana shu yangiliklardan eng muhimi, mukammali bo'ldi deyish mumkin. Bu nazariya tufayli uning muallifi buyuk iqtisodchilar safidan faxrli o'rin oldi. Uning iqtisodiy ta'limoti bir qancha asarlarda ishlab chiqilgan bo'lsa ham uni siyosiy iqtisod olamida mashhur qilgan kitobi «Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» (1936-yil) bo'ldi.

Keynsdagi ilmiy iqtisodiy yangilik - o'zidan oldingi iqtisodchilar iqtisodiyotni tahlil qilishning mikroiqtisodiy usulini taklif etgan bo'lsalar, u iqtisodiy tahlilning makroiqtisodiy usulini ishlab chiqdi, uni milliy iqtisodiyot darajasida amalda qo'lladi, iqtisodiyot nazariyasini, uning tahlil usulini yangiladi. To'g'ri, bu makroiqtisodiy tahlil qilishning ma'lum namunasini F. Kene XVIII asrda qishloq xo'jaligi va sanoat misolida, K. Marks XIX asrda kapitalistik tuzum iqtisodiyoti misolida ko'rsatgan edilar. Ulardan keyin iqtisodchilar faqat mikroiqtisodiy tahlilga o'tib olgan edilar, ya'ni ular ayrim olingan iqtisodiyot subyekti, korxonalar darajasidagi xo'jalik faoliyatini o'rganishib, butun iqtisodiyot uchun takliflar, xulosalar qildilar. Ularning nazarida bunday usul bilan iqtisodiyotni inqirozsiz rivojlantirish mumkin edi. Ular korxonada ishlab chiqarish va muomala harajatlarini kamaytirish, foyda olishni maksimallashtirish, korxonalariga investitsiyalar jalb etib, shu yo'l bilan kapital samaradorligini oshirish masalalari bilan shug'ullandilar. Biroq bunday yondashuv iqtisodiyot nazariyasida, iqtisodiyotda ma'lum siljishlar, o'zgarishlarga olib kelgan bo'lsa ham, ularning takliflari korxonalarni iqtisodiy inqirozdan asrab qololmayotgan edi. 1929-1933- yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi butun kapitalistik dunyoni, xususan AQSH iqtisodiyotini larzaga soldiki, bu siyosiy iqtisod fanida qandaydir yangi tahlil usulini kashf etishni taqozo

etar edi. Bunday ulug' sharafiga aynan J. Keyns, keynschilik, uning ilmiy izdoshlari muyassar bo'lishdi.

Keyns taklif etgan «makroiqtisodiy tahlil» usulining mohiyati nimada edi? U makroiqtisodiy ko'rsatkichlar- aholi daromadlari, ularning bandligi, ish haqi, investitsiyalar, jamg'arish, muomaladagi pul miqdori, narx-navo, foyda, foiz kabilar o'rtasidagi bog'liqliklarni ochib berdi. Zero, bu iqtisodiy ko'rsatkichlardagi o'zgarishlar o'z-o'zidan alohida iqtisodiyot subyektlarining ham butun milliy iqtisodiyotning ham barqaror rivojlanishi va iqtisodiy o'sishiga olib kelardi. Masalan, aholi daromadlarining ortib borishi ularning jamg'arishga, investitsiyalashga intilishiga sabab bo'ladi, buning natijasi o'laroq, aholi uchun yangi ish joylari yaratiladi v a. h. k.

Keyns talab va taklif masalasida ham yangicha yondashuv qildi, ya'ni oldingi iqtisodchilar (masalan J. B. Sey) ilgari surgan g'oyaga ko'ra, taklif o'z-o'zidan tovarga taklifni keltirib chiqaradi. Keyns ta'limotiga ko'ra esa iqtisodiyotdagi keskin muammolar ochilishi resurslar taklifi bilan emas, balki ularga talabdan axtarish lozim. Demak, talabni shakllantiradigan omillarni ishga solish zarur. Uning iqtisodiy g'oyasi psixologik omil bilan bog'lanadi, u iqtisodiyotda «asosiy psixologik qonun» amal qiladi, deb qaraydi.

Keyns ochgan ushbu qonunga ko'ra, aholi daromadlari o'sishi bilan odamlarda ko'proq iste'molga emas, aksincha, jamg'arishga moyillik tug'iladi. Boshqacha aytganda, odamlarning daromadlari ortgani sari, ularning daromadlarining bir qismi iste'mol qilinmay qoladi va bu qolgan daromad jamg'arilib boriladi, ya'ni iqtisodiyotni rivojlantirishga asqotishi real mumkin bo'lgan investitsiyaga aylana boradi. Mana shu jamg'arish moyilligi talab va taklif nisbatini o'zgartiradi, oqibati o'laroq makroiqtisodiyotda jami talab va jami taklifning o'zaro mos kelmasligi sodir bo'ladi, ya'ni ular o'rtasida uzilish yuzaga keladi. Bu uzilishni Keyns inflyatsiya va ishsizlik uzilishi deb ataydi.

Iqtisodiyotdagi taklif va talabning mos kelmasligi iqtisodiyotning mo'tadil rivojlanishiga halaqit beradi, bozor mexanizmi esa bunday nomutanosiblikni tartibga sololmaydi. Demak, bunday inqiroziy holatdan iqtisodiyotni qutqarish uchun tashqi omil ta'siriga muhtojlik seziladi. Bu tashqi omil iqtisodiyotga aralashuvi mumkin bo'lgan davlat va uning iqtisodiy siyosatidir. Keyns iqtisodchilardan birinchi bo'lib davlatning iqtisodiyotga aralashuvi lozimligi va uning tartibga solishga qodir kuch ekanligini payqadi. Keyns taklifi bo'yicha, davlat qo'lida kuchli iqtisodiy va siyosiy qudrat bor, u bu

qudrat orqali iqtisodiy o'zgarishlarni, islohotlarni rag'batlantiradi. U davlat vositasida ro'y beradigan iqtisodiy o'zgarishni obrazli qilib «t a l a b s a m a - r a s i» degan kategoriya bilan tavsiflaydi.

Ma'lumki, azal-azaldan aholini ish bilan band qilishga iqtisodiy va siyosiy barqarorlik omili deb qarab kelingan edi. Bu g'oya Sharqning buyuk daholari Amir Temur («Temur tuzuklari» asari), Nizom-ul-mulk («Siyosatnoma» asari) va boshqalar tomonidan qayd etilgan. Keynes ham yangi tarixiy davrda iqtisodiy o'sish va barqarorlikka erishish omili deb aholini band qilish va ishsizlikka barham berish deb bildi. Uning fikricha, aholining ish bilan bandligi taklif samarasi bilan, taklifning o'zi esa aholining jamg'arishga moyilligi va investitsiya sarflari bilan ta'minlanadi.

Keyns ixtiro qilgan «asosiy psixologik qonun» ta'sirida aholi daromadlarida iste'mol hissasi kamayib, jamg'arish hissasi ortib boradi. U bunday bog'liqlikni iste'mol o'sishining (ΔI) daromad o'sishiga (ΔD) nisbati bilan tavsiflaydi. Bu nisbat doimo 1 (bir) dan kichik bo'ladi, ya'ni:

$$\frac{\Delta I}{\Delta D} < 1$$

Masalan, ΔI_{q5} , ΔD_{q7} bo'lsa, bunda $5:7q0$, 7 ya'ni $0.7 < 1$ dir.

Keynsning umumiy bandlik nazariyasiga ko'ra, investitsiyalar investitsiyaga bo'lgan intilishga bog'liqdir. Jamiyatda aholi daromadlarining o'stirilib borilishi, investitsiyalar hajmining o'sishini keltirib chiqaradi. Shundan kelib chiqib, Keynes bandlikning umumiy hajmi uch omilga-«iste'molga moyillik», «eng yuqori samaradorlik» va «foiz normasi»ga bog'liq ekanini asoslagan.

Ayni chog'da, Keynes iste'mol masalasini ham e'tibordan chetda qoldirmadi. U iste'molni ikki omil bilan bog'laydi. Birinchidan, milliy daromad miqdoriga bog'liq, ikkinchidan, iste'molning qisqarishiga xalq moyilligi ta'sir qiladi. Shunday bog'liqlikdan kelib chiqib, u xulosa qiladiki, iqtisodiy o'sish ya'ni milliy daromadning bir maromda ko'payib borishi uchun aholi bandligini oshirib borish kerak, buning uchun esa yangi ish joylari ochishga investitsiyani yo'naltirish darkor. Aholi esa investitsiya uchun o'z daromadidan jamg'arib boruvchi kuchdir. Biroq Keynes milliy daromadning investitsiyalashgan qismining o'zgarishiga davlat bevosita ta'sir ko'rsatmaydi, degan xulosaga suyanadi.

2. Multiplikator nazariyasi.

Keyns ta'limotida bu nazariya ham muhim o'rin tutadi. Keyns iqtisodiyotda multiplikatsion jarayon boradi, bu jarayon investitsiyalar bilan bog'liqdir, deb ta'lim beradi. Investitsiya ish kuchi va boshqa resurslarni harakatga keltiradi, ishlab chiqarishni kengaytiradi, bu esa yangi daromadlar yaratilishi demakdir. Daromadlarning bir qismi jamg'arilib, investitsiyalashib yana ishlab chiqarish kengayadi, binobarin yana yangi daromadlar vujudga keladi va h. k. investitsiyalashuv oqibatida ishlab chiqarishning uzluksizligi yuz beradi.

Multiplikator ko'rsatkich sifatida uning koeffitsienti asos qilib olinadi. Bu koeffitsient daromadlarning o'sishi (ΔD) bilan investitsiya o'sishi (ΔI) o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Shunga ko'ra multiplikatsion

koeffitsient (K) aniqlanadi. Bunda $K = \frac{\Delta D}{\Delta I}$ dir. Bu koeffitsient

joylashtirilgan investitsiyalar daromadlarni qanchalik oshirishga olib kelganligini aniqlashga xizmat qiladi. Keyns buni shunday ta'riflaydi: $K \approx 2.5$ bo'lganda 1 dollar investitsiya summasi 2.5 dollar daromad keltirgan. Ayni paytda « K » iqtisodiyotda pasayishni ham ifoda etadi. Bu investitsiyalar qisqarishi bilan daromadlarning ham qisqarishini tavsiflaydi.

Mana shu multiplikatsion jarayonga ham davlat aralashishi kerak bo'ladi, ya'ni u korxonalariga budget hisobidan investitsiya yo'llab, iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Investitsion faollik eng ko'p daromad ta'minlanib turilganda davom etadi, daromadlar kamayib borar ekan investitsion faollik ham pasayadi.

Keyns o'z kitobida foizga oid qoidalarni ham sharhlaydi. Uning ta'limoti bo'yicha, foiz miqdori investitsion jarayonning chegarasi sifatida qabul qilinadi. Buning ma'nosi shuki, investitsiya keltiradigan daromad bank beradigan foiz miqdoridan kam bo'lmasligi kerak, aks holda pulni bankka qo'yib ko'proq daromad olish maqbulroq ko'rinadi. Keyns foizning ortishini ko'ngilsiz hol deb tushunadi, zero bu investitsion faollikni susaytiradi.

Shuni qayd etish kerakki, Keynsning umumiy bandlik g'oyasi hayotdan ajralgan abstraktsiya emas, balki real iqtisodiyot uchun qo'llanma ham bo'ldi. Bu ta'limot davlatning iqtisodiy faoliyatni kuchaytirishga oid amaliy takliflaridan iborat bo'ladi. Ma'lumki, ko'pgina G'arb davlatlari o'z iqtisodiy siyosatiga Keyns takliflarini asos qilib olib, iqtisodiy o'sish va barqarorlikni ta'minlab turadilar.

3. Yangi keynschilik. Akselyator nazariyasi. Postkeynschilik qarashlari.

Biz yuqorida Keyns nazariyasi, amaliyotdan uzoq ta'limot emasligini ta'kidlagan edik. Bu ta'limotning hayotiy kuchga ega ekanligini uning izdoshlari yangi sharoitlarda rivojlantirganda ham ko'rish mumkin. Natijada yangi keynschilik yo'nalishi vujudga keldi. Keyns izdoshlari (A. Xansen, M. Klark, R. Xorrod va boshqalar) o'z qarashlarida uning ikki xulosasiga suyandilar:

-iqtisodiyotda muvozanatni ta'minlash va iqtisodiy o'sishga erishish uchun davlatning iqtisodiyotga aralashishi zarurligi masalasi;

-iqtisodiy jarayonlarni o'rganishda makroiqtisodiy tahlilni qo'llash kerakligi masalasi.

Keyns g'oyalari uning davomchilari tomonidan rivojlantirilgan bo'lsa ham bir yo'nalishda bormadilar: ular o'ng, so'l va liberal oqimga bo'linib ketdilar. Agar o'ng oqim qurollanish, agressiv harakat orqali iqtisodiyotga turtki berishni yoqlab chiqqan bo'lsa, so'l oqim tarafdorlari milliy daromadni adolatli taqsimlash yo'li bilan iqtisodiy yuksalishga erishish mumkin deb hisoblashdi; uchinchi- liberal oqim esa qurollanishni inkor etib, yirik monopolistik birlashmalar manfaatlarini himoya qilib chiqdi.

Keyns izdoshlaridan biri AQSH iqtisodchisi S. Xarris Yangi keynschilikning ordodeksal yo'nalishiga asos soldi. U stagnatsiya nazariyasi bilan chiqdi. U davlatning iqtisodiyotni rag'batlantiruvchi kuchga aylanishi uchun soliqlarni oshirish lozim deb qarab, u multiplikator g'oyasini yangi fikrlar bilan boyitdi.

Yangi keynschilar multiplikator g'oyasini tahlil qilib, uni yangi akselerator g'oyasi bilan almashtirdilar. Multiplikator va akselerator g'oyalari o'rtasidagi farq shundaki, multiplikator g'oyasiga ko'ra investitsiyalarni qanday joylashtirishning ahamiyati yo'q, akseleratorga ko'ra, uning ahamiyati bor, ya'ni u bandlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirishga yo'naltirilmog'i ma'qul. Akselerator g'oyasi investitsiyalarning qanday ishlatish ahamiyatlirog'i kelib chiqib «industriyashgan investitsiya» degan yangi kategoriyani muomalaga kiritdilar. Akselerator g'oyasiga ko'ra, investitsiyalar innovatsion faoliyat (yangilik joriy etish orqali) bilan bog'liq bo'lishi va ishlab chiqarishni tarkiban o'zgartirishi lozim. Buning oqibatida aholi bandligi va daromadlarida katta tarkibiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Akselerator investitsiyalar o'sishining daromadlar o'sishiga-ta'siri investitsiyalashdan oldingi va undan keyingi daromadlarning farqlari o'rtasidagi

nisbat bilan belgilanadi. Boshqacha aytganda, akselerator (A), innovatsion o'sishning (ΔI) daromad o'sishi, ya'ni investitsiyadan keyingi (ΔD_2) va undan oldingi daromadli (D_1) farqqa ($D_2 - D_1$) aloqasini bildiradi. Bu bog'liqlik quyidagicha ifodalanadi:

$$A = \frac{\Delta I}{D_2 - D_1}$$

Yangi keynschilar Keynes ta'limotiga asoslanib, uni o'z davrining mukammal nazariyasi darajasiga ko'tardilar. Yangi keynschilik qarashlarining mohiyati, asosan, quyidagichadir: bozorning bir o'zi iqtisodiy muvozanatni ta'minlay olmaydi, bu ishni faqat davlat qiloladi, bozorning nuqsonlari va ziddiyatlarini faqat davlatgina bartaraf etishi mumkin. Davlat iqtisodiyotda muvozanatning buzilishini oldini oladi va buzilishiga yo'l qo'ymaydi. Ko'rinadiki, yangi keynschilik davlatning iqtisodiyotdagi o'rni va rolini mutlaqlashtirishga harakat qiladi.

Shuni aytish kerakki, tashqaridan qaraganda yangi keynschilikning davlatning iqtisodiy vazifasi masalasi ma'muriy-buyruqbozlik, rejali iqtisodiyot mohiyati bilan hamohang ko'rinadi. Aslida ularning mohiyati o'zgacha. Bilamizki, markazlashgan rejali boshqarish tizimida iqtisodiyotning barcha bo'g'inlari markazga, uning global maqsadi va manfaatiga bo'ysundirilgan, bunda iqtisodiyot subyektlarida hech qanday iqtisodiy erkinlik yo'q, ular o'rtasida raqobatchilik muhitiga yo'l qo'yilmagan, tovar ishlab chiqarish inkor etilgan va h. k. Bizning yaqin tariximiz tajribasi rejali, markazlashtirilgan boshqarish tizimining yaroqsizligini ko'rsatdi.

Yangi keynschilikka ko'ra, davlat iqtisodiyotni rejalashtirmaydi, balki tartiblashtiradi, u investitsiyalash jarayoni samaradorligini «eng yuqori unumdorligi» va foydaliligini rag'batlantirib turadi, holos. Bu ta'limotga ko'ra, davlatning iqtisodiyotga aralashishi cheklangan, ya'ni uning aralashuvi iqtisodiyot barqarorlashib olguncha davom etadi, iqtisodiyot to'g'ri, samarali yo'lga tushib olgandan keyin davlatning aralashuviga muhtojlik qolmaydi.

Aslida Keynes va uning izdoshlari taklif etgan nazariya iqtisodiyotda inqirozlarga yo'l qo'ymaslikni, barqaror, muvozanatli holatni saqlashni nazarda tutadi. Biroq ana shunga qaramay XX asrning deyarli 90-yillarigacha mintaqaviy va jahon iqtisodiy inqirozlari ro'y berib turdi. Bu esa keynschilik ta'limotini tanqidiy baholashga asos bo'ldi. Jumladan, postkeynschilik degan nazariya maydonga chiqib, Keynes ta'limotini jiddiy tanqid ostiga oldi. Ular «eng yuqori naflilik», «ishlab chiqarish omillarining eng yuqori unumdorligi» kabi qarashlarni tanqid qilib chiqdilar.

Postkeysnschilar metodologiyasida milliy daromadni taqsimlash muammosi markaziy o‘rin tutadi. Ular iqtisodiy o‘shish va barqarorlikni milliy daromadning taqsimoti bilan bog‘laydilar. Ulardagi yana bir yangilik shuki, jamiyatdagi barqarorlikning ta‘minlanishida tashqi omil-ijtimoiy institutlar (masalan, kasaba uyushmalari) muhim rol o‘ynaydi. Kasaba uyushmalari bandlik, ish haqi, daromadlar, ularning taqsimlash jarayonlaridan xabardor bo‘lgan ijtimoiy institut bo‘lganligi tufayli postkeysnschilar ularga katta umid bilan qaraydilar. Postkeysnschilar maqsadi iqtisodiyotni tartibga solish va daromadlar siyosati orqali inflyatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik edi. Biroq iqtisodiyotning to‘lqinli rivojlanishi tufayli iqtisodiyotda ziddiyatlarning yuz berishi, inflyatsiyaning u yoki bu darajada bo‘lishi obyektiv iqtisodiy haqiqatdir.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Keyns iqtisodiy ta‘limoti uning qaysi asarida mukammal bayon qilingan?
2. «Asosiy psixologik qonun» ning mohiyati nima?
3. Keynsning multiplikator nazariyasini qanday izohlaysiz?
4. Keyns daromadning o‘shishi me‘yori bo‘yicha iste‘molga bo‘lgan talabning eng so‘nggi qisqarishi nazariyasi haqida nimalarni bilasiz?
5. Yangi keysnschilik ta‘limotining asoschilari kimlar va ular qanday nazariyalarni ilgari surdilar?
6. Akselerator nazariyasini qanday tushunasiz?

TAYANCH IBORALAR:

Keyns Jon Meynard (1883-1946) – ingliz iqtisodichisi, 1929-1933-yillarda buyuk inqirozni tahlil etib, ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta‘minlash maqsadida davlat kapitalistik iqtisodiyotni boshqarishga asoslangan nazariyani yaratdi.

Keysnschilik. J. M. Keynsning fikrlarini ilgari suruvchi yo‘nalish. Unda uch oqim mavjud: birinchisi, o‘ng oqim – o‘ta reaksiya oqim, qurollanish tarafdori, tartibga solish takliflari bor. Germaniya va Italiyada keng tarqalgan; ikkinchisi, liberal oqim – monopoliya manfaatlarini himoya qiluvchi va qurollanishini inkor etuvchi oqim. Uning asosiy vakili Jenni Robinson

xonim, bu oqimda kasaba uyushmalariga keng o‘rin berilgan. Fransiyada «dirijizm» (dirijer so‘zidan olingan) nazariyasi vujudga kelgan; uchinchi, yangi keynschilik – keyinroq ortodoksal keynschilik – J. M. Keynsning qoidalari to‘la qabul qilingan holda A. Xansen tomonidan stagnatsiya nazariyasi bilan to‘ldiriladi. A. Xansen va V. Klark multiplikator prinsipi, akselerator prinsipi bilan to‘ldirdilar, «indusrlangan investitsiya» tushunchasini kiritdilar.

Multiplikator - qo‘shimcha bandlikning o‘shish koeffitsienti. Bir tomondan investitsiyalar o‘shishi, ikkinchi tomondan bandlik va daromadlarning o‘shishi o‘rtasidagi nisbat. Multiplikatorning formulasi

$$Kq \frac{dY_w}{dJ_w}$$

Investitsiyalar – iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda turli tarmoqlarga uzoq muddatli kapital kiritish (qo‘yish), kapital sarflar tushunchasiga to‘g‘ri keladi.

Makroiqtisodiy tahlil usuli- siyosiy iqtisodda iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishning yangicha usuli. Ungacha mikroiqtisodiy tahlil usuli hukmronlik qilardi. Yangicha tahlil usulining mohiyati shuki, u asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farqni tahlil qilib, ular o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir va bog‘liqliklarni ochib berdi.

Asosiy psixologik qonun. Keyns olgan yangi qonunlardan biri. Unga ko‘ra, odamlarning daromadlari ortib borgan sari, ularning jamg‘arishga moyilligi ham ortib boradi. Bu jamg‘armalar to‘planib investitsiyalashadi, ya‘ni yangi ish joylari ochiladi, bandlik ortadi, iqtisodiyotning uzluksiz taraqqiy etib borishi mumkin bo‘ladi. Unga ko‘ra aholi daromadlarida jamg‘arish ulushi ortib, iste‘mol ulushi pasayib boradi.

Yangi keynschilik. Keyns metodologiyasiga asoslangan ta‘limotini rivojlantirish va tanqidiy baholash vositasida ilgari surilgan yangi iqtisodiy ta‘limot. Yangi keynschilar multiplikator o‘rniga akselerator g‘oyasini ilgari surdilar. Akseleratorga ko‘ra investitsiyalarni qanday joylashtirish va iste‘mol qilish «indusrlashgan investitsiya» faoliyatini vujudga keltiradi.

XII bob. MONETARIZM NAZARIYASI. SOTSIAL- INSTITUTSIONALIZM VA LIBERALIZM TA'LIMOTLARI

1. Monetarizm nazariyasi.

Monetarizm nazariyasi Keyns ta'limotiga muqobil bo'lib, hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti nazariyasi sifatida o'tgan asrning 50-60- yillarida yaratildi, keyinchalik uning ko'p jihatlari boyitildi. U iqtisodiy ta'limotlar tarixida alohida o'rin tutadi. Unga AQSH iqtisochisi Milton Fridman tomonidan «Pulning miqdoriy nazariyasiga oid tadqiqotlar» nomli asarda asos solindi. Uning bosh g'oyasi, pul bozor iqtisodiyotida asosiy figura, uning harakatlantiruvchi kuchi, iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi iqtisodiy vositadir. Bu yerda pul shunchaki ulug'lanmaydi, hatto u fetishlantiriladi, ya'ni uningsiz hech qanday iqtisodiy faoliyat yo'q, u mo'jizaviy qudratga ega.

M. Fridman ta'kidlaydiki, erkin va xususiy tadbirkorlik o'rtasida ichki aloqadorlik, bog'liqlik mavjud, faqat iqtisodiy erkinlik sharoitidagina pul vositasida iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin; davlatning iqtisodiyotga aralashuvi bu erkinlikni buzadi, iqtisodiyotning o'z qonunlari vositasida o'z-o'zini tartiblashtirishga to'siqlik qiladi. Davlat faqat pul aylanishini nazorat qilib, baholarini va ishlab chiqarishning barqarorligini ta'minlab tursa bo'ladi, bozorning o'zi o'z mexanizmi bilan iqtisodiy jarayonni tartiblashtiradi.

Monetaristik ta'limotga ko'ra, pul muomalada yalpi talabni o'zgartirishga ta'sir etuvchi, hal qiluvchi vositadir. Pul massasi ortganda pulning odamlar aktivi tarkibidagi ulushi ham o'sadi. Buning oqibatida odamlar bu ulushni qisqartirishga, ya'ni pul sarfini kengaytirishga intiladilar. Bu esa narx-navoning va iqtisodiy faoliyatning o'sishiga olib keladi. Va nihoyat, buning natijasida pullar odamlar o'rtasida qayta taqsimlanadi va iqtisodiyotda barqarorlik tiklanadi. Demak, muomalada pul miqdorining ko'payishi ishlab chiqarish hajmining ortishiga xizmat qiladi. Pul miqdoriga nisbatan bunday qarashda Keyns fikriga o'xshashlikni ko'rish mumkin. Biroq Keyns bo'yicha muomaladagi pul miqdori foiz stavkasi vositasi orqali investitsion talabni oshiradi, demak iqtisodiy o'sishni ta'minlab turadi. Fridman ta'limotidagi o'ziga xoslik shundaki, jami talabning o'sishi ishlab chiqarish hajmining qisqa muddatlarda o'sishiga ta'sir qiladi, uzoqroq muddatda esa u baholar darajasiga ta'sir etadi. Biroq yalpi milliy mahsulotga ta'sir ko'rsatmaydi. Bu pulning miqdoriy ta'limotidagi yangicha talqindir.

Monetarizm ta'limotiga ko'ra, ularning ilmiy tadqiqoti inflyatsiyaga

yo'l qo'ymaslik va iqtisodiy muvozanatni ta'minlashga qaratilgan. Fridman inflyatsiyani sof pul hodisasi deb qaraydi, uni bartaraf qilish uchun budjetning taqchilligini qisqartirish, kasaba uyushmalari faoliyatini cheklash, aholining to'la bandligi siyosatidan voz kechish tadbirlarini qo'llashni tavsiya etadi. Shuningdek, buning uchun Markaziy bankning mustaqilligini ta'minlash va qisqa muddatli makroiqtisodiy tartiblashtirishdan voz kechish kerak. Pul miqdorining o'sishi yalpi milliy mahsulotning real ko'payishiga olib borishi darkor. Bunday holat «monetar qoida» nomini olgan edi. Yana shu narsa qoidaga kirishi kerakki, pul emissiyasi bir maromda borishi lozim. Shunda inflyatsiya cheklanishi, barqarorlik ta'minlanishi mumkin.

Monetarizm ta'limotiga ko'ra faqat Markaziy bankkina ishlab chiqarish bilan muomaladagi pul miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlab turadi. Bu ikki omilning nisbati quyidagicha tavsiflanadi:

Hg Ihq Pm Pt

Bu yerda: Hg – bozordagi narx darajasi;
Ih – ishlab chiqarish hajmi;
Pm – muomaladagi pul miqdori;
Pt- pul birligining harakat tezligi.

Monetaristlar keynschilardan farq qilib, aholini ish bilan to'la band qilish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlab bo'lmaydi, buning uchun esa faqat pulga, uning massasiga pul muomalasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan chora-tadbirlarni ko'rish kifoya qiladi, iqtisodiy o'sishga eng samarali, xavf-xatari kam vosita pul massasini ma'lum me'yorda (yiliga 3-5 foizga) oshirib borishdir, deyдилar. Ular bu tavsiyaning ilmiyligini uzoq yillardan buyon pul emissiyasi sohasidagi kuzatishlar tasdiqlashini uqtirishadi. Bu masaladagi me'yor shuki, pul massasining ko'payishi iqtisodiyotda mehnat unumdorligining o'sishidan 1-2 foiz yuqoriroq bo'lishi kerak degan fikrni bildirishadi.

Monetarizm ta'limotchilari fikricha, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda odamlarning iste'mol qilish darajasi ancha yuqorilashib ketgan, shuning uchun ularning iste'mol uchun sarf-harajatlarida ham unchalik tez o'zgarish kuzatilmaydi, ular pul sarflarini o'zgarishini rejalashtirishadi. Oqibatda pul harakatidagi tezlik ham ishlab chiqarishning hajmi ham sekin o'zgaradi. Ular ijtimoiy-iqtisodiy sohada pul miqdoridagi o'zgarish bilan narx darajasidagi o'zgarish o'rtasida bog'liqlik mavjudligini nazarda

tutib, quyidagi xulosani chiqarishgan: bozordagi narx-navo muomaladagi pul massasiga bevosita bog'liqdir, narx shunday vositaki, u talab va taklifga bevosita ta'sir etish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, talab va taklif muvozanatini ta'minlaydi, bu o'z navbatida, iqtisodiyotdagi mutanosib taraqqiyotni belgilaydi.

Ushbu nazariyaning kamchiligi shunda ediki, u iqtisodiy o'sish bilan bog'liq qarashlarni inkor etadi. Masalan, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini tanqid qilish orqali obyektiv ravishda ishsizlikni ko'paytirishga turtki beradi, ish kuchi potensialidan foydalanish darajasini pasaytirib yuboradi, ishsizlik va inflyatsiyani ijtimoiy muammoga aylanishiga sababchi bo'ladi. To'g'ri, monetarizm o'z davrida ijobiy rol o'ynaydi, u davlatning iqtisodiy siyosati darajasiga ko'tarildi.

Monetaristlar va keynschilar uchun umumumiy kamchilik shunda bo'ldiki, ular ko'proq iqtisodiy omillarning ta'sirini ilmiy tahlil qildilar, ijtimoiy omillar ta'sirini, ularning iqtisodiy o'sishga olib keluvchi kuch ekanligini inobatga olmadilar. G'arb mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi mavjud sobiq sotsialistik tuzum bilan raqobatligi sharoitida aholining ijtimoiy ahvolini yaxshilashga, ijtimoiy sohalarni investitsiyalashga urg'u beriladi bozor iqtisodiyotiga asoslangan tuzumning g'olib chiqishiga xizmat qildi. Monetarizm ta'limotidan kelib chiqadigan xulosa shuki, iqtisodiy o'sish va barqarorlik muammolarini tatbiq qilishda bir taraflama yondashuv foyda bermaydi, aksincha, ko'p omillik konsepsiyasi ta'sirini nazarda tutimoq kerak. Prezidentimizning «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» asarida bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy o'sish va makroiqtisodiy barqarorlikning chuqur asosi bo'lib iqtisodiyotda tub tarkibiy o'zgarishlar qilish siyosati xizmat qilishi uqtiriladi. Bu nazariy xulosa o'zining ijobiy samarasini berayotganini mamlakatimiz misolida ko'rish mumkin. Zero, keyingi yillarda makroiqtisodiy ko'rsatkichlardagi barqaror o'sish tendensiyasi fikrimizni tasdiqlaydi. Prezidentimiz o'zining yuqorida zikr etilgan asarida monetarizm nazariyasiga ortiqcha baho berilganligi xususida to'xtalib, shunday deb yozgan edi:

«Binobarin monetarizm hech qachon ishlab chiqarishni tanglikdan olib chiqishga qodir bo'lgan yagona yo'naltiruvchi va hal qiluvchi kuch bo'lgan emas.

Barqarorlashtirish dasturini ishlab chiqish chog'ida ana shu qattiq monetarizmga tayanmaslik kerak. Balki muvozanatga keltirilgan monetar siyosatni asosiy tarmoqlarni va ishlab chiqarishni tarkiban qayta tashkil qilishni qo'llab-quvvatlash siyosati bilan birga qo'shib olib borishi zarur.

Eng asosiysi, aniqlab olingan ustuvor yo‘nalishlardan kelib chiqib, bosh strategik yo‘lni belgilab olishdan va makroiqtisodiy siyosatni yo‘lga qo‘yishdan iborat». Yana shu narsa ham ta‘kidlanadiki, albatta valyuta iqtisodiy barqarorlik, korxonalar moliyaviy ahvolini mustahkamlash, aholini ijtimoiy himoya qilish va iste‘mol bozorining kuch omili bo‘lishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

2. Sotsial-institutsionalizm ta‘limoti.

Iqtisodiy ta‘limotlar tarixida vujudga kelgan nazariyalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ularning barchasi iqtisodiyotga barqarorlik baxsh etish va uning o‘sish sur‘atlarini ta‘minlashga qaratilgan. Faqat iqtisodchilar bu pirovard maqsad uchun omil tanlashda, yondashuvda bir-birlaridan farqlanishadi. Ana shunday ta‘limotlardan biri sotsial- institutsionalizmdir. Unga AQSH olimlari- A. Veblen, J. Kammons, U. Mitchell, J. Gelbrayt, R. Xeylbroner, A. Grachi, U. Rostou kabi iqtisodchi-sotsiologlar asos solishgan. Ularning umumiy fikri shuki, iqtisodiyotga yangi kuch, o‘sish sur‘atlari baxsh etadigan omil institutlardir, ya‘ni turli ijtimoiy-iqtisodiy muassasalardir. Ular bu institutlarga oilani, korporatsiyani, xayriya jamg‘armalarini, iste‘molchilar jamiyatini, kasaba uyushmalarini, turli klublarni, boshqaruvchilar guruhlarini kiritishadi. Go‘yo bu muassasalar faoliyatida jamiyatning turli toifalarining urf-odatlarini, an‘analari, axloqi, fe‘l-atvori, dunyoqarashlari namoyon bo‘ladi; iqtisodiyot kategoriyalari, iqtisodiy munosabatlar ijtimoiy psixologiya ko‘rinishida tahlil qilinadi. Ular odamlarning iqtisodiy faoliyatida hal qiluvchi ahamiyat kasb etmaydi, mulkiy munosabatlarning o‘rni va roli ham inkor etiladi.

Ushbu ta‘limotning «institutsionalizm» deb atalishini XX asr boshlarida Amerika iqtisodchisi U. Gamilton taklif etgan. Institutsionalistlar sotsiologiyani siyosiy iqtisod bilan bog‘laydilar, iqtisodiy nazariyani sotsiologik kategoriyalar bilan bog‘laydilar. Ularning fikriga ko‘ra, an‘analar, urf-odatlar ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishning birlamchi asoslaridir, real iqtisodiy munosabatlar esa ularga nisbatan ikkilamchidir, odamlarning tafakkuri, qarashlari, urf-odatlarining ko‘rinishidir.

Sotsial-institutsionalizm tarafdorlari marjinalizm ta‘limoti metodologiyasini, uning asosiy g‘oyalarini tanqid qiladilar va inkor etadilar. Ularning fikricha, neoklassik ta‘limot iqtisodiy muammolarni tor doira bilan cheklaydi, ya‘ni faqat bozor iqtisodiyoti o‘z-o‘zini tartibga soluvchi mexanizm deb qarab, iqtisodiyotni sotsial munosabatlardan ajratib talqin

qiladi. Masalan, J. Gelbrayt monetaristlarning iqtisodiyotni pul bilan eng yaxshi tartibga solish mumkin degan fikrini inkor etadi. U bozor iqtisodiyotiga asoslangan kapitalizmni doimo o'zgarishlar uchrab turadigan tuzum, u o'z-o'zidan transformatsiyalashib, ziddiyatlarini o'zi bartaraf etib, o'z iqtisodiy va boshqaruv dastaklari bilan yangilanib boruvchi jamiyat deb talqin qiladi.

Sotsial-institutsionalistlar o'zlarining nazariy metodologik konsepsiyasi markaziga aynan transformatsiya g'oyasini qo'yadi. Bunda ular obyektiv ravishda rivojlanib boradigan sanoat ishlab chiqarishiga asoslanadigan yirik korporatsiyalarga, ilmiy-texnika inqilobiga, tabiiy ravishda boshqaruv tizimining murakkablashib borishi iqtisodiy jarayonlarni rejali tashkil etish zaruriyatiga asoslanadilar. Institutlar markaziga ular aynan yirik korporatsiyalarni qo'yishadi, zero ular zamonaviy industrial tizimning tashkiliy tuzilmasini tashkil etadi, korporatsiyalar iqtisodiyotning boshqa tuzilmalari bilan bog'lanib, daromadlar, baho va boshqa iqtisodiy vositalarni boshqarish mexanizmini yaratadi.

Ushbu ta'limot jamiyatning evolyutsion tarzda yangilanib o'zgarib, borishini juda ko'p iqtisodiy, sotsial, siyosiy, psixologik, ma'naviy-etnik omillar bilan birga o'zgarishlar zamidagi faol rolni texnika, texnologiya, fan kabilar o'ynashiga urg'u beradi. Ular ta'limotidagi bosh masalalardan biri-iqtisodiyot ustidan ijtimoiy nazorat o'rnatishdir. Bu nazoratga ular, birinchi navbatda, korporatsiyalar va ularni boshqarishning isloh qilinishini, davlatning raqobat mexanizmiga, moliya-budjet tizimini, pul-kredit holatini, baholarning tashkil topishini va shu kabilarni kiritadilar, sotsial nazoratni tashkil etishda rejalashtirishga katta o'rin beriladi. Bularning hammasi davlatning butun institutlar tizimida yetakchi o'rin to'tishga olib keladi.

Sotsial-institutsionalizm nazariyotchilari ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirishda davlatning roliga katta e'tibor berishadi. Masalan, U. Rostou davlatning ilmiy-texnika inqilobini rivojlantirishdagi roliga baho berib, bu tom ma'noda «to'rtinchi sanoat inqilobidir», bu inqilob iqtisodiyotga mikroelektronikani, telekommunikatsion aloqalar, lazer texnologiyasi va ishchi-texnikani, sun'iy materiallarni joriy etishda namoyon bo'ladi, davlat aynan o'z zimmasiga fundamental ilmiy tadqiqotlar o'tkazish harakatlarini, ta'lim tizimini yaxshilash, kasb-hunar o'rgatish, tajribalar o'tkazish, yirik loyihalarni yaratish va joriy etishda o'z ifodasini topadi, deb yozadi.

Institutsionalizm ta'limotida, uning yangilanib borishida J. Gelbraytning o'rni kattadir. U o'zining yirik asarlari bilan kapitalistik jamiyatni inqirozsiz

rivojlantirib borish konsepsiyasi orqali AQSH hukumatining yangi iqtisodiyot siyosatini shakllantirishda faol ishtirok etgan olimlardan biridir. Gelbrayt o'z ta'limoti markaziga yirik korporatsiyani qo'yadi, uning fikricha, aynan ana shu xo'jalik shakli ilmiy-texnika taraqqiyotini ta'minlaydi, jamiyatni yangilab boradi. U «yetuk korporatsiya» g'oyasini ilgari surib, uni oddiy ishlab chiqarish birlashmasi – monopoliyadan ustun qo'yadi. U shunday fikrlaydi: yetuk korporatsiya va rejalashtirish tizimida hokimiyat va boshqaruv mulk egalaridan muhandis-texnologiyalardan iborat texnostruktura o'tib ketadi, garchi ular ishlab chiqarish vositalarining egalari bo'lmasalar ham texnostruktura shunday kuchga ega bo'ladiki, mulk egalari bo'lmaganlari holda iqtisodiyotning strategik maqsadlarini belgilab beradilar, maxsus bilim va tajribaga ega bo'lganliklari sababli korporatsiya taqdiriga doir qarorlarni guruhviy maqsaddan kelib chiqib qabul qiladi. Gelbrayt fikricha, texnostruktura yetakchi va hal qiluvchi mavqeni menejerlar toifasi egallaydi. Ya'ni, iqtisodiyotni tartiblashtirish vazifasi bozordan bevosita boshqaruvchi kuch bo'lgan menejerlarga o'tadi. Bu esa jamiyatda umumiy manfaat, umumiy farovonlikni vujudga keltiradi, sotsial muammolar qiyinchiliksiz hal bo'laveradi, zero «mo'l-ko'pchilik jamiyati qaror topadi».

Albatta, Gelbrayt davlatning tartiblashtirish nazorati bo'lmasa rejalashtirish tizimi hech qanday kuchga ega bo'lmasligini ham tushunadi, inflyatsiya, ishlab chiqarish hajmining qisqarishi, inqiroziy holatlar ham istisno qilinmaydi. Bu hol texnostruktura va korporatsiya faoliyatini cheklashni taqozo etadi. Bunday salbiy oqibatlardan iqtisodiyotni muhofaza qilish faqat mustaqil siyosat yurita oladigan davlatnigina qo'lidan keladi. Demak, institutsionalizmning bu yirik vakili ham pirovardida davlatning jamiyatda yetakchi kuch bo'lib qolishini tarafdori bo'lib qoladi.

Shuni aytish kerakki, Gelbrayt qarashlarini tanqid qilib chiquvchi, institutsionalizmni neoklassik ta'limot bilan hamohang qilishga (sintez qilishga) urinuvchi olimlar ham chiqdi. Masalan, U. Rostou «sivlizat-siyalashgan sintez» g'oyasini ilgari surdi. Unga ko'ra davlatning tashabbusi va uning moliyaviy-ma'muriy qo'llab-quvvatlashi ostida xususiy tadbirkorlikdan hamda erkin bozor mexanizmidan unumli foydalanish orqali iqtisodiyotni barqarorlashtirish va unga o'sish sur'atlarini baxsh etish, jamiyatni demokratik asoslarda yangilab borish mumkin.

Gelbrayt qarashlarini tanqid qilgan, U. Rostou iqtisodiy taraqqiyotni davrlashtirish g'oyasi bilan chiqadi. Uning fikricha, agar sanoat inqilobiga qadar iqtisodiy o'sish tasodifiy xarakterda va tashqi omillar ta'sirida kechgan

bo'lsa, endigi sharoitda iqtisodiy rivoji avtomatik, ya'ni «o'z-o'zini quvvatlovchi o'sish» sharoitida borayotir. U iqtisodiy taraqqiy etishning beshta bosqichdan iborat bo'lishini isbotlashga harakat qildi:

1. An'anaviy jamiyat: fan sekin o'ssa-da, texnika taraqqiyoti ham past, iqtisodiyot sohasi faqat qishloq xo'jaligida bo'ladi.

2. O'tish jamiyati: bu yerda iqtisodiy o'sishga asoslar yaratiladi- ishlab chiqarishga fan yutuqlari kirib boradi, kommunikatsiya va xalqaro savdo rivojlanadi, qazib olish sanoati va qishloq xo'jaligiga investitsiya kiritila boradi.

3. Ko'tarilish bosqichi (sanoat inqilobi): eski an'anaviy iqtisodiyot o'zgartiriladi, iqtisodiy o'sish oddiy holga aylanadi, qayta ishlash sanoati tez o'sadi, qishloq xo'jaligining salmog'i ancha pasayadi, davlat eksportni rag'batlantira boshlaydi.

4. Yetuklik bosqichi: doimiy iqtisodiy o'sish kuzatiladi, yangi texnologiya hamma sohaga kiradi, investitsiya milliy daromadning 10-20 foiziga teng bo'ladi, milliy iqtisodiyotlar jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashadi, an'anaviy jamiyat to'raligicha mag'lub bo'ladi.

5. Ommaviy iste'mol bosqichi: iqtisodiyot tarmoqlari yetakchi o'ringa chiqadi, ularda uzoq muddatli iste'mol tovarlari va xizmatlarini yaratish yo'lga qo'yiladi, jamiyatda umumiy iste'molchilik farovonligi boshlanadi.

Sotsial-institutsionalizm ta'limoti kishilik jamiyati taraqqiyotini «noindustrial», «industrial», va «postindustrial» jamiyatlar tarzida talqin etadi. «Postindustrial jamiyati» mualliflari bunday yuksak pog'onaga erishuv zamininga asos qilib aholining turmush darajasi o'sganini, xizmat ko'rsatish sohasining keng qo'llanilishini, iqtisodiyotda alohida axborot sektorining ajralib chiqishini oladilar. Albatta, bularning hammasi o'tgan asrning 50- yillaridan boshlangan ilmiy- texnika inqilobi bilan bog'lanadi. Agar «industrial jamiyat»da iqtisodiyotning asosiy muammosi sanoat korporatsiyasini boshqarish ishi bo'lgan bo'lsa, «postindustrial» bosqichda bosh xo'jalik muammosi «axborot iqtisodiyoti»ni yaratadigan sohalar-universitetlar, ilmiy tadqiqot markazlari faoliyati markaziy o'rin egallaydi. Bunday sharoitda mulk asosiy rol o'ynamay qo'yadi, u shunchaki «huquqiy baza» bo'lib qoladi, korporatsiya esa xususiy mulk instituti va iqtisodiyotni tashkil etish shakli sifatidagi ahamiyatini yo'qotadi. Bunday sharoitda insonning jamiyatdagi o'rni, uning farovonligi boylik egasi ekanligi bilan emas, balki kasb-hunar va bilim darajasi bilan belgilanadigan bo'lib qoladi, odamlarning turmush tarzi butunlay, shaharlarning roli o'zgaradi, axborot harakati tufayli qayerda ishlashning ahamiyati qolmaydi.

Demak, ilmiy –texnika inqilobi, texnikaning o‘sishi, ilm- fanning yetakchi kuchga aylanishi nafaqat iqtisodiyotni, uning asosida butun jamiyat hayotini o‘zgartirib yuboradi, odamlar sotsial institutlar, sotsial omillar vositasida sotsial tenglik tarzida hayot kechira boshlaydi. Biroq bozor munosabatlari, raqobat kurashi hozirgi zamonning asosiy harakatlan-tiruvchi kuchi bo‘lib qolar ekan, tabaqalashuv, hayot tarzining noan’anaviy shakllari o‘ziga yo‘l topib borishi tabiiydir.

3. Liberalizm ta’limoti

XX asrning iqtisodiyot ta’limotlari tarixiga kirgan ta’limotlaridan biri liberalizmdir. U 1920-1930- yillarda, avvalroq, Angliyada (F. Xayek), so‘ngra M. Fridman va V. Oyken tomonidan ishlab chiqildi. «Liberalizm» - erkinlik, erkin faoliyat ma’nolarida qo‘llaniladi, u o‘z nomiga monand erkin iqtisodiy faoliyatga keng yo‘l berish, iqtisodiyotda bozorning boshqaruv-chilik roliga yo‘l qo‘yib iqtisodiy muvozanatga erishishni maqsad qilib qo‘yadi. Bu nazariya ilmiy jihatdan keynschilikka muholifat, monetarizmga monandroq, yaqinroq turadi.

Liberalizm ta’limoti uning yirik vakili F. Xayek asarlarida rivojlantirildi. U o‘z tadqiqotlarini iqtisodiyot muammolari bilan birga falsafiy, tarixiy, huquqiy, psixologik masalalari doirasida olib bordi. U o‘z e’tiborini iqtisodiyot sohasida pul muomalasi, iqtisodiy sikl, ishsizlik, davlatning iqtisodiyotdagi o‘mi kabi masalalarga qaratdi. U faqat bozor mexanizmigina iqtisodiy rivojlanish va barqarorlikni ta’minlaydi, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi faqat qisqa muddatlardagina iqtisodiy o‘sishga olib kelishi mumkin, uzoq kelajak uchun u faqat inflyatsiya va ishsizlikka giriftor qiladi, degan fikrda qat’iy turdi. F. Xayek o‘zining «Qullikka yo‘l» asarida sotsializmga, undagi rejali iqtisodiy boshqaruvga qattiq qarshi chiqdi va ta’kidlaydiki, agar jamiyat utopik sotsializm g‘oyalariga ergashar ekan oqibatda u «qullikka yo‘l oladi». Faqat hozirgi zamon bozor iqtisodigina sivilizatsiyaga olib keladi, iqtisodiy erkinlikni cheklash jamiyatni siyosiy va ijtimoiy tutqunlikka olib boradi, deb ta’lim beradi.

U davlatning iqtisodiyotga aralashuvi oqibatlari nimalarga olib kelishini asoslashga harakat qildi. Uning fikricha, daromadlar va boylikni davlat vositasida qayta taqsimlash odamlarni boqimandalikka va kafolatlangan daromadga ko‘niktirib qo‘yadi, natijada, mustaqillik, mustaqil xo‘jalik yuritish, tavakkalchilik qilish, o‘z mulki va irodasini himoya qilish kabi qadriyatlardan ajraladi. U asosiy xavfni- budget va pul siyosatini davlat

qo'lida markazlashuvida ko'rdi. Bu shunga olib boradiki, davlat qiyinchiliklardan chiqish, qayta chiqimlarini qoplash maqsadida pulni emissiya qiladi. Shuning uchun F. Xayek «pulni markazlashtirmaslik», ya'ni pul emissiyasi huquqini faqat Markaziy bankka bermaslik, bu huquqni boshqa banklarga ham berish kerak, deb hisoblaydi. Pul bozoridagi bunday raqobat salbiy iqtisodiy hodisa-inflyatsiyani bartaraf qiladi.

F. Xayek demokratik boshqaruv tizimiga qarshi chiqadi, zero u parlament hukumat va boshqa davlat institutlari vositasida ish yuritib, ozchilik manfaatlariga ko'pchilik manfaatining qurbon bo'lishiga yo'l ochadi. Bu esa budjet taqchilligi va inflyatsiya tendensiyasini kuchaytiradi, bozorning iqtisodiyotni boshqarishi vazifasiga putur yetkazadi. Uning fikriga ko'ra, ekspluatator deb atalayotganlar kapitalistlar, tadbirkorlar yoki ayrim individlar emas, balki ma'lum tashkilotlardir (davlat idoralari, bir guruh kishilar). Aynan ular demokratik boshqaruv shiori ostida iqtisodiy tuzilmalar ishini samarasizlikka yetaklaydi.

Liberalizm ta'limoti tarafdorlari davlat qo'lga jamiyat hayotini boshqarishni berib qo'yilishi uni juda yomon ma'naviy-ahloqiy tanazzulga giriftor qildi, deb eslaydi. Ular aytadiki, davlat kelajak avlodni tarbiyalash, ularni o'qitish, kasb berish, hayotini ta'minlash vazifalarini o'z qo'lida markazlashtirib olgach, odamlarda jamiyat va oila oldidagi mas'uliyat yo'qoladi. Demak, davlatlashtirish vositasida daromadlarni qayta taqsimlash siyosati amalda milliy daromadni boylardan kambag'allarga emas, ulardan davlatga va korporatsiyaga taqsimlanishga olib keladi. Natijada yalpi sinf-davlat amaldorlari va menejerlar shakllanib, jamiyatning imkoniyatlari ularning qo'lga o'tadi.

Albatta, klassik liberalizm o'zgarishsiz qolmadi. U jamiyatdagi turli oqimlar, qarashlar, g'oyalar ta'sirida o'ziga xoslik, yangilanish kasb etib bordi. Ana shunday yangi liberalizm oqimidan biri- «sotsial bozor xo'jaligi» g'oyasidir. Unga ko'ra, bozor shunday ajoyib adolatli erkin mexanizmdirki, u talab va taklif qonuni ta'sirida narxlarni shakllantiradi, ya'ni bozor narxini vujudga keltiradi, u esa resurslarni kerakli, samara beradigan jabhalarga qarab taqsimlaydi. Faqat erkin bozor narxi vositasidagina bozor muvozanatiga erishiladi.

Liberalizm nazariyasi, umuman iqtisodiyotni tartiblashtirishga qarshi emas. Faqat bu vazifani davlat emas, bozor va undagi narx bajargani ma'qul. Liberalizm da sotsial-institutsionalizm ta'siri ham yo'q emas. Bu ta'sirni, shunda ko'rish mumkinki, go'yo bozor iste'molchi uchun rag'batlantiruvchi kuchga ega, u iste'molchiga o'z talabini qondirish uchun

tanlab olish imkoniyatini beradi. Iste'molchining rag'batlantirganligi tufayli iqtisodiy o'sish ham barqaror tus oladi.

Nazariya tarafdorlari iqtisodiyotning me'yoriy ko'rsatkichi sifatida «iqtisodiy hayotning sotsialligi» (ijtimoiylashuvi) darajasini ilgari suradilar. Buning ma'nosi shuki, iqtisodiy o'sish va barqarorlikka faqat iqtisodiy vositalar bilan erishish qiyin, ular yoniga (ijtimoiy) qadriyatlarni ham qo'shish orqali hayotni sotsiallashtirish mumkin. Liberalizm da inson, uning qadr-qimati, hayot tarzi, farovonligi kabilar muhim ahamiyatga ega. Avvalo, insonning o'zi o'z farovonligi uchun kurashishi kerak. Biroq bu intilish ma'lum chegaraga ega. Bu chegara jamiyat manfaatlari uyg'unlashuvi doirasida amal qilish kerak ya'ni u «sotsial tartibga» bo'ysunishi darkor. Aynan shu yerda davlat kerak bo'ladi. U odamlarga erkin raqobat sharoiti yaratib berib, o'z farovonligi va jamiyat ravnaqiga yo'l ochib beradi.

Biz yuqorida ko'rib chiqqan qator nazariyalarda bozor iqtisodi yo'lida rivojlanib borayotgan mamlakatlar uchun ham yaroqli jihatlar mavjud. Ularni o'rganish, kerakli g'oyalarni tatbiq etish esa tezroq demokratik qadriyatlarni egallashga olib boradi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Monetaristlar nazariyasining bosh mazmun-mohiyati nimada edi?
2. Monetaristlar bilan keynschilar nazariyalari o'rtasida qanday farqlar mavjud?
3. Monetaristik nazariya xususida Prezidentimiz I. Karimovning xulosasi qanday?
4. Sotsial-institutsionalizm ta'limotining yangiligi nimada?
5. Transformatsiya g'oyasi nimaga asoslanadi?
6. Liberalistlar davlatning iqtisodiyot tizimidagi o'rni va rolini qanday baholashadi?
7. Hozirgi zamon iqtisodiy nazariyalarining amaliy ahamiyati haqida nima deya olasiz?
8. Yuqoridagi nazariyalar bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan, rivojlanayotgan mamlakatlar hayotida qo'llanishi mumkinmi?

TAYANCH IBORALAR:

Monetarizm nazariyasi. Nazariyaning yirik nomoyandasi amerikalik iqtisodchi M. Fridmendir. Bu nazariya keynschilik ta'limotiga muqobil sifatida ajralib turadi. Uning asosiy g'oyasi- iqtisodiy o'sishni bozor mexanizmi orqali ta'minlashdir, bu mexanizmning harakatlantiruvchi kuchi esa puldir. Iqtisodiy o'sishning ahamiyati haqida gapirilib, u inflyatsiyani bartaraf etadi, pul muomalasini yaxshilaydi, deyiladi. Monetarizm davlatning iqtisodiy siyosati cheklangan bo'lishi kerak, ya'ni faqat pul muomalasini tartibga solib tursa bo'ladi, qolgan iqtisodiy muammolarni bozor hal qilaoladi, deb ta'lim beradi. Ushbu ta'limot Markaziy bank vazifalarini pul-kredit siyosatida davlatga yordam berishida, deb qaraydi.

Bandlik va iqtisodiy o'sish. Ma'lumki, keynschilik ta'limotiga ko'ra to'la ish bilan bandlik mamlakatda iqtisodiy o'sishga olib keladi. Bu o'z-o'zidan barqarorlikka xizmat qiladi. Monetarizm esa bu muammoni pul va uning harakatini o'zgartirish orqali hal qilish tarafdori bo'lgan dunyoqarashdir. Unga ko'ra, to'la bandlik iqtisodiy o'sishga ta'sir etmaydi, aksincha narx orqali iqtisodiyotni tartiblashtirish mumkin. Iqtisodiyotni tartibga solishda muomaladagi pul miqdorini o'zgartirib turish maqsadga muvofiq. Shu ma'noda monetaristlar muomaladagi pul massasini 3-5 foiz atrofida oshirib turishni tavsiya etadilar. Fridmenning ilmiy qarashlari real iqtisodiyotga bevosita o'zi tomonidan tatbiq etilgan va ayrim mamlakatlarda iqtisodiy o'sish masalasini hal etishda ijobiy ahamiyat kasb etgan.

Institutsionalizm ta'limoti. Ushbu ta'limotning asosiy g'oyasi iqtisodiyotni tartiblashtirish, uning barqaror rivojlanishini ta'minlashda institutlarga ya'ni jamiyatdagi turli muassasa, tashkilot, idoralar (oila, davlat, monopoliya kasaba uyushmalari, jamg'armalar) asoslanishdan iboratdir. Bu ta'limotga ko'ra jamiyatdagi barcha iqtisodiy-ijtimoiy muammolarni ana shular orqali bartaraf etish mumkin, zero ular hozirgi davrda jamiyat hayotida muhim rol o'ynaydilar, ularda jamiyat ruhi, odamlar fikri, dunyoqarashi, orzu-umidlari ifodalanadi. Iqtisodiyotda harakat qilayotgan munosabatlar (masalan. foyda, foiz, kredit, pul, mulk, soliq kabilar) jamiyat ruhining namoyon bo'lishi shakllaridir. Shuning uchun institutsionalizm tarafdorlari iqtisodiyotda barqarorlik bo'lmog'i uchun, avvalo, jamiyat a'zolari uchun xos bo'lgan urf-odatlar, an'ana, odob-ahloq kabilarni o'rganishga da'vat etadilar.

Istitutsionalizmdagi uch oqim. Jamiyat hayotida institutlarning o'rni va ahamiyatlari har xildir. Shuning uchun ham bu ta'limotda turlicha

oqimlar paydo bo'ldi. Ular iqtisodiyotda turlicha takliflar bilan chiqadilar. Asosan, uchta ilmiy yo'nalish e'tirof etilgan:

- ijtimoiy-psixologik oqim;
- ijtimoiy-huquqiy oqim;
- empirik yoki konyunktur-sintetik oqim.

Bu oqimlarning hammasi sotsial-psixologik omillarga afzallik bersalarda, iqtisodiy voqea-hodisalarning ahamiyatini chetlab o'ta olmaydilar; ular makroiqtisodiy tahlilga urg'u beradilar, ya'ni ular taraqqiyotni faqat umumiqtisodiy tahlil yordamida tushunish mumkin, deyishadi.

«Sotsial-iqtisodiy bozor xo'jaligi». Bu ta'limotga ko'ra, davlat iqtisodiyotga bevosita aralashmasligi lozim, faqat u qonunchilik faoliyati orqali bozor munosabatlariga yo'l ochib berib turishi, jamiyatda sotsial tartibni saqlovchi posbon vazifalarini bajarib tursa bo'ladi. Mazkur nazariyada sotsial jihat ustunlik qiladi. Bunga ko'ra, samarali xo'jalik tizimiga sof iqtisodiy usullar bilan o'tib bo'lmaydi, buning uchun jamiyatdagi sotsial qadriyatlar va omillarni ishga solish kerak. Boshqacha aytganda, iqtisodiyotni insoniylashtirish, odamlar farovonligiga qaratilishi orqali barqaror rivojlanishi mumkin.

Insonning o'z farovonligi huquqi-institutSIONALIZM ta'limotida inson omilini kuchaytirish masalasiga e'tibor qaratiladi. Jamiyatdagi qadriyatlar tarkibida insonning o'z farovonligi uchun kurash huquqi ham e'tirof etiladi. Zero, inson obyektiv ravishda o'z turmushini yaxshilashga intiladi. Biroq bu farovonlik uning o'z intilish, sa'y-harakatiga bog'liq hamdir. Ammo insonning yaxshi yashash uchun intilishi jamiyat manfaatlariga zid kelmasligi kerak, ya'ni bu harakat ma'lum belgilangan tartiblar, qonunlar doirasida bo'lishi lozim.

XIII bob XIX ASR OXIRI- XX ASR BOSHLARI O‘ZBEK MILLIY IQTISODIY TAFAKKURI

Tarixdan ma'lumki, o'zbek fani va madaniyati rivojida, xususan, millatning iqtisodiy tafakkurida ham XV-XVI asrlardan keyingi davrda qandaydir turg'unlik, orqada qolishlik holati kuzatildi. Buning o'ziga xos obyektiv va subyektiv sabablari bor, albatta. Bu qoloqlik Yevropa mamlakatlaridagi har tomonlama yuksak taraqqiyot bilan taqqoslaganda yanada ravshanroq ko'rinar edi.

Bunday achinarli ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, siyosiy tushkunlikni XIX asrning oxiri XX asr boshlarida millat, Vatan taqdiri uchun o'zlarini mas'ul deb bilgan va bunday qoloqlikdan chiqarishga o'zlarining butun vujudini, aqliy salohiyatini, kerak bo'lsa iqtisodiy imkoniyatlarini ham bu yo'lga bag'ishlovchi jadidlar deb nomlangan bir guruh o'zbek vatanparvar, millat fidoyisi bo'lgan ziyolilar tiyran idrok etdilar. Ular bunday qoloqlik endilikda davom etmasligi kerak, unga qarshi millatni ma'rifat, ilm-fan tarqatish bilan uyg'otish orqali kurashish lozim deb hisobladilar. Bular Abdulla Avloniy (1878-1934), Abdurauf Fitrat (1886-1938), Abdulla Qodiriy (1894-1938), Abdulhamid Cho'lpon (1897-1938), Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919), Fayzulla Xo'jayev (1896-1938) singari ko'plab buyuk zotlar edilar.

1. Iqtisod ilmini o'rganish zarurligi g'oyasi

Jadidlar o'zlarining asosiy e'tiborlarini millatning ma'rifatli, o'qimishli, bilimdon va kasb-hunarli bo'lishiga qaratib uni dunyoning ilg'or millati bo'lishga chaqirdilar, aks holda, abadiy qoloqlik iskanjasida qolishlari mumkin deya haqida qayg'urdilar. Bu haqda Cho'lpon quyidagicha yozdi: «Chin ayting! Bu yigirmanchi asr madaniyatini ham ko'rub turubsiz! O'n kunlik yo'lni o'n soat qilg'on bu yigirmanchi asr madaniyati ayg'irini ko'rub, vatandoshlarim nimaga og'izlarin ochub qoladilar! Nimaga bu madaniyatga kirmakka o'zlari harakat qilmaydilar? Qachongacha ikki g'ildirakli, ko'chalarga sig'maydigan arabalar?

Ey Vatandoshlarim! Qachongacha bu g'aflar?...

Uyqudan ko'z ochinglar! Urinunglar? Ilm, ma'rifat va hunar izlanglar! Vaqt yetdi, balki o'tdi!».

Ayni chog'da, u Vatanimiz Turkiston ilg'or mamlakatga aylanishi uchun

¹ Cho'lpon. Asarlar. II jild «Do'xtir Muhammadiyor», T., 1993, 275 – bet

barcha imkoniyatlar yetarli ekanligiga, hatto Amerika darajasida ekanligiga urg'u bergan edi.

Jadidlar, ya'ni yangilik tarafdorlari ma'rifat va ilm tizimida iqtisod ilmining millat ravnaqi uchun ahamiyati alohida ekanligini qayta-qayta ta'kidlaganlar. Jadidlarning yetuk arboblardan biri Abdulla Avloniy bu haqda shunday degan edi: «Iqtisod deb pul va mol kabi ne'matlarning qadrini bilmakni aytilur. Mol qadrini biluvchi kishilar o'rinsiz yerga bir tiyin sarf qilmas, o'rni kelganda so'mni ayammas. Sahovatning ziddi bahillik o'ldig'i kabi iqtisodning ziddi isrofdir...¹». Keltirilgan lavhada juda chuqur iqtisodiy ma'no yashiringan: birinchidan, muallif pulni ne'mat ya'ni mehnat bilan yaratilgan ma'lum qiymat, uning ifodasi degan ilmiy fikrni bildiradi; ikkinchidan, pul tadbirkorni ishbilarmonni yoqtirishi, faqat ana shunday kishilar qo'lida pul, mol-dunyo ko'payajagini uqtiradi.

Har zamonda insonning maqsadi erkin va farovon yashashdir. Ayniqsa, «bu zamonda maqsadga yetmak uchun, -deb yozadi Abdulla Avloniy, o'z millatiga xizmat qilmoq maqbul bo'lmak uchun ilm va mol lozimdur. Olamdagi millatlarning hol va qudratlari mol va boyliklardandur. Har yerda boy millatlar og'ir kelub, faqirlarga yengil kelub qul va asir bo'lib qoladur...²».

Iqtisod ilmidan boxabar bo'lgan kishilar har doim qiladigan sarf harajatlarining samara berishini oldindan hisob-kitob qiladilar. Olim misol keltirib aytadiki, ilmdan yaxshi xabardor bo'lgan amerikalik va yevropaliklar iqtisodiy bilimliklari tufayli, farovon to'q yashaydilar. U yozgan edi: «Bobolarimizning bo'lsa bo'lar, bo'lmasa g'ovlab ketar» zamonlari o'tub, o'rniga «bilg'on bitar, bilmagan yitar» zamoni keldi. Amerikaliklar bir dona bug'doy ekib, yigirma qadoq bug'doy olurlar. Yevropaliklar o'zimizdan olgan besh tiyinlik paxtamizni keturub, o'zimizga 25 tiyinga soturlar³».

Jadidlarning ulug' namoyandalaridan biri Abdurauf Fitrat ham iqtisod ilmini egallashga, yoshlarimizni tijorat va savdo ishlariga o'qitishimiz lozimgligiga da'vat qilgan edi. U vatandoshlarga, millatdoshlariga murojaat qilib shunday deb yozgan edi: «Sizlar o'z farzandlaringizni tijorat maktablariga yuborib, savdo ishiga o'qitingiz, chunki begonalar (xorijiy savdogarlar-muallif.) tijorat ilmidan xabardor. Siz esa bexabarsiz⁴».

¹ A. Avloniy. Tanlangan asarlar. 1 – jild «Mukammal insonni o'ylab». T, 1998, 37 – bet

² A. Avloniy. Guliston yoxud axloq. T., 1967 33 – 34 – betlar

³ A. Avloniy. Tanlangan asarlar. 1 – jild, T 1998. 57 – 58 – betlar

⁴ A. Fitrat. Tanlangan asarlar. 1 – jild «Hind sayyohi bayonoti» T., 2000, 167 – bet

Ulug' yozuvchimiz Oybekning «Qutlug' qon» romanida o'zbek ziyolilarining ilg'or vakili Abdushukur tilidan o'zimizning millatdan boylar chiqishi uchun ular iqtisod ilmini chuqur o'rganishlari kerak, deydi. «Kaminaning g'oyaviy hayoti shunday, yana takrorlayman, -deydi Abdushukur, - milliy sarmoyani o'z boylarimiz, musulmon boylarimiz to'la egallasinlar ya'ni Turkistonimizda tijorat o'z boylarimiz qo'lida bo'lsin, bu bilan qanotlanmay zavod, fabrikalar qursinlar. Buning uchun ilmiy iqtisodni, ilmiy tijoratni bilgan savdogarlar yetishishi kerak¹».

Demak, mulkdor bo'lmoq, milliy iqtisodiyotni yaratmoq, millat va Vatan ravnaqini ta'minlamoq uchun iqtisod ilmini egallash dolzarb masaladir. Bu masalaning dolzarbligi bizning bugungi bozor munosabatlarini jadallik bilan shakllantirayotgan davrimizda ham saqlanib qolayotir.

2. Raqobatchilik muhiti va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish omillari haqidagi fikrlar.

Iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi raqobat ekanligi ma'lum. Biroq raqobatchilik bo'lmog'i uchun raqobatchilik muhiti bo'lmog'i lozim. Jadidlarning iqtisodiy tafakkurida raqobat va uning muhitiga oid bir qancha iqtisodiy qarashlar mavjud. Ulardan biri Abdurauf Fitrat uqtiradiki, qo'l mehnatiga asoslangan mayda ishlab chiqarish mashaqqatli mehnatni yengillashtiradigan, mahsulot qiymatini arzonlashtiradigan mashinali ishlab chiqarish bilan raqobatlasha olmaydi. «... Turkistonlik hunarmandlar ovrupalilar singari qo'l mehnatiga asoslangan korxonalarni doimiy fabrikalarga aylantirmas ekanlar, bir necha yildan keyin ularning sharaflisan'atidan nom-nishon qolmaydi² Shuning uchun ish tanazzulga borib yetmasdan ishlab chiqarishni zamonaviy sanoat asosiga ko'chirish lozim», -deb yozgan edi Abdurauf Fitrat.

Raqobat kimlarni sindiradi, degan savolga Mahmudxo'ja Behbudiy shunday javob beradi: «Oxirgi vaqtlarda biz-turkistonliklar tijorat, hatto, ziroat va do'kondorlik ishlarida na uchun sinamiz? Muning eng birinchi sababi-ilmsizlik, to'g'risi aqlsizligimizdir³».

«Mundan boshqa yana sinmoqimizga sabab tariyqi tijoratni, mol olish va sotish joyini bilmaganimiz, paxta va boshqa g'alla to'g'risida Amriqo, Afriqo va Ovropo bozor va ziroatlarini holidan, bo'lgan va bo'lmaganidan

¹ Oybek. Qutlug' qon T.. 1190, 82-bet

² A.Fitrat. Tanlangan asarlar. 1-jild, «Hind sayyohining bayonoti» T..2000, 143-bet

³ M.Behudiy. Tanlangan asarlar 2-nashri, «Zo'raki boy» T., 1999, 163-bet

bexabarligimizdir... Eng oxirgi sabab sinmog'imizga shulki, tijorat maydonida nodonligimizdan boshqalar tarafidan aldanarmiz¹».

Ma'lumki, iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanishning muhim omillaridan biri-milliy iqtisodiyotning bir yoqlama tarkibda bo'lishi ya'ni xomashyo ishlab chiqarib, uni arzon narxda xorijga sotishga asoslangan iqtisodiyotdir. Iqtisodiy islohotlarning bosh yo'nalishi ham, Prezidentimiz I. Karimov qayta-qayta ta'kidlayotganidek, milliy Iqtisodiyotimiz tarkibini o'zgartirish, jahon bozoriga tayyor mahsulotlar bilan chiqishdir. Bu zaruratni o'tgan asr boshlaridayoq, jadidlar idrok etgan, bizni bu haqda ogoh etib o'tgan edilar. Bu haqda M. Behbudiyning quyidagi so'zlari g'oyat o'rindir: «Turkiston mevasi, donasi, toshi, tufrog'i eski nimarsalari Ovrupa bozoriga ketar. Muni Ovrupo dallollari kelib oz bahoga olib ketar, mehnatni biz qilurmiz, foydani ular ko'rar. O'z nimarsamizni Ovrupa bozoriga eltib, yaxshi bahoga sotaturgon bizda bir odam yo'q. Azbaski, Ovrupa ila savdo qilaturg'on kishini (o'zi) avval o'n sana zamona ilmi o'qimog'i lozim²».

3. «Ihroj va a'mol san'ati» - milliy iqtisodiyot tarkibini o'zgartirish omili

Odamlarning daromad topish manbayi ijtimoiy mehnat taqsimotining qanchalik rivojlanishiga bog'liq. Biroq, bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan davrda ko'proq tijoratga, savdo-sotiqqa urg'u berishadi. Abdurauf Fitrat tijoratni daromad topishning manbayi ekanini e'tirof etsa-da, biroq tijorat bilangina boyish mumkin emas deb hisoblaydi. U yozadiki, iqtisodiy taraqqiyotga, farovon va obod yashashga olib keluvchi boshqa yo'llar ham bor. Ana shulardan biri- «ihroj san'ati», ya'ni yer osti boyliklarini chiqarib olish va «a'mol san'ati», ya'ni uskunalar (fabrika, zavodlar) yaratishdir. Turkiston bag'rida tilla, mis, temir, ko'mir, lampa moyi va boshqa juda ko'p tabiiy boyliklarning miqdori mavjud, ular koni foyda, ularni ishga solish orqali xalqni bahramand etish lozim. «Buxoroliklar, bu xudo bergan ne'matlardan foydalanmasangiz, albatta, ko'p o'tmay begonalar bu boyliklarga ega bo'lib oladilar... Dunyo-dunyo pul ishlab oladilar... U vaqtda sizlarning farzandlaringiz chorasiz qolib, ularning xizmatlariga bo'yin egishlari muqarrar...³».

Buyuk allomamizning bundan 100 yil ilgari aytdan bu eslatmasi bugungi mustaqilligimiz sharoitida yana ham qimmatlidir. Bundan xulosa shuki,

¹ M.Behudiy. Tanlangan. asarlar, 2-nashri «Oh bankalar bizni barbod etdi» T., 1999, 168-bet

² M.Behudiy. Tanlangan. asarlar, 2-nashri «Ehtiyoji millat» 1999. 200-bet

³ A.Fitrat. Tanlangan. asarlar, 1-jild «Hind sayyohi bayonoti» T., 2000, 168-bet

mustaqilligimiz bergan imkoniyatdan foydalanib yer osti boyliklarimizni tezroq o'zlashtirib mustaqiligimizni abadiylashtirib olishimiz, Vatanimizni qudratli davlatga aylantirishimiz lozim. Prezidentimiz I. Karimov ishlab chiqqan va olib borayotgan iqtisodiy islohotlar siyosati ana shu maqsadga qaratilgan.

4. Agrar soha samaradorligini oshirishga oid fikrlar

Jadidlar Turkiston iqtisodiyotining asosini agrar ishlab chiqarish tashkil etishini yaxshi tushunar edilar. Shuning uchun ham ular bu tarmoqning rivojlanishiga qaratilgan mulohazalar, fikrlarni ilgari surdilar. Xususan, Abdurauf Fitrat «Hind sayyohi bayonoti» asarida Buxoro qishloqlarida iqtisodiy-ijtimoiy ahvol g'oyat achinarli ekanligini ta'kidlab, buning boisi qishloq xo'jaligining zamonaviy talab va taraqqiyotdan juda orqada qolishi deb bildi. U yerdan samarali foydalanilmasligi sababli «Yerga hosil berish darajasida mehnat qilinmasligi ya'ni yerlarning imkoniyaticha hosil olinmasligidir¹», -deb ko'rsatdi. A. Fitrat Turkiston qishloq xo'jaligida ehtiyojlarni qoplash darajasida hosil olinmaslik sabablarini o'rgandi va uning uchta asosiy sababi borligini aniqladi:

Birinchi sabab-amaldorlar (amaldorlar)ning dehqonlarga nisbatan adolatsiz munosabatlarda bo'lishlaridir. Bu adolatsizlik raiyatdan soliq yig'ishda namoyon bo'ladi;

Ikkinchi sabab-qishloq xo'jaligida unumdorligi past asbob-uskunalardan (ishlab chiqarish vositalaridan) foydalanib kelinayotganligidir. Bu olingan daromad texnikadan foydalanish harajatlarini ham qoplamasligida namoyon bo'ladi;

Uchinchi sabab-Yerga quvvat beradigan sanoat dori-darmonlarining (mineral o'g'itlar, gerbidsitlar, ximikatlar kabilar) yetarli ishlatilmayotganidir²

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish g'oyalari bilan chiqqan Buxoroning yetuk ma'rifatparvarlaridan biri, keyinchalik, O'zbekistonning davlat arbobi bo'lgan Fayzulla Xo'jayev qorako'Ichilikni rivojlantirish haqida gapirib, uni Yevropa bozorlariga chiqarishni davlat yo'li bilan yengillashtirish bu qimmatbaho xomashyoni kontrabanda yo'li bilan chetga chiqib ketishiga chek qo'yajagini uqtiradi; U Buxoroda yerga ishlov berishni zamonaviy texnika asoslariga ko'chirish zarur, bu

¹ M.Behudiy, Tanlangan asarlar. 2 – nashri, «Ehtiyoji millat» 1999, 200 – bet

² O'sha asar, o'sha joyda

esa dehqonchilikni intensivlashtirish, qishloq xo'jaligiga yangi texnologiyalarni joriy etish imkonini beradi, deb ko'rsatdi. Jumladan, Buxoro zaminida ham Misr, Amerika kabi mamlakatlardagi qishloq xo'jalik tizimlari, mashinalar majmuasini qo'llashga olib keladi. U ilg'or texnologiyani qo'llashning tajriba dalalarini va mashina ijara punktlarini tashkil etish, ilg'or tajribani ommalashtirish maktablari tashkil etib, ularda darslar uyushtirish, qishloq xo'jaligiga oid adabiyotlarni chop tarqatish, etib, mutaxassislarni qishloq xo'jaligi rivojlangan mamlakatlarga ekskursiya va xizmat safarlariga yuborish yaxshi natijalar keltiradi, deb uqtiradi.

F. Xo'jayev Buxoro qishloq xo'jaligini rivojlantirish omillaridan biri irrigatsiya va melioratsiya ishlarini avj oldirish va bu masalada davlat dasturi ishlab chiqish lozimligiga e'tibor qaratgan edi. Shuningdek, u ipak qurti urug'i yetishtirishni yaxshilash yo'li bilan mamlakatda pillachilikni rivojlantirishga oid takliflar ilgari surgan edi.

Yuqoridagi iqtisodiy fikrlardan ko'rinib turibdiki, o'zbek jadidlari, ularning yetuk arboblari Vatanimiz ozodligi va mustaqilligining moddiy va ma'naviy asoslarini yaratish, ana shu asosda millatning o'z mustaqilligi uchun ko'rashini ilmiy darajaga ko'tarish maqsadlarini ko'zlaganlar.

5. Savdo-tijorat ishlarini ilmiy asosga qurish haqidagi fikrlar

Ma'lumki, XX asr boshlarida Turkistonga ham bozor iqtisodiyoti bilan bog'liq munosabatlar, bozor tushunchalari kirib kelayotgan, ular mulkdor, tadbirkor, ishbilarmon, ziyoli odamlar ongiga singib borayotgan edi. Biroq, bu jarayon uzoqqa bormadi. Zero, Oktabr sotsialistik inqilobi Rossiya imperiyasining barcha hududlarini davlat mulkining hukmronligiga asoslangan jamiyat qurishga safarbar qilgan bo'lib, bu qurilajak sotsialistik tuzum o'z mohiyati va maqsadiga ko'ra tovar-pul munosabatlarini, ya'ni bozor iqtisodiyoti tizimini inkor etar, iqtisodiy erkinlik, tovar ishlab chiqarish, raqobat, erkin baholar, iqtisodiy islohotlarga tamomila qarshi edi.

Ammo ilg'or o'zbek jadidlari yangi bozor iqtisodiyoti munosabatlarining ijobiy tomonlarini tushuntirish, ularni targ'ib qilish, Turkiston iqtisodiyotini ilg'or iqtisodiy munosabatlariga o'tishini yoqlab ilmiy, badiiy, publitsistik asarlar chiqarishar, aholi o'rtasida o'z ilg'or g'oyalarni yoyishdan charchamas edilar. Albatta, bozor munosabatlarining eng oddiy va ommabop tushunchalari savdo va tijorat bilan bog'liqdir. Chunki, oddiy odamlar uchun azaldan, tarixan davom etib kelayotgan bozor ishlarini

kengaytirish, savdo va tijorat orqali daromad topish, yurtni obod va turmushni farovon qilish biroz qulayroq edi.

Abdurauf Fitrat yuqorida tilga olingan «Hind sayyohi bayonoti» nomli asarida Turkistonda savdo va tijoratni rivojlantirishga urg'u beradi. U savdo va tijorat orqali faoliyat yuritish, undan daromad topib, tirikchilik o'tkazish musulmonlar uchun halol amallardan ekanligi muqaddas «Qur'oni karim»da, muborak «Hadis»larda uqtirilganini ta'kidlaydi. U savdo va tijoratning ham o'z yarashiqlari, tamoyil-u-qoidalari mavjud, deydi.

Yana u quyidagi fikrlarni ilgari suradi: birinchidan, savdo va tijorat ishida Vatan, millat, xalq manfaatlarini hisobga olinishi, ikkinchidan, bu ishda tijorat ahli tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishni zamonaviy sanoat asosiga qurishda yordam ko'rsatishlari, sohibkorlarga amaliy madad berishlari, tovarlarni arzonlashtirish yo'llarini izlashlari, uchinchidan, yevropaliklardan savdo va tijorat qilish ilmini hamda foyda olish zamirida madaniy savdo xizmati ko'rsatishni o'rganishlari lozim.

Ayni chog'da, olim foyda va daromad olishning birdan-bir yo'li tijorat va savdo emas, balki boshqa iqtisodiy faoliyat turlari bilan ham shug'ullanib, Turkistonni ozod va obod qilishga chaqirgan edi.

Jadidlarning yana bir yirik vakili Abdulla Avloniy quyidagi g'oyalarni ilgari surgan edi:

Bugungi dunyoda davlatlar boshqalar boyligini urushlar qilib egallab olish usulidan voz kechdi. «Bu kunda madaniy millatlar urushlarni tijorat va sanoatga aylantirdilar va bu soyada g'alaba va raqobat qila boshladilar. Sehrgarlik va jodugarlik ila emas, tijorat, sanoatgiriklik ila cholishqon Yevropo, Afriko va Osiyoni o'ziga asir va musaxhar qilmoqdadir¹». Bu yerda muallif Turkistonliklarni tijorat ilmini chuqurroq egallab, boshqalarga to'be bo'lib qolishdan saqlanishga chaqirdi. Darhaqiqat, dunyoning ilg'or davlatlari o'zida sanoatni rivojlantirib, boshqalar resurslari evaziga savdoni avj oldirib katta foyda olmoqdalar, o'zlariga iqtisodiy jihatdan qaram qilmoqdalar.

Mahmudxo'ja Behbudiy ham bu masalaga jiddiy e'tibor bergan edi. U «oxirgi vaqtlarda Turkistonliklar tijorat ishlarida sinib» borayotganini achinib e'tirof etadi. Tijorat sohasida sinish, raqobatsizlik sabablari haqida mushohada qilib, quyidagi sabablarni ko'rsatgan edi:

Birinchi-«nozoalla, hisobsizlik, aql va tarbiyasizlik bizni barbod etdi»; ikkinchi-naf va zararimizni bilmaganimiz, tijorat ishi va ahli zamondan bexabarligimizdan, xulosa-jaholat va nodonligimizdandir; uchinchi-

¹ A.Avloniy. Tanlangan asarlar. 1-jild. Ma'rifatparvar shoir, T., 1998, 56-bet

«qo'ldagi bor nimarsalarimizni to'y va azog'a, behuda odatlarga sarf etarmiz. Ko'rpamizga qarab oyoq uzatmaymiz. Qarz ila imorat, to'y qilarmiz. Isrof qilarmiz¹», to'rtinchi- «Mundan boshqa yana sinmog'imizga sabab tariyqi tijoratni», dunyodagi bozor ahvolini, qayerdan mol olib, qayerda sotish mumkinligini, axborot olishni bilmaganimiz²».

6. Xorij texnika-texnologiyasi, sarmoya va tajribasini jalb etish- milliy taraqqiyotning kuchli omili

Jadidlar harakatining yetuk namoyandasi bo'lgan Abdurauf Fitrat o'z Vatanini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'liga va xalqini farovon hayot tarziga olib chiqishning asosiy yo'li Turkistonga Yevropa fani, madaniyati, texnika, texnologiyasi, sarmoya va ilg'or tajribasini keng miqyosda va tez sur'atlar bilan kiritishda deb bildi. Bu yo'lda ikkilanish, g'ayridin ilmi va texnikasini kiritishdan cho'chimaslik, sarosimaga tushmaslik, oriyat qilmaslik kerak, deb ta'lim berdi. Chunki, -deydi olim, - Yevropa xalqlari ham bir vaqtlar g'oyat qoloq va qashshoq bo'lishgan bir davrda Sharq fani, madaniyati, tajriba va amaliyotini qo'llash orqali yuksak taraqqiyotga chiqib olganlar. Zero, bundan 1000 yillar ilgari Yevropa xalqlari iqtisodiy va ma'naviy qoloq bo'lgan davrlarda Sharq xalqlari insoniyat sivilizatsiyasining ancha yuqori darajasida bo'lganlar. Bu fikrning isboti sifatida yozuvchi farangistonlik muallim Sharh Sanivyusning quyidagi fikrlarini keltiradi: «O'n birinchi asrda Yevropa shaharlari kichik va oddiy, qishloqlari vayron kulbalardan iborat edilar. Yo'lda o'ldirilishlardan qo'rqib hech kim o'z uyidan o'n farsoq ham uzoqqa bora olmas edi. Islom olami esa Bog'dod, Shom, Misr va Andalus singari butunlay obod va ko'rkam shaharlar, marmar bilan bezalgan binolar, muzayyan va ozoda bozorlarga ega edi. Dalalarning har qadamidagi so'lim go'shalar-u xirmon-xirmon donni ko'rganning ko'zi quvonar edi. Ispaniya bilan Turkiston o'rtasida savdo karvonlari bemalol borib kelardi. Ovropaliklar musulmonlar taraqqiyotini qabul qilib, kasb va ilm o'rganish niyatida islom shaharlarida taxsil olar edilar. Ovropa musulmonlar bilan aloqada bo'lish yo'li orqali taraqqiy etgan. Ovropaliklarning islom olamidani qabul qilgan ishlari quyidagilar:

Ziroat: ko'k bug'doy, tut daraxti, guruch, xurmo, limon, paxta, qahva va nayshakar.

¹ M.Behudiy, Tanlangan asarlar. 2-nashriyot. «Oh bankalar bizni barbod etdi» 1999, 166-bet

² O'sha asar, o'sha joyda 168 – bet

Sanoat: shoxi gazlamalar, zar to‘qish, shisha, oyna... va qog‘oz.

Ilm-fan: al-jabr va al-muqobala, handasa, chizmachilik, kimyo, hisob va hokazo.

Islom ahli Yunon, Eron, Hind va Chinning ilm-fan ixtirolarini to‘plab va o‘zlaridan ko‘pgina narsalarni qo‘shib, oqibatul-amr, bularning barchasini ovropaliklarga topshirdilar¹».

Lavhadan ko‘rinib turibdiki, bugungi Yevropaning taraqqiyot tamal toshi bizning Sharq, Turkiston xalqi tomonidan qo‘yilgan ekan. A. Fitrat xalqni Yevropa fani, texnikasi, sarmoyasi va tajribasini milliy iqtisodiyot ravnaqi uchun uyalmasdan, tortinmasdan jalb etish kerak deb da‘vat qilganida xuddi ana shu tamal toshni nazarda tutadi.

Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon ham o‘z davrida milliy ozodlik kurashining, Turkiston ozod va obod Vatan bo‘lishi uchun boshlangan harakatning oldingi saflarida bo‘ldi. U bir qator asarlarida o‘zining iqtisodiy dunyoqarashlarini bayon etdi. Uning «Kecha va kunduz» romani millatimiz ijtimoiy-iqtisodiy tafakkurini, uning mentalitetidagi o‘ziga xos ziyraklik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik kabi xususiyatlarini ochib berishda alohida o‘rin tutadi. Xalqimizning ana shu fazilatlarini asarning qahramonlaridan biri Miryoqub misolida Turkistonga kirib kelayotgan ilmiy-texnik taraqqiyotning milliy uyg‘onish va o‘zlikni anglash, milliy iqtisodiyotimiz tarkibida bo‘ladigan bo‘ljak chuqur o‘zgarishlarni oldindan ilg‘ay bilan salohiyatini ochib beradi.

Cho‘lpon o‘z iqtisodiy tafakkuri kuchini Noib to‘ra uyiga mehmon bo‘lib kelgan rus injenerining mezmon bilan suhbatini epizodi misolida tavsiflaydi. Ularning suhbatini zimdan kuzatib turgan Miryoqub shuni ilg‘ab oladiki, ular yashaydigan kimsasiz cho‘l bag‘ridan temir yo‘l o‘tkazilar ekan, yo‘lining muhandislik va moliyaviy masalalari hukumat darajasida hal qilingan. Bunday darak Miryoqubni harakatga chorlaydi.

«Miryoqub poyezdning qayerlardan o‘tishini bilib olgan edi...

Oradan bir hafta o‘tar-o‘tmas bezovtalik harakatga va ishga aylandi. Bir oyga yetar-yetmas, o‘sha kelajak poyezd yo‘li bo‘ylaridan Miryoqub juda ko‘p- bir necha yuz desyatina yer sotib oldi. Yerlarning hammasi deyarlik suvsiz, noobod, tashlandiq yerlar edi. Shuncha ko‘p yerga qancha oz pul ketdi. Ko‘plar bu shoshilinch savdoni bilmadilar, bilganlar Miryoqub «jinni bo‘libdi» dedilar...

Shirkat poyezd yo‘li solishga ijozat olib tayyorliklarga kirishgandan keyingina, Miryoqub qilgan ishni Noib to‘raga aytdi.

¹ A. Fitrat. Tanlangan asarlar, 1-jild «Hind sayyohi bayonoti» T., 2000, 120-bet

-Sen xuddi bir amerikalikka o'xshaysan Miryoqub- dedi to'ra.

- Lekin, chakki shu sartiya ichida tug'ilib qolgansan!!».

Cho'lpon Miryoqub timsolida xalqimizga xos uddaburonlik, zamona zaylini oldindan ilg'ab olish, mavjud sharoitda qanday harakat qilishni bilish, bozor iqtisodiyoti odamlariga xos tavakkalchilik, oz sarf bilan ko'p foyda olishga intilish, boshlangan ishning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini oldindan ko'ra bilish fazilatlarini ko'rsatadi. Miryoqub o'zidagi ana shu fazilatlarini tufayli tez fursatda qo'sha-qo'sha do'konlarga, sheriklik asosida egalik qilinadigan zavodga, bankda o'z sarmoyasiga ega bo'ladi. Demak, u ziyrakligi va iqtisodiy tafakkuri tufayli ko'zga ko'ringan tadbirkorga, mulkdorga, «kerakli odamga» aylanadi.

«Kecha va kunduz» asarining ahamiyati jihatlaridan biri ham uning bugungi iqtisodiy islohotlarimiz g'oyalari bilan, bozor iqtisodiyotiga o'tish muammolariga yechim topish bilan hamohangligidir. Unda ko'rsatilgan g'oyalar O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini yaratish, xalqimizning iqtisodiy tafakkurini shakllantirish vazifalariga xizmat qila olishidir.

NAZORAT SAVOLLARI

1. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston iqtisodiyoti qanday ahvol edi?
2. Jadidlar harakati qanday ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatda vujudga keldi? Ular o'z oldilariga qanday maqsadlarni qo'ygan edilar?
3. A. Avloniy, A. Fitrat va boshqa olimlar nima uchun Turkistondagi tuzumni, iqtisodiy ahvolini o'nglash vositasi iqtisod ilmini o'rganish dedilar?
4. Milliy iqtisodni tanazzulga uchratmaslik uchun, uni raqobatbardosh iqtisodiyot qilmoq uchun qanday iqtisodiy choralar ko'rishni taklif etildi?
5. Jadidlarning Turkiston iqtisodiyoti tarkibini o'zgartirish masalasidagi g'oyalarining bugungi mustaqil O'zbekiston iqtisodiyoti tarkibini o'zgar-tirish siyosati uchun qanchalik ahamiyatli ekanini tushuntiring.
6. «Ihroj va a'mol» san'ati nima? Jadidlar bunday san'atlarni o'zlash-tirmoq uchun mamlakatga qanday mutaxassislar kerak dedilar?
7. M. Behbudiy iqtisodiyot va tijorat sohasida inqirozga uchrashga nimalar sababchi deb bildi?

A. Cho'lpon. Kecha va kunduz. roman. Asarlar, 11 – jild, T. 1993, 99 – bet

8. Jadidlar, o‘zbek millatining boy-badavlat va farovon yashashi uchun Turkistonda barcha sharoitlar mavjud deganlarida qanday omillarni nazarda tutgan edilar?
9. A. Fitrat Turkiston musulmonlari Yevropa texnikasi, texnologiyasi, zamonaviy ilmi, sarmoyasi va tajribasini jalb qilish orqali rivojlanish kerak degan g‘oyani ilmiy jihatdan qanday asosladi?
10. Yevropaning taraqqiy etishida Sharqning qo‘shgan hissasini jadidlar qanday baholagan edilar?
11. Fayzulla Xo‘jayev va boshqa ziyolilar nima uchun agrar sohani isloh qilish ishini ustuvor vazifa deb qaraganlar? Ular ilgari surgan agrar islohot takliflari qanday edi?
12. Buyuk jadidchi olimlarimizning iqtisodiy g‘oyalar ilgari surilgan qanday asarlarini o‘qigansiz va o‘rgangansiz?

TAYANCH IBORALAR:

O‘zbek jadidlari harakati- XIX asrning oxiri XX asr boshlarida millat, Vatan taqdiri uchun o‘zlarini mas’ul deb bilgan va uni qoloqlikdan chiqarishga o‘zlarining butun vujudini, aqliy salohiyatini, kerak bo‘lsa, iqtisodiy imkoniyatlarni ham bag‘ishlovchi jadidlar deb nomlangan bir guruh o‘zbek vatanparvar, millat fidoiysi, ziyolilar harakati.

Abdurauf Fitratning «Hind sayyohi bayonoti» asari- bu asar «Abd ar-Rauf» imzosi bilan 1912- yili (hijriy 1330) Istanbulda «Bayonoti sayyohi hindi» nomi ostida fors-tojik tilida chop etilgan. «Hind sayyohi bayonoti» asari A. Fitratning iqtisodiy fikrlari bayon etilgan asardir.

Jadidlar tafakkurida raqobat va raqobatchilik- iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi raqobat ekanligi ma’lum. Biroq, raqobatchilik uchun raqobatchilik muhiti bo‘lmog‘i lozim. Jadid iqtisodiy tafakkurida raqobat va uning muhitiga oid bir qancha iqtisodiy qarashlar mavjud.

«Ihroj san’ati»- yer osti boyliklarini qazib olish.

«A’mol san’ati»- uskunalar (fabrika, zavodlar) yaratish.

Turkiston qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirish asoslari yerga ishlov berishni zamonaviy texnika asboblari ko‘chirish, dehqonchilikni intensivlashtirish, qishloq xo‘jaligiga yangi texnologiyalarni joriy etish. Irrigatsiya va melioratsiya ishlarini avj oldirish, bu masalada davlat dasturi ishlab chiqish.

Savdo va tijorat ishining milliy tamoyil-qoidalari - birinchidan, savdo va tijorat ishida Vatan, milliy, xalq manfaatlarini hisobga olinishi,

ikkinchidan, bu ishda tijorat ahli tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishni zamonaviy sanoat asosiga qurishda yordam ko'rsatishlari, sohibkorlarga amaliy madad berishlari, tovarlarni arzonlashtirish yo'llarini izlashlari, uchinchidan, yevropaliklardan savdo va tijorat qilish ilmini hamda foyda olish zahirida madaniy savdo xizmati ko'rsatishni o'rganish.

Turkiston iqtisodiyotining raqobatsizlik sabablari- birinchi, nozoalla, hisobsizlik, aql va tarbiyasizlik bizni barbod etdi. **Ikkinchi**, - naf va zararimizni bilmaganimiz, tijorat ishi va ahli zamondan bexabarligimizdan, xulosa-jaholat va nodonligimizdandir, **uchinchidan**, - «qo'ldagi bor nimasalarimizni to'y va azog'a, behuda odatlarga sarf etarmiz. Ko'rpamizga qarab oyoq uzatmaymiz. Qarz ila imorat, to'y qilarmiz, isrof qilarmiz».

1000 yillar ilgari Yevropaning iqtisodiy-ijtimoiy hayoti- 1000 yillar ilgari Yevropa xalqlari iqtisodiy va ma'naviy jihatdan qoloq bo'lgan. O'n birinchi asrda Yevropa shaharlari kichik va oddiy, qishloqlari vayron kulbalardan iborat edilar.

Yevropaning Turikstondan o'rgangan amallari- Ziroat: ko'k bug'doy, tut daraxt, guruch, xurmo, limon, paxta, qahva va nayshakar. Sanoat: shohi gazlamalar, zar to'qish, shisha, oyna va qog'oz. Ilm-fan: al-jabr va al-muqobala, handasa, chizmachilik, kimyo, hisob va hokazo.

XIV bob XXI ASR BO‘SAG‘ASIDA O‘ZBEKISTONNING IQTISODIY TA‘LIMOTI (PREZIDENT ISLOM KARIMOVNING IQTISODIY KONSEPSIYASI)

O‘tgan asrning 90-yillari boshlarida O‘zbekistonning siyosiy mustaqillikka erishuvi uning oldiga istiqbolda o‘zining zamonaviy tarkibdagi milliy iqtisodiyotini yaratish va uning asosida mamlakatda farovon huquqiy demokratik fuqarolik jamiyatini barpo qilishdek g‘oyat mas‘uliyatli strategik vazifani qo‘ydi. Jahon va milliy tarixiy taraqqiyot jarayonini o‘rganish, tahlil qilish asosida Prezident Islom Karimov O‘zbekistonni buyuk davlatga aylantirishning birdan-bir to‘g‘ri yo‘li bozor iqtisodiyotiga o‘tish degan qat‘iy fikrga keldi. Biroq, bu yo‘lning mamlakatimiz uchun o‘ziga xos va mos jihatlarining nazariy ta‘limotini yaratish lozim edi. Bu qiyin nazariy muammoga yechim aynan I. Karimov tomonidan topildi.

1. O‘zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o‘tishi

Insoniyat tarixi uchun «bozor iqtisodiyoti» deb atalayotgan yuksalish yo‘li yangilik emas. Bir qancha davlatlar va xalqlar uchun bu yo‘l bir necha asrdan beri davom etib kelmoqda. Bu yo‘l barqaror taraqqiyot, yuqori o‘shish sur‘atlari, farovon hayot va hamjihatlik yo‘li ekanligi tufayli bo‘lsa kerakki, dunyo xalqlari bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirish tomon tobora ko‘proq intilmoqdalar. Jumladan, bizning mamlakatimiz ham mustaqillik tufayli, bozor iqtisodiyotiga asoslangan farovon, demokratik fuqarolar jamiyati qurish tomon dadil odimlanmoqda. «Eng muhimi, -deb yozgan edi Islom Karimov «O‘zbekiston –bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li» risolasida, -bizning bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurishdan boshqa yo‘limiz yo‘q. To‘plangan tajriba, ilmiy tahlil va aql-idrok shundan dalolat bermoqda» (Ta‘kid bizniki-muall.)

Shunday savol tug‘ilishi tabiiy: bozor iqtisodiyoti obyektivmi, ilmiy asoslanganmi, bu yo‘ldan borish noxush oqibatlariga olib kelmaydimi. bu yo‘ldan borish tarixan adashuvchilik bo‘lmasmikin? O‘zbekiston bozor iqtisodiyotiga o‘tish konsepsiyasi muallifi I. Karimov bu yo‘l to‘g‘ri, ilmiy asoslangan ekanligini isbot qildi. Zero, jahon taraqqiyoti tajribasi, «ilmiy tahlil, aql-idrok» shu yo‘ldan borgan va borayotgan xalqlar hayoti saboq bermoqdaki, bu yo‘l to‘g‘ri, ilmiy asoslangan, samarali bandlik va farovonlikka

¹ I. Karimov O‘zbekiston bozor munosabatlariga o‘tishining o‘ziga xos yo‘li. T. 1993, 7 – bet.

olib keladigan birdan-bir holis yo'ldir. Buni quyidagi xulosalar asoslab turibdi:

Birinchidan, hozirda taraqqiy etgan, barcha iqtisodiy-ijtimoiy jabhalarda andoza, o'rnak bo'layotgan mamlakatlar hayoti va tajribasi, ularning bugungi realligi isbotsiz haqiqatdir. «Jahon sivilizatsiyasi ijtimoiy taraqqiyotning sifat jihatdan yangi yo'llarni ishlab chiqdi, tartibga solinadigan bozor iqtisodiyoti mana shu yo'lga asos qilib olingan» (I. Karimov);

Ikkinchidan, keyingi yillarda yuksak iqtisodiy o'sish, sanoat taraqqiyoti, ijtimoiy farovonlikka erishish namunasini ko'rsatayotgan Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Tayvan, Malayziya, Xitoy, Braziliya, Argentina, Chili kabi mamlakatlar bozor munosabatlari yo'lidan borib, yuksaklikka ko'tarildilar. Ular, o'z navbatida, bozor iqtisodiyotiga o'tdilar, yoki o'tmoqdalar va o'z tajribalari bilan o'tish yo'li nazariyasini ham amaliyotini ham boyitmoqdalar;

Uchinchidan, bu yo'l mamlakatda mavjud bo'lgan milliy imkoniyatlarni, resurslarni eng samarali ishlatish, eng yuqori iqtisodiy natijalarga erishishga olib keladi, aynan bozor iqtisodiyoti ana shunday tejimli xo'jalik yuritishni taqozo etadi ham. Ana shu tufayli resurslari kam yoki cheklangan mamlakatlar uchun bozor iqtisodiyoti yo'li eng maqbul hisoblanmoqda. Boshqacha bo'lishi ham mumkin emas;

To'rtinchidan, bozor iqtisodiyoti rivojining XX asr ikkinchi yarmi xususiyati shuni isbot qildiki, bu yo'l aholisi tez ko'payatgan, mehnat resurslariga boy, aholi zich joylashgan, ish kuchi to'plangan mamlakatlar uchun ayni muddao yo'ldir. Zero, bozor iqtisodiyoti ijtimoiy bandlik sharoitida rivojlanishni ta'minlaydi, bu yo'l aholi bandligini ta'minlashning eng maqbul va qulay vositalarini safarbar qilish imkoniyatini ham beradi.

Ko'rinib turibdiki, bozor iqtisodiyoti yo'lidan borish barcha davlatlar, xalqlar uchun eng adolatli va demokratik taraqqiyot yo'lidir. O'zbekiston ham insoniyatning aksariyati tanlab olib, rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyotini qurish tomon borishi obyektiv zaruratdir. Bunda bozor iqtisodiyotiga o'tishning umumiy tamoyillari, hamda respublikamizning o'ziga xos xususiyatlariga asoslangan alohida o'tish yo'li konsepsiyasini yaratish tarixiy zaruratga aylandi.

2. Bozor iqtisodiyotining umumiy tamoyillari

Mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga asoslangan yangi jamiyat qurishga kirishar ekan, uning quyidagi umumiy tamoyillari inobatga oldi va

ularga rioya qilib bormoqda. Bozor iqtisodiyotining chuqur moddiy asosini tovar ishlab chiqarish, tovar-pul munosabatlari tashkil etadi. Buning ma'nosi- ishlab chiqaruvchilar, xo'jalik yurituvchi barcha subyektlar faoliyati tovar munosabatlari bilan belgilanadi, bozor uchun ishlash, bozor talablariga moslashib ishlash, pirovard maqsad-pulni ko'paytirish, foyda olishdir. Demak, bozor iqtisodiyoti pirovard maqsad-foyda olishni oldindan ko'ra bilish yoki ana shu hisob-kitob bilan harakatni yo'lga qo'yishdir:

Bozor iqtisodiyotining eng muhim tamoyillaridan biri nafaqat iqtisodiyot subyektlarining, shu bilan birga, butun jamiyatning, uning har bir a'zosining tovar ishlab chiqaruvchiga aylanishidir. Ya'ni tovar ishlab chiqaruvchi bo'lmay turib, iste'molchi bo'lishi mumkin emasligidir. Boshqacha aytganda, bozorga «quruq qo'l» bilan borish emas, balki tovar va xizmatlar bilan uni to'yintirishdir. Bu bilan bozor iqtisodiyotining yana bir fazilati-jamiyatni mo'l-ko'lchilikka olib boriladi;

Bozor iqtisodiyotining yana bir tamoyili bu iste'molchining ishlab chiqaruvchi ustidan hukmronligiga olib kelishidir. Bunday sharoitda tovar ishlab chiqaruvchilar taqdiri to'laligicha iste'molchilar, ya'ni xalq tasarrufiga o'tadi. Daromad (pul) egasi o'zi istagan, o'ziga yoqqan tovar yoki xizmatni tanlab va istaganicha sotib olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Xuddi shu ma'noda, bozor iqtisodiyotini umuminsoniy qadriyatlardan biri desak bo'ladi.

Bozor munosabatlarining yana bir muhim unsuri-raqobat va raqobatchilikdir. Bu tamoyil bozorni shunchaki tovarlar va xizmatlar massasi bilan to'ldirib qolmay, ularning sifati, iste'mol qiymatini ham ustuvorlikka chiqaradi. Albatta, buning uchun raqobatchilik sharoitini shakllantirish kerak, raqobatbardosh tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishning iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy-siyosiy asoslarini yaratmoq darkor.

Prezidentimiz I. Karimovning «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» nomli asarida bozor iqtisodiyotining raqobatchilik va unga yaratiladigan muhit haqida juda muhim ko'rsatmalar belgilab berilgan edi. Xususiy lashtirish aynan ana shu raqobatchilik muhitini shakllantirishning moddiy asosi sifatida ta'riflanib, shunday deyiladi: «Xususiy lashtirish davomida hal qilinadigan ikkinchi muhim vazifa-ko'p ukladli iqtisodiyotni va rag'batlantiruvchi raqobatchilik muhitini vujudga keltirishdan iborat.

Raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda xususiy lashtirishning ishtiroki turlichadir. Eng avvalo, bu mulkning davlat monopoliyasi ekanligiga

barham berish va faoliyatning shunga o'xshash turlari bilan shug'ullanuvchi, xizmat ko'rsatuvchi, ammo mulkchilikning turli shakllariga-davlat, jamoa, aksiyadorlik, xususiy va boshqa shakllariga asoslangan ko'pdan-ko'p korxonalarini tashkil etishdan iborat...!».

Raqobatchilik muhitini yaratishda diversifikatsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda korxonalariga nisbatan alohida soliq siyosati ishlab chiqish va yuritish, kichik va o'rta biznesni keng miqyosida avj oldirish, o'rta va katta korxonani aksiyadorlashtirish, qishloq xo'jaligida mulkchilikning turli shakllariga asoslangan agrar tuzilma yaratish kabilar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Korxonalarimiz texnologik yaqin, hatto texnologik jihatdan bog'liq bo'lmagan mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishlari ham raqobatchilikda sinmaslik omili bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotining yuqorida qayd etilgan umumiy tamoyillarining respublikamiz xususiyatlariga bog'liq tarzda to'laqonli ishlashi esa chuqur, keng qamrovli islohotlarni talab etadi. Bunday islohotlar esa puxta ishlangan ilmiy konsepsiyaga asoslanishi lozim.

3. Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llarining xilma-xilligi va O'zbekistonning o'ziga xos va mos yo'li ta'limoti

Biz yuqorida bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'li obyektiv zarurat ekani, O'zbekiston ham bundan mustasno bo'lishi mumkin emasligi haqida to'xtalgan edik. Darhaqiqat, bozor munosabatlarini shakllantirish O'zbekistonni buyuk davlatga aylantirishning, o'zbek xalqini o'zining tarixiy buyukligini tiklashning, uning o'z tarixiy, ilmiy, ma'naviy, iqtisodiy, salohiyatiga muvofiq turmush tarzini vujudga keltirishning birdan-bir to'g'ri yo'li deb belgilangan bo'lsa-da, bunday yangi iqtisodiy tizimga tarixan qisqa muddatlarda, kamroq qiyinchiliklar chekib, o'tib olish muhim masaladir. Demak, mamlakatni bozor iqtisodiyotiga olib borishning ilmiy asoslangan konsepsiyasini ishlab chiqish zarurati tug'iladi. Bu zaruratni anglash, uning asoslarini, tamoyillari, o'tish vositalari va asosiy yo'nalishlarini belgilab olish kerak edi. Yangi jamiyat qurishning ilmiy konsepsiyasini ishlab chiqishni Prezidentimiz Islom Karimov muvaffaqiyatli ravishda uddaladi. U jahonda andozasi yo'q bozor iqtisodiyotiga o'tish konsepsiyasini yaratdi. Bugun bu konsepsiyaning g'oyat ilmiy asoslanganligi, uning to'g'riligi va haqqoniyligini jahon jamiyatchiligi e'tirof etmoqda.

Islom Karimov ishlab chiqqan O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish konsepsiyasining xalqaro e'tirofi turli xalqaro darajalarda qayd etilmoqda. Buning yana bir isboti uning «O'zbekiston-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida», «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli kitoblarining dunyoning turli tillariga tarjima qilinib, ommaviy nusxalarda chop etilayotganidir. Eng muhimi – bu konsepsiyasining hayotiyliigi, o'z samaralarini berayotganligi, O'zbekiston iqtisodiyotining o'sish sur'atlarining tobora ko'tarilib borayotganligidir, MDH davlatlari ichida eng barqaror taraqqiyot iziga tushib olganligidir. Masalan, 1996- yildan boshlab yalpi milliy mahsulotimiz o'sish sur'ati 1, 6 foizdan boshlanib, bu o'sish sur'ati 2005- yilgacha o'tgan davrda o'rtacha 4-5, hatto 7, 0 foizni tashkil etmoqda. Iqtisodiyotimizning ayrim tarmoqlaridagi iqtisodiy o'sish sur'atlari esa yana ham yuqoriroqdir.

O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish konsepsiyasini ishlab chiqishda uning muallifi bozor iqtisodiyoti va islohotlarning negizini tashkil qiluvchi yo'llari xilma-xil ekanligiga e'tibor qaratdi. Bu xilma-xil yo'llar chuqur o'rganildi, tahlil qilindi, xulosa va umumlashmalar yasaldi. Masalan, Amerika, fransuz, yapon, nemis, Lotin Amerikasi, Janubi-Sharqiy Osiyodagi yosh rivojlanayotgan mamlakatlar modellari mohiyati ochib berildi. Ana shu andozalarni tahlil etish bilan birga ularning ijobiy, biz uchun yaroqli tomonlari aniqlashtirildi. Ana shu ilmiy tahlil O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovga quyidagi xulosani chiqarishga asos bo'ldi: «Biz boshqa davlatlarning rivojlanishi jarayonida to'plangan va respublika sharoitiga tatbiq qilsa bo'ladigan barcha ijobiy tajribalardan foydalanish imkoniyatini istisno qilmaymiz. Ayni chog'da, biron-bir andozadan, hatto u muayyan mamlakatda ijobiy natijalarga olib kelgan bo'lsa ham, ko'r-ko'rona nusxa ko'chirish mutlaqo nomaqbuldir.

Shu sababli, bizning qat'iy nuqtayi nazarimiz jahon tajribasi va o'z amaliyotimizdan olingan jamiki foydali tajribalarni rad etmagan holda o'zimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'limizni tanlab olishdan iboratdir. .¹». Bu o'zimizga xos yo'l «xalqimizning hayot shartlari va musulmoncha turmush tarzining milliy xususiyatlari, Sharq madaniy olamiga mansublik», yurtimizning boy tabiiy xomashyo boyliklari, iqtisodiy potensialimiz, insoniy salohiyatlarimiz va boshqa milliy asoslarimizni hisobga olinib ishlab chiqildi.

Bu haqda I. Karimov shunday degan edi: «Bizning bozor munosabat-

¹ I. Karimov. O'zbekiston bozor munosabatlari o'tishining o'ziga xos yo'li, 25 – bet

lariga o'tish modelimiz respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini, an'analar, urf-odatlar, turmush tarzini har tomonlama hisobga olishga, o'tmishdagi iqtisodiyotni biryuqlama, beso'naqay rivojlantirishning muvaffaqiyatli merosiga barham berishga asoslanadi».

«Mustaqil rivojlanishning o'tgan davrini umumlashtirish va tahlil etish isloh qilishning O'zbekiston modeli asosli va to'g'ri bo'lib chiqdi, deb aytish uchun to'la asos beradi. Bugun uni xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, jahonning ko'pgina mamlakatlari tan olmoqda. Eng asosiysi-hayotning o'zi uni tasdiqlamoqda»¹

O'zbekiston Prezidenti I. Karimov ishlab chiqqan «O'zbekiston yo'li» Vatanimiz va xalqimizning o'ziga xos salohiyati va xususiyatlariga asoslangan. Bular –1) Milliy tarixiy turmush tarzining o'ziga xosligi; 2) Dinning kishilar ongiga o'chmas muhrlanganligi; 3) Demografik vaziyatning o'ziga xosligi; 4) Milliy tarkibning o'ziga xosligi; 5) Qulay siyosiy-geografik mavqening mavjudligi; 6) Tabiiy iqlimning o'ziga xosligi; 7) Mavjud potentsialning xosligi².

Biroq, O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish yo'li mashaqqatlardan, muammolardan, ziddiyatlardan holi yo'ldir deyish noo'rin. Bu haqda «O'zbekiston modeli»ning ijodkori I. Karimov o'zining iqtisodiyotga bag'ishlagan ilk asarlaridan biridayoq alohida ta'kidlangan edi:

«O'z istiqloq va taraqqiyot yo'limiz-bu gul bilan qoplangan yo'l emas, bu totalitarizmdan halos bo'lish va poklanish, mafkuraviylik illati yetkazgan ziyon zaxmatlarni bartaraf etishning qiyin, uzoq davom etadigan yo'lidir. Bu jahon sivilizatsiyasiga qo'shilish, chinakam siyosiy va iqtisodiy istiqloqlarga erishish yo'lidir.

Bu yo'ldan faqat haqiqiy vatanparvargina, o'z mamlakati va xalqning taqdiri uchun butun qalbi va yuragini bag'ishlagan, o'z manfaatlarini respublikaning qudratli va farovon bo'lishiga erishish maqsadlariga bo'ysundira oladigan, bunga o'zini kuch-g'ayrati, tashabbusi, bilimi va mehnatini bag'ishlay oladigan kishilargina yura oladi»³.

Bu yerda shuni ta'kidlash joizki, I. Karimov nafaqat «O'zbekiston yo'li» ning nazariyotchisi, ayni damlarda u o'z Vatani va xalqining istiqloq yo'lidagi haqiqiy fidoyisi, millatni shu yo'l to'g'riligiga ishonтира olgan dohiysi va o'z orqasidan ularni ergashtira olgan darg'asi bo'lib maydonga chiqdi.

¹ O'zbekiston XX1 asr bo'sag'asida. T., 1997, 188–189 – betlar.

² Bozor iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyoti. Darslik. T., 2000, 99–100 – betlar.

³ O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'li. T., 1993, 127 – bet

4. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning besh tamoyili.

Konsepsiya muallifi Islom Karimov qayd etgan ediki, «O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'lini yaratish uchun zamin yo'q emas. Sharqda odamlar azaldan savdo-sotiq bilan shug'ullanganlar. Shu boisdan, bu yerda bozor sharoitida rivojlanishning o'z tarixiy tajribasi mavjud'». Muallif xalqimizning o'z milliy tarixiy tajribasiga asoslanib, o'zining besh tamoyilini yaratdi. Bu tamoyillar iqtisodiyot ta'limotlar tarixiga haqiqatdan ham yangilik bo'lib kirdi.

Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi tamoyili. Sobiq sotsialistik jamiyatda butun ijtimoiy hayot, xo'jalik faoliyati ham «Siyosat iqtisodiyotidan ustun bo'ladi, ustun bo'lmasligi ham mumkin emas» degan qoidaga asoslangan edi. Mamlakat iqtisodiyotining tuzilishi, milliy daromadning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi, iqtisodiy siyosat ana shu shiorning talablariga bo'ysundirilgan edi. Bu siyosat qanday oqibatlariga olib kelganligi hammaga ayon. Ana shu holatni chuqur tahlil etib, undan kerakli xulosa chiqargan Predizentimiz iqtisodiyot va siyosat alohida-alohida ijtimoiy munosabatlar ekani, ularning har biri o'z qonunlari bilan rivojlanishi, bular o'rtasidagi nisbatda iqtisodiyotning ustuvorlik qilishi kerakligi haqidagi xulosaga keldi.

Bu qoida iqtisodiyot hayotning asosi ekanligi to'g'risidagi umumbashariy qonuniyatga asoslanadi. Zero, kuchli zamonaviy tarkibiy tuzilishga, moddiy, ilmiy va ijtimoiy asosga suyangan iqtisodiyot bo'lmasa, mamlakat xalqining farovonligi ham, milliy xavfsizligi va tinchligi, xalqaro nufuzi ham bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun ham mustaqil milliy iqtisodiyotni barpo etish, uning tarkibiy tuzilishini tubdan o'zgartirish uchun harakat boshlandi. Albatta, amalda iqtisodiyotning ustuvorligini ta'minlash oson kechmaydi, bu juda chuqur o'ylangan iqtisodiy siyosat o'tkazishni taqozo etadi. I. Karimov bu siyosatni izohlab quyidagilarni yozgan edi: «Biz esa yengil yo'lni qidirmadik. Isloh qilishning dastlabki bosqichlarida iste'mol bozorini bir qadar cheklashga majbur bo'ldik. Ayni chog'da, mablag' va zaxiralarni iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarga sarflab, xorijga mahsulot tayyorlaydigan, ilg'or texnologiya bazasi bilan jihozlangan zamonaviy korxonalar barpo etib, ichki bozorni o'z mollarimiz bilan to'ldirish yo'lidan bordik. Shu maqsadlardan kelib chiqib, o'z mablag'larimiz va olgan qarzlarimizning asosiy qismi investitsiyalarga, respublikaga yangi texnologiya va texnika keltirishga sarflanmoqda. Iste'molni

¹ O'sha asar, 33 – bet

emas, balki investitsiyalarni ko'paytirdik. Bugunga kelib bu siyosat o'z samarasini bermogda...¹».

Xalqimiz va butun dunyo ko'z oldida milliy iqtisodiyotimizning moddiy tayanchi bo'lgan ulkan korxonalar qurildi va qurilmoqda, hatto ilgari bo'lmagan iqtisodiyot sohalari qad ko'tarmoqda. Bu O'zbekiston dunyoga tanilishi, hamkorlik va jahon iqtisodiga qo'shilishi uchun zamin yaratish demakdir, bu iqtisodiyot haqiqatan ham siyosatga nisbatan ustuvor munosabat ekanini amalda isbotlanishi demakdir.

Davlat bosh islohotchi bo'lishligi tamoyili. Bu tamoyil, avvalo, umumbashariy qadriyatlardan kelib chiqadi. Zero, I. Karimov «O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» nomli risolasida yozganidek, jahon tajribasi iqtisodiyotni davlat yo'li bilan tartibga solib turish zarurligini ko'rsatdi; buning ustiga tom ma'noda o'zini o'zi tartibga solib turadigan bozor yo'q, hamma davrlarda davlat o'z mavqeyiga ko'ra iqtisodiyotga ta'sir etib kelgan. Ammo bozor iqtisodiyotiga o'tish barcha mamlakatlarda bir xil kechmaganidek, davlatning yetakchilik roli ham har xil kechadi. O'zbekiston ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini quradi, bunda davlat tartibga solib turuvchi rol o'ynashi muqarrardir.

Xo'sh, davlatning bosh islohotchi va iqtisodiyotni tartiblashtirib turuvchi bo'lishini nimalar taqozo etadi?

Bu savolga Prezidentimizning bir qator asarlari va chiqishlarida aniq javoblar mavjud. Birinchidan, eski tuzum parchalangan, yangi jamiyat hali to'la qurilmagan bir sharoitda «iqtisodiyotni boshqarishni qo'ldan chiqarib yuborish, uning taraqqiyotini o'z holiga tashlab qo'yish mumkin emas»; ikkinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish boshlangan davrda respublikamiz aholisining turmush darajasi nisbatan past, u o'zini o'zi himoya qila olmaydi. Bunday sharoitida davlat kerak, u o'tish davrida aholi manfaatlarini himoya qilish uchun milliy daromadni qayta taqsimlash vositasida unga tayanch bo'ladi; uchinchidan, bozor iqtisodiyotini qurish g'oyat qiyin vazifa, ayniqsa, iqtisodiyoti nochor va tarkibiy tuzilmasi biryozqlama bo'lgan mamlakatda.

Bozor munosabatlarining qaror topishi davrida «davlat islohotlar jarayonida faol ishtirok etishi, uning tashabbuskori bo'lishi, islohotni izchillik va qat'iylik bilan amalga oshirish shart». Davlatning bu boradagi yetakchiligi shundaki, u yangi iqtisodiyotga tezroq va katta qiyinchiliklarsiz

¹ I. Karimov O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. » T. 192 – 193 – betlar

o'tishga yordam beradi, islohotlarning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqadi, islohotlarni amalga oshirish dasturini tuzadi va ularni amalga oshirishning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy vositalarini belgilaydi. Islohotlar konsepsiyasi muallifi Islom Karimov bu masalada shunday qat'iy fikrni aytadi: «. davlat islohot jarayonining barcha bosqichlarida yetakchi o'rinda turishi, bu jarayonning markazida bo'lishi shart». Darvoqe, bugun bu tamoyilning naqadar to'g'ri ekan MDH davlatlaridagina emas, butun dunyo miqyosida e'tirof etilmoqda.

Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish tamoyili. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish tamoyili taraqqiyotning evolyutsion yo'li, zarurat bo'lib u bir qancha sabablar bilan bog'liq ekanligini konsepsiya muallifi I. Karimov bir qancha dalillar bilan asoslab beradi. Birinchidan, O'zbekistonning eng yaqin tarixi sobiq sotsialistik tuzumi, uning istiqboldagi tuzumi bilan-«bir-biri bilan mutlaqo kelisha olmaydigan ikki xo'jalik tizimidir». Bunda eski iqtisodiyotni takomillashtirish emas, balki tamomila yangi xo'jalik yuritish tizimini barpo etish talab etiladi. «Bu bir sifat holatidan ikkinchisiga o'tishdir». Shuning uchun o'tish vazifalarini birdaniga amalga oshirib bo'lmaydi, u bir qancha bosqichlarni o'z ichiga oluvchi nisbatan uzoq davr doirasida amalga oshadi; ikkinchidan, yangi iqtisodiy tizimni farmonlar va qonunlar chiqarish bilan qurib bo'lmaydi, bunday iqtisodiyot tegishli infrastrukturani va huquqiy bazani yaratishni talab etadi.

Qonunning ustuvorligi, hamma uchun tengligi tamoyili. Prezidentimiz o'zining Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq oltinchi sessiyasidagi «Adolat-qonun ustuvorligida» nomli ma'ruzasida uqtiradiki, «biz tanlagan taraqqiyot modeli bozor iqtisodiyotiga tayangan ochiq demokratik davlat qurish, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantiradigan yangi hayot barpo etish harakatidamiz», «bir tomondan, ko'p asrlik tarix, buyuk madaniyat, yuksak milliy an'analar, muqaddas qadriyatlarga, ikkinchi tomondan esa-jahon xalqlarining eng ilg'or tajribasiga» asoslanishi bilan birga qonunlar ustuvorligiga ham suyanadi¹

Qonunlarning ustuvorligi tamoyili shuni bildiradiki, qabul qilingan Konstitutsiyamiz, barcha boshqa qonunlar hech istisnosiz hamma tomondan hurmat qilinishi va ularga rioya qilinishi kerak. Har bir fuqaro nafaqat qonunlar talabini bilishi, ularga so'zsiz amal qilishi, balki boshqalarning ham qonunlarga rioya qilishlarini nazorat qilmog'i demokratik jamiyat qurishning talabiga aylanadi. Qonunlarning ustuvorligini

¹ O'zbekiston ovozi, 2001 – yil. 30 – avgust

ta'minlash tamoyilining mohiyatini I. Karimov yana quyidagicha izohlaydi:

«Qonun ustuvorligini ta'minlash, shaxs, oila, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlarini muhofazasini kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, fuqarolarni qonunga bo'ysunish va hurmat ruhida tarbiyalash-bu rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan chinakam demokratik, huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurishning nafaqat maqsadi, balki uning vositasi, eng muhim sharti hisoblanadi¹».

Kuchli ijtimoiy siyosat. Bu tamoyil Islom Karimov asarlarida nihoyatda mukammal va atroflicha ishlab chiqildi. «Aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalash kechiktirib bo'lmaydigan, eng ustuvor vazifa, amaliy harakatlarning eng asosiy qoidasi bo'lib qoldi va shunday bo'lib qoladi» deganda uning ijtimoiy himoya tamoyili o'z ifodasini topgan edi.²

I. Karimovning ijtimoiy siyosat konsepsiyasida keng qamrovli himoya mexanizmi ishlab chiqilgan. Bu mexanizm bo'g'inlari asosan quyidagilardir: ijtimoiy himoyaning huquqiy bazasini yaratish, aholining nogiron, nafaqador, ko'p bolali va kambag'al oilalari, o'quvchi yoshlarga yordam berish, ish bilan vaqtincha ta'minlanmagan kishilarga nafaqa to'lash va ish joylari yaratish, ma'lum davrda narxlarning erkinlashuvini to'xtatib turish va asta-sekin bozor qonunlariga moslashib borishiga yo'l ochish, boqimandalik va tekis taqsimlash illatlarini batamom tugatish, pulning qadsizlanishini to'xtatish, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirib borish asosida iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini tubdan o'zgartirish (bevosita iste'mol buyumlari ishlab chiqishga yo'naltirilgan iqtisodiyot barpo etish) va boshqalardir.

Kuchli ijtimoiy himoyalash konsepsiyasi ilmiy jihatdan muallifning boshqa sohalardagi iqtisodiy ta'limotlari bilan chambarchas bog'liqdir. Bu bog'liqlikni, ya'ni bozor munosabatlarini O'zbekistonda barpo etish-saqlash ta'limotini shunday ta'riflaydi: «Samarali ijtimoiy siyosatni iqtisodiyotni barqarorlashtirish, tarkibiy o'zgarishlar, bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari bilan uyg'unlashtirib amalga oshirib borgan taqdirdagina ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etish mumkin³».

¹ O'sha joyda

² I. Karimov. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li asari, 74 – bet.

³ O'sha asar, 83 – bet

5. Doimiy rivojlanib va boyib boruvchi ta'limot.

O'zbekiston Prezidenti yaratgan bozor iqtisodiyotiga o'tish ilmiy ta'limoti boshqa iqtisodiy qarashlar, g'oyalar, ta'limotlardan tubdan farq qiladi. Bu haqda muallif shunday dedi: «Mustaqil rivojlanishning o'tgan davrini umumlashtirish va tahlil etish isloh qilishning O'zbekiston modeli asosli va to'g'ri bo'lib chiqdi, deb aytish uchun to'la asos beradi, bugun uni obro'li xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, jahonning ko'pgina mamlakatlari tan olmoqda. Eng asosiysi-hayotning o'zi uni tasdiqlamoqda!»

Prezidentimiz O'zbekistonda bozor munosabatlarini shakllantirish ilmiy konsepsiyasini mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar natijalari asosida yangi-yangi qoidalar bilan boyitib borayotir. U yuqorida qayd qilingan asarida o'z konsepsiyasi ro'yobga chiqishining vositalarini ham aniqlashtirib berdi. Bular quyidagilardir: birinchidan, inson manfaatlarini ro'yobga chiqaruvchi shart-sharoit yaratish orqaligina islohotlar amalga oshadi; hozirgi sharoitda «har bir oila boy bo'lsa, davlat boy bo'ladi» degan qoidaga rioya qilinsa, islohotlar tezroq samara beradi; ikkinchidan, «mamlakatda chinakam o'rta mulkdorlar sinfi shakllangan taqdirdagina islohotlar sezilarli samara beradi, mulkchilik masalalari hal bo'ladi»; uchinchidan, «biz ko'p ukladli iqtisodiyotni vujudga keltirish vazifasini qo'ymoqdamiz. Bunda ustuvorlik xususiy mulkka –kichik va o'rta biznesga beriladi»; to'rtinchidan, qimmatbaho qog'ozlar bozorini rivojlantirish, pul mablag'larini qimmatbaho qog'ozlar bozoriga jalb etish, aksiyalashtirish, fond bozorida faol qatnashish; beshinchidan, «Ishlab chiqarishni, iqtisodiyotda vujudga keltirilayotgan huquqiy doirada o'zgartirib borish». Asosiysi, «bunday o'zgarishlar islohotlarning o'ziga kafolat beradi»; oltinchidan, nodavlat sektordagi o'zgarishlarga doimo katta ahamiyat berib borish, qishloqda bozor mexanizmlarini rivojlantirish, dehqonda sohibkorlik hissini uyg'otish; yettinchidan, iqtisodiyotning hududiy tuzilishini takomillashtirib borish, hududiy imkoniyatlardan samarali foydalanish; sakkizinchidan, respublikani hayotiy muhim tovarlar bilan o'z milliy imkoniyati hisobiga ta'minlashga ustuvorlik berib borish va boshqalar.

Perezidentimiz tomonidan ishlab chiqarilgan bu besh tamoyil hayot sinovidan o'tdi. Amaliy islohotlar jarayonida, xususan, XXI asr arafasi va uning dastlabki yillarida mamlakatimizning rivojlanishi strategiyasi, islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilash borasidagi faoliyatimizni jadallashtirish maqsadida bu tamoyillar Oliy Majlisning 1-chaqiriq XIV sessiyasida quyidagi oltita ustuvor yo'nalish bilan to'ldirildi:

¹ I. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. T. 1998, 189 – bet.

1. Mamlakat siyosati, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish.

2. Jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirish.

3. Kadrlar masalasini muvaffaqiyatli hal qilish.

4. Xalq turmush darajasining izchil va barqaror o'sishi, aholini yanada kuchli ijtimoiy himoya qilish.

5. Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash.

6. Jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni, sarhadlarimiz daxlsizligini, mamlakatimiz hududiy yaxlitligini ta'minlash¹

6. Iqtisodiy konsepsiyaning yangi jihatlari

A) Iqtisodiy o'sish sur'atlari masalasida

Prezidentimiz iqtisodiy o'sish sur'atlari borasidagi ilmiy-iqtisodiy konsepsiyasini boyitgan yangi jihatlari nimalardan iborat, konsepsiyaning dinamik yangilanib borishini nimada ko'rish mumkin? Bu boradagi yangi jihatlari quyidagilardir:

Birinchidan, jamiyatimiz taraqqiyotidagi iqtisodiy o'sish sur'atlari iqtisodiyotimizning barqaror o'sib borayotgani, bozor iqtisodiyotiga o'tish davriga xos tarkibiy o'zgarishlar, sifat yangilanishlari jarayonini tavsiflaydi;

Ikkinchidan, bu davr o'sish ko'rsatkichlari xalq turmush hayoti darajasiga qanchalik ta'sir etayotganini ifodalaydi;

Uchinchidan, bugungi kundagi o'sish sur'atlariga, garchi ularning o'z miqyos va ahamiyati katta bo'lsa-da, bu ko'rsatkichlarga haddan ziyod mahliyo bo'lish yaramaydi.

To'rtinchidan, «muayyan davrdagi iqtisodiy faoliyat natijalariga va eng avvalo, sifat ko'rsatkichlariga ko'proq e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi».

Iqtisodiy o'sish sur'atlari mohiyati tahlil etilganda: iqtisodiyotimizda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning barqarorligi oshganini, korxonalarining moliyaviy ahvoli ancha yaxshilanganini bank sohasida o'tkazilayotgan islohotlar yanada rivojlanganini ko'ramiz.

Shuningdek, keyingi yillarda birinchi marta chetga mahsulot eksport qilish hajmining o'sishi ta'minlandi. Mulknii davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, kichik biznes va xususiylashtirishni rag'batlantirishning sur'ati va miqyoslari sezilarli darajada o'sdi. Mo'ljallangan investitsiya dasturlari to'liq amalga oshirilib borilmoqda.

Iqtisodiy o'sish tobora barqarorlashib, katta miqyos va ko'lamlik kasb etib boradi.

¹ I. Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T. «O'zbekiston» nashriyoti, 1999—yil

Ammo XXI asr boshlaridanoq mamlakatimiz iqtisodiyotidagi barqaror iqtisodiy o'sish saqlanib qoldi. 2005- yildan boshlab esa iqtisodiy o'sish sur'atlari ko'tarila boshlandi. Bu haqda Prezidentimiz I. Karimov Vazirlar Mahkamasining 2006- yil 10- fevraldagi «Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim» nomli ma'ruzasida 2005- yilda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va 2006- yilda islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlari haqida to'xtalib, shunday dedi: «2005- yilda iqtisodiyotimizning iqtisodiy o'sishi sur'atlari ko'zda tutilganidek darajada ta'minlandi, yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati 2004- yilga nisbatan 7 foizga, sanoat ishlab chiqarishi 7, 3 foizga, xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish 6, 2 foizga o'sdi, ayni chog'da, inflyatsiya darajasi 7, 8 foizni tashkil etdi, xususiy sektor, ayniqsa, kichik biznes, fermer xo'jaliklari va tadbirkorlikni rivojlantirishda tub burilish bo'ldi. Bu esa 2006- yilda bundan ham yuqoriroq o'sish sur'atini ta'minlashga chuqur zamin yaratilganini bildiradi»¹

B) Iqtisodiyotdagi o'sishning eksportning o'sishiga bog'liq ekanligi xususida.

Iqtisodiy tafakkurning avval tushunchasiga binoan mamlakat iqtisodiy o'sish darajasini, makroiqtisodiy salohiyatining o'sish darajasini makroiqtisodiy ko'rsatkichlar belgilar edi. Biroq, iqtisodiy taraqqiyot konsepsiyasining Prezidentimiz yaratgan tamoyiliga ko'ra, milliy iqtisodiyotning rivojlanish darajasi endilikda mamlakat eksport salohiyatining ortib borishiga bevosita bog'liq bo'lib qolmoqda.

Mamlakat eksport qudratining o'sish sur'atini oshirmoq uchun iqtisodiyot subyektlarini eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga qiziqtirish, rag'batlantirish lozim. Bunda korxonalar o'z yo'nalishlarini keskin o'zlashtirishi talab etiladi. Buning uchun ularni doimiy ravishda eksportga mahsulot ishlab chiqarishga rag'batlantiradigan kuchli omillarni vujudga keltirish kerak.

Bunday rag'batlantiruvchi omillar qaysilar? Bular boj to'lovlari va aksiyalar miqdorini qaytadan ko'rib chiqish, eksportga soliq ta'siri darajasini aniqlash, eksport mahsulotlarini tashishdagi transport harajatlarni kamaytirish choralarini ko'rish, ishlab chiqaruvchilarga yetarli haq-huquqlar berish, eksportga mahsulot tayyorlayotgan korxonalarga imtiyozlar berish, valyuta siyosatini erkinlashtirish, milliy valyutamiz to'la konvertatsiyalashuviga o'tish jarayonini ijobiy kechishini ta'minlash, valyuta rezervlarini izlab topish va shu kabilardir.

¹ Qarang. «O'zbekiston ovozi», 2006 – yil, 11 – fevral.

V) Bozor iqtisodiyoti asoslarining yaratilganligi

Iqtisodiy adabiyotlar va muloqotlarda hamon O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti asoslari yaratilmaganligi, bu ish uzoq davom etishi haqida fikrlar aytib turiladi. To'g'ri, bozor iqtisodiyotiga o'tish bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan murakkab iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy jarayondir. Biroq mustaqil taraqqiyotimizning 15 yilida bu borada juda katta ishlar amalga oshirildi, mamlakatimiz milliy iqtisodiyotini yaratish borasida ulkan qadamlar qo'yildi. Ayniqsa, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, xorijiy investorlarga qulay shart-sharoitlar yaratib berish, kichik va o'rta tadbirkorlikni yo'lga qo'yish, bank islohotlarini o'tkazish borasida ishlar hatto xalqaro miqyosda e'tirof etilmoqda.

Bozor iqtisodiyoti asoslari yaratilganligi, bundan buyon milliy taraqqiyotimiz jadal o'sib borishi nimalar bilan baholanadi?

Birinchidan, mamlakatimizda tarkibiy o'zgarishlar va aholi turmush darajasining o'sishiga xizmat qilayotgan iqtisodiy o'sish ta'minlanmoqda.

Ikkinchidan, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi o'zaro to'lovlar ancha yaxshilandi. Masalan, korxonalarining to'lov muddati o'tib ketgan debitorlik qarzlari qisqardi.

Uchinchidan, endilikda chetga mahsulot eksport qilish hajmi o'smoqdaki, bu iqtisodiy o'sishimizning asosi bo'ldi.

To'rtinchidan, belgilangan investitsiya dasturlarining to'liq bajarilganligi iqtisodiyotimiz bozor iqtisodiyotining yuqori darajasiga chiqayotganini isbotladi.

Beshinchidan, tarkibiy o'zgarishlar (bevosita eksport qila olish salohiyatining vujudga keltirilganligi) endilikda yurtimizda iqtisodiy o'sishning hal qiluvchi omiliga aylanib borayotir.

Oltinchidan, iqtisodiyotdagi chuqur ijobiy siljishlar iqtisodiy infratuzilma bo'g'inlarida ham islohotlarni chuqurlashtirish imkonini yaratayotir.

Yettinchidan, xalq xo'jaligimizning salmoqli tarmog'i bo'lgan qishloq xo'jaligida ham bozor munosabatlariga xos bo'lgan xo'jalik yuritish shakllari- dehqon, fermer, ijara, pudrat xo'jaliklari vujudga keltirildi. Endilikda ularda yangi bozor iqtisodiyoti shakllarining yuksak samaradorligini ko'rsatishga harakat boshlandi.

G) Iqtisodiyotni erkinlashtirish masalasi

Umuman olganda, insoniyat, xususan har bir inson, ayniqsa, iqtisodiyot va xo'jalik subyektlarining erkinligi masalasi, har doim dolzarb bo'lib kelgan va uning ro'yobga chiqishi g'oyat katta qiyinchiliklar,

kimlarningdir manfaatlariga zid bo'lganligi tufayli chuqur ziddiyatlarga uchragan. Bu masala bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida har qachongidan ham dolzarbroq vazifaga aylandi. Zero, iqtisodiy erkin bo'lmay turib iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlar ro'yobga chiqmasligi aniq.

Agar Prezident I. Karimovning barcha ilmiy asarlarini, uning ma'ruzalari va chiqishlarini ushbu muammo doirasida alohida tadqiq qilinsa ma'lum bo'ladiki, mamlakat rahbari «erkinlik» kategoriyasiga alohida urg'u beradi va uni o'tkazilayotgan islohotlar taqdiriga bog'liq qilib qo'yadi.

Avvalo, u «iqtisodiyotni erkinlashtirish»ning mazmun-mohiyatini ochadi, uning salohiyatini hamda erkinlashtirishning yo'l-yo'riqlari va vositalarini ko'rsatib beradi. Prezidentimizning Vazirlar Mahkamasining 1999- yil yakunlariga va 2000- yil ustuvor yo'nalishlariga hamda 2000- yil yakunlari va 2001- yil ustuvor vazifalariga bag'ishlangan «**Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish-eng muhim vazifamiz**» deb nomlangan ma'ruzalari yuqoridagi iqtisodiy munosabatni ochishning ilmiy misoli bo'la oladi.

Ma'lumki, iqtisodiyotni erkinlashtirish mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish bilan belgilanadi. Ana shu ma'noda mulkni davlat egaligi shaklidan boshqa mulk shakllariga shunchaki aylantirilishi asosiy masala emas. Masalaning mohiyati, xususiy shakldagi mulkning realizatsiya qilinishi mazmunan shunga olib kelishi kerakki, undan olinayotgan iqtisodiy va ijtimoiy samara ilgarigi shakldagi mulk samarasidan yuqori bo'lishi darkor. Shu ma'noda I. Karimovning quyidagi so'zlari fikrimizni tasdiqlaydi: «Mulk shakli nomigagina o'zgarimoqda, tarmoq idoralari, korxonalar ma'muriyati va rahbarlari darajasidagi qarshilik hamda ayrim hollarda mulkdorlar yangi avlodining haq-huquqini himoya qila olmasligi oqibatida mehnatga munosib rag'bat o'zgarimasdan qolmoqda¹».

Iqtisodiy erkinlashtirish mulkka ega iqtisodiyot subyektlari bo'lmish tadbirkorlar bilan ham belgilandi. Shu ma'noda erkinlashtirish «**bozor munosabatlariga xos qudratli, ichki omil**» bo'ladi. (I. Karimov). Iqtisodiyotni erkinlashtirishning yana bir kuchli jihati, xorijiy investorlarni mamlakat iqtisodini qayta qurish va tarkibiy tuzilmasini o'zgarishiga xizmat qilishidir. Bu yo'nalish ham qo'shma korxonalar qurish, mavjud xususiylashgan korxonalar aksiyalarini xorijiy investorlarga sotish orqali amalga oshiriladi.

D) Bandlik-aholi turmush farovonligini oshirish sharti

Ma'lumki, aholini ish bilan bandligini ta'minlash masalasi ijtimoiy himoya tamoyilining bosh omili sifatida juda muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ Qarang. O'sha joyda

Zero bu ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy barqarorlikka erishishda belgilovchi vositalardan hisoblanadi. Prezidentimizning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi va Senatining 2005- yil 28- yanvardagi majlisida «Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilishdir» deb nomlangan ma’ruzasida hamda Vazirlar Mahkamasining 2006- yil 10- fevraldagi majlisida «Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim» deb nomlangan ma’ruzasida aholi bandligi masalasini iqtisodiyotni izchil rivojlantirish va aholi turmush darajasini oshirish sharti sifatida dolzarb qilib qo‘ydi. Bu ma’ruzalardagi yangi ijodiy fikr shundan iboratki, **birinchidan**, yirik korxonalarining aholi xonadonlarida mayda xususiy sexlar ochishni tashkil etish va uni rag‘batlantirish; **ikkinchidan**, kichik korxonalarda ishlaydiganlarga, ayniqsa, qishloq joylarida kasanachilik bilan shug‘ullanishga keng imkoniyatlar yaratib berish; **uchinchidan**, fermerlarga xizmat ko‘rsatishning bozor infratuzilmasini shakllantirish; **to‘rtinchidan**, shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorvachilikni rivojlantirishni rag‘batlantirishdir. Bu yo‘nalishlar aholi bandligini ta‘minlashning islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada demokratlashtirish bosqichidagi hal qiluvchi omillari bo‘lishi tabiiy.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. O‘zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o‘tish zarurati nimada?
2. Boshqariladigan, ijtimoiy himoyalangan bozor iqtisodiyotining mohiyati nimada?
3. Bozor iqtisodiyotining umumiy tamoyillarini aytib bering.
4. Nima uchun bozor iqtisodiyoti umumbashariy qadriyat deyiladi?
5. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish O‘zbekiston modeli mohiyati nimalar bilan tavsiflandi?
6. Bozor munosabatlariga o‘tishning Islom Karimov ishlab chiqqan tamoyillari ijtimoiy-siyosiy faoliyatimizda qanday amalga oshmoqda?
7. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tishni Islom Karimov qanday asoslaydi?
8. O‘zbekiston ham G‘arb davlatlari kabi bozor munosabatlariga o‘tish uchun yuz yillar sarflaydimi?
9. O‘zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrini tarixan qisqartirishiga nimalar asos bo‘ladi?
10. Siz Islom Karimov iqtisodiy ta‘limotlarining ijodiyligi va hayotiy-ligini qanday tushunasiz?

TAYANCH IBORALAR:

Bozor iqtisodiyoti– tovar ishlab chiqarish va tovar-pul munosabatlarining hukmronligiga, ularning o'ziga xos qonunlariga asoslangan alohida yangi iqtisodiy tizim, u o'zini o'zi ta'minlash, moliyalashtirish, iqtisodiyot subyektlarining erkinligi, o'z mulkiga egaligiga asoslangan ijtimoiy himoyalangan, loshqariladigan iqtisodiyotdir. Bu iqtisodiyotda iqtisodiyot subyektlari o'rtasidagi munosabatlar erkin va ixtiyoriy aloqalarga asoslanadi, iqtisodiy faoliyat natijalari-mahsulotlar va xizmatlar faqat ularning egalarigagina tegishli bo'ladi va ularning o'zi tasarruf etadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish zarurligi. Faqat bozor iqtisodiyoti yo'li orqaligina barqaror taraqqiyotga, o'sish sur'atlariga, ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikka, demokratik fuqarolik jamiyatiga, jahon iqtisodiyoti bilan integratsiyalashuvga, umumjahon mehnat taqsimoti afzalliklaridan foydalanib, yuqori samarali milliy iqtisodiyot qurish mumkin. Buni bozor munosabatlari yo'lidan borayotgan mamlakatlar tajribasi isbotlab turibdi. Shuning uchun «bizning bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurishdan boshqa yo'limiz yo'q» (I. Karimov).

Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari (modellari) xilma-xildir. Jahonga «Amerika», «fransuz», «nemis», «yapon», «Xitoy», «Singapur», «Janubiy Koreya», «shved» kabi modellar allaqachon tanish. Biroq har bir mamlakat bu iqtisodiy tizimga o'ziga xos va o'ziga mos yo'ldan borishi obyektiv haqiqat bo'lganligi uchun O'zbekiston ham bunday iqtisodiyotni qurishga o'ziga xos va mos yo'ldan boradi. Ammo, «**barcha ijobiy tajribalardan foydalanish imkoniyatini istisno qilmaydi**» (I. Karimov).

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning besh tamoyili I. Karimov tomonidan ilgari surilgan qoidalar. Ular iqtisodiyotning mafko'radan holi bo'lishida va uning ustuvor ekanligida, davlatning bosh islohotchi bo'lishida, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tishda, qonunlarning ustuvorligida va aholini kuchli ijtimoiy himoya qilish mexanizmida o'z ifodasini topadi. Bu tamoyillar xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etildi va ular xalqaro maqom tusini oldi, bu esa ularning chuqur ilmiylikka ega ekanini bildiradi.

Iqtisodiyot tarkibining o'zgarishi- iqtisodiy islohotlarning bosh strategik maqsadi. Iqtisodiyot tarkibini o'zgartirish degani milliy iqtisodiyot tarkibida bevosita iste'mol buyumlari ishlab chiqarishga yo'naltirilgan iqtisodiyot qurish demakdir. Faqat shunday tarkibdagi iqtisodiyotgina samarali ijtimoiy siyosat yurgazishga, bozor munosabatlariga dadil, bosqichma-bosqich o'tib borishga, ijtimoiy yo'naltirilgan, tartibga solinib boruvchi iqtisodiyotni barpo etishga qodir.

Iqtisodiy o'sish sur'atlari- iqtisodiyot rivojlanishining samaradorligini ifoda etuvchi iqtisodiy ko'rsatkichdir. Faqat bozor iqtisodiyotigina barqaror va samarali o'sish sur'atlarini ta'minlay oladi. Biroq, o'sish sur'atlariga yildan yilgan o'sib boraveradigan unsur sifatida qarash ham to'g'ri emas. Agar iqtisodiy o'sish yuqori tarkibiy o'zgarishlarga yangi tarmoqlar va mahsulotlar yaratishga, investitsiya kiritishga, aholi turmush darajasining ortishiga olib kelsa, ijobiy ham deb baholanmog'i darkor. Iqtisodiy o'sish masalasida «sifat ko'rsatkichlariga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi» (I. Karimov).

Bozor iqtisodiyoti asoslarining yaratilganligi. I. Karimov 2000- yilning 16- fevralida Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida respublika-mizda «**bozor iqtisodiyotining asoslari yaratildi**» degan xulosani berdi. Bunday xulosaga kelishning ma'lum asoslari bor, albatta. Bular nodavlat sektorning salmog'i ustuvor bo'lib qolganida, qishloq xo'jaligidek asosiy tarmoqda u mutlaq ustuvorlik kasb etganida, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar sezilarli bo'lganligida, xo'jalik subyektlari o'rtasidagi to'lovlar jiddiy yaxshilanib borayotganida, eksport hajmining muttasil ortib borayotganida, investitsiya dasturlari bajarilayotganida, iqtisodiy infratuzilma bo'g'inlari rivoj topayotganida, yangi xo'jalik shakllari keng yo'l topayotganida ifodalinoqda.

Iqtisodiyotning erkinlashuvi- mulkchilik tizimida davlat mulkining salmog'i kamayib, nodavlat salmog'ning sezilarli ortishi, xorij sektorining mamlakat iqtisodiyotida o'z o'rnini topib borishi. Mulkdorlar sinfining shakllanib borishi. Xususiylashgan korxonalar aksiyalarida xorij sarmoyadorlari ulushining ko'payib borishi, tadbirkorlik xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida rivoj topib borishi, milliy korxonalarimizning eksport salohiyatining ortib, umumjahon iqtisodiyoti bilan integratsiyalashib, baynalmilallik kasb etib borishidir.

1. Qur'oni karim, T., 1992
2. Hadislar, 2-jild, T., 1997
3. Muxtasar, -T., 1995
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, T., 2000.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida. «Xalq so'zi» gazetasi, 2006, 24-mart.
6. Karimov I. A. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li, T., 1993
7. Karimov I. A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarini chuqurlashtirish yo'lida, T., 1995
8. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari, T., 1997
9. Karimov I. A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori T., 1998
10. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin, T., 1994
11. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q, T., 1998
12. Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari, T., 1999
13. Karimov I. A. Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal – Avesto kitobining 2700-yilligi tantanasida so'zlangan nutq,-T., «O'zbekiston ovozi» gazetasi, 2001-yil, 6-noyabr
14. Karimov I. A. Bizning bosh maqsadimiz- jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir- O'zbekiston demokratik taraqqiyotining yangi bosqichida, T., 2005.
15. Karimov I. A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim- Prezident I. Karimovning 2005- yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2006- yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi, «Xalq so'zi» gazetasi, 2006, 11-fevral.
16. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T., 1999.
17. Avesto- T., «Sharq» matbaa nashriyot kompaniyasi 2001.
18. A. G. Xudakormova Istoriya ekonomicheskix ucheniy. chast-2, Uchebnik, pod. red. M. MGU 1994
19. Abu Ali Ibn Sino. Tibbiyot dostoni, T., 1990
20. Avloniy A. Tanlangan asarlar, T., 1998
21. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud ahloq, T., 1997-yil
22. Alisher Navoiy. Mahbub ul qulub, T., 1993
23. Amir Temur. Temur tuzuklari, T., 1992
24. Amir Temur va Sharq iqtisodiy merosi. (Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy anjuman materiallari. Mas'ul muharrirlar: professor A. Sotvoldiyev va professor Q. Yo'ldashev)
25. Ashurov A. Avestodan qolgan meroslar,- T., 2000-yil
26. Ashurov A. Dunyo dinlari tarixi,- T., 2001-yil

27. Behbudiy M. Tanlangan asarlar,- T., 1998
28. Bozor iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyoti. Akademiklar S. G'ulomov va M. Sharifxo'jayevlarning umumiy tahriri ostida. Darslik, T., «O'qituvchi» 2000
29. Bozor iqtisodiyoti nazariyasi, T., 1993
30. V. A. Jamin. Istoriya ekonomicheskix ucheniy, chast-1, Uchebnik, M. MGU 1989
31. Vsemirnaya istoriya ekonomicheskoy misli, M., 1987
32. Jabborov I. Zardushtning ilk yurti «Xalq so'zi» gazetasi 1994-yil, 29- iyun
33. Jahon iqtisodiyoti. Ma'ruzalar matni., 1994
34. Z. M. Bobur. Boburnoma, T., 1989
35. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi, darslik. T., Moliya. 2002
36. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi, o'quv qo'llanma, T., «Fan», 2003
37. Ibrohimov N. Ibn Battuta va uning O'rta Osiyoga sayohati, T., 1993
38. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti, T., 1996
39. Iskandarov I. Bozor iqtisodiyoti bosqichlari, «Xalq so'zi» gazetasi 1994-yil, 17- mart
40. Yo'ldashev Q. A. Navoiyning iqtisodiy g'oyalari, Iqtisod va hisobot, 1996, 2-soni
41. Yo'ldashev Q. Abu Nasr Forobiyning iqtisodiy qarashlari, - «Andijonnom» 1998, 20- noyabr.
42. Yo'ldashev Q. Ibn Sinoning iqtisodiy qarashlari, - «Andijonnom» 1998, 3- noyabr
43. Yo'ldashev Q. Yusuf Xos Hojibning iqtisodiy qarashlari, - «Andijonnom» 1998, 31- dekabr
44. Yo'ldashev Q. Bozor iqtisodiyoti: mohiyati, tuzilishi va vazifalari, A., 1993.
45. Yo'ldashev Q., Muftaydinov Q. Amir Temurning iqtisodiy qarashlari, «Andijonnom» 1999, 28-may
46. Yo'ldashev Q., Muftaydinov Q. Iqtisodiy ta'limotlar tarixidan, T., 2000
47. Yo'ldashev Q., Muftaydinov Q. Sharq iqtisodiy ta'limotlar tarixi, T., 2002
48. Yo'ldashev Q., Muftaydinov Q. Iqtisod ilmi asoslari, A., 1996
49. Yo'ldashev Q., Iqtisodiy bilim asoslari, 2-nashri. T., 1999
50. Yo'ldashev Q., Muftaydinov Q. Iqtisodiy bilim asoslari A., 1996
51. Yo'ldashev Q., Muftaydinov Q. Mirzo Bobur iqtisodiy qarashlari, O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2000, 5-soni
52. Yo'ldashev Q. va boshqalar Iqtisodiyot asoslari, -T., 2002
53. Karimov R. K., Karimova T. A. Milliy model muammolari T., 1993
54. Keynes Dj. M. Obshaya teoriya zanyatosti protsenta i deneg, M., 1987
55. Qodirov A. Iqtisodiy nazariya. T, 2001
56. Kurs ekonomicheskoy teorii. Ucheb. pos. 1993
57. Makkonel K. R. Bryu S. L. Ekonomiks M., Respublika 1992
58. Merkantilizm – M. 1955-yil
59. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushunchalar va tamoyillar,-T., 2000-yil
60. Muhammadjonov A. Temur va temuriylar saltanati, T. 1994
61. Muhammad Ali. Ulug' saltanat. T., 2002

62. Nizom ul-Mulk. Siyosatnoma. T., 1997
63. Razzakov A. Zardushtning o'ng va chap qo'li. «Ishonch», 1998, 21- aprel.
64. Razzakov A. Ulug'bek va islohotlar, «Ishonch», 1999-yil 19-may.
65. Razzakov A. Bozor iqtisodiyoti beshigi. «Iqtisod va hisobot», 1994, 7-8 soni.
66. Razzakov A. Boy merosimizni o'rganaylik, «Iqtisod va hisobot», 1993, 3-soni
67. Razzakov A. Moziyga qarab ish tutish. «Hayot va iqtisod», 1992, 3-soni.
68. Sobirov X. Fitratning iqtisodiy qarashlari. «O'zbekiston ovozi», 1997, 23-oktyabr
69. Sulaymonova F. Sharq va G'arb, – T., 1997-yil
70. To'xliyev N. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti, T., 1998
71. Forobiy A. Fozil odamlar shahri, T. 1990
72. Fitrat A. Hind sayyohining sayohati,- T. «Sharq yulduzi» jurnali, 1992, №8
73. Xeylbroner R. Ekonomika dlya vsekh. Novosibirsk. «Ekor», 1994
74. Xomidiy X. Avesto fayzlari,-T., 2001-yil
75. Xomidiy X. Ko'xna Sharq darg'alari,- T., 1999-yil
76. Cho'lpon A. Kecha va kunduz. Roman. Asarlar, 2 jild. T., 1993-yil
77. Cho'lpon A. Do'xtur Muhammadiyor. Asarlar, 2-jild, T, 1993.
78. O'zbek pedagogikasi antologiyasi, 1-jild, -T., «O'qituvchi», 1995
79. O'zbekim, Zvezda Vostoka jurnali kutubxonasi. T., 1992.
80. O'zbekiston Respublikasi. Milliy Ensiklopediyasi, T., 1998
81. O'lmasov A., Sharifxo'jayev M. Iqtisodiyot nazariyasi, T., 1995.
82. Ekonomicheskaya teoriya. Pod. red. S. Gulyamova, T., «Sharq», 1999
83. Yusuf Xos Hojib. Qutadgu bilig, T. 1990

KIRISH	3
I bob. «IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI» FANI PREDMETI VA UNI O'RGANISH USHLUBLARI	5
«Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fanining iqtisodiy fanlar tizimidagi o'rni va predmeti	5
«Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fanini o'rganishning zaruriyati, ahamiyati va vazifalari	6
«Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fanining o'rganish uslublari	7
II bob. «AVESTO» NING IQTISODIY G'OYALARI	
O'zbekiston – ilk iqtisodiy ta'limotlar Vatani	11
Ezgulik va iqtisodiyot birligi g'oyasi	12
«Avesto» dagi mulkiy munosabatlar g'oyasi	16
Kredit munosabatlari g'oyasi	18
Yaratuvchilik (ishlab chiqarish)-eng ezgu amal	21
Mehnat va mehnat taqsimoti g'oyasi	24
III bob. QADIMGI DUNYO IQTISODIY TA'LIMOTLARI	27
Qadimgi Misrdagi birinchi iqtisodiy g'oyalari	27
Qadimgi Hindiston iqtisodiy ta'limotlari	29
Qadimgi Xitoy iqtisodiy ta'limotlari	30
Qadimgi Gretsiya iqtisodiy ta'limotlari	33
Qadimgi Rim iqtisodiy qarashlari	37
IV bob. ISLOM DINI IQTISODIY QADRIYATLARI	42
«Qur'oni karim»ning iqtisodiy qadriyatlari	43
«Hadislar»dagi iqtisodiy qadriyatlar	47
«Muxtasar» asarining iqtisodiy g'oyalari	49
V bob. UYG'ONISH DAVRI O'RTA OSIYONING IQTISODIY G'OYALARI	54
Abu Nasr Forobiyning iqtisodiy g'oyalari	54
Abu Ali ibn Sinoning iqtisodiy g'oyalari	57
Abu Rayhon Beruniyning iqtisodiy ixtirosi	58
Yusuf Xos Hojibning iqtisodiy g'oyalari	59
Nizom-ul-mulkning iqtisodiy qarashlari	61
VI bob. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI IQTISODIY TA'LIMOTLARI	68
Amir Temurning iqtisodiy tafakkuri	68
Mirzo Ulug'bekning iqtisodiy islohotlari	70
Alisher Navoiyning iqtisodiy dahosi	71
Zahiriddin Muhammad Boburning iqtisodiy g'oyalari	73
Ibn Xalidning iqtisodiy qarashlari	76

VII bob. MERKANTILIZM VA FIZIOKRATLAR IQTISODIY	
TA'LIMOTLARI	85
Merkantilizm siyosiy iqtisoddagi birinchi ilmiy maktab	85
Fiziokratlar iqtisodiy qarashlari	90
Merkantilizm va fiziokratlar iqtisodiy ta'limotlarining iqtisod ilmi rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati	94
VIII bob. KLASSIK SIYOSIY IQTISOD	99
Klassik iqtisodiy maktab vujudga kelishining tarixiy shart- sharoitlari	99
Pyer Buagilberning iqtisodiy g'oyalari.	102
A. Smit iqtisodiy ta'limoti.	103
D. Rikardoning iqtisodiy ta'limoti.	109
IX bob. MARKSISTIK IQTISODIY TA'LIMOTI	115
Marksistik iqtisodiyot nazariyasi vujudga kelishining tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari.	115
Marksizm iqtisodiy ta'limoti tizimi	116
V. I. Leninning iqtisodiy qarashlari	118
Marksizm iqtisodiy ta'limotining tarixiy taqdiri.	119
X bob. MARJINALIZM TA'LIMOTI	123
Marjinalizm ta'limotining mohiyati. Avstriya iqtisodiy maktabi ta'limoti.	123
Kembrij iqtisodiy maktabi. A. Marshall ta'limoti	126
Amerika iqtisodiy maktabi J. B. Klark ta'limoti.	128
XI bob. KEYNS TA'LIMOTI. YANGI KEYNSCHILIK.	132
J. M. Keynsning iqtisodiy ta'limoti. Umumiy bandlik, va samaradorlik haqidagi qarashlari	132
Multiplikator nazariyasi.	135
3. Yangi keynschilik. Akselyator nazariyasi. Postkeynschilik qarashlari.	136
XII bob. MONETARIZM NAZARIYASI. SOTSIAL—INSTITUT- SIONALIZM VA LIBERALIZM TA'LIMOTLARI	140
Monetarizm nazariyasi.	140
Sotsial-institutsionalizm ta'limoti.	143
Liberalizm ta'limoti	147
XIII bob. XIX ASR OXIRI- XX ASR BOSHLARI O'ZBEK	
MILLIY IQTISODIY TAFAKKURI	152
Iqtisod ilmini o'rganish zarurligi g'oyasi	152
Raqobatchilik muhiti va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish omillari haqidagi fikrlar.	154
«Ihroj va a'mol san'ati» - milliy iqtisodiyot tarkibini o'zgartirish omili	155
Agrar soha samaradorligini oshirishga oid fikrlar	156

Savdo-tijorat ishlarini ilmiy asosga qurish haqidagi fikrlar	157
Xorij texnika-texnologiyasi, sarmoya va tajribasini jalb etish-milliy taraqqiyotning kuchli omili	159

XIV bob. XXI ASR BO'SAG'ASIDA O'ZBEKISTONNING IQTISODIY TA'LIMOTI (PREZIDENT ISLOM KARIMOV- NING IQTISODIY KONSEPSIYASI)	164
O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishi	164
Bozor iqtisodiyotining umumiy tamoyillari	165
Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llarining xilma-xilligi va O'zbekistonning o'ziga xos va mos yo'li ta'limoti	167
Bozor iqtisodiyotiga o'tishning besh tamoyili.	170
Doimiy rivojlanib va boyib boruvchi ta'limot	174
Iqtisodiy konsepsiyaning yangi jihatlari	175
ADABIYOTLAR	182

**Q. Yo‘ldoshev, Q. Muftaydinov,
V. Abdurahmonov**

IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI

Muharrir	Sh. Xudoyberdiyeva
Texnik muharrir	M.Olimov
Sahifalovchi	D. Abdusattorov

**Bosishga ruxsat etildi 4.07.06. Qog‘oz bichimi 60x84. $\frac{1}{16}$
Hisob nashr tabog‘i 11,8. b.t Adadi -2000 nusxa.
Buyurtma 111**

**«IQTISOD-MOLIYA» nashriyoti,
700084, Toshkent, H. Asomov ko‘chasi, 7-uy.**

Hisob-shartnoma №17-2006

**«FAN VA TEXNOLOGIYALAR» markazining bosmaxonasi
700003, Toshkent, Otmazor ko‘chasi, 17i-uy.**